O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH MUAMMOLARI: NAZARIYA VA AMALIYOT” MAVZUSIDAGI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

TO‘PLAMI



TOSHKENT-2025

КВК-68.4

F-13

“Jamoat xavfsizligini ta’minlashda harbiy xizmatchilarning psixologik o‘zini-o‘zi boshqarish muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025. 356 bet.

Tashkilotchi:	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi
Mas’ul muharrir:	“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi boshlig‘i p.f.b.f.d., dotsent, podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov
Tahrir hay’ati:	leytenant N.U.Zohirov dotsent, Sh.Shakarboyeva

Ushbu konferensiya to‘plamida Jamoat xavfsizligini ta’minlashda harbiy xizmatchi (xodim)larning psixologik tayyorgarligi, harbiy xizmatga psixologik moslashtirish, ularni individual-psixologik xususiyatlariga ko‘ra mos yo‘nalishlarga tayyorlash, harbiy xizmatchilarga psixologik xizmat ko‘rsatish hamda harbiy vatanparvarlik tarbiyaning ijtimoiy-psixologik asoslari bo‘yicha keng jamoatchilik bilan o‘tkazilgan muhokama natijalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

To‘plamda berilgan ilmiy maqolalar va tezislar Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari, Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalari psixologlari, oliy harbiy ta’lim muassaslari professor-o‘qituvchilari, ijtimoiy ish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, kursant va tinglovchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ulligi belgilangan.

©O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025

KIRISH SO‘ZI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i

Assalomu alaykum, qadrli mehmonlar, bugungi konferensiya ishtirokchilari!

Butun jahonda yuzaga kelayotgan bugungi murakkab vaziyat, jumladan, mintaqamizda turli tahdid va xatarlarning tobora kuchayib borayotganligi eng qimmatli boyligimiz – tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini chuqur anglatmoqda.

Mana shunday mas’uliyatli va sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda harbiy xizmatchi va xodimlarning psixologik tayyorgarligi va xizmat vazifalarini bajarishdagi adaptatsiya jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoev ta’biri bilan aytganda: “Jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o‘rtasidagi yo‘qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta’sir va zarbalar bilan bog‘liq ekani ma’lum bo‘lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch hayot sharoitida ham davolash juda murakkab masaladir”.

Aynan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ko‘zda tutadigan qarorlar qabul qilinmoqda.

Bugun O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida o‘tkazilayotgan “Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga adaptatsiya jarayonlari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiya ham aynan mazkur maqsadlar doirasida tashkil etilmoqda.

Ushbu ilmiy-amaliy konferentsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF–27-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 sentyabrdagi PF–371-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi

va jangovar ruhini oshirish” kontseptsiyalari doirasida o‘tkazilayotganligini alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Harbiy xizmatchi (xodim)lar adaptatsiya jarayonida uchrayotgan muammolar, harbiy xizmatchi va xodimlarning psixologik holatiga ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni tahlil qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda zaruriy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi konferentsiyaning asosiy maqsadlaridan biridir.

Qadrli ishtirokchilar! Fursatdan foydalanib, o‘zlarining qimmatli vaqtlarini ayamasdan, bugungi konferentsiyaga tashrif buyurgan va ishtirok etgan Rossiya federatsiyasi Krasnodar universiteti, Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti, Qozog‘iston Respublikasi Pedagogika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Milliy gvardiya Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi, Qo‘qon davlat pedagogika instituti professor-o‘qituvchilari va olimlariga samimiy tashakkur izhor etgan holda, konferentsiyani ochiq deb e’lon qilaman.

ПРАВОВАЯ ПСИХОЛОГИЯ И ПРАВОВОЕ ВОСПИТАНИЕ КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ КУРСАНТОВ

Махмудов Розмет Муратович

Профессор кафедры Воспитательно-психологического обеспечения служебной деятельности Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор педагогических наук, профессор

Имиров Савердин Карлович

Республика Казахстан, г.Астана, Национальный Университете обороны Республики Казахстан, начальник факультета Национальной гвардии, полковник.

Аннотация. В современном обществе, в условиях глобализации и бурного технологического прогресса, важность правового воспитания и правовой психологии в подготовке курсантов становится всё более очевидной. Формирование правовой культуры в военной среде является важнейшим аспектом профессионального становления будущих офицеров, поскольку оно способствует их способности действовать в рамках закона, соблюдать дисциплину и обеспечивать правопорядок в любой ситуации. Правовая психология и правовое воспитание служат основой для формирования сознания, ориентированного на закон, и помогают курсантам развивать навыки самоконтроля, принятия обоснованных решений в условиях стресса, а также укреплять морально-волевые качества.

Курсантам необходимо не только усваивать правовые знания, но и формировать личные убеждения и установки, которые будут служить основой для их правомерного поведения в дальнейшем. В этом контексте комплексный подход, включающий образовательный, воспитательный и практический компоненты, имеет ключевое значение. Исследование правовой психологии и правового воспитания в контексте подготовки курсантов способствует не только повышению правовой грамотности, но и формированию уважения к праву и правопорядку, что является неотъемлемой частью построения правового государства.

Ключевые слова: правовая культура; правовая психология; правовое воспитание; курсант; правосознание; воспитание законопослушного

гражданина; психологические аспекты; комплексный подход; самоконтроль; правовые нормы; морально-волевые качества.

Введение: Современные вызовы, связанные с глобализацией и технологической революцией, требуют пересмотра подходов к правовому воспитанию курсантов. Формирование их правовой культуры основывается на правовой психологии и правовом воспитании, которые обеспечивают эффективное выполнение служебных обязанностей и укрепляют правовое государство. Взаимосвязь права и психологии играет решающую роль в развитии правового сознания, что становится важным фактором профессионального становления курсантов.

Основная часть.

А.М. Столяренко выделяет разные уровни правовой психологии: высокий, средний, низкий и криминальный. Высокий уровень характеризуется соответствием представлениям о правовом государстве и устойчивым правомерным поведением. По мере снижения уровня правовой психологии возрастает несоответствие правосознания требованиям правового государства, что становится причиной правонарушений [1].

Правовое воспитание курсантов включает не только изучение законодательства, но и развитие личной ответственности, понимания справедливости и правомерности поступков. В.В. Сорокин подчеркивает, что правовая психология актуализирует проблему соотношения духа права и буквы закона, предлагая духовно-нравственный подход для преодоления формализма в правоприменении [2].

Правосознание представляет собой представление человека о нормах поведения, своем социальном статусе, правах и обязанностях. Социальные требования, предъявляемые к человеку, формируют его обязанности, соблюдение которых становится моральной потребностью. Правовая психология изучает психологические аспекты правовых отношений, акцентируя внимание на таких понятиях, как социализация, социальная

справедливость, правопослушное поведение, правосознание, ответственность и право.

Правовая психология изучает человека как носителя не только сознания, но и правосознания. Правосознание – это представление человека о нормах и правилах поведения, о своем социальном статусе, своих правах и обязанностях. Социальные требования, предъявляемые к человеку, выступают как его обязанности; их соблюдение является моральной потребностью. Правовая психология изучает психологические аспекты отражения человеком правовых отношений. Для правовой психологии характерны такие понятия, как социализация, социальная справедливость, правопослушное поведение, правосознание, ответственность и право. [3; с.7].

Правовое воспитание определяется как целенаправленный процесс формирования у граждан знаний, навыков и убеждений, необходимых для соблюдения правовых норм. В.Н. Кудрявцев отмечает, что правовое воспитание формирует правовую культуру, включающую знание права, понимание его социальной ценности, уважение к закону и готовность к правомерному поведению [4].

Н.И. Матузов определяет правовое воспитание как деятельность государства и общественных структур, направленную на формирование правосознания через правовую пропаганду, обучение, юридическую практику и самообразование [5; с. 245- 246].

Правовое воспитание курсантов включает:

- обучение правовым нормам и принципам;
- формирование убежденности в необходимости соблюдения законов;
- развитие навыков применения права в повседневной деятельности.

Одной из задач правового воспитания является формирование устойчивого правосознания, учитывающего психологические особенности курсантов. Исследования в области правовой психологии показывают, что успешное правовое воспитание невозможно без учета личностных

характеристик, таких как стрессоустойчивость, дисциплинированность и моральные ориентиры.

Комплексный подход к правовому воспитанию включает:

- Образовательный компонент: изучение военного законодательства, международного гуманитарного права и конституционных норм;
- Воспитательный компонент: формирование уважения к закону через примеры исторических героев и современных лидеров;
- Практический компонент: проведение тренингов, ролевых игр и моделирование правовых ситуаций.

Психологические факторы играют ключевую роль в формировании правосознания и правовой культуры курсантов.

Важнейшими аспектами в правовой психологии, которые напрямую влияют на правовое воспитание, являются:

1. Особенности и специфика воинской службы. Уклад воинской службы, требования воинских уставов, социализация курсантов к воинской службе является в некоторой степени стрессом для юноши, что требует психологической подготовки и устойчивости. Курсантам необходимо научиться работать в условиях стресса, где эмоциональное самоконтролирование становится ключевым.

2. Морально-волевые качества курсанта и индивидуальные особенности. Правильное воспитание требует формирования личных убеждений, которые помогут курсантам не только соблюдать законы, но и оценивать ситуации с позиции справедливости. Психологи и командиры помогают формировать у курсанта мотивацию к законопослушанию, какие преимущества это дает курсанту в целом.

3. Мотивация к соблюдению норм. Важно не только учить курсантов законам, но и развивать у них стремление к соблюдению этих норм через личный пример, наставничество и развитие системы внутренней мотивации.

4. Эмоциональная сфера. Психологи должны работать с эмоциональной сферой личности курсанта, помогая ему осознать и

контролировать свои эмоции. Это важно для того, чтобы курсант мог принимать осознанные решения в сложных ситуациях, не поддаваясь эмоциям.

Таким образом, правовая психология играет важную роль в правовом воспитании и формировании правовой культуры у курсантов, что делает процесс более эффективным. Взаимосвязь права и психологии в правовом воспитании проявляется в том, что правовые знания создают основу для принятия решений, а психологическая готовность соблюдать нормы способствует их реализации. Например, в стрессовых ситуациях курсанты могут проявлять импульсивные реакции, но психологическая подготовка помогает им сохранять правомерное поведение.

Одним из эффективных методов является использование учебных программ, включающих тренировки, ролевые игры и моделирование ситуаций, требующих не только знания законодательства, но и способности к быстрому принятию решений. Это способствует развитию таких качеств, как стрессоустойчивость, самоконтроль и ответственность.

Социализация курсантов также играет значительную роль в формировании их правовой культуры. В условиях военной службы она включает адаптацию к структурированному коллективу, развитие дисциплины, уважения к закону и нормам. Важную роль в этом процессе играют наставники, чьи примеры и руководство способствуют формированию правильных моделей поведения.

Заключение.

Правовая психология и правовое воспитание являются ключевыми элементами формирования правовой культуры курсантов. Их сочетание обеспечивает основу для профессиональной деятельности и способствует укреплению правового государства.

В современных условиях глобализации и технологического прогресса этот процесс требует комплексного подхода и инновационных решений. Формирование правовой культуры курсантов включает правовую грамотность, развитие морально-волевых качеств и психологическую

подготовку, что позволяет не только соблюдать закон, но и применять его в реальных условиях военной службы.

Литература

1. **Столяренко А.М. Энциклопедия юридической психологии. – М.:ЮНИТИ-ДАНА. Под общ.ред.А.М.Столяренко. 2003. 607 с.**

2. ***Сорокин В.В.*** **Правовая психология в системе действия права//Психология и право 2019. Том 9. № 1. С. 111–121 — https://psyjournals.ru/journals/psylaw/archive/2019_n1/97345**

3. **Михайлова В.П., Александрова Л.А., Корытченкова Н.И.// «Юридическая психология [Электронный ресурс]: учеб. пособие / В.П. Михайлова, Н.И. Корытченкова, Л.А. Александрова. – 3-е изд., стер.»: Флинта; Москва; 2013 ISBN 978-5-9765-0124-9**

4. **Кудрявцев. В.Н. Правовое поведение: (репринт издания М., 1982) Монография / Кудрявцев В.Н. - Москва :Юр.Норма, НИЦ ИНФРА-М, 2016. - 287 с.: ISBN 978-5-16-105395-9 (online). - Текст : электронный. - URL: https://znanium.com/catalog/product/752271 (дата обращения: 03.02.2025). – Режим доступа: по подписке.**

5. **Матузов Н.И., Малько А. В. Теория государства и права: Учебник, 7-е изд., испр. и доп. – М.: Изд. дом «Дело» РАНХиГС, 20121.**

HARBIY XIZMATCHILAR PROFESSIONAL ADAPTATSIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Ikmatullayev G‘.Z.,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’milash” kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, p.f.f.d. (PhD), podpolkovnik

Tinchlik va xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan hozirgi davrda harbiy xizmatchilar professional adaptatsiyasini jangovar qobiliyatini ta’minlashning muhim jihati sifatida namoyon bo‘lmoqda. Harbiy xizmat shaxsdan stressga yuqori bardoshlilik, intizomlilik, ekstremal sharoitlarda yordam ko‘rsatish imkonini beradigan professional ko‘nikmalarni tezkorlik bilan egallashni talab etadi. Shu sababli, harbiy xizmatchilar professional adaptatsiyasi jismoniy, psixologik va ijtimoiy omillarni o‘z ichiga olgan murakkabliklarga ega.

Adaptatsiya muammosi avvalo, Qurolli Kuchlar saflariga harbiy xizmatga yangi chaqirilgan va professional faoliyatini yangi turdagi lavozimlarda davom etiradigan harbiy xizmatchilarda o‘ta dolzarb hisoblanadi. O‘zgaruvchan xizmat sharoitlariga yetarli darajada tayyorgarlikning mavjud emasligi, axloqiy-ruhiy bardoshlilikning susayishiga olib kelishi, bu esa harbiy xizmatchining professionalligiga salbiy ta’sir ko‘ratishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarning professional faoliyatga adaptatsiyasi muammosi turli fanlar obyekti sifatida o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, harbiy xizmatchilarning professional adaptatsiyasini V.V.Morozov, V.P.Levkovich, V.A.Shepellar psixologik nuqtai nazardan tadqiq etishgan. Ular o‘z tadqiqotlarida adaptatsiya jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi stress omillari, hissiy-irodaviy sifatlar, psixologik bardoshlilikning psixologik mexanizmlarini o‘rganishgan.

G.N.Serdyukov, YE.A.Klimov va N.V.Samuokinlar harbiy xizmatchilar adaptatsiyasiga ko‘maklashuvchi pedagogik texnologiyalar, ustoz-shogirdlik trening dasturlarini o‘z ichiga olgan o‘quv kurslarini ishlab chiqishgan. Ularning fikricha, harbiy xizmat faoliyatiga adaptatsiya ijtimoiy vaziyat va muvaffaqiyatga bog‘liq.

Ilmiy adabiyotlarning tahliliga ko‘ra, olimlar adaptatsiyani o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib, uchta turga bo‘lingan holda o‘rganishadi:

1. Fiziologik adaptatsiY.

2. Psixologik adaptatsiY.

3. Ijtimoiy adaptatsiY.

1. Fiziologik adaptatsiya – adaptatsiya jarayonining nisbatan ko‘proq o‘rganilgan jihati hisoblanadi. Harbiy xizmat sharoitida organizm muayyan jismoniy, iqlimiy va hattoki kimyoviy yuklamalarga duch keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tayyorgarlik darajasi va jismoniy abjirlik adaptatsiya jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, Kuznetsovning ekstremal yuklamalar aksincha, surunkali stress va kasbiy so‘nishga olib kelishi mumkin, degan fikrlari an’anaviy hisoblangan jismoniy tayyorgarlik usulini shubha ostiga qo‘yadi.

2. Psixologik adaptatsiya – adaptatsiya jarayonining bahsli jihatlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, psixologik tayyorgarlik dasturlari va harbiy psixologlar tomonidan qo‘llab-quvvatlashlar stress va havotirlanish darajasinining sezilarli ravishda pasayishiga xizmat qiladi. Biroq, bunday fikrga qarama-qarshi ravishda psixologik adaptatsiyaga meyoridan ortiq e’tibor qaratish harbiy xizmatchi jangovar shayligining susayishiga olib kelishi mumkinligi, masalan, yuqori hissiy ta’sirchanlik reyal jang sharoitida nobarqarorlashtirish omili bo‘lishi mumkinligi xususidagi qarashlar ham mavjud.

3. Ijtimoiy adaptatsiya – harbiy xizmatchilar adaptatsiya jarayonida harbiy jamoa ichidagi o‘zaro munosabatlar, oilalarni qo‘llab-quvvatlash va harbiy xizmatni tamomlagandan keyingi jamoatchilik ishlarining integratsiyasini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli omillarni qamrab oladi. Romanov harbiy jamoalar jipsligini ta’minlash ijtimoiy adaptatsiyaning eng samarali usuli, deb hisoblasa, Fyodorov fuqarolik jamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlashlar va harbiy xizmatdan so‘ng maxsus dasturlar asosida qayta moslashtirish ijtimoiy adaptatsiyada muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Bunday qarashlardan kelib chiqib, harbiy intizom va individual adaptatsiyani qay tarzda muvozanatlashtirish mumkinligi haqida savollar tug‘iladi.

Harbiy xizmatchilar adaptatsiyasi muammosi bilan bog‘liq turli tadqiqotlar turli xil hal qiluvchi omillar mavjudligini ko‘rsatadi. Ularning ayrimlari individual o‘ziga xoslikka urg‘u bersa, boshqalari ijtimoiy muhitga, yana bir guruhi majmuaviy yondashishga e’tibor qaratadi. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda fiziologik va psixologik jihatlardan kelib chiqib, adaptatsiya jarayonida qanday usullar nisbatan ko‘proq samarali ekanligini aniqlashga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq. Barcha toifadagi harbiy xizmatchilar uchun foydali bo‘ladigan adaptatsiyaning universal modelini yaratish mumkinmi, degan savolga javob topish zarur.

V.V.Chelisheva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar[1] asosida harbiy xizmatchilar adaptatsiya jarayoniga ijobiy ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillar aniqlangan. YE.N.Gudkovaning tadqiqotlari esa, harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatdan so‘ng jamiyatdan ijtimoiy chegaralanganligi va qiyinchiliklari muammolariga bag‘ishlangan[2]. A.V.Pavlov va L.A.Semyonovalar[3] o‘z tadqiqotlari harbiy xizmatchilar adaptatsiyasi va psixologik tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan aniq metodikalar va usullarni o‘rganishgan.

Harbiy xizmatchilar adaptatsiyasi muammosi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlardan M.I.Kuznetsovaning ishlari ahamiyatga molik. Olim harbiy xizmatchilar adaptatsiyasi jarayonida komandir va bo‘ysunuvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini yoritib berishga harakat qilgan. Bu borada barcha darajadagi xizmat pog‘onalarida psixologik yordamni joriy etish muhimligiga e’tibor qaratadi[4]. Darhaqiqat, harbiy xizmatchilar professional adaptatsiyasi jarayonida komandir va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Sababi, komandir va bo‘ysunuvchining o‘zaro bir-birini tushunishi, bir-biriga g‘amxo‘rligi bu boradagi jarayonning samaradorligiga xizmat qiladi.

[1] Челышева В. В. Психологическая адаптация военнослужащих к условиям службы. М.: Наука. 2017.
[2] Гудкова Е. Н. Социальная адаптация военнослужащих: проблемы и пути решения. Санкт-Петербург: Политехника. 2020.
[3] Павлов А. В., & Семёнова Л.А. Психологическая подготовка военнослужащих в условиях современной армии. М.: Военная школа. 2019.
[4] Кузнецова, М. И. Роль командования в процессе адаптации военнослужащих. Журнал "Психология и армия", № 4, с. 25–30. 2018

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash zarurki, harbiy xizmatchilarning professional adaptatsiyasi individual, ijtimoiy, tashkiliy va ruhiy-hissiy omillarga bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarning professional adaptatsiyasi samaradorligini oshirish uchun mazkur omillarni inobatga olish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik yordam sohasida o‘qitishning innovatsion usullarini faol tadbiq etib borish zarur sanaladi. Harbiy xizmatchilarni har tomonlama va to‘la qo‘llab-quvvatlash ularning nafaqat professional faoliyati samaradorligiga, balki ruhiy-hissiy salomatligini saqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Челышева В. В. Психологическая адаптация военнослужащих к условиям службы. М.: Наука. 2017.

2. Гудкова Е. Н. Социальная адаптация военнослужащих: проблемы и пути решения. Санкт-Петербург: Политехника. 2020.

3. Павлов А. В., & Семёнова Л.А. Психологическая подготовка военнослужащих в условиях современной армии. М.: Военная школа. 2019.

4. Кузнецова, М. И. Роль командования в процессе адаптации военнослужащих. Журнал "Психология и армия", № 4, с. 25–30. 201

ЎЗ-ЎЗИНИ ТАРБИЯЛАШ – ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРДА ПСИХОЛОГИК ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Саипова Малохат Латиповна,
психология фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети

Замонавий мутахассис учун ўзини ўзи бошқариш кўникмалари ўз-ўзини назорат қилиш, ўзини ўзи баҳолаш, ўзини ўзи уюштириш ва умуман, фаолиятнинг рефлексив табиатини асосий фазилатлари ҳисобланади. Ўз-ўзини бошқариш мустақил, фаол, ижодий фаолият жараёнида муваффақиятли шаклланади. Мустақиллик, фаоллик, ижодкорлик даражаси қанчалик юқори бўлса, ўзини ўзи бошқариш даражаси ҳам шунчалик юқори бўлади.

Ҳарбий хизматчиларнинг асосий хислатлари орасида ҳарбий-касбий йўналганлик алоҳида ўринни эгаллайди. Унинг компонентлари қуйидагилардан иборат бўлиши мумкин [3]:

- субъектив;

- меъёрий-қадриятли;

- прогностик;

- касбий фаоллик.

Субъектив компонент шахснинг жараёндан қониқиш даражасини, олдида турган хизмат вазифаларини ҳал қилиш натижаларини, ҳарбий касбнинг инсон талабларига, унинг мойиллигига мувофиқлигини акс эттиради.

Норматив-қадриятли компонент ҳарбий хизматчилар томонидан танланган касбнинг нормалари, қоидалари, қадриятларини ўзлаштириш, унинг ижтимоий аҳамиятини англаш даражасини кўрсатади.

Прогностик компонент аниқлаштирилган “Мен касбдаман” идеалининг, унга эришиш бўйича касбий ўсиш дастурларининг мавжудлигини тавсифлайди.

Ҳарбий-касбий фаоллик касбий муаммоларни ҳал қилиш, жараённинг бошқа иштирокчилари билан мулоқот қилишга интилишда намоён бўлади.

Ҳарбий-касбий хислатларни шартли равишда қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:



*Маънавий хислат*ларга ғоявий-маънавий ва ахлоқий-маънавий ислатларни киритиш мумкин, хусусан:

- ватанпарварлик, Ватанга муҳаббат;
- ҳарбий бурчга содиқлик;
- ҳарбийлик касбига садоқат;
- ҳақгўйлик;
- принципиаллик.

Интеллектуал хислатлар:

а) аборотга оид (интеллектуаллилик, эрудиция);

б) процессуал (зеҳни ўткирлик, топқирлик, эътиборлилик).

Коммуникатив хислатлар:

а) этик (эзгулик, меҳрибонлик, хушмуомалалик);

б) процессуал (киришимлилик, мулоқотчанлик).

Иродага оид хислатлар ҳарбий хизматчини ўз фаолияти, хулқ-атворини идора қилишга қодир инсон сифатида тавсифлайди. Уларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- фаоллик;
- мақсадга интилувчанлик;
- қатъийлик;
- эсанкирамаслик;
- ўзини тута билиш;
- масъулиятлилик, интизомлилик;
- саботлилик;
- мустақиллик, ташаббускорлик;
- меҳнатсеварлик;
- саранжом-саришталик;
- дадиллик, қатъият;
- жасурлик;
- бардошлилик.

Ҳарбий хизматчилар ўқиш ва хизмат давомида қуйидаги хислатларни етарлича ривожланишига эришишлари даркор:

- ҳарбий касбга садоқат;
- ор-номус, қадр-қиммат туйғуси;
- масъулиятлилик;
- ташаббус;
- мустақиллик;
- интизомлилик

Буларнинг барчаси ҳарбий хизматчиларда ўз-ўзини тарбиялашни ривожлантириш асосини ташкил этади. Ўз-ўзини тарбиялаш – бу, аввало,

инсоннинг нафақат ўзига нисбатан шахсий фаоллигининг ўзгариши, балки ташқи дунёга нисбатан фаоллигининг ўзгаришидир. Демак, бундан келиб чиқадики шахснинг ўз-ўзини тарбиялаши уюштиришдаги муҳим вазифа – бу уни ташқи дунёга нисбатан фаол позицияга қўйиш, вазиятни ва ўз-ўзини ўзгартириши бир бўғинга бирлаштиришни тақозо этаркан.

Ўз-ўзини тарбиялаш, бир томондан, шахснинг жамоа ва жамият билан алоқасига ижтимоий хизмат қилади, бошқа томондан, ўзини ўзи бошқаришни рағбатлантирадиган барқарор ички ақлий ўзини ўзи бошқаришни таъминлайди. Шу билан бирга, у шахснинг ижтимоий функцияларини индивидуаллаштиришни амалга оширади. Масалан, жисмоний ривожланиш инсоннинг яшаш қобилиятини ва унинг ижтимоий фаолияти самарадорлигини оширади. Айни вақтда ўз-ўзини жисмоний жиҳатдан мукаммаллаштириш ўсиб бораётган одам учун унинг ўз-ўзини тасдиқлаши, унинг бошқа куч ва қобилиятларини ривожлантиришнинг асосий шартларидан бири сифатида зарурдир. Шунинг учун ўз-ўзини тарбиялаш шахс психикасининг эришилган ривожланишини акси сифатида, унинг “ўз-ўзидан ҳаракатда бўлиши” сифатида юзага чиқади.

Шу позициядан келиб чиққанча ўз-ўзини тарбиялаш – бу шахснинг ўзи ўзига устоз ролини бажарадиган “Мен” ининг барча жиҳатларини онгли, мақсадли ўзгартириш жараёни ҳисобланади. Бунда ўз-ўзини тарбиялаш қуйидаги функцияларни бажаради: ўз имкониятларини, хусусиятларини билиш; ўз истиқболларини аниқлаш; ҳаётда қўйилган мақсади ва ўз-ўзини мукаммаллаштириш мақсадига мувофиқ ижобий фазилатларни шакллантирадиган турмуш тарзини ташкил этиш; ўз-ўзини назорат қилиш ва ўз-ўзини баҳолаш, яъни ўзи устида ишлаш натижаларини баҳолаш; хулқ-атвор ва фаолиятдаи ўз-ўзини коррекциялаб бориш; ҳаётнинг янги мақсадларини илгари суриш ва ўз-ўзини такомиллаштириш.

А.В.Барабаншиков [1] ва бошқа ҳарбий педагоглар томонидан ўз-ўзини тарбиялаш – ўз-ўзини интизомга бўйсундиришнинг энг юқори ифодаси бўлиб, ҳарбий хизматчининг ҳарбий интизом талаблари мазмунини ташкил этувчи

ахлоқий-ҳуқуқий меъёрларини бажариш жараёнини назорат қилиш ва баҳолаш қобилияти сифатида қаралади. Ўз-ўзини тарбиялаш шахсий ва жамоатчилик манфаатларининг бирлигини онг ривожланишининг шундай даражасида тушунишга асосланадики, бунда жамиятнинг ҳарбий хизматчига ҳарбий интизом талабларида ифодаланган талаблари эркин ахлоқий танлов натижасида ички ишонч билан бажарилади. Ўз-ўзини тарбиялаш – интизомлиликнинг энг юқори намоён бўлиши сифатида ўзида мураккаб ҳодисани, ҳарбий интизом талабларини бажариш бўйича ижодий, ташаббускор ҳаракатларда намоён бўладиган ҳарбий хизматчининг онгли бўйсуниши ва фаоллигининг диалектик бирлигини акс эттиради. Ўз-ўзини тарбиялаш ҳарбий хизматчининг ўзини онгли равишда бошқариши, ўзига ўз вақтида буйруқ бера олиши қобилиятини, яъни ўзининг хатти-ҳаракатларини онгли яратувчиси бўлиш қобилиятини назарда тутади.

Психик жиҳатдан ўзини ўзи бошқариш ўзини ўзи тарбиялашга асосланган жараён бўлиб, соғлом одам томонидан профилактика мақсадида амалга ошириладиган ўз психик функциялари ва ҳолатига таъсир кўрсатиш усуллари ва йўллари мажмуидир. Шу нуқтаи назардан ҳарбий хизматчиларда ўзини ўзи бошқаришнинг қуйидаги тамойилларига амал қилиш ўринли бўлади, деб ҳисоблаймиз:

– ўзгаришлардан қўрқмаслик тамойили ўзгаришларга, шу билан бирга, ижобий ўзгаришларга интилишни шакллантиришга йўналтирилган;

– устуворликлар ва мақсадларни белгилаб олиш – муаммоларни аниқлаш ва ҳал қилиш, уларга эришишга интилиш;

– ўзига ишонч, қўйилган мақсадларга эришишда зарурий хислат;

– ўзига ачинмаслик. Ўзига ниҳоятда раҳм-шафқат қилиш ҳар доим натижага салбий таъсир кўрсатади ва мақсадга эришишни тормозлайди;

– ирода кучини намоён қилиш. Бу шахсга ўз ички ҳолатини бошқаришга имкон беруви етарлича чуқур ва улкан феъл-атвор чизиғи;

– ўзини тута олиш. Бу ташқи кўриниш, жисмоний ҳолат, хулқ-атвор қилиқлари, турмуш тарзи билан боғлиқ;

– дарҳол ишга киришиш. Ўйлаганларини зудлик билан ҳаётга татбиқ қилиш тамойили;

– ўзини назорат қилиш (ўз-ўзини назорат қилиш). Ҳар қандай вазиятда ўзини назорат қила олиш ижобий натижаларга олиб келади, чунки бу ҳар қандай вазиятда оқилона қарор қабул қилиш қобилиятидир;

– ўз вақтини бошқара олиш. Ўз вақтини бошқаришга киришишдан олдин мен ўз вақтимни қаерга ва қандай сарфлаяпман, деган саволга жавоб қилиш керак.

Адабиётлар:

1. Барабанщиков А.В., Коротков Э.Н. Методологические основы советской военной педагогики. – М.: ВПА, 1986.
2. Гамидуллаев Б.Н. Перспективы развития самоуправления психофизиологическим потенциалом личности. //Монография. – Пенза. Изд-во ПГТА. 2008. 218 с.
3. Мацюк В.И., Жуковский Е.А., Каныгин Е.Б. О концепции кадровой политики и развития системы образования в войсках национальной гвардии. // Приоритетные направления развития системы военного образования. / Сборник научных трудов. – Пермь, 2018. С. 8-13.

HARBIY SOHADA AXBOROTNING SALBIY PSIXOLOGIK TA’SIRIDAN HIMOYALANISH MASALALARI

D.M.Mamatkulov

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma’lumki, yaqin tariximizgacha muayyan axborotni olov, tutun, chopar, qushlar, karvon, shimol mamlakatlarida esa, itlar singari vositalar orqali bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib kelingan. Mazkur axborot tashuvchilar tomonidan axborotni belgilangan manziliga yetkazgunga qadar bir necha soat, kun yoki oylar ketgan.

XX asr o‘rtalaridan boshlab muayyan xabar axborot komunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali uzatila boshlandi. XX asrning so‘ngi o‘n yilligida boshlangan AKTning intensiv rivoji telefon, radio, televideniya, internet kabilar bir mamlakat doirasidan chiqib sayyoraviy maqomga ko‘tarilishiga olib keldi. Mazkur

rivojlanish avvalo axborot uzatish tezligiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Endilikda, AKT orqali muayyan axborotni bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazish tezligi 0,6 sekundga yetdi. Mazkur o‘zgarishlar natijasida yo‘ldosh (sputnik) telefoniyasi, yo‘ldosh radiotelevideniyasi, internet hamda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat hayotidan mutloq o‘rin egalladi.

Ta’kidlash kerakki, dunyo taraqqiyoti axborot va uning uzatish bilan bog‘liq quyidagi uch bosqichni bosib o‘tdi. Ular:

1.Ilk, sodda shaklda axborot uzatish davri;

2.Faol axborot uzatish davri;

3.Yolg‘on axborot uzatish davri.

Bugungi kunda insoniyat jamiyati yolg‘on axborot uzatish davriga kirib keldi. Darhaqiqat, hozirda global yoki lokal axborot makonida ishonchli axborotlar ulushidan ko‘ra “fake news” - soxta axborotlar ulushi katta miqdorni tashkil etmoqda.

Davrimizning asosiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, bugungi kunga kelib, an’anaviy bozor va raqobatdan mutloq farq qiladigan yangi bozor va raqobat shakllari vujudga keldi.

Yangi bozorda mahsulot emas, inson e’tibori sotilmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq kompaniyalari (Facebook, “Twitter” yoki “X”, “Telegram”, “Instagram”, “V-kontakte”, “Linkedln” kabilar) aynan shuning uchun ya’ni, odamlarni ekrandan uzoqlashtirmaslik, ularning diqqatini ko‘proq ushlab turish uchun o‘zaro raqobatlashmoqda.

Darhaqiqat, hozirda hech kim ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi sifatida unga pul to‘lamaydi. Lekin, shuni unutmaslik lozimki, iqtisodiyotning asosiy tamoyiliga ko‘ra “Agar kimdir mahsulot uchun pul to‘lamayotgan bo‘lsa, bilinki, uning o‘zi mahsulot hisoblanadi!”.

Ta’kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoq kompaniyalarining uchta asosiy maqsadi mavjud. Ular:

1.Inson e’tiborini tortish va uni ushlab turish. Bu maqsad kishilarni iloji boricha ijtimoiy tarmoqda bo‘lish vaqtini uzaytirishga qaratilgan;

2.Do‘stlarimizni ijtimoiy tarmoqqa qo‘shish va ularga axborot uzatishimizni rag‘batlantirish. Bundan maqsad ijtimoiy tarmoq auditoriyasini kengaytirish va uni yanada rivojlantirish;

3.Ijtimoiy tarmoqdagi axborotlar orasiga mohirona reklama joylash. Bu mazkur sohadagi kompaniyalarining asosiy maqsadi bo‘lib bu orqali o‘z faoliyatlarini monetizatsiya qilishadi.

Shu vaqtga qadar inson shaxsi va psixologiyasi bu qadar kuchli kuzatilmagan va o‘rganilmagan edi. Endilikda axborot gigantlari tomonidan insonning har bir xatti-harakati: ekrandagi rasmga qancha soniya tikilgani, qaysi mazmundagi videolarni ko‘p tomosha qilgani, yozayotgan izoh (komentariy)larining mazmuni va xissiy

dinamikasidan uning ruhiy va intelektual xolatidagi o‘zgarishlar chuqur o‘rganib borilmoqda. Albatta, bu ishni aniq kimdir emas, balki, murakkab algoritmga asoslangan axborot tizimi amalga oshirmoqda.

Shu tariqa ijtimoiy tarmoqlar onlayn aloqa, ayniqsa yosh avlod uchun birinchi o‘ringa chiqqan yangi, vertual dunyoni yaratdi. Bu dunyoda inson fyuchersi (futurus – lotincha kelajak, fyuchers – xali ishlab chiqilmagan mahsulotlarning oldi-sottisi bo‘yicha o‘zaro kelishuv) ya’ni, kelajakdagi istak va ehtiyojlari, oldindan qiladigan xatti-harakatlari sotuvga qo‘yilmoqda. Bu degani hozirgi zamon kishisining istak va ehtiyojlari va amaliy xatti-harakatlari uning o‘ziga emas, ko‘proq axborot gigantlari istaklariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham tarixan o‘z qo‘lidagi narsa-buyum va uskunalarning mutloq egasi bo‘lgan inson endilikda o‘ziga tegishli axborot texnologiyalari (smartfon, kompyuter va turli gejetlar)ning tobesiga aylandi.

Darhaqiqat, mana shunday vaziyat dunyoda gibrid urush jarayonlari uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltirayotganidan dalolat beradi. Ma’lumki, “gibrid urush (inglizcha – hybrid warfare) – hujum qilayotgan tomonning klassik ravishdagi harbiy bosib kirish usulini qo‘llamasdan, yashirin operatsiyalar, qo‘poruvchilik harakatlari, kiber urush hamda dushman hududida harakatlanayotgan nomuntazam, isyonchi guruhlarni qo‘llab quvvatlagan holda o‘z raqibiga bosim o‘tkazish bo‘yicha dushmanlik harakatlari. Bunday holatlarda harbiy harakatlar umuman olib borilmasligi va rasmiy nuqtai nazardan gibrid urushi tinchlik davrida ham olib borilishi mumkin” (3: 77).

Ta’kidlash kerakki, axborotning psixologik ta’siri bilan bog‘liq bugungi murakkab xolat hamda uning ta’sirida yuzaga keladigan gibrid urush tahdidi mamlakatimiz uchun ham begona emas. Bu xolat ayniqsa to‘laqonli hayotiy tajriba shakllanmagan, biroq zamonaviy texnologiyalarga o‘ta qiziquvchan va psixologik jihatdan tobe yoshlar faoliyati orqali yanada xavfli bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga ko‘ra 18 yoshga to‘lgan, harbiy xizmatga yaroqli har bir fuqaro Qurolli kuchlar tizmida o‘z fuqarolik burchini bajarishi majbur etib belgilangan. Afsuski, hozirda axborotning salbiy psixologik ta’sirini kuchayishi natijasida aksariyat mamlakatlar ijtimoiy hayotida hatbiy tizim uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodda mazkur sohaga qishiqishni pasayish tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kundagi axborotning salbiy psixologik ta’siri harbiy tizimda avlodlar almashunuvi masalasini havf ostida qoldirmoqda.

Axborotning salbiy psixologik ta’siri sharoitida birinchi muammo, harbiy tizim uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodni asrash hamda mazkur sohada avlodlar almashunuvi to‘laqonli ta’minlash bo‘lsa, ikkinchi muammo hozirda bevosita muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvidagi harbiy xizmat, konrtakt asosidagi harbiy xizmat, qurolli kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan rezervchilar harbiy xizmatchilari orasida gibrid urush shakllaridan biri bo‘lgan internet, ijtimoiy tarmoq va ayniqsa onlayn azart o‘yinlarga tobelikning ortayotgani hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy tizim davlat va jamiyatni himoyalashga qodir bo‘lishi uchun avvalo, o‘zini axborotning salbiy psixologik ta’siri hamda nostandart shakldagi gibrid urushlardan himoya qilmog‘i kerak. Albatta, bu o‘rinda himoya deganda harbiy tizimdagi klassik shakldagi harbiy arsenalni to‘la qonli harakatga keltirish orqali mudofaani ta’minlash nazarda tutilmaydi. Bu birinchi navbatda axborotning salbiy psixologik ta’siridan himoyalanishni, zarur bo‘lganda milliy manfaat himoyasi yo‘lida gibrid va axborot urushlariga kira olishni nazarda tutadi.

Bizningcha, bugungi axborotning salbiy psixologik ta’siri va gibrid urush shakllari kuchayib borayotgan bir sharoitda harbiy tizimda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, harbiy tizimdagi Oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga kompleks tarzda “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini joriy etish;

Ikkinchidan, harbiy jurnalistika sohasini rivojlantirish. Buning uchun shu soha fuqorolik Oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma fakultetlar ochish va ularda harbiy jurnalist kadrlarni tayyorlash;

Uchinchidan, harbiy kadrlar tayyorlash tizimi uchun “Harbiy jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligini joriy etish hamda yaqin istiqbolda mazkur ixtisoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish;

To‘rtinchidan, harbiy soha (keng xalq ommasi bilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar)ni yoritish uchun blogerlik faoliyatiga imkon berish;

Beshinchidan, gibrid va axborot urushlarining katta ehtimolini hisobga olgan holda harbiy tizimda kiber armiya bo‘linmalarni shakllantirish;

Oltinchidan, kiber armiya bo‘linmalari uchun alohida jismoniy va professional me’yorlar ishlab chiqish. Masalan, jismoniy jihatdan nogironligi bo‘lsada, lekin professional jihatdan kiber armiya bo‘linmasi uchun zarur malakaga ega bo‘lgan shaxslarni harbiy xizmatga olish.

So‘ngi so‘z o‘rnida shuni aytish mumkinki, bundan buyon har bir davlatning harbiy tizimida albatta ikki turdagi bo‘linmalarni tarkib topishi muqarrar. Ularning birinchisi, albatta uzoq yillik rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan klassik shakldagi harbiy arsenal bo‘linmalari bo‘lsa, ikkinchisi zamon talablari asosida shakllantiriladigan gibrid va axborot urushlariga qarshi turuvchi kiber armiya bo‘linmalari hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, harbiy tizimda “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini kompleks tarzda o‘qitish, harbiy jurnalistika va blogerlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, “Harbiy jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda eng asosiysi kiber armiya bo‘linmalarini shakllantirish harbiy tizimni yanada zamonaviylashuvi hamda mudofa sohasini yanada mustahkam bo‘lishini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbarning kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston 2017.

2.Пахрутдинов Ш.И. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. - Т.: Академия, 2006.
3.Самаров Р.С. Ҳарбий атамаларнинг янги изоҳли луғати. Тошкент.: “Инновация-Зиё”, 2020.384-б.
4.Adelstein A.S. Total Propaganda Horn Mass Culture to Popular Culture. – Mahway, N.J. – London, 2021.
5.Семирухин Л.В. Нанотехнологии и сознание // Философские науки. - 2022. - №2.
6.Маматкулов Д.М. Мафкуравий жараёнлар трансформацияси // Монография – Тошкент: «Lesson press» нашриёти, 2023 – 224 б.

ПРАВОВАЯ КУЛЬТУРА КУРСАНТОВ ВОЕННОГО ВУЗА ВАЖНОЕ МОРАЛЬНО-НРАВСТВЕННОЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ КАЧЕСТВО ЛИЧНОСТИ

Имиров Савердин Карлович

Республика Казахстан, г.Астана, Национальный Университете обороны Республики Казахстан, начальник факультета Национальной гвардии, полковник. El.pochta: Imirov67@mail.ru. Tel: +7 (701) 3662446

Аннотация. В современном мире правовая культура является основополагающим элементом формирования профессиональных качеств будущих офицеров. Особенно это актуально в контексте подготовки курсантов военных вузов, где знание законов и правовых норм в совокупности морально-нравственные качества, а также способность принимать обоснованные решения в сложных ситуациях играют ключевую роль. Важность правовой культуры для будущих офицеров невозможно переоценить, ведь она служит основой их деятельности, направленной на поддержание правопорядка и защиту интересов государства и общества. Этот процесс требует комплексного подхода, включающего не только образовательные, но и воспитательные компоненты. В условиях глобализации, технологической революции и постоянно меняющегося правового ландшафта, курсанты военных вузов должны быть готовы к решению задач, которые могут требовать навыков работы с международными правовыми системами, а также знание и соблюдение новых норм в области информационных технологий и киберпространства.

Ключевые слова: правовая культура, правосознание, правовое воспитание, курсант, военный вуз, офицер, международное право, этические ценности, правовая грамотность.

Основная часть.

Правовые традиции в Центральной Азии имеют глубокие исторические корни. На территориях Узбекистана и Казахстана ещё в древности существовали правовые нормы, основанные на обычаях, традициях и религии.

Примером служат Адаты, которые регулировали общественные отношения, подчеркивая важность закона в жизни общества. Батыры, как военные лидеры, служили примером соблюдения нравственных и правовых норм своего времени, что способствовало воспитанию правового сознания у подрастающего поколения.

После обретения независимости Узбекистан и Казахстан активно развивают институты гражданского общества, на основе которых формируется правовая культура. Конституции этих стран подчёркивают важность прав и свобод человека как основополагающих принципов их правовых систем. Сегодня правовая культура является неотъемлемой частью успешного функционирования правового государства.

Президенты Узбекистана и Казахстана подчеркивают необходимость повышения правовой грамотности в своих странах, чтобы противодействовать правовому нигилизму и способствовать развитию правового государства, акцентируя внимание на правовой культуре как основе для реформ и прогресса [3;4;]. Эти высказывания подчёркивают общую стратегию обоих государств, направленную на укрепление правового сознания и развитие правовой культуры общества [5]. Показательным шагом в этом направлении стало открытие 3 декабря 2024 года в Ташкенте Дома прав человека, что символизирует стремление к продвижению культуры прав человека[6].

Эти инициативы демонстрируют готовность обоих стран укреплять правовую культуру и обеспечивать защиту прав граждан на всех уровнях общества.

Таким образом, правовая культура – это важнейший компонент общей культуры, где право и культура в совокупности обеспечивают правовое поведение и деятельность субъектов и объектов отношений в соответствии с существующими правовыми нормами и ценностями.

В современном обществе к военным, а также к курсантам, готовящимся стать офицерами, предъявляются особые требования. Они должны служить примером дисциплины, уважения к законам и профессиональной этике, поскольку от их поведения зависит не только безопасность и стабильность общества, но и доверие граждан к вооружённым силам. Важно понимать, что военный офицер — это не только защитник государства, но и носитель высоких моральных стандартов и правовых норм. Это особенно актуально в условиях демократизации и усиления роли права в жизни общества.

Правовая культура является важным элементом формирования профессиональных качеств будущих офицеров. Современный офицер в условиях глобализации должен уметь работать с многообразием правовых систем, взаимодействовать с международными организациями и соблюдать нормы международного гуманитарного права. Технологическая революция, в свою очередь, диктует новые правила, связанные с использованием киберпространства и информационных технологий, что требует высокой правовой грамотности. Нарушение законов или игнорирование этических принципов может не только разрушить репутацию офицера, но и создать угрозу

для национальной безопасности. Примером этого служат инциденты в истории, когда действия военных, не соблюдавших этические и правовые нормы, привели к разрушительным последствиям. Поэтому курсанты военных вузов должны быть подготовлены к быстрому реагированию в новых условиях, уважая нормы и ценности международного права.

Курсанты военного вуза, являясь будущими офицерами, должны овладеть не только военными навыками, но и пониманием права как инструмента регулирования общественных отношений. Правовая культура курсантов включает не только знание норм права, но и способность применять их на практике, сохраняя моральные ориентиры и профессиональную этику. Это важнейшее качество, которое помогает им сохранять правопорядок и решать конфликты с уважением к правам граждан.

Правовая культура курсанта[5] - представляет собой важное морально-нравственное и профессиональное качество личности курсанта, ценностное ядро его общей и профессиональной культуры, где совокупность правовых знаний, взглядов, качеств, отношений и поведения, позволяет ему успешно осуществлять правовую деятельность в военной, учебной, служебной и общественной сфере.

Правовая культура — не только знание правовых норм, но и целостная система убеждений и ценностей, формируемая через правовое воспитание и сознание. Военные вузы играют ключевую роль в формировании правовой культуры будущих офицеров. Формирование правового сознания должно быть системным, охватывая как теоретическую подготовку, так и практическое применение норм права в реальных ситуациях. Важно развивать у курсантов уважение к праву, моральные принципы и готовность действовать в соответствии с законом. Любое противоправное действие со стороны курсантов может вызвать негативный резонанс не только в обществе, но и в самом военном коллективе. Это может привести к утрате доверия и уважения со стороны подчинённых, что в будущем может вызвать трудности в управлении личным составом. Неспособность офицера соблюдать правовые и этические нормы может негативно повлиять на его лидерские качества, а также на морально-психологическую атмосферу в подразделении, что приведет к снижению дисциплины и профессионализма.

Как утверждал Конфуций: "Великий человек в государстве — это тот, кто обладает высокой моралью и способен соблюсти закон в любых обстоятельствах". Этот принцип остаётся актуальным и в наши дни. В современном мире необходимо, чтобы будущие офицеры не только обладали теоретическими знаниями, но и демонстрировали примеры уважения к закону и моральным нормам.

Современные вызовы, такие как глобализация, развитие технологий и международное сотрудничество, требуют от будущих офицеров не только глубоких знаний в области права, но и способности адаптироваться к быстро

[5] Авторское свидетельство № 47127 от 7 июня 2024 года, выдан РГП «Национальный институт интелектуальной собственности» МЮ РК.

меняющимся условиям. Например, новые вызовы в области кибербезопасности и использования информационных технологий ставят перед военными новы задачи, требующие понимания международных норм, таких как международное гуманитарное право и нормы ведения войны в цифровом пространстве.

Важным аспектом является подготовка курсантов к взаимодействию с международными организациями и соблюдению норм международного права. Современный офицер должен уметь работать с многообразием правовых систем и принимать участие в миротворческих миссиях, что требует высокого уровня правовой культуры и международной правовой грамотности.

Формирование правовой культуры курсантов военных вузов требует особого внимания, так как это напрямую связано с их будущей профессиональной деятельностью. В условиях, когда армия и другие силовые структуры играют ключевую роль в поддержании стабильности и безопасности государства, важно, чтобы будущие офицеры имели высокую правовую грамотность и четкое понимание своей роли в правовом поле.

Курсантам необходимо не только усваивать правовые знания, но и формировать личные убеждения и установки, которые будут служить основой для их правомерного поведения в дальнейшем. В этом контексте комплексный подход, включающий образовательный, воспитательный и практический компоненты, имеет ключевое значение.

А.А.Лаптев и группа ученых полагают, что правовое воспитание состоит в передаче, накоплении и усвоении знаний принципов и норм права, а также формировании соответствующего отношения к праву и практике его реализации, умений использовать свои права, соблюдать запреты и исполнять обязанности [7]. Процесс формирования правовой культуры должен быть системным и включать учебные, воспитательные и практические элементы. Это включает в себя не только знание нормативных актов, но и развитие уважения к праву, формирование моральных принципов и готовности действовать в соответствии с законом. Важно, чтобы этот процесс был интегрирован в систему образования, что позволяет курсантам понимать значимость правовых норм для социальной гармонии и справедливости. Е.А. Зорченко считает, что перед правовым воспитанием надо ставить комплексную цель по формированию правовой культуры личности: совокупность правовых знаний, убеждений, ценностных ориентации, правомерного и социально активного поведения [8].

Формирование такой культуры требует усилий преподавателей, командиров и всего общества, всех участников процесса – от государственных органов до преподавателей и самих курсантов, а также комплексного подхода, включающего различные аспекты правового воспитания.

Для успешной подготовки курсантов необходимо создать систему, включающую несколько аспектов правового образования:

1. Правовое образование: Курсанты изучают не только законы, регулирующие военную службу, но и основные принципы гражданского

законодательства, международного гуманитарного права и права в сфере информационных технологий.

2. Этические ценности: Воспитание уважения к человеческому достоинству и правам других людей является основой правовой культуры. Это не только способствует развитию личной ответственности, но и формирует у курсантов нравственные ориентиры для профессиональной деятельности.

3. Практическое применение правовых норм: Формирование навыков правоприменительной деятельности, включая умение принимать решения в сложных и непредсказуемых ситуациях, что особенно важно для военных офицеров.

4. Мотивация к самосовершенствованию: Преподавание должно быть направлено на развитие у курсантов устойчивой мотивации к изучению правовых вопросов, стимулируя их к самостоятельному поиску правовых решений и участию в правовых дискуссиях.

Заключение

Правовая культура курсантов — это важнейшее качество, обеспечивающее не только соблюдение законов, но и эффективное выполнение служебных обязанностей в современных условиях. Формирование правовой культуры требует комплексного подхода, включающего образовательные и воспитательные компоненты. В условиях глобализации и технологического прогресса правовая культура будущих офицеров становится ещё более актуальной и необходимой для укрепления правового государства и обеспечения безопасности общества.

Таким образом, правовая культура курсантов — это не просто знание законов, но и способность действовать в соответствии с принципами справедливости, правопорядка и нравственности, что является залогом успеха в их профессиональной деятельности и важным вкладом в укрепление правового государства.

Литература:

1. Конституция Республики Узбекистан. Ст.13
2. Конституция Республики Казахстан. Ст.1
3. Токаев К.К. Выступление на XXXII сессии Ассамблеи народа Казахстана,27 апреля 2023 года. Официальный сайт Президента Республики Казахстан. Акорда. г. Астана. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.akorda.kz/ru-5104524[Дата обращения: 11.01.2024].
4. Мирзиёев Ш. Обеспечение верховенства закона и интересов человека - гарантия развития страны и благополучия народа//Доклад, торжественное собрание, посвящённое 24-й годовщине принятия Конституции Республики Узбекистан. — Ташкент, 7 декабря 2016 г. — URL: https://buxgalter.uz/ru/doc?id=481705_&utm_source=chatgpt.com. — Дата обращения: 26.01.2025.
5. «Дом прав человека» Нового Узбекистана — символ образования, просвещения и культуры в области прав человека. UzDaily.uz. URL:

https://www.uzdaily.uz/ru/dom-i-kultury-v-oblasti-prav-cheloveka/?utm_source=chatgpt.com (дата обращения: 26.01.2025).

6. Азизов Н., Ибрагимов Д., Нематиллаев О. Повышение правовой культуры и правосознания населения в Узбекистане. Журнал «Китай». Ежегодные сессии. 2023.18.12.2023. [Электронный ресурс] www.kitaichina.com Режим доступа: URL:. https://search.app/vFPbMZP1UN3rcfW78 [Дата обращения: 21.11.2024].

7. Лаптев А.В., Ильенко Е.В., Беловолов В.А. Формирование правовой культуры курсантов как педагогическое явление. Cyberleninka.ru. с.233. [Эл.ресурс].-Режим доступа: https //search.app/?link=https%3A%2F%2cyberleninka%2Eru%2. [Дата обращения: 11.05.2024].

8. Зорченко Е.А. Формирование правовой культуры трудящихся. Научная редакция В.П.Казимирчук. -Минск: Наука и техника, 1984. -128с.

HARBIY TEXNIKALARNI BOSHQARISHNI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

B.S.Xamitxonov

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘shinlari qo‘mondonligi qurol-aslaha bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchilar, harbiy bilimlar, texnikalarni boshqarish, xizmat jarayoni

Annotatsiya: Maqolada harbiy bilimlarni oshirish, harbiy texnikalarni boshqarishni o‘rganishda harbiy xizmatchilarning psixologik jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Ключевые слова: военнослужащие, военных знания, управление техникой, процесс службы

Аннотация: В статье рассматриваются психологические аспекты военнослужащих при обучении соверенствованию военной техникой.

Key words: military personnel, military knowledge, equipment management, service process.

Annotation: The article examines the psychological aspects of military personnel in training to improve military knowledge and control military equipment.

Yurtimizda barcha sohalarda yangilanishlar yuz bermoqda. Ularning barchasi sohalarda ijobiy natijasini ko‘rsatmoqda. Professional armiyamizning harbiy salohiyatini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni bunga misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh

Qo‘mondoni Sh.Mirziyoyev o‘z nutqlarida: “Harbiylar xalqimizning ma’naviy yetuk farzandlari bo‘lishi kerak. Buning uchun shaxsiy tarkibning ma’naviy yetukligini, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini yuksaltirish lozim. Siz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz vorislari ekanligingizni doimo his qilib, shunga munosib xizmat qilsangiz, yoshlarimiz vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat tuyg‘ularini sizlardan o‘rganadi” – deya ta’kidlagan edi [1].

Shu asosida mamlakatimizning harbiy – ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta’minlash, qo‘shinlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga yanada ulkan ahamiyat qaratilishi ta’kidlab o‘tilgan. Harbiy xizmatchilarning harbiy-texnik, harbiy-maxsus va jangovar tayyorgarligi tizimli ravishda texnik va jangovar tayyorgarlik bilimlarni o‘zlashtirish va shakllantirish, shuningdek, jangovar topshiriqlarni ishonchli bajarish uchun qurol va harbiy texnikadan foydalanish, ta’mirlash bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish yuzasidan ustuvor vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Harbiy psixolog A.G.Karayani: “Harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda psixologik fazilatlarni shakllantirish, ularning jang maydonidagi faol va samarali harakatlarga psixologik tayyorgarligi va zamonaviy kurash vositalari ta’siriga qarshilik ko‘rsatishni ta’minlashga qaratilgan o‘zaro bog‘liq chora-tadbirlar tizimini aks ettiradi” – deya fikr bildirib, harbiy xizmatchilar, harbiy jamoalarning harbiy texnikalar bilan ishlashda ularning ruhiy holatiga alohida e’tibor qaratish kerakligi haqida ta’kidlab o‘tgan.

Sababi, bugungi kunda yuqori kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun, Qurolli Kuchlar qo‘shinlarida xizmat qilayotgan kontrakt asosidagi harbiy xizmatchi (zirhli transportyor haydovchi)lar tomonidan zirhli transportyorlarni o‘rganish doirasida, jangovar tayorgarlik va haydash kursida to‘liq va sifatli tayyorgarliksiz boshqarishga ruxsat etish mumkin emas.

Haydashga o‘rgatishning asosiy vazifasi – bo‘linmalarni, ekipajlar, mexanik-haydovchilarni zamonaviy jang mobaynida vazifalarni bajarishda, zirhli

transportyorlarni yuksak jangovar texnik imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olishga o‘rgatishdan iborat.

Harbiy xizmatchilarning harbiy sohada tayyorgarlik jarayonida ularning ruhiy holatiga e’tibor qaratish uchun bo‘linma psixologlari bilan ishlarni tashkillashtirish zarur. Zirhli texnikalar, avtomobillardan foydalanishda harbiy xizmatchilardagi fobiyani bartaraf etishga yordam berish kerak. Fobiya – yunon tilidan olinib, vahima, qo‘rquv degan ma’nolarni bildiradi. Har kim nimadandir yoki biror vaziyatdan qo‘rqishi mumkin. Bu kishidagi tabiyiy holat sanaladi [2]. Lekin uning darajasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchilarda bunday holatning yuz berishi birinchidan, jismoniy zo‘riqishning mavjudligidan va texnikani to‘liq anglab yetmaganligi sababli vujudga keladi. Zirhli texnikalardan foydalanishda harbiy xizmatchilarga nazariy jihatlarini chuqur o‘rgatish, yangi interaktiv metodlar orqali ta’lim berish o‘ta muhimdir.

Yuqori amaliy haydash ko‘nikmalarini shakllantirilishi, haydash kursining quyidagi talablari orqali erishiladi:

• ofitser va serjantlarning o‘quv muassasalari shuningdek qo‘shinlarda yuqori professional qilib tayyorlashda uslubiy tayyorgarligi hamda o‘quv mashg‘ulotlaridan unumli foydalanish;

• zirhli transportyorlarni boshqarish(haydash) mashg‘ulotlarini o‘z vaqtida rejalashtirish va o’tkazish;

• zamonaviy simulyatorlar (trenajyor)dan foydalangan holda haydash darslariga sifatli tayyorgarlik ko‘rish va moddiy-texnika bazalarni doimiy ravishda yangilab borish;

• o‘rganuvchilarda amaliy haydashgacha bo‘lgan davrda, zamonaviy simulyatorlar (trenajyor)dan foydalangan holda haydash qoidalari, haydash texnikasi va haydash tezligini mustahkamlash;

• qo‘shinlarda haydash kursning barcha bo‘limlari bo‘yicha haydash mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

• harbiy xizmatchilar bilan haydash mashg‘ulotlarning kirish qismiga psixologik tayyorgarlikni qo’shgan mashg‘ulotlar olib borish;

• zirhli transportyorlarni boshqarishda o‘qitish usullari va talablarga rioya qilish bo‘yicha mashqlarni bajarish shuningdek xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilish zarurdir.

Harbiy xizmatchilar qurol-aslahalar va jangovar texnikalar bilan ishlashda psixologik jihatlarga e’tibor qaratish lozim. Sababi, inson ruhan tayyor bo‘lmas ekan, belgilangan vazifalarni bajarish biroz qiyin kechadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkin, harbiy xizmatchilarning harbiy bilimlarini oshirib borishda, harbiy texbikalardan unumli foydalanishni o‘rgatishda quyidagicha takliflarni bildirib o‘tishni o‘rinli deb hisoblaymiz:

Birinchidan, harbiy qism, bo‘linma psixologlari tashabbuslari bilan muntazam ravishda psixologik treninglar o‘tkazib borish;

Ikkinchidan, malakali mutaxassislarni dars mashg‘ulotlariga jalb etish;

Uchinchidan, mustaqil tayyorgarlik darslari paytida jangovar texnikalar bilan ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar bajarish, soha bo‘yicha yetuk harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda muhim ahamiyat jasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev: Harbiy xizmatchilar xalqimizning ma’naviy yetuk farzandlari bo‘lishi kerak https://president.uz/oz/lists/view/2945
2. Fobiya haqida ma’lumot. https://uz.wikipedia.org
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi harbiy tuzilmalarida g’ildirakli va zirxli transporterlarni xaydash kursi to’g’risidagi yo’riqnomani tasdiqlash to’g’risida”gi buyrug‘i. (2022, 30-dekabr). 564-son.
4. Musulmanov, A. I. (2019). Kursantlarning harbiy-texnik va harbiy maxsus fanlardan tayyorgarligini takomillashtirishning ayrim jihatlari. **O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi xabarlari**, 3(31).

AXBOROT HURUJLARI: «OMMAVIY MADANIYAT» VA «OVERTON TUYNIGI»

Mamatkulov Davlatjon Maxamatjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti dotsenti, Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Maqolada globallashuv va axborot aylanishi jadallashgan bugungi sharoitida yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatayotgan «yumshoq kuch» xarakteridagi «ommaviy madaniyat» va «overton tuynigi» konsepsiyasi tahlil etiladi.

Ma’lumki, «yumshoq kuch – bu boshqalarni siz qo‘lga kiritmoqchi bo‘lgan natijalarni istashga majburlash» demakdir. Biroq bu «ta’sir ko‘rsatishning o‘zi emas... Yumshoq kuch – shunchaki ishontirish, ko‘ndirish yoki, garchi bular bari ushbu kuchning muhim elementlari bo‘lsa-da, dalil-isbotlar yordamida biron ishni qilishga undash qobiliyatidir. Yumshoq kuch, shuningdek, jalb etish qobiliyati hamdir, jalb etish esa, ko‘pincha o‘zaro tushinishga olib keladi. Oddiy qilib aytganda, xulq-atvor ma’nosida yumshoq kuch – jozibador kuch» [7] hisoblanadi. Bunday tahdidlar bir qarashda tahdidligi ham anglanmasdan, beziyon ko‘rinsada aslida xavflilik darajasi bo‘yicha bevosita tahdidlardan ham yuqorida turadi. «Ommaviy madaniyat» aynan mana shunday xarakterdagi tahdidlardan biri hisoblanadi.

Ommaviy madaniyat haqida gap borganda ijtimoiy hayot va ilmiy jamoatchilikda bu xususida ikki xil yondashuv mavjudligini ta’kidlash lozim. Ularning birinchisi «ommaviy madaniyat turli e’tiqodlar va amaliy faoliyat turlarini, shuningdek, aholi keng qatlamlari tomonidan foydalaniladigan madaniy ob’ektlarni o‘z ichiga oladi» [3] singari mazmunida bo‘lsa, ikkinchisi, muayyan millatni ming yillar davomida shakllangan milliy madaniyatiga zid keluvchi, unga muxolif bo‘lgan, aslida madaniyat mezonlariga tushmaydigan anti «madaniyat»ni nazarda tutuvchi yondashuvlar hisoblanadi.

Ikkinchi turdagi yondashuvlarga ko‘ra, «ommaviy madaniyat», tub mohiyatiga ko‘ra, milliy madaniyatning kushandasi bo‘lib, u madaniy plyuralizmni xushlamaydi, uning asl maqsadi – bu olamni bir xil rangda ko‘rish» [4], «ommaviy madaniyat insonni barcha sohalarda, jumladan, madaniyat va dam olish, bo‘sh vaqtini tashkil qilish borasida ham individualligini yo‘qotgan iste’molchiga aylantirib qo‘yadi. Uning iste’mol qilayotgan ma’naviy-madaniy mahsulotlari, san’at asarlari esa standartlashgan, milliy qiyofasiz («pop-art») tovarga aylanadi. Musiqada va ashulachilikda rep, rok kabi janrlar, jangarilik, mistik-fantastik filmlar, trillerlar blokbasterlar fikrmizni tasdiqlaydi. Ommaviy madaniyat niqobi ostida vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladigan turli ijtimoiy harakatlar va guruhlar (xippilar, pranklar, rokerlar hamda geylar (besoqollar) harakati, antiglobalistlar va sh.k.), faxsh va zo‘rovonlikni, vampirlik va jodugarlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, ochiqchasiga pornografik sahnalardan iborat kassetalar, disklar va boshqalar ta’siri esa inson shaxsini emirishga, jamiyatni degumanizatsiya qilishga olib keladi» [1] singari qarashlarni keltirish mumkin.

Bugungi axborot aylanishi jadallashgan va globallashuv sharoitida «ommaviy madaniyat - mafkuraviy urush quroli» [2] sifatida rol o‘ynamoqda. Uning qaynoq urush qurollaridan farqi shundaki, u «yumshoq kuch» shaklida sekin astalik bilan, «madaniyat» niqobi ostida jamiyatimizga kirib kelib, yoshlar ongidagi milliy ruhdagi qadriyatlarga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Ta’kidlash kerakki, «ommaviy madaniyat» yakka tushuncha sifatida qo‘llanilgani bilan u ko‘pdan-ko‘p shakllarda o‘zini nomoyon etadi. Jumladan, uning shakllari sifatida:

– kitch - badiiy-estetik qimmatga ega bo‘lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish;

– vandalizm - madaniy yodgorliklarni, qadriyatlarni vahshiylarcha vayron, oyoq osti qilish, yo‘qotish;

– nigilizm - jamiyatning ma’naviy norma va ustunlari, umume’tirof etilgan tarixiy va madaniy qadriyatlarning inkor etish, shuningdek, ularga nisbatan mutlaqo salbiy, o‘ta tanqidiy munosabatda bo‘lish;

– komiks - tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari;

– starizm - sub’ektiv extiroslarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyor, sportchi va telediktorlarni ideallashtirish;

– xeppining - avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan keskin tomoshalar;

– tatuirovka tushirish - teri ostiga rang yuborib, turli xil shakl va naqshlar chizish;

– bir jinslilar nikohi - erkak va erkak yoki ayol va ayol o‘rtasida oila qurush harakati kabilarni keltirish mumkin.

«Ommaviy madaniyat» amaliyotda yuqoridagi xarakat shakllaridan tashqari butun bir millatning milliy madaniyatiga qarama-qarshi bo‘lgan submadaniyatlarni ham hosil qila oladi. Submadaniyat deganda, muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta’sir qiluvchi ijtimoiy psixologik va g‘oyaviy belgilar (norma, qadriyat, steriotip, did) majmuasi tushuniladi. Submadaniyat - muayyan ijtimoiy guruhga xos bo‘ladi va u jamiyatdagi hukmron madaniyatdan til, kiyinish, odatlar va boshqa jihatlari bilan farqlanadi [5].

Maqolani tayyorlash jarayonida olib borilgan kichik ilmiy izlanishlarimiz xulosalariga tayangan xolda, submadaniyatning turlariga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

– Emolar - submadaniyat ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, shu nomli musiqa yo‘nalishi negizida yaralgan. Uning vakillari noodatiy bezak va kiyimlari bilan ajralib turishadi;

– Gotlar - XX asrning 70-yillarida post-pank talqini ostida paydo bo‘lgan. Gotlarning o‘ziga xos xususiyatlari: maxsus imij, got musiqasiga qiziqish, kiyimlari asosan qora rangda, ko‘proq erkaklarga xos odatlar, tishlari uchli vampirsimon ko‘rinishda bo‘lishi bilan xarakterlanadi;

– Beatniklar - 1950 va 1960 yillarda amerikada shakllangan va dastlab ular amerikaliklarning mumtoz qadriyatlariga, giyohvand moddalar iste’moli, jinsiy erkinlik va anti-materializmga qarshi chiqishgan. Ularning odatiy kiyimi fransuz bereti, quyoshdan saqlovchi ko‘zoynak va qora sviter hisoblanadi.

– Modlar - 1960 yillarda amerikada shakllangan. Kiyinishda erkaklar o‘ziga xos italiyan kostyumidan, ayollar esa mini yubka va etiklardan foydalanishadi. Shuningdek, ular dubulg‘aga o‘xshash sochlari va mototsiklda yurishlari bilan ham ajralib turishadi;

– Hippilar - 1970 yillarda paydo bo‘lishgan. Ular boshqa submadaniyatlardan uzun sochlari va rang-barang kiyimlari, sandal kiyishlari hamda ongni kengaytirish usuli sifatida giyohvand moddalar bilan tajriba o‘tkazishi bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda ular jamoat hayoti, jinsiy inqilob va erkin sevgi g‘oyalarini targ‘ib qiladilar;

– Punklar – 1970 yillarning o‘rtalarida paydo bo‘lishgan. Ular o‘z mafkurasida anarxiya **(**hokimiyatsizlik, beboshlik)ni targ‘ib qiladi. Ko‘rinish jihatidan ular Mohican soch turmagi (*boshning ikkala tomoni oldirilib, markazda sezilarli uzunroq soch yo‘lagi qoldiriladigan soch turmagi*), charm kurtka va qulflangan yoqa bilan boshqalardan ajralib turardi.

Amaliyotda submadaniyatning yana rokchilar - rok-roll kabi musiqa fanatlari, metallistlar - metal nishonlarga ixlos qo‘yganlar, geymerlar - video o‘yin muxlislari, gotiklar - motam va o‘limga talpinuvchi va targ‘ib etuvchilar kabi turlari ham uchraydi.

Submadaniyatlar «ommaviy madaniyat»ning hayotdagi amaliy ko‘rinishi hisoblanadi. Ularning paydo bo‘lishiga jamiyatdagi ichki: mafkurasizlik, jamoaviy ta’sirning yo‘qligi va qarshi kurashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini yaratilmagani sabab bo‘lsa, tashqi tomondan «yumshoq kuch» ta’sir strategiyasiga asoslanuvchi konsepsiyalar sabab bo‘ladi. Mana shunday konsepsiyalarga misol qilib «Overton tuynigi»ni keltirish mumkin.

Ma’lumki, «Overton tuynigi» konsepsiyasi amerikalik olim va psixolog Jozef Overton (01.04.1960 - 30.06.2003) nomi bilan bog‘liq. U o‘z vaqtida insonni noinsoniylashtirish usulini o‘rgangan va qanday qilib qabul qilib bo‘lmaydigan, jirkanch va sharmandali xolatni bosqichma-bosqich tarzda, oddiy, jamiyat va davlat tomonidan qabul qilingan xolatga olib kelish jarayonini tushuntirib bergan.

«Overton tuynigi» konsepsiyasida oltita bosqich mavjud. Ular (1-rasm):



1-rasm. Yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasiga salbiy ta'sir etuvchi «Overton tuynugi» kontseptsiyasining ta's ir strategiyasi

Birinchi bosqich – «Tabu» - jamiyatga butunlay yot bo‘lgan, jamiyat a’zolariga taqiqlangan, o‘ylab ham bo‘lmaydigan narsa;

Ikkinchi bosqich – «Tabu»ni muhokamaga olib chiqish va vaziyatni radikal (radikal – lotincha «radix» ildiz so‘zidan olingan bo‘lib, qat’iy va keskin choralar, harakatlar tarafdori) shaklga keltirish;

Uchinnchi bosqich - radikal vaziyatni maqbullashtirish, yumshatish. Masalan, an’anaviy atamalarning ma’nosini o‘zgartirish. Misol uchun bir jinslilar «nikoh»ini - «ixtiyoriylik, erkinlik tantanasi» atamasiga o‘zgartirish;

To‘rtinchi bosqich - qabul qilingan yangi normani «oqilona ish»ga aylantirish. Masalan, bir jinslilar «nikoh»ini ilmiy, tabiiy, tarixiy, biologik yoki boshqa sabablar bilan asoslash;

Beshinchi bosqich - «oqilona ish»ni mashhur qilish. Ya’ni, o‘tmish yoki hozirda ko‘plab taniqli shaxslar ushbu me’yorning tarafdorlari bo‘lganligini ko‘rsatish;

Oltinchi bosqich – ijtimoiy darajada ommabop bo‘lgan narsani qonuniy mustahkamlab qo‘yish. Masalan, bir jinslilar «nikoh»i tarafdorlarining huquqini himoyalash bo‘yicha qonun qabul qilish kabilar.

Ko‘rinib turibdiki, «Overton tuynigi» konsepsiyasida «tabu» - go‘yo imkonsiz narsa – joizga, joiz – ma’qulga, ma’qul – mantiqiyga, mantiqiy –mashhurga, mashhur – inkor etib bo‘lmas haqiqat (qonuniy)ga aylanadi.

Mazkur konsepsiya tom ma’noda «ommaviy madaniyat» singari mafkuraviy tahdidlarning ishlash prinsipini ko‘rsatib beradi.

Afsuski, jamiyatimizning bugungi g‘oyaviy-mafkuraviy manzara yurtimizda «Overton tuynigi» konsepsiyasi ishlayotgani va buning natijasida yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasida salbiy o‘zgarishlar yuzaga kelayotganini ko‘rsatadi. Chunki hozirgi holat, ya’ni:

– «O‘zini ayollarga o‘xshatib, to‘yma-to‘y yuradiganlarga «parodist san’atkor» nomi berilib, hatto TV ga olib chiqilishi, ularning jirkanch ishlariga «san’at» deb nom berilishi;

– Ba’zi san’atkorlarning transgenderlar bilan iliq munosabatini ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyish;

– Ikki mashhur ayol qo‘shiqchilarimizning bir-biri bilan o‘pishgudek darajada bir-biriga qarata sevgi haqidagi qo‘shig‘iga ishlangan klip;

– Turli shoumenlar tomonidan bachchavozlik haqidagi hazillarning nihoyatda ko‘payib, xalqqa oddiy holdek ko‘rsatilishi, natijada ko‘pchilik bunday hazillarni nafrat bilan emas, kulgi bilan qabul qila boshlagani;

– Ba’zi OAVlarning LGBTlarni himoyalovchi, ularga muxolif bo‘lganlarni qoloqlikda, mutaassiblikda ayblovchi maqolalarni tez-tez e’lon qilib turishi;

– Ba’zi populist blogerlar tomonidan LGBTlarni bevosita yoki bilvosita qo‘llab-quvvatlash, ularga nisbatan tolerant bo‘lishga da’vat qilishning avj olishi;

– Shunday blogerlar jamoasi tomonidan geylikni biologik taqozo, pedofillikni ham normal holat, deb baholaydigan kitobning tarjima qilinib, o‘zbek kitobxonlariga taqdim etilishi»[8] kabilarning mavjudligi shundan dalolat beradi.

Bizningcha, yuqoridagi masalalar «Overton tuynigi» konsepsiyasi bo‘yicha jamiyatimizga «ommaviy madaniyat» kabi mafkuraviy tahdidlar o‘z ta’sirini o‘tkazyotganligining amaliy isboti hisoblanadi. Chunki, yuqorida misol keltirilgan g‘oyaviy-mafkuraviy buzilishlar bundan ellik yoki etimish yil avval ham jamiyatimiz uchun «tabu» (taqiqlangan, o‘ylab ham bo‘lmaydigan narsa) darajasida bo‘lgan. Endilikda esa, bunday narsalarni o‘zaro muhokama qilinayotgani, ba’zilar tomonidan ularning huquqlari haqida qayg‘urilishi jamiyatimizni «Overton tuynigi»ning ayrim bosqichlarini bosib o‘tganidan dalolat beradi.

Maqoladagi tahlillar birinchi navbatda «ommaviy madaniyat» singari mafkuraviy tahdidlarni «Overton tuynigi»ning so‘ngi bosqichigacha etib borishlariga, ya’ni yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib, «mentalitetimizga zid bo‘lgan narsani qonuniy mustahkamlab qo‘yish»larigacha kutmasligimiz zarur, degan xulosaga kelishimizga undaydi.

Buning uchun, mafkura ob’ekti bo‘lgan inson, deb atalmish oliy mavjudotni, jumladan, bugungi kun yoshlarini qiziqishlari, orzu va maqsadlari, umuman olganda ularning hayotiy qadriyatlarini har tomonlama chuqur o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Binobarin, «inson, uning miyasi, aqli shu darajada ko‘p qirrali, xilma-xil, anglash

qiyin bo‘lgan holat va bashorat qilish mumkin bo‘lmagan xazina. O‘zida mujassam etgan beqiyos imkoniyatlari bilan noyob mo‘jiza. Bu muammo juda murakkab va balki, undan ham qiyin bo‘lgan hodisaki, uni fan hali-beri hal eta olmaydi» [6]. Inson mohiyati va uning potensial kuchini yo‘naltirish masalasida fan ojiz bo‘lsa, bu jarayon albatta mafkura tomonidan xal etilishi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa, jamiyat jumladan, yoshlar hayotiga har tomonlama mos keladigan, zamon va makon uchun munosib mafkuraviy mexanizmlarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эркаев А. Маънавият. – Т.: Маънавият, 2011. 215-216 бетлар.
2. Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. – Т.: Ўзбекистон, 2012. –74 б.
3. Мукерджи Ч., Шадсон М. Новый взгляд на поп-культуру. № 3. С. 101.
4. Дворкин А.Л. Сектоведение. - Нижний Новгород, 2002. С. 66.
5. Субкультура // Энциклопедия сотсиологии / Сост. А.А.Гритсанов, В.Л.Абушенко, Г.М.Евелкин, Г.Н.Соколова, О.В.Терещенко. Минск: Книжный Дом, 2003. с. 1312 .
6. Константинов Ф. Современные проблемы философии и задачи философской общественности. «Вапросы философии» 1972, №1 с. 35.
7. Най Дж. Гибкая власт. Как добится успеха в мировой политике. Пер.с англ. – Новосибирск/Москва, 2006. – С. 30-32.
8. **Muqimov** Yo. Fitna nazariyasi chinga o‘xshaydi... https://azon.uz/content/views/fitna-nazariyasi-chinga-uhshaydi

PROFAYLING METODINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYTLARI SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI

Ne’matov Abulfayz Akmal o‘g‘li

Buxoro viloyati qo‘riqlash boshqarmasi PTG psixologi katta leytenant

ANNOTATSIYA:Shaxslararo munosabatlarda profillash xizmatlarining rolining psixologik jihatlarini o'rganish eng dolzarb masalalardan biridir. Biz bilamizki, profillashtirish xizmatlari, ayniqsa, odamning muvaffaqiyati uning malakali muloqot qilish qobiliyatiga bog'liq bo'lganda talab katta bo'ladi. Ha, yoshi va shaxslararo munosabatlarda xizmat ko'rsatish tajribasi bilan hamma qisman fiziognomist psixologga aylanadi

Kalit so’zlar: psixologiya, shaxslararo munosabatlar, profayling

Zamonaviy psixologiyada inson o’zining faoliyati davomida bilim, ko’nikma va malakalaridan tashqari, intellektual, emotsional va irodaviy resurslarini ham safarbar etadi hamda uni boshqaradi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, Profayling

xizmatini shaxslararo munosabatlarda tutgan o’rnini psixologik jihatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bilamizki, profayling xizmati xam insonning muvaffaqiyati uning vakolatli aloqa o'rnatish qobiliyatiga bog'liq bo'lsa, bu bilimlar ayniqsa talabga ega. Ha, profayling xizmatini shaxslararo munosabatlarda tutgan o’rnini yoshi va tajribasi bilan har bir inson qisman fiziognomist psixologga aylanadi. Uning hamkasbining yuzi unda ong osti xavfini yoki aksincha, ishonchni uyg'otishi mumkin. Bu juda ko'p xatolardan so'ng paydo bo'ladigan sezgi qarashlari va bu tajriba uchun qancha yuqori narx to'lashi kerak! Profayling xizmati kimga kerak? Profayling hamma uchun zarur! Psixolog mijoz bilan muloqotning birinchi soniyalarida nimalarga e'tibor berish kerak (so`zlashish tezligi, tashqi ko'rinishi, holati, tafsilotlari, soddaligi, amaliyligi va boshqalar). Bir vaqtning o'zida hamma narsaga e’tibor qilishning iloji yo'qligi aniq, mijoz nimani eshitishni xohlasa bosiqlik bilan aytishi kerak. Axborot haddan tashqari ko'p bo'lgan asrda odamlar takliflarning to'liq ro'yxatini tinglashga tayyor emaslar, shuning uchun ham, qanday qilib odamni birinchi jumla bilan, keyinroq esa aniq va noaniq ravishda bitimga olib boradigan yo`lni bilish kerak? Profayling xizmatidan Savdo bilan shug'ullanadiganlar, sud organida, umuman xamma soxada foydalansa xam ma’qul.

Profayling - bu shaxsning noverbal xatti-xarakatlari va o’ziga xos xususiyatlarini baholash orqali uning harakatlarini haqqoniy baholash, hisoblanadi. Profayling yoki profayl metodi - shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning hulqidagi o’zgarishlarni tashqi ifoda va hatti-harakatlar asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullardan foydalangan xolda oldindan bashorat qilish imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir. Ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Profayling usuli profilaktika inspektorlariga fuqarolar bilan muloqotga kirishgan shaxs haqida ma’lumot olish, havfni oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, profayling usulini profilaktika inspektorlari faoliyatida joriy etilishi kasbiy kuzatuvchanlik, atrof-muhitni tahlil qilish, kishilarning hulqi, shubha uyg`otuvchi alomatlarini aniqlash, xizmat vaqtida fuqarolar bilan yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda samarali hisoblanadi. Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati doirasida ikki jabhada profayling ishlari olib borilmoqda. Birinchisi, kriminal profayling doirasida.

Profilaktika inspektorining profayling metodini o’rganishiga qo’yiladigan talablar:

- vizual psixologik diagnostika asosida shaxsni baxolash texnologiyasini egallash; - xukukbuzarlarning psixologik ta’siriga karshi ta’sir choralarini qo’llash texnikasini egallash;

- favkulodda vaziyatlarda xissiy xolatlarni boshkarish qobiliyatini shakllantira olish;

- ommaning psixologik ta’siriga karshi ta’sir kursata olish kobiliyatini shakllantirish;

- xizmat faoliyatida turli shaxslar bilan psixologik aloka urnatish usullari va texnikasiga ega bulish;

- xulk tipologiyasi va ogzaki portret buyicha xukukbuzar va kidi- ruvda bulgan jinoyatchilarni aniklash kunikmasini x,osil kilish;

- terroristik va ekstremistik yunalishdagi xatarning oldini olish vazifalarini bajarishda tezkor muxim ma’lumotlarni olish malakasini kullash kobiliyatiga ega bulish.

Profayling usullari kullaniladigan holatlar. SHaxslar orasidagi mulokotda berilayotgan ma’lumotning ishonchliligini baxolash. Kursatishicha, xar bir shaxs suzlashish davomida olinaetgan ma’lumotga ishongisi keladi, lekin xar kim xam, uni aldaetganlarida paykagisi kelmaydi. Extiroslar dunesida yashashni xoxlamaydiganlarga profayling usulini bilishlari, raxbar-ishchi, surishtiruvchi-gumon kilinuvchi yeki boshka xoxlaganlar bilan alokada uzatilaetgan ma’lumotni ob’ektiv baxolash imkonini beradi. Profilaktika inspektori tomonidan narkotik moddalarni is- te’mol kilinganligining belgilari amaliy kumak berishi mumkin. Bunday iste’molning bilvosita belgilari universal emas, ammo xar xolda giexvand shaxsni kuchada omma orasidan topishda yerdam beradi.

Agar fakat tashki alomatlarga karaladigan bulsa, ular katta tajri- baga ega giex,vandlarga tugri kelmaydi:

- yeruglik kay darajada bulishidan kat’i nazar, korachiklarning notabiiy torayishi (—tir" narkotiklar - geroin, kokain iste’mol kilinganida) yeki keigayishi (—vgil" narkotiklar iste’molida);

- parishonlik bilan karash;

- iskirt kurinish, sochlarning kurukligi; kul panjasining shish- ganligi; kupincha tishlarning koraygan, uvalangan, -singan" (tunkacha- lar kurinishida)ligi;

- gavdaning bukikligi;

- nutkning tushunarsiz, —uzik'ligi;

- ogizdan alkogol xidi kelmagan xolda besunakay va sekin xara- katlanish;

- ma’murlarga (xokimiyat vakillariga) uchrashishdan kochishga uri- nish;

- ob-xavo va vaziyat kanday bulishidan kat’i nazar, doimo uzun yengli kiyim kiyish (ojiz diagnostik belgi).

Muloqot - bu doimo o’yin. Suxbatdoshning qiziquvchanligini va emotsional holatini baholash, uning uz aytganida turish, aniq ma’lumotlardan qachon foydalanish zarurligi tug’risida aniq tushuncha beradi, bunday vaziyatdan foydalanib, aniq xarakatni amalga oshirishni qo’ldan chikarish mumkin emas. Odamlar to’planadigan joylarda (aeroport, savdo markazlari, tungi klublar va hokazo) niyatni o’zgarishini aniqlash. Agar do’kon yoki tungi klublarda janjal chiqqanida, qurqmasdan urushga

kirgan xodim, yaxshi xodim xisoblanmaydi. Malakali profilaktika inspektori olomon orasidan niyati buzuqlarni aniqlashni va mojaroning asosiy manbaini bartaraf etishni bilishi lozim. Jinoyatchini psixologik profilini tuzish. Bu usul barcha profayling yunalishining bosh mezoni xisoblanadi. Uning vazifasi, profilaktika inspektori tomonidan ma’muriy xududdagi xuquqbuzar shaxs yoki profilaktik xisobdagi shaxslarning profili to’g’risida aniq tushunchaga ega bo’lish xisoblanadi, bu esa profilaktik ishlarning samarasini oshirishga xizmat qiladi. Profilaktika inspektori doimiy ravishda profilaktik suxbatga taklif etilgan fuqaroni noverbal kuzatish orqali idrok etib boradi.





Profaylerning o`rganish ob’ekti sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- mimika;
- jestlar;
- xatti-harakatlarning o`ziga hos xususiyatlari;
- nutqning psixolingvistik qonuniyatlari;
- verbal muloqotning paralingvistik alomatlari va boshqalar.

Xar qanday axborot faqat belgilar, aniqrog`i, belgilar tizimi orqali beriladi.

Psixologiya fani ijtimoiy fanlar tizimida nisbatan navqiron, lekin juda tez rivojlanib borayotgan istiqbolli fanlardan biridir. Bu fanning rivojlanishiga avvalo ijtimoiy hayot va amaliyotning o’sib borayotgan ehtiyojlari, ya’ni jamiyatda bo`layotgan ijtimoiy hodisalarning sotsial-psixologik jihatdan o’rganib, tushuntirib berish zarurati turtki bo’lmoqda. Profayling metodi hozirgi kunda psixologiya sohasining yangi kelayotgan qiziqarli hamda amaliy ahamiyatga ega bo`lgan tarmog`idan biridir. Uni muammo sifatida nafaqat ijtimoiy psixologiya fani, shuningdek falsafa, pedagogika, mantiq, huquqiy va etika fanlari tizimida ham o’rganiladi.

Profayling metodi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Profayling metodining xususiyatlaridan biri sifatida profilaktik hisobdagi shaxslar hatti-harakatini kuzatish, ularga savollar berish, ekspress psixodiagnostika qilish, ularning hatti-harakatlaridagi normadan og`ishlarni qayd etish hamda ularni o`rganishga qaratilgan boshqa harakatlar kiritiladi.

2. Profaylingning mantiqiy sxemasida g`ayriqonuniy aralashish harakatlarini tayorlash chog`ida havf tug`dirishi mumkin bo`lgan shaxslarning harakatlari modelini tuzish; bunday harakatlarni tayorlash belgilarini aniqlash; xavf tug`dirishi mumkin bo`lgan tiplar (profillar) - bunday harakatlarning ehtimol tutilgan ijrochilari tasnifini

yaratish; kuzatuv hududidagi har bir shaxsning maqomini rejalashtirilayotgan g`ayriqonuniy aralashuv harakatiga aloqador bo`lish mumkinligi nuqtai nazaridan aniqlash; har bir shaxsni muayyan tipga (yoki profilga) kiritish, ya'ni profillash.

3. Profayling metodini amalga oshirish uchun vizual psixodiagnostika, diagnostik ekspress-suhbat, neyrolingvistik dasturlash metodlari, tergov faoliyati sohasida ko`p yillik tajribani egallagan yuqori darajadagi tayorgarlikka ega mutaxassislar jalb etiladi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, profayling metodi shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning xulqidagi o'zgarishlarni tashqi qiyofasi va xatti-harakatlari asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullarni qo'llab avvaldan bashorat qilish imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir. Har qanday muloqot doimo ob'ekt bilan sub'ektning bir-birga moslashish jarayonini qamrab oladi. Inson xulqi va uning xatti-harakatlarini oldindan bashorat etish uchun alohida qobiliyatga ega bo`lish yoki ko`plab kitoblar o`qish shart emas, buning uchun inson, uning xatti-harakatlarini o`rganishga qiziqish bo`lsa bo`ldi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. A.A.Nema'tov "Profayling metodining o'ziga xos xususiytlari shaxslararo munosabatlarda tutgan o'rni"

2. Volinskiy-Basmanov YU.M, Volinskiy, V.YU. Kameneva, M.E. Eriashvili N.D.,Aminov I.I.Psixologicheskoe obespechenie predotvraщeniya nezakonnыx aktov nezakonnogo vmeshatelstva v deyatelnost grajdanskoy aviatsii / YU.M. Volынskiy-Basmanov i dr. M.: YUniti-Data Zakon i pravo, 2011.– S. 86.

3. Statniy V.M. Texnologiya profaylinga i ee realizatsiya v obespechenii bezopasnosti na transporte V.M. Statnыy SPb, 2010.– S. 149

4. Rogatix L.F. Borba s kontrabandoy narkoticheskix sredstv, psixotropnыx veщestv i silno deystvuyuщix veщestv. SPb, 2003. S. 35-36.

5. . Qodirov M.S. Profayling metodining rivojlanish tarixi. "XXI asrda ilmfan tarakkiètining rivojlanish istikbollari va ular da innovatsiyalarning tutgan urni" mavzusidagi Respublika 1 -ilmiy onlayn konferensiyasi. Toshkent. 2018. 126 b.

6.Aseev V. G. Motivatsiya povedeniya i formirovaniya lichnosti. M., 1976. 246 s. 7. Canter D., Heritage R.A Multivariate Model of Sexual Offence Behavior // The Journal of Forensic Psychiatry. 1989. Vol. 1.

8. Ressler R., Burgess A., Douglas J. Criminal Profiling Research on Homicide. Unpublished Research Report. N. Y., 1982.

9. Lagovskiy A.YU., Skrытnikov A. I., Telejnikova V. N., Begunova L. A. Sostavlenie psixologicheskogo portreta prestupnika: Ucheb.-metod. posobie. M., 2000. 7. Feofanov O. A. Agressiya lji. M.: Politizdat, 1987. 318 s.

10. Fernxem A., Xeyven P. Lichnost i sotsialnoe povedenie. M.: Piter, 2001. 360 s.
11. Filonov L. B. Psixologicheskie sposobы vыyavleniya skrыvaemogo obstoyatelstva. M.: Izd-vo MGU, 1979. 99 s.

12. Ponomarenko, V.V. Prakticheskaya xarakterologiya s elementami prognozirovaniya i upravleniya povedeniem (metodika «sem radikalov»). – Rostov-n/D.: Feniks. 2006. – 252 s

XODIMLARDA STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Mustafayev Shaxruz Baxodir o‘g‘li

Buxoro viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi PTG bosh psixologi kapitan

Annotatsiya: shaxsda stressga barqarorlikni oshirishning psixologik asoslarini tadqiq etish orqali korreksion imkoniyatlarni takomillashtirish, shaxsida stressogen vaziyatlar va omillarni hamda stressga barqarorlikning namoyon bo‘lish darajasistressga barqarorlik namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar haqida fikr boradi.

Kalit so’zlar: stress, stressga baqarorlik, stressogen vaziyat, ustanovka, kognitiv va affektiv tizim, “ijtimoiy yordamni izlash”, xarakter, o‘zini adekvat baholash, lokus nazorat.

Аннотация: совершенствование коррекционных возможностей путем исследования психологических основ повышения стрессоустойчивости у личности, изучения стрессогенных ситуаций и факторов у личности, а также степени проявления стрессоустойчивости идет мысль о психологических факторах, влияющих на проявление стрессоустойчивости.

Ключевые слова: стресс, стрессоустойчивость, стрессогенная ситуация, установки, когнитивно-аффективная система, “поиск социальной поддержки”, характер, адекватная самооценка, локусный контроль.

Abstract: improving correctional capabilities by studying the psychological foundations of increasing stress tolerance in a person, studying stressful situations and factors in a person, as well as the degree of manifestation of stress resistance, there is a thought about psychological factors influencing the manifestation of stress resistance.

Key words: stress, stress intensity, stressogenic situation, ustanovka, cognitive and affective system, “search for social assistance”, character, adequate self-assessment, locus control.

Jahonda jinoyatchilikni oldini olish va xavfsizlikni ta’minlash masalasiga e’tibor kundan kunga ortib bormoqda. O‘zbekiston 2023-yilning birinchi yarmida jinoyatchilik va xavfsizlik darajasi bo‘yicha 144 davlat orasidan 115-o‘rinni egallab, jinoyatchilik darajasi bo‘yicha 31,3 ball, xavfsizlik darajasi bo‘yicha 68,7 ball bilan baholangan. Reytingda quyi o‘rinlarni egallashi mamlakatda xavfsizlik darajasi yuqoriligidan dalolat beradi. Reytingda jinoyatchilik eng avj davlat sifatida Venesuela (jinoyatchilik darajasi 82,1 ball), Papua-Yangi Gvineya (80,4 ball), Afg‘oniston (78,4 ball) o‘rin olgan. Eng xavfli davlatlar TOP-10 taligiga Gaiti, Janubiy Afrika, Gonduras, Trinidad va Tobago, Suriya, Gayana, Yamayka kirgan. Qatar eng xavfsiz davlat deb topilgan, xavfsizlik darajasi 85,7 ballga baholangan. Shuningdek, BAA (85,4), Tayvan (83,9), Man oroli (82,1), O‘mon sultonligi (80,4), Armaniston (78,4), Gonkong (78,3), Yaponiya (77,1), Singapur (76,9), Baxrayn (75,8) xavfsiz davlatlar o‘ntaligiga kirgan.

Jahon miqiyosida stress, stressga barqarorlik va koping xulq masalalari psixologiya sohasida dolzarb muammolardan biri bo‘lib, tadqiqotlarda stressni keltirib chiqaruvchi psixologik omillarni aniqlash, stressga moyil shaxslarning kognitiv, konativ, affektiv sohalariga ta’sir etib, ularning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ta’lim oluvchilar orasida stressning salbiy asoratlari natijasida kuzatilayotgan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va o‘qish sifatining pasayishi, raqobatbardosh kadr tayyorlash masalasining oqsashini bartaraf etish maqsadida stressga moyil yoshlarning yosh-psixologik va xulqiy profilaktikasi, samarali psixokorreksion ta’sir usullarining samaradorligini ta’minlash masalalari bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jenevada bo‘lib o‘tgan BJSST assambleyasida stress holati Xalqaro kasalliklar klassifikatoriga 11-raqam ostida kiritilgan. Amerika psixologlar assotsiasiyasining bergan ma’lumotlariga ko‘ra, BSSTning Ustavida “stress hozirgi davr shaxslarining salomatligi uchun katta zarar ekanligi va agar yoshlar hozirgi stresslarni

boshqarishning sog‘lom usullarini o‘rganmasalar, bu ularning sog‘ligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin”ligi ta’kidlangan.

Mamlakatimizning taraqqiyot dasturi bo‘lmish “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha maqsad va rejalarga ko‘ra ilgari surilayotgan “Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni zimmasiga olishga qodir yangi avlodni tarbiyalash” tamoyiliga asoslanib mamlakatimizda faoliyat ko’rsatayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, ularni ilmiy, ta’limiy, tarbiyaviy, ijodiy, ma’naviy barkamol qilib va eng muhimi ruhiy tomonlama sog‘lom etib tarbiyalash borasidagi konseptual g‘oyalar bo‘yicha zarur huquqiy-me’yoriy asoslar yaratilgan.

Bugungi kunda jamiyat hayotida stress va stressga barqarorlik muammosi zamonaviy psixologiyaning eng muhim muammolaridan biriga aylanib qoldi. Mazkur muammo XX asr boshlaridan buyon xorij hamda rus psixologiyasida keng doirada tadqiq etib kelingan va hozirda ham bu muammo o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, falsafa, tibbiyot, biologiya, psixologiya, pedagogika, informatika kabi fan sohalarining tarmoqlararo o‘rganish predmetiga aylanib bo‘lgan. Stressga barqarorlik tushunchasining shakllanish tarixi ko‘p jihatdan insonning shaxs hayotida uchraydigan qiyinchiliklarni yengish tajribasining rivojlanishi bilan mos keladi. Ta’kidlash joizki, stressga barqarorlik tushunchasi borasida psixologik atamalar tizimida o‘rni va maqomiga ko‘ra noaniqlik xususiyati xosdir. Bu holat stressga barqarorlik muammosini tadqiq etishga nisbatan yondashuvlarning keng va variativligi bilan izohlanadi.

Stressni ilmiy atama sifatida ilk bor o‘rganilishi esa kanadalik olim G.Selega tegishlidir. O‘sha vaqtlarda nashr etiladigan “Nature” jurnalining 1936 yil 04 iyuldagi sonida G.Selening “Turli shikastlovchi omillar chaqiruvchi sindrom” deb nomlangan maqolasi chop etilgan va unda organizmning turli xil kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi omillar ta’sirida yuzaga keladigan standart reaksiyalari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu ma’lumotlar stress haqidagi ta’limotning boshlanishiga asos bo‘lgan.

Stress muammosi dastlab G.Sele tomonidan maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, bugungi kungacha bo‘lgan davrda ushbu muammo yuzasidan juda ko‘p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, stress tushunchasi, uning turlari, rivojlanish bosqichlari va unga nisbatan barqaror munosabatda bo‘lish masalalari ko‘plab tadqiqotchilar uchun izlanish manbasiga aylangan. Mazkur muammo doirasida xorij olimlaridan G.Sele, D.Richardson, F.Milman, R.Lazarius, C.Folkman, V.S.Merlin, Ye.Feydenberg, Dj.V.Rotter, R.Mak-Kray, Dj.D.Parker, B.X.Vardanyan, P.B.Zilberman, rus psixologiyasida L.M.Abolin, A.Yu.Malenova, A.A.Baranov, V.A.Bodrov, M.Yu.Denisov, L.V.Kulikov, A.V.Libina, Yu.G.Chirkov, Dj.Vyatkin, L.A.Kitaev-Smыk, L.I.Bojovich, V.L.Mariщuk, V.V.Suvorova, Yu.M.Gubcheva, A.A.Rean, S.V.Subbotin kabi juda ko‘plab tadqiqotchilar ish olib borganlar, shuningdek o‘zbek ilmiy jamoatchiligi ham ushbu muammoga yaqin masalalar ustida M.G.Davletshin, V.M.Karimova, N.G.Kamilova, Z.T.Nishonova, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziev, D.S.Qarshieva kabi yetuk olimlar va ularning shogirdlari bir qancha ishlarni amalga oshirganlar.

Agar bugun psixologik adabiyotlar tahliliga nazar tashlansa, “stress” va “stressga barqarorlik” tushunchalarining juda ko‘p va turli xil izohlari uchraydi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda “stress” so‘zi “iskanjaga olish, bosim, zo‘riqish” ma’nolarini beradi. Psixologik atamalar lug‘atida stressga quyidagicha izoh berilgan: “...kuchli ta’sir ostida paydo bo‘luvchi inson yoki hayvondagi zo‘riqish holatidir”.

Shuningdek, o‘zbek tilida nashr etilgan, psixologik atamalar ruscha o‘zbekcha lug‘atida: “Stress – (ingl. stress – zo‘riqish, kuchlanish, lot. strees – zo‘riqish); 1. Organizmning jismoniy va psixik shikast yetkazishi mumkin bo‘lgan ta’sirlarga nisbatan bildiradigan adaptatsion - himoya munosabatlari majmui; 2. Zo‘riqish holati - odam organizmiga ta’sir etayotgan turli noxush omillar ta’siriga javoban yuzaga keladigan fiziologik himoya munosabatlari majmui. Kuchli ta’sir ostida yuzaga keluvchi zo‘riqish holati” deb izohlangan.

Dj.Everli va R.Rozenfeldning fikrlariga ko‘ra, ko‘pgina (ichki va tashqi) qo‘zg‘atuvchilar (ta’sirlar)ni stressorlarga aylanishida ayni shu stimullarni mantiqiy va emotsional baholash katta rol o‘ynashi, agar qo‘zg‘atuvchi shaxs tomonidan o‘ziga

nisbatan xavf-xatar yoki tahdid sifatida baholanmasa, u holda stress reaksiya umuman sodir bo‘lmasligi qayd etiladi. Shuningdek, xuddi shu zaylda stress reaksiyalarning aksariyati shaxsning o‘zi tomonidan paydo qilinishi va bu reaksiyalar shaxs tomonidan qanchagacha qo‘yib berilsa (imkon berilsa), shuncha vaqtgacha davom etishi haqida ta’kidlanadi.

O‘zbekistonda stress va stressga barqarorlik muammosi aynan psixologik tadqiqot predmeti sifatida dastlab unga yondosh bo‘lgan tushunchalar - ruhiy inqiroz, asabiy tanglik, ruhiy tanglik, suitsidal xulq kabi atamalar bilan uyg‘unlikda o‘rganilgan bo‘lib (Davletshin M.G., Kamilova N.G., Shoumarov G‘.B., Umarov B.M., G.V.Xrulnova va ularning shogirdlari), so‘nggi o‘n yilliklarda aynan stress, stressga barqarorlik, koping xulq masalalarini o‘rganishga qiziqishlar ortdi va bir nechta tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiq qilishga erishildi (Boymirzaeva D.D., Fayziev Z.H., Hayitov O.E., Qarshieva D.S., Ernazarova R.Yu.). Xususan, O.E. Hayitov oliy ta’lim muassasasi rahbarlardagi psixologik kompetentlikning tarkibiy qismlaridan biri sifatida stresslarni boshqarish kompetensiyasini o‘rgangan, D.S. Qarshieva maktab va oliy ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglarda kasbiy stress namoyon bo‘lishini o‘rganib, ularda kasbiy stress va emotsional kuyish jarayoni, kasbiy stress va koping usullarning bog‘liqligi masalalarini chuqur tadqiq etgan. Z.H.Fayziev shaxs faoliyatini keskin o‘zgartirishda kazusli vaziyatlar asosiy voqelik ekanligini, emotsional beqarorlik, asabiy taranglik, ayniqsa stress, affekt, depressiya kabi salbiy kechinmalar bilan o‘zaro bog‘liq ekanligini o‘rgangan.

Adabiyotlardagi ma’lumotlarni tizimlashtirish asosida biz stressga barqarorlikning ta’rifini yangi shaklda quyidagicha izohlashni lozim deb bildik: stressga barqarorlik – bu shaxsning stressogen vaziyatda nafaqat irodaviy, balki emotsional, intellektual, motivasion-xulq-atvor va ijtimoiy jihatdan ham barqarorligi bo‘lib, bu barqarorlik shaxsga stressogen vaziyatlarda salomatligini asragan holda yuritayotgan faoliyatini muvaffaqiyatli uddalashga yordam beradi. Shunga ko‘ra, stressga barqarorlikni o‘rganishda albatta kompleks tarzda yondashish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Рубинштейн С.. Проблемі общей психологии [Текст] // М.: Педагогика, 2006. - 416 с.

2. Сборцева Т.В. Психологические условия обучения саморегуляции в критических ситуациях в юношеском возрасте [Текст] // Дисс. ... канд. психол. наук. - Череповец, 2002. - 170 с.

3. Ухтомский А.А. Физиологический покой и лабильность как биологический фактор. Собр. соч. [Текст] // - Д., 2011. - Т. 2.-289-292 с.

4. Kühl J. Historical perspectives in the study of action control. Action control: From cognitions to behavior// J. Kühl, G. Beckmann. - Berlin; N.Y., 2005.

БЕЗОРИ ШАХС, УНИНГ ЖИНОИЙ ХАТТИ-ҲАРАКАТЛАРИНИНГ МОТИВЛАРИ ВА МАҚСАДЛАРИ

Хайдаров Исломжон Махмутали ўғли

Психологи фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), капитан

Аннотация: Мазкур мақолада безори шахс, унинг жиноий хатти-ҳаракатларининг мотивлари ва мақсадлари илмий асослар билан ўрганилган ва тегишли таклиф, тавсия ва хулосалар берилган.

Калит сўзлар: Безорилик, жамоат тартиби, уриш-дўппослаш, шикаст етказиш, нобуд қилиш, бир гуруҳ шахслар.

Дунёда жамоат тартибига, жамоат хавфсизлигига тажовуз қилувчи жиноятларга қарши курашиш глобал аҳамият касб этмоқда. Шулардан, безорилик умумий жиноятчиликнинг 22% ни ташкил қилиб, ҳар йили 9% га ошиб бормоқд[6]. Халқаро ҳужжатларда, қонунда жиноят учун жавобгарликни тўғри белгилаш, ҳуқуқни қўллаш амалиётини шаффофлигини таъминлаш мақсадида давлатларнинг миллий қонунчилигини қайта кўриб чиқилишига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Юқоридагилар жиноят қонунчилигини ислоҳ қилиш, безорилик учун жавобгарлик белгиланган жиноят кодекси нормаларини ўз ўрнида қўллаш, содир этилган қилмишга тўғри ҳуқуқий баҳо бериш ва адолатли жазо тайинланишини таъминлаш устувор вазифалар эканлигидан далолат беради.

[6] https://www.statista.com

1. Qisqa muddatli ta’sirga ega bo‘lgan stresslar (bir necha soatdan bir necha kungacha): tashvish va qo‘rquvni keltirib chiqaradi; yoqimsiz jismoniy hislar; sur’at va tezlik (katta hajmdagi ma’lumotni qayta ishlash va qaror qabul qilish zarurati, harakatning maksimal tezligi va tezlikni ko‘rsatish zarurati); chalg‘itadigan narsalar muvaffaqiyatsiz harakatlar;
2. Uzoq muddatli mazmundagi stresslar (bir necha oydan bir necha yilgacha): charchoqni keltirib chiqaradigan uzoq muddatli vazifalar (ma’lum bir xavf yoki shu xavf bilan bog‘liq bo‘lgan uzoq muddatli kechinmalar, o‘z qadriyatlarini himoya qilish, maxsus ob’ektlar, cheklangan vaqt davomida rahbarlarning talablarini bajarish zaruriyati); izolyatsiya (oiladan uzoq vaqt ajralish va notanish sharoitlar, stressli sharoitlarda xizmat safari va uzoq muddatli harbiy harakatlar o‘tkazish. Demak, bularning barchasi harbiy xizmatdagi kasbiy zo‘riqish holatlaridir.

Sezgi organlariga ta’sir etish tabiatiga ko‘ra, quyidagi stressorlar ajratiladi:

1. Vizual-psixologik stresslar ya’ni yaqinlar, hamkasblar ko‘z o‘ngida o‘lim, portlash ko‘rish, murdalar, qon va boshqalar;
2. Sovuqda va issiqda toliqish, tirishish;
3. Gaz va jasadlarning hidlari, sovuq, issiqlik, elektr toki va boshqa ta’sirlar.

Mazkur omillarni bilish kelajakdagi ofitserlar uchun stressga chidamlilik, ularda stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish, stressni yengishga o‘rgatish ishlarini tashkil etishda o‘ta muhim sanaladi.

Ayrim eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stress asosan vaziyatda fikrlash va uni baholash usuli mahsulidir, inson o‘z qobiliyatini va ekstremal sharoitlardagi darajasini yaxshi biladi. Stressni yengish uchun har bir kishi o‘z shaxsiy tajribasi va psixologik bilimlariga asoslangan holda, ma’lum bir strategiyalaridan foydalanadi. Bunda shaxsga xos kognitiv rivojlanish darajasi, o‘zini o‘zi anglash darajasi va o‘zini boshqarish darajasi, shuningdek odamning stressga chidamliligini ta’minlaydigan psixologik xususiyatlari ham keng ahamiyat kasb etadi.

Stressga chidamlilikni ta’minlaydigan eng muhim shaxsiy xususiyatlar orasida tadqiqotchilar quyidagilarni ajratadi:

–Tez qaror qila olish;

– Introspetsiyaning kuchliligi (o‘zini o‘zi tahlil qilish);

– Psixologik chidamlilik (barqarorlik) va o‘z-o‘zini hurmat qilish;

–Neyropsixik barqarorlik va harbiy shaxsning moslashish qobiliyati.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarga va harbiy xizmatchilarga stressni qanday boshqarishni o‘rgatish juda muhim sanaladi. Shuningdek, stressni boshqarish deganda, stress ta’sirining oldini olish yoki ushbu ta’sirni minimallashtirishga imkon beradigan strategiyalar, usullar va kombinatsiyalar ham tushuniladi. Stress boshqarishning o‘zi bir necha ko‘rinishda ifodalanishi mumkin:

1) stress paydo bo‘lishidan oldin asosiy harakat uning oldini olish muammolariga qaratilgan bo‘lishi kerak;
2) stress paydo bo‘lganidan keyin asosiy e’tibor stress bilan faol kurashish choralariga va undan chiqib ketish variantlariga ham qaratiladi;

3) o‘tkir stressli vaziyatda birlamchi o‘z-o‘ziga yordam choralari amalga oshiriladi ya’ni dam olish, tabiatga sayr, ov, kino, teatr, sport, sevgi va hokazo.

Yuqorida keltirilgan qoidalarga amal qilish harbiy xizmatchilar va muddatli harbiy xizmatchilar, harbiy rahbarlarning stressga chidamliligini sifatlarini yanada oshiradi, bu esa o‘z navbatida xizmat vazifalari va o‘quv jarayonlari, bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayonining sifatini yaxshilashga keng ta’sir etadi.

Bir tomondan harbiy muhitni qo‘pol, qattiqqo‘l haddan tashqari talabchan komandirsiz, o‘qituvchi va murabiysiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, ular xohlamaymiz emas, majburlaymiz tamoyiliga amal qilishadi, uni har bir oliy harbiy bilim yurti muassasalari va bilim yurtlari tashkilotlari qo‘llab-quvvatlashadi. Va buni eng muvaffaqiyatli yo‘l deb hisoblaydilar.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, biz tadqiq etayotgan mazkur muammo harbiy institutlar faoliyati, unda faoliyat olib borayotgan psixologlar faoliyati, harbiy pedagoglar hamda ta’lim olayotgan harbiy xizmatchilar faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, harbiy xizmatchilarni o‘qitish va kasbiy kompotentligini oshirishga yordam berish, ulardagi muammolarni o‘rganish, qolaversa, harbiy xizmatchilarining kundalik o‘quv faoliyatidagi ekstremal holatlar hamda ularning salbiy oqibatlarini doimiy ravishda bartaraf etib borishga yordam beradi. Favqulodda vaziyat ob’ektiv va subektiv birlikni anglatadi. Maqsad - bu o‘ta murakkab tashqi muhit va ichki imkoniyat bilan bog‘liq jarayondir.

Harbiy faoliyatdagi favqulodda vaziyatning ta’siri inson uchun turli xil ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin: a) xatti-harakatlarning pasayishi bilan; b) kutilayotgan xavfni oldini olish bilan; v) faoliyatni samarador kechishini ta’minlash bilan.

A.V.Nosovaga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning o‘quv va xizmat faoliyati ekstremal holatlarga va kasbiy stress omillariga boy bo‘lganligi sababli, harbiy xizmatchilarning bunday sharoitda faoliyat olib borishi quyidagicha amalga oshirilishi kerak. O‘ta og‘ir sharoitlardagi o‘quv mashg‘ulotlari va standart kasbiy vazifalarni bajarish algoritmlarini tahlil qilish;

harbiy xizmatchilarni uzoq masofaga yurishi, tunda parashyut bilan sakrashga vzvod va jangovar bo‘linmalar vazifalarini bajarishda amaliy otishga o‘rgatish hamda operativ tadbirlariga tez –tez qatnashtirish va hokazolar.

A.V.Savataev fikricha, harbiy xizmatchilarni ko‘proq ekstremal sharoitlarga o‘rgatish ularda kuchli stresslar ta’siriga tushib qolmaslikka, favqulodda vaziyatlarga tez moslashishlariga katta yordam beradi. Bundan tashqari, ekstremal vaziyatlar harbiy xizmatchilarning harakatlariga to‘sqinlik qilmaydi, aksincha, jangovar vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishiga, o‘z burchini to‘g‘ri anglashga, xizmat majburiyatlarini oxirigacha ado etishga yordam beradi. Ushbu masalalar har bir oliy harbiy bilim yurti pedagoglari, tarbiyachilari, harbiy psixologlar, bo‘linma komandirlari va boshliqlar hamda qo‘mondonlarning e’tiborlaridan chetda qolmasligi lozim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. O’zbekiston yoshlari forumida so’zlagan nutqidan, 25 dekabr 2020 yil, 18:00 siyosat.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. Toshkent; Ma’naviyat, 2008 y.
3. M. Abdullayev, E. Umarov, A. Ochildiyev, A. Yo’ldoshev, A. Abdullayev “Madaniyatshunoslik asoslari”. «Turon-Iqbol» nashriyoti, Toshkent — 2006 y.
4. M.Imomnazarov “Milliy ma’naviyatimiz asoslar". O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006.
5. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun darslik. /Prof. F.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent, 2008.
6. G’oziyev E.G’., Jabborov A.M. Faoliyat va xulq-atvor motivasiyasi. T.: 2003

BO‘LAJAK OFITSERLARDA TOLERANTLIK NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shakarboyeva Shaxnoza Abdulakimovna

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’milash” kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixol.f.f.d.(PhD),dots.

Bugungi kunda bo‘lajak ofitserlarda tolerantlik sifatlarini rivojlantirish eng muhim vazifalarimizdan biridir. Bo‘lajak ofitserlarda ijtimoiy muloqot jarayonida

sabrli va bag‘rikeng munosabatning shakllanishi ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlik uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tolerantlik o‘zgalarning fikri va xatti-harakatlariga chidamlilikni, ularga toqatlilik bilan munosabatda bo‘lishni anglatadi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat va jamiyat o‘rtasida ta’sirchan hamda samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, davlat organlari faoliyati bo‘yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, jumladan, jahonda sodir bo‘layotgan mafkuraviy urushlar, ko‘p millatli jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, turli e’tiqodlar orasidagi ziddiyatlar bo‘lajak ofitserlardagi tolerantlik muammosini ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish masalasini yuzaga keltirmoqda. Xususan, mazkur jarayonda harbiy ofitserlarning tolerantlik harakatlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, mafkuraviy poligonlarda yuz berayotgan hodisalar ularning shaxslararo munosabatlardagi nizolarni konstruktiv hal etish, «dunyoning rang-barang madaniyati, shaxsning o‘zligini namoyon qilishidagi o‘ziga xos uslublarni va inson individualligini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunish» ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligini ko‘rsatmoqda. Bu borada, bo‘lajak ofitserlarning kasbiy faoliyati yo‘nalishlariga muvofiq psixologik tayyorgarlikni oshirish, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllantirish, milliy va etnik identifikatsiya hissini, tolerantlik sifatlarini rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda shaxsning, ayniqsa bo‘lajak ofitserlarning ma’naviy, ruhiy, aqliy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha zaruriy-me’yoriy asoslar yaratildi. «Jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do‘stlik va ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash»[25] ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarni, ayniqsa mamlakatimiz tinchligi posboni

[25] 2017 yil 19 maydagi PF-5046-son «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni

bo‘lgan ofitserlarni milliy g‘urur, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, kursantlarda tolerantlik namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik, etnik xususiyatlarni aniqlash orqali ularni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlarini ilmiy-amaliy tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Insonlardagi tolerantlik shakllanganligi nizolarsiz turmush tarzini kafolatlab, mustahkam iroda va e’tiqodi, halollik va adolat bilan hayot kechirishi, inson va ijtimoiy hayotga xos barcha xislatlarga ega bo‘lish, unga amal qilishda namoyon bo‘ladi. Hozirgi ta’lim tizimida ta’lim yuklamalarini yengish va shaxslararo munosabatlarni yaxshilash tolerantlikni shakllantirish va rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Buning uchun shaxslardagi tolerantlik rivojlanishining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini bilish kommunikativ sotsial tolerantlik turlarini rivojlantirishga e’tibor berish kerak.

Psixologiyada tolerantlik (lotincha tolerantio - sabr) boshqa odamlarning fikrlari, e’tiqodi qarashlari va xatti-harakatlariga bag‘rikeng bo‘lish ma’nosida ta’riflanadi.

G.U.Soldatova, L.A.Shaygerova va O.D.Sharovalarning izlanishlari bizda qiziqish tug‘dirdi. Ular bag‘rikenglikning asosiy mezonlarini ko‘rsatib o‘tadi.

- tenglik;
- o‘zaro hurmat;
- turli ijtimoiy guruhlarga nisbatan tolerantlik;
- jamiyatning siyosiy hayotida barcha a’zolarini ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar;
- barcha millatlar va etnik guruhlarning madaniy o‘ziga xosligi va tillarini saqlash va rivojlantirish;
- imkon qadar ko‘proq insonlarni ijtimoiy xarakterdagi voqealar va bayramlar bilan qamrab olish;
- barcha millatlar va etnik guruhlar vakillari uchun o‘z an’analarini hurmat qilish qobiliyati, din erkinligi;
- umumiy muammolarni hal qilishda hamkorlik qilish;
- millatlararo, irqlararo munosabatlarning eng zaif sohalarida jinslar o‘rtasidagi

munosabatlarda ijobiy munosabat o‘rnatish.

Ilmiy tadqiqot ishida keltirib o‘tilgan pedagogik-psixologik g‘oyalar tahlili asosida quyidagi fikrlar umumlashtirildi: shaxs tolerantligining rivojlanishi masalasi Sharq allomalarining pedagogik-psixologik qarashlarida «Komil inson tarbiyasi» g‘oyasi kontekstida tahlil qilib berilgan; atrofga nisbatan qarashlarni o‘zgartirish, dunyoqarashning keng bo‘lishi, o‘z axloqini tahlil qilish, ijtimoiy zukkolik sifatlari bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘lishi pedagogik-psixologik, falsafiy manbalarda keltirib o‘tilgan.

Fiziologik komponent aslida ofitserlarning kasbiy talablari bilan bog‘liq. Bizga ma’lumki, harbiy ta’lim kursantlardan jismoniy chidamlilik talab etadi. Hattoki, ta’limga qabul vaqtida ham dastlab ular jismoniy normativlarni topshirib, keyin bilim testlarini topshiradilar. Buning asosiy sababi ofitserlar faoliyat yuritadigan shart-sharoitlar ulardan chidamlilik, chiniqqanlikni talab qiladi. Chidamlilik – bu tananing har qanday ishni uzoq vaqt davomida sezilarli darajada pasaymasdan bajarish qobiliyati, shuningdek uning tiklanishi demakdir.

Kursantlarda tolerantlikni rivojlantirish uchun kognitiv komponentga korreksion-adaptiv ta’sir etishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratiladi:

1. Fikrlash: etnik, guruhiy munosabatlarni hal etishdagi ijobiy fikrlash, shaxsning o‘z «Men»ini konstruktiv idrok etishi, atrofdagilarning yutuq va kamchiliklarini boricha qabul qilish, konstruktiv munosabatlarni o‘rnatish uchun ratsional fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish;

2. Fokus va konsentratsiya: shaxslararo munosabatlardagi tolerantlik, kishilarning bir-biriga nisbatan chidamli munosabati ko‘pincha doimiy diqqat va konsentratsiyani talab qiladi. Destruktiv axborotlarni qayta ishlash, ularni konstruktiv fikrlar orqali transformatsiyalanishiga erishishda fokusni bir joyga yo‘naltirish qobiliyatining rivojlanishi tolerantlikni oshirishi mumkin.

Natijada bo‘lajak ofitserlar tomonidan vaziyatni murakkabligi, turli tomonlama baholash imkonining mavjudligini ratsional idrok etish, «Men» va «Bizni» etnik jihatdan uyg‘unlashtirish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Psixologik modelimizning navbatdagi komponeti affektiv komponentdir. Bizga

ma’lumki, umuminsoniy qadriyatlar negizida ijtimoiy hislar yotadi. Insonda tolerantlik namoyon bo‘lishiga olib keluvchi ijtimoiy hislardan biri empatiyadir.

Navbatdagi komponent konativ komponentdir. Mazkur komponentni modelimizga kiritishdan maqsad nizolarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmasi, assertiv xulqni shakllantirishdan iboratdir. Chunki kursantlarning tolerantlik darajasi geterogen xarakterga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlam vakillari bilan muloqot qilishda nizolardan qochish yoki ularni konstruktiv hal qilish ko‘nikmasini rivojlanganlik holatiga bog‘liq.

Bo‘lajak ofitserlarda tolerantlikni rivojlantirishda kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fiziologik, kognitiv, affektiv, konativ komponentlarga korreksion ta’sir etishning psixologik mexanizmlari aniqlashtirish, shaxs xususiyatlaridan ijtimoiy, irodaviy, kognitiv fazilatlarga integrativ tarzda namoyon bo‘lishi etnik identifikatsiya, milliy daxldorlik hislarini ustuvor rivojlanishiga olib kelishi maqsadga muvofiqdir.

“TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY MASALALARI.

N.I.Bayto’rayeva

JDPU, Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasi dotsenti

Annatatsiya: Ushbu makolada milliy qadriyatlarimizni o’zida aks ettirgan istiklol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda o’zimizga xos milliy xususiyatlarimizni unutmasligimiz zarurligi ta’kidlandi. Ta’lim-tarbiya tizimining mazmunida xalqning turmush tarzi, milliy an’analari va urf-odatlari ifoda etilgan.

Kalit so’zlar: Xalq pedagogikasi, ta’lim, tarbiya, tizim, milliy qadriyat, millatning tili, dini, urf-odatlar, an’analar, bayramlar, o’zaro muloqot, muomala, umuminsoniy qadriyat.

Аннатация: В данной статье подчеркивалась необходимость не забывать о своих национальных особенностях при внедрении в сознание молодежи идеологии независимости, отражающей наши национальные ценности. В содержании системы образования и воспитания выражается образ жизни народа, национальные традиции и обычаи.

Ключевые слова: народная педагогика, образование, воспитание, система, национальная ценность, язык нации, религия, обычаи, традиции, праздники, взаимодействие, обращение, общечеловеческая ценность.

Annatation: This article emphasized the need not to forget about their national characteristics when introducing the ideology of independence into the minds of young people, reflecting our national values. The content of the system of education and upbringing expresses the way of life of the people, national traditions

Keywords: folk pedagogy, education, upbringing, system, national value, language of the nation, religion, customs, traditions, holidays, interaction, appeal, universal value.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ertamiz egalari bo'lgan o'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishlari uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Buni kelajak avlod tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibordan ham bilishimiz mumkin. Ta'kidlash mumkinki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ko'proq his etadigan kim –yoshlar.

Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobiga erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan".[26]

Aytish joizki, ma'naviyat – arabcha so'zdan olingan bo'lib, "Ma'nolar majmui" demakdir. U ong, jasorat, dadillik, g'amxo'rlik, qayg'urish, ichki kayfiyat, ruh, did, idrok, insoniylik, vijdon kabi bir qancha tushunchalarni ham qamrab oladi. Birinchi Prizidentimiz I. A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asarida ma'naviyatga shunday tarif berilgan: "Ma'naviyat-insonni ruhan poklaydigan, qalban ulg'aytiradigan, odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuchdir"[27].

Yosh avlodni tarbiyalash, avvalo, oilada keyin esa bola ulg'ayib maktabgacha ta'lim muassasasiga borgach o'sha yerda, asosan, o'yin tarzida olib borilsa, maktab bosqichida esa ta'lim va tarbiya barobar holda olib boriladi. O'z navbatida "Hali

[26] Sh. M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demakratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent- "O'zbekiston"- 2016.13-bet.
[27] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

o‘qish va yozishni bilmaydigan bolani maktab ta’limida qanday tarbiyalash mumkin?”, “Tarbiyalash jarayonida nimalardan foydalansak yaxshi natija beradi?” – degan savollar paydo bo‘ladi. Tarbiyada bosh obyekt inson shaxsiyati ekan, unga, avvalo, so‘z orqali ta’sir qilinadi. Bunga bunda bevosita adabiyot orali erishishimiz mumkin. Negaki, adabiyotning tasvir obyekti ham inson hisoblanadi. O‘z navbatida, adabiyot ikki turga yoma va og‘zaki turga bo‘linadi. Og‘zaki adabiyot yozma adabiyotga nisbatan oldinroq paydo bo‘lgan. Og‘zaki adabiyot namunalarining yozma adabiyot bilan aloqasi tilimiz lug‘at boyligida namoyon bo‘ladi. Xalqimizning boy ma’naviy merosini saqlab qolish va uni kelajak avlodga bezavol yetkazishda yozma adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Yozma adabiyot paydo bo‘libdiki, og‘zaki adabiyotdan oziqlanadi va uning go‘zal namunalaridan oziqlanib, qayta ishlanadi. Qaysiki ijodkor folklor an’analari ichida yashagan, uni o‘ziga singdirgan bo‘lsa, o‘sha ijodkorning asari tili jihatdan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Zero, milliy ong va tafakkurning shakllanishida badiiy asarning o‘rni beqiyos.[28]

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Tarbiya" fanini o‘qitishda milliy qadriyatlardan foydalanish, avvalo, yosh avlodni milliy ma’naviy meros asosida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Milliy qadriyatlar ta’lim jarayonida fuqarolik ma’naviyati, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning nazariy asosini yaratadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, vatanparvarlik hissini tarbiyalash va jamiyatga foydali shaxs bo‘lib yetishishlarini rag‘batlantiradi. Milliy qadriyatlarni zamonaviy ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh. M.Mirziyoyev “Erkin va farovon demakratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent-“O’zbekiston”- 2016.13-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O‘zbekiston», 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

[28] Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.// O‘quv qo‘llanma. – T.: Mumtoz so‘z. 2010, 108-bet.

4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.// O‘quv qo‘llanma. – T.: Mumtoz so‘z. 2010, 108-bet.
5. Ziyodova T. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 56 b.

http://www.pedagog.uz/

http://ziyonet.uz - Ta‘lim portali ZiyoNET

Ijtimoiy axborot ta‘lim portali: www.ziyonet.uz.

Respublika bolalar kutubxonasi: www.kitob.uz.

HARBIY PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA KELIB CHIQISH SABABLARI

Islomov Shavkat Musurmon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi o‘quv bo‘limi, o‘qituvchi-metodist, mayor

O‘z navbatida jangovar harakatlar olib borish aniq bir odam (harbiy xizmatchi) tomonidan aniq bir faollik ko‘rsatilishini taxmin qiladi. Shu bilan birga jangovar vaziyatlarda odamlarning faoliyati (harbiy xizmatchilar jangovar faoliyati) o‘zining undovchi motivlariga ega, ular qatoriga quyidagilar kiradi: ehtiyojlar hissiyotlar, xohishlar, intilishlar, qiziqishlar, ideallar, ishonishlar va boshqalar. So‘zsiz jangda muhim ehtiyoj odamning tirik qolishga harakat qilishidir. Bu oddiy, o‘z-o‘zini saqlab qolishning genetik shartlangan ehtiyojidir. Biroq bu har xil odamda turlicha namoyon bo‘lishi mumkin va aniq bir odam yoki ijtimoiy muhit uchun har xil asoratlar qoldirishi mumkin.

Masalan, bir odam faol va bir maqsadga yo‘naltirilgan holda, jangovar texnika yoki jang olib borishning zamonaviy usullarini yaxshi egallagan, u kim qanchalik yaxshi tayyorlangan bo‘lsa, unda jangovar vaziyatda tirik qolish shansi ko‘proqligini tushunadi. Bir vaqtnng o‘zida boshqa odam jangovar vaziyatda xavfli vaziyatlardan qochishga harakat qiladi, o‘z o‘rtoqlari ketidan yashirinishga urinadi, ya’ni qo‘rqoqlik qiladi.

Bir vaqtning o‘zida quyidagi masala bo‘yicha o‘ylab ko‘rish kerak bo‘ladi: agar ehtiyoj o‘z-o‘zini saqlab qolishda bo‘lsa, biologik jihatdan maqsadga muvofiq, juda kuchli va aqlli bo‘lsa, unda insoniyat tarixida nima uchun o‘zini qurbon qilganlar haqida minglab misollar mavjud, odamlarni boshqalarni saqlab qolish hisobiga o‘zini qurbon qilishga nima majbur qiladi? Gap shundaki, odam ijtimoiy mavjudot bo‘la turib, nafaqat biologik, balki ehtiyojlar irearxiyasi tuzilishida bo‘lgan ijtimoiy, eng yuqori pog‘onani egallagan ehtiyojlarga ham ega. Shuningdek, odamlarning jangovar faoliyati nafaqat biologik, balki ijtimoiy ehtiyojlar bilan ham shartlangan.

Harbiy xizmatchilar jangovar faoliyatining muhim ijtimoiy motivi o‘z Vatani, oilasi, yaqinlarini himoya qilishdir. Aynan shu motiv bir qancha odamlarni o‘zlarini qurbon qilishlariga undagan. Bu motiv xarakteri bo‘yicha ijtimoiy:

u odamda tug‘ilgan paytda paydo bo‘lmaydi, uning tarbiyalanish va ijtimoiy rivojlanishida shakllanadi, turli xulq-atvorida namoyon bo‘ladi, dunyoqarashi

va e’tiqodlarida aks etadi. Shuning uchun har bir ofitserning majburiyati

o‘z bo‘ysunuvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda Vatan himoyasi uchun doimo tayyor turishga tayyorlashdir.

Ma’lumki, har qanday faoliyatning aniq maqsadi bor. Harbiy xizmatchilar jangovar faoliyat vositasida yaqin va uzoq maqsadlarga erishadilar. Jangovar faoliyatning yaqin maqsadi bo‘linma, raschet, ekipaj, vzvod oldiga qo‘yilgan vazifalar bilan bog‘liq o‘z majburiyatlarini aniq bajarishdan iborat. Jangovar faoliyatning uzoq maqsadi esa - dushmanni yakson qilish, ular ustidan g‘alabaga qozonish.

Maqsadga erishish urush xarakterini aks ettirgan o‘ziga xos (spesifik) sharoitlarda – vaziyatning xavfli, kutilmagan va kuchli ta’sirlari ustida amalga oshiriladi. Shuning uchun harbiy faoliyat – jangovar vaziyatlarda harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi bir maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro hamkorlik.

Jangovar vaziyatda maqsadga erishgan holda, harbiy xizmatchi jangovar vaziyat bilan hisoblashishi kerak, uni bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarini hisobga olishi, salbiy ta’sirlarni yengib o‘tishi, qurol, bilim, ko‘nikma. malaka,

jangovar sifatlardan maksimal va ijodiy darajada foydalana olishi kerak. O‘z majburiyatlarini bajargan holda, harbiy xizmatchi, bo‘lishi mumkin bo‘lgan yurish va o‘z harakatlari natijasini xayolan oldindan ko‘ra bilishi kerak, ularni o‘ylab ko‘rilganlari bilan solishtirishi kerak, vaziyatni kuzatib borishi kerak, o‘z xulq-atvorini nazorat qilishi kerak.

Ta’kidlash lozimki, har qanday faoliyatda sharoit o‘zgarishi faoliyat sharoitiga moslashuvni ta’minlovchi moslashuv mexanizmlarini “yurgazilishi”ni shart qilib qo‘yadi. Jangovar faoliyat ham o‘zining moslashuv(adaptatsion) mexanizmlariga ega, bir vaqtning o‘zida odam o‘zining hayoti xavf ostidaligiga holatida bo‘lsa, jangovar vaziyatga birdaniga to‘liq moslashib bo‘lmaydi.

Ertami, kechmi jangovar vaziyatlarda moslashuv buziladi, chunki ba’zi bir odamlarda bu juda erta bo‘lib o‘tadi, boshqalarda esa ahamiyatli darajada kechroq bo‘lib o‘tadi. Ushbu holat nafaqat odam mavjud bo‘lgan sharoitga, balki uning shaxsiy xususiyatlariga ham bog‘liq. Shuning uchun jangovar tayyorgarlik jarayonida barcha darajadagi komandirlar o‘z bo‘ysunuvchilarida ekstremal vaziyatlarda faoliyat muvaffaqiyatini shartlovchi shaxs sifatlarini shakllantirishi kerak. Bular qatoriga eng avvalo emotsional-irodaviy barqarorlik, stressga nisbatan tolerantlik, ma’naviy-axloqiy sifatlar kiradi.

Zamonaviy jang va yangi qurol-aslaha xarakteri jangovar faoliyatni murakkablashtirdi, qism va bo‘linmalar shaxsiy tarkibi oldiga muvaffaqiyatga erishish uchun axloqiy va psixologik jihatdan tayyor bo‘lishdek yuqori talab qo‘yadi. Shuning uchun harbiy xizmatchilar jangovar faoliyatining samaradorligi va ishonchliligining psixologik shartlari namoyon bo‘lishi juda muhimdir.

Harbiy nazariya va amaliyot uchun, urush va jangni odam psixikasiga ta’sirini bilish, ularni xulq-atvorini jangovar faoliyat sharoitida boshqarish, o‘ziga ishonchsiz, qo‘rquvni oldini olish va yengib o‘tish mohirona va fidokorona harakatlarga o‘rgatishni bilish o‘ta muhim. Jangovar faoliyatni o‘rganish harbiy xizmatchilarning jangovar harakatlarga psixologik barqarorligi va tayyorligi mohiyati va shartlari, zamonaviy jangovar harakatlar psixologik modelini tuzish yo‘llarini tuzishni tushunishga yordam beradi.

Harbiy-kasbiy faoliyatning boshqa turi – bu odatdagi, tinchlik sharoitidagi faoliyatdir. Bir qarashda bu faoliyat odam armiyaga chaqirilishidan oldin yoki shartnoma asosida harbiy xizmatga kelgandan avvalgi faoliyatdan unchalik farq qilmaydi. Lekin bu fikr, xato fikr.

Haqiqiy harbiy xizmatga kelgan, harbiy bilim yurtiga kirgan yoki shartnoma asosida harbiy xizmat qilmoqchi bo‘lgan yosh yigit, birinchi o‘rinda o‘zining xulq-atvoridagi o‘rganib qolgan stereotiplari (odatlarini) yo‘qotishi kerak. Bu harbiy xizmat o‘tashning xususiyatlari bilan bog‘liq.

Masalan, yakkaboshchilik prinsipi amalga oshirilishi o‘z irodasi, hohishlarini ongli ravishda boshqa odamga – komandirga bo‘ysundirish, ijtimoiy-psixologik rejada shaxsiy ozodlik va tanlov imkoniyati yo‘qligi bilan kuzatiladi. Shaxsiy ozodlikning chegaralanganlik darajasi zaruriyati harbiy xizmatning reglamenti belgilanganligi bilan shartlangan (bunga kun tartibining bajarilishi va boshqalar kiradi).

Harbiy xizmatchilar faoliyatining boshqa o‘ziga xosliklari kasbiy vazifani har qanday vaqtda, har qanday sharoitda bajarishga tayyorlik, shu bilan birga bevosita hayoti uchun xavf solingan paytda o‘z-o‘zidan aniq bir psixologik zo‘riqish paydo bo‘lishidir. Mohiyatan, tinchlik paytida harbiy-kasbiy faoliyat – jangovar harakatlarda ishtirok etishga tayyorgarlik bilan bog‘liq. U jangovar texnikalarni o‘rganish, zamonaviy jang olib borish uslublari, olingan bilimlarni shakllantirishni mo‘ljallaydi.

Yana shuni ta’kidlash kerakki, psixologik zo‘riqish yosh yigitning o‘rganib qolgan ijtimoiy muhitidan (oila, do‘stlari va shunga o‘xshash) ajralishi, yangi jamoaga moslashuvi, hayotiy istiqbollarning cheklanishi, ba’zi bir “ma’lumot cheklanishi” bilan shartlangan. Yosh yigitda harbiy xizmatga chaqirilganda kun tartibi va ovqatlanish tizimida o‘zgarishlar bo‘ladi, jismoniy zo‘riqishlar ko‘payadi, umuman energetik va almashuv jarayonlarini qaytadan o‘zgartirish bilan shartlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xoliqova D.A. Harbiy didaktika va psixologiya asoslari.-T.: AVS RU 2019.-312/146

b.
2. Военная психология. Учебник для вузов / Под редакцией Маклакова А. Г. – Санкт-Петербург: Питер, 2005 – 464 с.
3. Каменская В. Г. Психологическая защита и мотивация в структуре конфликта. / – С. Петербург: Детство-пресс, 1999.
4. Киргизова М.К. Актуалные проблемы военной педагогики. / Учеб. пособие. – Ташкент: Академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан, 2006. – 73 с.
5. Samarov R., Qodirov U. Shaxsning psixologik himoyasi – barqarorlikni ta'minlash asosi // "Ta'limmuammolari"jurnali. 2010, 1-son.
6. Samarov R.S., Zaxidov Sh.B. Психодиагностика в системе профессионално-психологического отбора в ВС // O'zbekistonda Amaliy psixologiyaning holati va rivojlanish istiqbollari, 2-qism. - Toshkent: O'zbekiston psixologlar Assotsiatsiyasi. 2008.
7. Римская Р., Римский С.. Практическая психология в тестах, или как научится понимат себя и других. – М.: АСТ-ПРЕСС,2001. – 376 с.
8. Mirabdullaeva Sh.A. Harbiy psixologiya. – T.: AVS RU, 2019.-490 b..
Internet ma'lumotlari:
1. www.pedagog.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.ziyo.edu.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.istedod.uz

BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI KURSINING ASOSIY MAQSADI VA VAZIFALARI.

Mustafaqulova Dildora Ismatulllayevna,
Jizzax Davlat pedagogika universiteti Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi,
Xasanboyev Begzod Ziyodulla o'g'li
JDPU biologiya yo'nalishi I-kurs talabasi.

Biologiya o'qitish metodikasi biologiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv jarayonlar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandir. Mazkur qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab biologiya darsi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi.

Biologiya o'qitish metodikasi biologiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishni maqsad qilib qo'yadi. Biologiya o'qitish metodikasining asosiy vazifasi o'quvchilarga biologik o'quv fanlar bo'yicha chuqur atroflicha bilim berish, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Biologiya o‘qitish metodikasi fan sifatida Har qanday fan insonning tadqiqot faoliyati bilan aloqador bo‘lib, u narsa va hodisalar to‘g‘risida bilimlar to‘plashga yo‘nalgan, hamda tadqiqot qilinayotgan narsa hodisalar to‘g‘risida to‘liq va chuqur bilim olishga qaratilgan. Fanning asosiy funksiyasi tadqiqot hisoblanadi. Biologiya o‘qitish metodikasi fan sifatida mazkur fan bilan bog‘liq o‘quvchilarning bilim olish, tarbiyalanish va rivojlanishini nazariy va amaliy jihatidan tadqiq qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Fanning asosiy belgisi bo‘lib, maqsadning aniqligi, o‘rganish predmeti, bilimlarni bilish usullari va shakllari hisoblanadi. Shu bilan birga fanning rivojlanish tarixi, uning boyishiga sababchi bo‘lgan kashfiyotlarni qilish ham muhim sanaladi.

Biologiya o‘qitish metodikasi pedagogik fanlar tarkibiga kiradi. Shu sababli uning oldida turgan maqsad va vazifalar ham umumpedagogik maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Biologiya o‘qitish metodikasi barcha o‘quv fanlarga taalluqli bo‘lgan pedagogik qoidalarni, biologik o‘quv materialiga tatbiq etishga yo‘nalgan. Shu bilan bir qatorda biologiya o‘qitish metodikasi tabiiy, ilmiy, biologik, psixologik, pedagogik bilimlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Biologiya o‘qitish metodikasi biologiya o‘quv fanining o‘qitish maqsadini, mazmunini, biologik bilimlarning tanlash prinsipini belgilab beradi. Biologiya o‘qitishning hozirgi davrda samarali bo‘lishi o‘quvchilarning o‘quv, mehnat va jamoat faoliyatlarida qatnashish uchun zarur bo‘lgan biologik bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarni egallaganliklari bilan belgilanadi. Ular esa o‘z navbatida o‘quvchilarning tarbiyalanganlik natijasida, dunyoqarashi, e’tiqodi, tabiat, jamiyat va shaxsga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning rivojlanish darajasi, qobiliyati, jismoniy va amaliy jihatdan takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji bilan ifodalanadi.

Biologiya o‘qitishning maqsadi yuqorida qayd qilingan omillardan kelib chiqadi. Biologiya o‘qitishning maqsadlarini bilish o‘qituvchiga o‘qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Fan sifatida biologiya o‘qitish metodikasining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarning o‘qitish va tarbiyalash, kamolga yetkazishda o‘quv fanining o‘rnini aniqlash;

2. Maktab o‘quv dasturlari va darsliklarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga tatbiq etish;

3. O‘quvchilarning yoshiga mos ravishda o‘quv fanlarining mazmuni, undagi mavzularning o‘rganish izchilligini belgilash;

4. Biologik o‘quv fanlarining o‘ziga xos tomonlarini e’tiborga olgan holda, o‘qitish usullarini, tashkiliy shakllarini ishlab chiqish;

5. O‘qitish jarayonida qo‘llash uchun zarur jihozlarni aniqlash

6.Biologiya xonasi, tirik burchak, tajriba yer maydonini tashkil etish, tabiiy, tasviriy, dinamik, audio, video vositalarini belgilash.

7 Biologiya o‘qitish metodikasining predmeti bo‘lib biologik bilimlarning maqsadi, mazmuni, o‘qitish usullari, shakllari, o‘quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishidir. Biologiya o‘qitish metodikasining ilmiy – tadqiqot metodlari:

1. Maktab o‘qituvchilarining ish tajribasini kuzatish va faoliyatidagi ijobiy, salbiy tomonlarini aniqlash;

2. Bu sohada to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va hal etilmagan muammolarni aniqlashtirish va ularni hal etish uchun zarur ishchi farazlarni ilgari surish;

3. Ilgari surilgan farazlarning qanchalik hayotga yaqin ekanligini aniqlash maqsadida maktablarda pedagogik tajribalar o‘tkazish hamda tajribaviy, nazorat sinflardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash;

4. Kuzatish va pedagogik eksperimentlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash;

5. Olingan ma’lumotlarga asoslanib, metodik maqolalar, qo‘llanmalar yaratish va ishlab chiqilgan fikr mulohazalarning ommaviy maktablarda tekshirishdan o‘tkazish va tasdig‘ini olish;

Hozirgi davrga kelib, biologiya o‘qitish metodikasida o‘tkazilgan pedagogik tajribalar natijasida “Biologik tushunchalarni rivojlantirish”, “Biologiyada o‘qitish shakllarining sistemasi”, “Biologiyada o‘qitish metodlari”, “Biologiyada ekologik tushunchalarni rivojlantirish”, “Biologiya o‘qitishning moddiy bazaviy sistemasi”,

“Pedagogika Oliy o‘quv yurtlari talaba biologlarning maktabdagi ishga metodik tayyorlash sistemasi” kabi nazariyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Maktablarda o‘qitiladigan biologiya o‘quv fanlarga qarab “Biologiya o‘qitish metodikasi” fani “Biologiya o‘qitishning umumiy metodikasi”, “Botanika o‘qitish metodikasi”, “Zoologiya o‘qitish metodikasi”, “Odam va uning salomatligini o‘qitish metodikasi” va nihoyat “Umumiy biologiyaning o‘qitish metodikasi” kabi xususiy o‘qitish metodika fanlariga ajratiladi. Biologiya o‘qitishning umumiy metodikasi barcha biologik o‘quv fanlariga oid o‘qitishning maqsadi, vazifasi, mazmuni, prinsiplari, usullari, vositalari, shakllari, biologiyani o‘qitish tarixi, bosqichlari kabi 8 masalalarni qamrab oladi. Xususiy metodikalar esa u yoki bu o‘quv fanining mazmuni o‘quvchilarning yoshi bilan bog‘liq dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekskursiyalar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish, jihozlash kabilarni diqqat markazida tutadi.

Fan sifatida biologiya o‘qitish metodikasining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarning o‘qitish va tarbiyalash, kamolga yetkazishda o‘quv fanining o‘rnini aniqlash;

2. Maktab o‘quv dasturlari va darsliklarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga tatbiq etish;

3. O‘quvchilarning yoshiga mos ravishda o‘quv fanlarining mazmuni, undagi mavzularning o‘rganish izchilligini belgilash;

4. Biologik o‘quv fanlarining o‘ziga xos tomonlarini e’tiborga olgan holda, o‘qitish usullarini, tashkiliy shakllarini ishlab chiqish;

5. O‘qitish jarayonida qo‘llash uchun zarur jihozlarni aniqlash.

6. Biologiya xonasi, tirik burchak, tajriba yer maydonini tashkil etish, tabiiy, tasviriy, dinamik, audio, video vositalarini belgilash.

7. Biologiya o‘qitish metodikasining predmeti bo‘lib biologik bilimlarning maqsadi, mazmuni, o‘qitish usullari, shakllari, o‘quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sulliyeva, S.X. Biologiya o’qitish metodikasi [Matn] : o’quv qo’llanma / S. X. Sulliyeva, Q.G’. Zokirov. - Toshkent : Complex Print, 2020. - 223 b.
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. -Toshkent MU. 2003.[1]
3. Rizoqulovna, B. M. T. Biologiya o’qitish metodikasi qo’llanma. Toshkent-2020[2]
4. Rizoqulovna, B. M. T. (2021). Biologiya fanini o’qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish samarasi.[3]
5. L.V.Golish, D. M. Fayzullayeva Pedagogik texnologiyalarni loyoxalashtirish va rejalashtirish. O’quv-uslubiy qo’llanma. «Iqtisodiyot» nashr., 2011[4]
6. Мустафақулова Д. И .Тизимли тафаккурнинг хусусиятлари. Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириў Некис,2022
7. Mustafaqulova D.I.Talabalarda tizimli tafakkurni rivojlantirish ,Journal of Natural Science N 5/3 2021
8. Mustafaqulova D.I. Biologiyaning tizimli xarakteri-talabalar tizimli tafakkurini shakllantirish imkoniyati. SCIENCE AND INNOVATION 2022

YOSHLAR AGRESSIYASINI KAMAYTIRISH VA IJOBIY XULQNI RAG‘BATLANTIRISH

Xasanova Iroda Alimjonovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchi xasanovairoda.ru@bk.ru
Turdiqulova Sevinch Ixtiyor qizi
Psixologiya yo‘nalishi I-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantirishning samarali usullari tahlil qilingan. Maqolada yoshlar agressiyasining psixologik, pedagogik va ijtimoiy sabablari, shuningdek, agressiv xulqni kamaytirish va ijobiy xulqni shakllantirish uchun qo‘llaniladigan usullar va metodlar ko‘rib chiqilgan. Agressiyani kamaytirishda psixologik treninglar, oilaviy muhitning ahamiyati, pedagogik usullar va ijtimoiy faoliyatlarning roli muhim ekani ta’kidlangan. Shuningdek, yoshlarni ijobiy xulq-atvorga rag‘batlantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish uchun kompleks yondashuvning zarurligi haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar. yoshlar agressiyasi, ijobiy xulq-atvor, psixologik treninglar, pedagogika, oilaviy muhit, ijtimoiy faoliyat, pedagogik usullar, agressiyani kamaytirish, xulq-atvor, psixologik yordam, tarbiya, yoshlar xulq-atvori.

Yoshlar orasida agressiya va tajovuzning ortishi jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy muammolardan biriga aylandi. Agressiya — bu xulq-atvorning salbiy shakli bo‘lib, u yoshlarda emotsional va psixologik tartibsizlikni paydo qilishga olib keladi.

Bundan tashqari, agressiya yoshlarning ijtimoiy adaptatsiyasiga, ta’limga va hayotning turli sohalaridagi muvaffaqiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maqsad yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantirishning samarali usullarini tahlil qilishdir. Ushbu maqolada agressiyani kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish uchun pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Yoshlar agressiyasining birinchi sababi ularning emotsional va psixologik holatidan kelib chiqadi. Stress, qo‘rquv, o‘zini kamsitish hissi va xatolarga nisbatan reaksiyalar agressiyani keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, shubhalar va ishonchsizlik ham agressiv xulq-atvorni shakllantiradi. [5]

Oilaviy muhit yoshlar xulq-atvoridagi muhim omillardan biridir. Oiladagi tarbiya, zo‘ravonlik, oilaviy murosasizlik yoshlarning emotsional barqarorligini buzishi va agressiyani shakllantirishi mumkin.

Ma’naviy, madaniy va ijtimoiy muammolar ham yoshlar agressiyasining sabablaridir. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar, televideniye va internet orqali xulq-atvorning zararli shakllari yoshlar orasida rag‘batlanmoqda.

Maktablardagi muammolar, ta’lim tizimidagi nosoha yoki o‘qituvchilar bilan munosabatlar yoshlar orasida agressiyani keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammolarga olib keluvchi omillar — har qanday ijtimoiy o‘rtada yoshlarning salbiy ta’sirga duchor bo‘lishi.[6]

Psixologik yordam va terapevtik usullar. Agressiyani kamaytirish uchun psixologik yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Voyaga yetmaganlar uchun maxsus psixologik treninglar, stress boshqarish usullari va xulq-atvorni to‘g‘rilash texnikalari (masalan, meditatsiya, yoga) samarali bo‘lishi mumkin. Psixologik konsultantlar yoshlar bilan ishlashda, ularning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish va emotsional barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan usullarni qo‘llashadi.

Pedagogik usullar. Maktablarda, oilada va jamoatda ijobiy xulqni rag‘batlantirish uchun pedagogik yondashuvlar muhim. Oqish va ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatlarni qo‘llab-quvvatlash, ijobiy xulq-atvorni targ‘ib qilish va yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish — bu yoshlar agressiyasini

kamaytirishning samarali yo‘li hisoblanadi. Maktablarda anjumanlar, master-klaslar va treninglar tashkil etish orqali yoshlar xulq-atvorini to‘g‘rilash va rag‘batlantirish mumkin. [3]

Ijtimoiy tarbiya va mukammal kundalik tashkil qilish. Yoshlar ijtimoiy tarbiya va kundalik rejalashtirish orqali o‘zlarini to‘g‘ri ifodalash va ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga yordam olishlari mumkin. Ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoaviy ishlash, odamlar bilan muloqot qilish va jamiyatga foyda keltirish yoshlarda ijobiy hissiyotlarni uyg‘otishga yordam beradi.

Oiladagi tarbiyani takomillashtirish. Oiladagi muhit yoshlarning xulq-atvoriga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar farzandlariga mehr-muhabbat, hurmat va ishonch muhitini yaratishlari kerak. Agressiya va tajovuzga qarshi ma’naviy tarbiya va ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantirish uchun oilada tartib va tizim yaratish muhimdir.[1]

Ijobiy xulqni rag‘batlantirish. Hamkorlik va ijtimoiy faoliyat Ijobiy xulqni rag‘batlantirishning asosiy yo‘llaridan biri – yoshlarni jamoaviy ishlashga jalb qilishdir. Turli jamoaviy faoliyatlar, sport va ijodiy o‘yinlar yoshlar orasida ijobiy munosabatlar va hamkorlikni rivojlantiradi.

Maqsadga yo‘nalish va motivatsiya.Yoshlar o‘zlarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadlarga ega bo‘lishlari kerak. Ota-onalar va pedagoglar yoshlarning qiziqishlarini va istaklarini qo‘llab-quvvatlash, ularga harakat va ishlash uchun motivatsiya berishlari kerak. [2]

Ma’naviy tarbiya va axloqiy qoidalar.Ma’naviy va axloqiy ta’lim yoshlar xulq-atvorini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Ijobiy xulq, mehr-muhabbat, va hurmatni rag‘batlantirish uchun o‘quv dasturlarida va oilada ma’naviy qoidalarni qo‘llash zarur.

Yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Agressiyaning sabablarini aniqlash, psixo-pedagogik usullar orqali yoshlarga yordam berish, ijtimoiy va oilaviy muhitni yaxshilash yoshlar xulq-atvorini to‘g‘rilashga yordam beradi. Yoshlarning ijobiy xulqini rag‘batlantirish va ularni agressiyadan xoli qilish uchun oila, maktab va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar yoshlar

xulq-atvorini to‘g‘ri shakllantirish va ularning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi. [4]

Yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish mavzusi sohada bir necha yillar davomida tadqiqot qilingan. Ushbu masala turli ilm-fan sohalarida, ayniqsa, psixologiya, pedagogika va sotsiologiyada ilmiy ishlar mavjud. Agressiya va ijobiy xulq-atvorning shakllanishida oilaviy muhit, ijtimoiy tarbiya, ta’lim va psixologik yordamning ta’siri haqida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Tadqiqotlar asosan agressiyaning kelib chiqish sabablari, uni kamaytirishning samarali usullari, hamda ijobiy xulqni rag‘batlantirishning turli yo‘llariga qaratilgan.

Psixologik tadqiqotlar. Psixologiya sohasidagi tadqiqotlar yoshlar agressiyasining psixologik omillarini o‘rganishga qaratilgan. Agressiyaning emotsional holatlar, stress, qo‘rquv, kamsitish hissini his qilish bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Psixologik yordam ko‘rsatish va terapevtik usullar yoshlarning agressiv xulq-atvorini kamaytirishda muvaffaqiyatli bo‘ldi. [6]

Pedagogik tadqiqotlar. Pedagogika sohasidagi tadqiqotlar agressiyani kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish uchun pedagogik usullar va treninglarning ahamiyatini to‘g‘ri tushunishga yordam berdi. Maktablarda agressiyaga qarshi o‘quv dasturlari va maxsus treninglarning samaradorligi o‘rganilgan. Shuningdek, pedagogik soha ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantirishda oila va maktabning hamkorligini muhim deb biladi. [5]

Ijtimoiy tadqiqotlar. Sotsiologiya sohasidagi tadqiqotlar yoshlar agressiyasining ijtimoiy omillarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Ma’naviy va madaniy omillar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari yoshlar xulq-atvorining shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy muhitdagi keraksiz ta’sirlar agressiyaga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda, yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish uchun ko‘plab tadqiqotlar va maqolalar chop etilgan. Bu tadqiqotlar ko‘pincha pedagogika va psixologiyaning sinovdan o‘tgan usullari asosida amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan. Hozirgi kunda oilaviy muhit, jamoat va maktabdagi tajribalar va psixologik metodlar yoshlar xulq-atvorini yaxshilashga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotlarning natijalari yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish bo‘yicha tizimli yondashuvlar va usullarning samaraliligini ko‘rsatmoqda. Psixologik va pedagogik ko‘mak, oilaviy muhit, ijtimoiy treninglar va jamoat tashkilotlarining yoshlar bilan ishlashdagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. [7]

Yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish mavzusidagi tadqiqotlarda qo‘llaniladigan metodlar har xil bo‘lib, ularning har biri aniq natijalarga erishish va ilmiy xulosalar chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida bu mavzuga oid tadqiqotlarda keng tarqalgan asosiy metodlar keltirilgan:

Analitik metod. Bu metod ijtimoiy va psixologik qoidalar, agressiyaning shakllanishi va yoshlar xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi omillar haqidagi mavjud adabiyotlarni tahlil qilishga qaratilgan. Analitik metod yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirishga qaratilgan ilmiy ishlarni va tadqiqotlarni o‘rganish, ularni taqqoslash orqali umumiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. [2]

Eksperimental metod. Eksperimental tadqiqotlar yoshlarning agressiv xulq-atvorini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirishda belgilangan pedagogik usullarning samaradorligini tekshirish uchun qo‘llaniladi. Bu usulda maxsus shartlarda, masalan, maktablarda yoki oilaviy muhitda, yoshlarga psixologik yordam berish, tarbiya vositalari va treninglar ko‘rsatish orqali xulq-atvor o‘zgarishi kuzatiladi.

Sotsiologik metod. Sotsiologik tadqiqotlar yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirishga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillarni aniqlashga qaratilgan. Bu metod orqali yoshlar orasidagi ijtimoiy munosabatlar, oilaviy muhit va jamiyatdagi ijtimoiy normalarning yoshlar xulq-atvoriga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani o‘rganiladi. So‘rovnomalar va intervyular orqali yoshlar bilan munozaralar olib borilishi mumkin. [1]

Psixologik testlash va so‘rovnomalar. Psixologik testlash metodi yoshlarning agressiya darajasini aniqlash va ularning psixo-emotsional holatlarini baholash uchun qo‘llaniladi. Testlar va so‘rovnomalar yoshlarning his-tuyg‘ulari, ularning psixologik

holatlari, ishonchsizlik va yoki stress darajalarini aniqlashga yordam beradi. Bu usul yoshlar xulq-atvorining o‘zgarishlarini kuzatish va agressiyani kamaytirishga qaratilgan yangi usullarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kuzatish. Kuzatish yoshlar xulq-atvorini o‘zgarishlariga erishish uchun ularning kundalik faoliyatlarini kuzatish usulidir. Bu metod orqali yoshlarning agressiv reaksiyalarini yoki ijobiy xulq-atvorini aniqlash mumkin. Kuzatish maktablarda, oilada yoki jamoatda o‘tkazilishi mumkin va shu orqali yoshlar xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanadi. [3]

Intervyu. Intervyu orqali yoshlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish, ularning agressiyaga bo‘lgan munosabatini va ijobiy xulqni rag‘batlantirishga oid fikrlarini to‘plash mumkin. Intervyu yoshlarning ijtimoiy va psixo-emotsional holatlarini ko‘proq tushunishga yordam beradi.

Qaydnoma va monitoring. Yoshlarning agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirishning samaradorligini baholash uchun qo‘llaniladigan metodlarning biri - monitoring va qaydnoma olishdir. Bu metod orqali tadqiqotchilar yoshlarning xulq-atvorini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayd qiladilar va har xil pedagogik usullarning yoshlar xulq-atvoriga ta’sirini aniqlashga imkon beradi.

Yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ko‘plab metodlardan foydalanish mumkin. Ushbu metodlar oilaviy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarni o‘rganishga yordam beradi va yoshlar xulq-atvorining ijobiy yo‘nalishda rivojlanishini ta’minlashga yordamchi bo‘ladi. Metodlarning to‘g‘ri tanlanishi va kompleks yondoshuvlar ishlatilishi tadqiqot natijalarining samaradorligini oshiradi. [4]

Ushbu muammo yechimi uchun tavsiyalar.

Psixologik va pedagogik treninglar tashkil qilish. Yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish uchun maktablarda, jamoat markazlarida va oilada psixologik va pedagogik treninglar o‘tkazish muhim. Bu treninglarda yoshlarga stressni boshqarish, konstruktiv muloqot usullari, emotsional samaradorlikni oshirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish texnikalari o‘rgatilishi kerak.

Oilaviy muhitni yaxshilash. Oila yoshlar xulq-atvorining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Ota-onalarga emotsional qo‘llab-quvvatlash, mehr-muhabbat, hurmat va ishonch muhitini yaratish bo‘yicha o‘quv dasturlari tashkil qilish lozim. Shunga muvofiq, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun ota-onalarga psixologik ko‘mak va tarbiya usullarini o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy dasturlar va faoliyatlar tashkil etish. Yoshlarni ijobiy xulq-atvorga rag‘batlantirish uchun ularni ijtimoiy faoliyatlar va jamoaviy ishlarga jalb qilish kerak. Bu sport, san’at, volonterlik ishi yoki ijtimoiy tadbirlar bo‘lishi mumkin. Bu turdagi faoliyatlar yoshlarning ijobiy munosabatlarini rivojlantiradi va agressiyani kamaytirishga yordam beradi. [3]

Pedagogik metodlarni takomillashtirish. Maktablar va ta’lim muassasalarida yoshlar agressiyasini kamaytirishga qaratilgan pedagogik metodlarni rivojlantirish kerak. Bunga ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantirish, hamkorlikka asoslangan ta’lim, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va psixoemotsional barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan o‘quv dasturlarini joriy etish kiradi.

Ta’lim va tarbiya sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish. Oila, maktab, jamoat va davlat o‘rtasida yoshlar xulq-atvorini shakllantirishda o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash lozim. Ushbu hamkorlik yoshlar uchun kompleks yordam ko‘rsatishni ta’minlaydi, ularning ijtimoiy faolligini oshiradi va agressiyani kamaytirishga xizmat qiladi. [7]

Ma’naviy tarbiyaga e’tibor berish. Yoshlarga ma’naviy tarbiya berish, ularni yomon xulq-atvordan qochish va ijobiy xulqni shakllantirishga rag‘batlantirish uchun ahamiyatlidir. Bunda, axloqiy qoidalar, adolat, mehr-muhabbat va jamiyatga foyda keltirish kabi g‘oyalarni yoshlarga qo‘llash kerak.

Yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirish – bu jamiyat uchun muhim va dolzarb masala. Oilaviy, ijtimoiy, pedagogik va psixologik omillar yoshlar xulq-atvorining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar, ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlar yoshlar agressiyasini kamaytirish va ijobiy xulqni rag‘batlantirishda hamkorlikda ishlashlari kerak. Tadqiqotlar va amaliyotdagi to‘g‘ri usullar yoshlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini rag‘batlantirishga xizmat

qiladi. Bunday tizimli yondashuvlar yoshlarning barqaror, ijobiy va faol fuqarolar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Ahmadaliyeva, N. Sh. Yoshlar agressiyasining sabablari va uning oldini olish usullari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. 2020
2. Голдобина, Л. А. *Психология подростков: агрессия и ее коррекция.* Москва: Питер. 2019
3. Shukurova, M. R. Oilaviy muhit va yoshlar xulq-atvori: tadqiqot va amaliy yondoshuvlar. Toshkent: "Toshkent" nashriyoti. 2018
4. Raximova, A. B. Pedagogik treninglar va yoshlar xulq-atvorini shakllantirish. Toshkent: Akademiya. 2021
5. Tursunov, Sh. A. Ijtimoiy faoliyat va yoshlar agressiyasining kamayishi. Toshkent: "Yoshlar" nashriyoti. 2022
6. Калигина, В. В. *Психология агрессии у подростков: теории и практики.* Москва: Аспект Пресс. 2021
7. Джеймс, Р. Т. *Youth and Aggression: Understanding the Roots and Responses.* New York: HarperCollins Publishers. 2018

ТАЪЛИМНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Аҳмедова Насиба Ачиловна

ЖДПУ, Умумий психология кафедраси катта ўқитувчиси

Умумий рақамлаштиришга қарамай, бугунги кунда ўқитиш ва ўқитиш аналог жараёнлар бўлиб қолмоқда. Ўқитиш бўйича замонавий тадқиқотларда ўқитувчи ва талаба ўртасидаги муносабатлар жиҳатига кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Бу муносабатларнинг сифати таълим самарадорлигига таъсир қилувчи муҳим омиллардан бири бўлганлиги сабабли, у билан доимий равишда ишлаш керак.

Мактабни рақамлаштириш бугуннинг асосий мавзусидир. Бу жараён таълимнинг барча соҳаларини яхшилаш ва таъсир кўрсатиш имкониятига эга, деб ишонилади, хоҳ у ўқувчиларнинг ютуғи, ўқувчилар мотивацияси ва, эҳтимол, таълимга универсал кириш. Шундай қилиб, дидактик муаллиф Ахел Кроммер Магазин Спраче журналидаги мақоласида планшетлар ва Интернет шунчаки янги фойдали воситалар эмаслигини таъкидлади.

Унинг фикрича, рақамли технологияларнинг ҳақиқий афзалликлари эски мақсадларга тезроқ эришиш имконини бераётганида эмас, балки улар “мақсадларнинг мутлақо янги уфқларини очади”. Ривожланаётган “рақамли маданият” “бутун жамиятни ҳатто “ўрганиш” ва “билиш” каби тушунчалар ҳам янги маъно касб этадиган янги тафаккур заминига интилмоқда”.

Анъанавий психологик-педагогик жараёнида ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги муносабатлар муаммоси кўплаб маҳаллий ва хорижий олимлар

томонидан тадқиқот мавзу муаммосидир. Шу билан бирга, замонавий таълим шароитида бу муаммо болаларнинг тажовузкорлиги ва оғишларининг кучайиши туфайли айниқса долзарб бўлиб қолди.

Ўқув жараёни ўқитиш ва ўқитишнинг бирлиги бўлиб, бу ерда ўқитувчи ва ўқувчининг фаолияти ўзаро боғлиқдир. Шунингдек, у ҳар хил турдаги муносабатларнинг аралаш тизимидир.

Бошқача қилиб айтганда, мактаб улкан ижтимоий механизмга ўхшайди, унинг хусусиятлари кичикроқ бўлинмалар - бошқарув, ўқитувчилар, ўқувчилар гуруҳлари, тематик кичик гуруҳлар (секциялар, тўгараклар, кенгашлар ва бошқалар) га боғлиқ бўлиб, уларнинг ҳар бири ўзига хос хусусиятларга эга. Бунда муносабатларнинг асосий турига - ўқитувчи ва ўқувчигага, шунингдек, билимларни узатиш ва ўзлаштиришнинг асосий элементига, шунингдек, антиижтимоий шахснинг психологик фаровонлигини очиб беришга алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир.

Россияда хизмат кўрсатган ўқитувчи, 686-сонли “Синф-марказ” таълим маркази директори Сергей Зиновевич Казарновскийнинг таъкидлашича, агар ўқитувчи бола билан келиша олмаса ва ота-онасини унинг олдига чақирса, бу нимадир нотўғри эканлигини англатади. Ушбу сўзлардан биз ўқитувчининг педагог сифатидаги асосий вазифалари ўқувчини ижтимоий ҳаётга имкон қадар мослаштириш, унга фундаментал билимлар тўпламини бериш, шунингдек, ўқувчига ўз шахсий фазилатларини топишга ёрдам бериш учун шахсий фазилатларни аниқлаш эканлигини тушунамиз. Мулоқотнинг бошида, энг муҳими, бир-бирингизни холис билиш, салбий стереотиплар, ўрнатилган фикрлардан воз кечиш ва сиз билан муносабатда бўлишингиз керак бўлган одам ҳақида мустақил нуқтаи назарни ривожлантиришга ҳаракат қилишдир. Бу ўқитувчи учун ҳам, талаба учун ҳам осон иш эмас, шунинг учун ҳам умумий тил ва ўзаро тушуниш қанчалик тез топилса, ўқув жараёнида қўйилган мақсадларга шунчалик тез эришилади. Ҳар бир ўқувчи индивидуалдир, шунинг учун ўқувчилар билан ишлашда ягона ёндашув бўлиши мумкин эмас. Мулоқотни энг самарали ўрнатиш учун ўқитувчи алоҳида ўқувчи билан ҳам, бутун синф ёки оқим билан ҳам муносабатлар ўрнатилиши, ўқитилаётган фан ўқувчига тегишли ёки йўқлигига эътибор бериши, турли мезонлар - жинс, ёш, миллат ва бошқалар бўйича ўқувчилар ўртасидаги миқдорий муносабатларни ҳисобга олиш, ўрганилаётган фан бўйича мотивацияни, ўрганиш қобилияти даражасини аниқлаш жоиздир.

Ўқитувчининг мақсади, худди ўқувчи каби, бир қарашда бир хил бўлишига қарамай, ўқувчилар билан мулоқотда бир қатор махсус асосий йўналишларни аниқлаш мумкин. Аввало, ўқитувчи ўқувчи учун мураббий лавозимида. Ушбу турдаги муносабатларни ҳисобга олган ҳолда, бу ерда ҳукмрон элемент ўқитувчи эканлигини тушуниш мумкин; У ўқув материалини ўзлаштириш учун тўлиқ жавобгарликни ўз зиммасига олади. Таълим

жараёнининг бирлиги мақсад даражасида белгиланади. Муҳим саволларни бериш керак:

-ўқувчининг мақсадлари борми (қандай турдаги?),

-ўқувчи қандай ўрганишни биладими ва ўқув жараёнида автономия борми?

Биринчидан, ушбу саволларга аниқ жавоб бериш учун ушбу мақсадлар бўйича келишиб олишингиз керак.

-Лекин ўз навбатида ўқувчи ҳам ўқитувчи муҳимроқ эканини, уни тинглаш ва фикрини ҳисобга олиш кераклигини тушунади;

-устоз айтган ҳамма нарсани сўзсиз имон билан қабул қилинг;

-у томонидан ҳимояланганлигини ҳис этинг. Бу ҳар кимга, айниқса, бошланғич синф ўқувчиларига таниш бўлган муносабатларнинг асосий туридир.

Шахс руҳиятининг мазмунини тушуниш учун мос "калит"ни топиш учун сиз идрок этишнинг барча механизмларидан фойдаланишингиз ва унинг барча томонларини ҳисобга олишингиз, ўқувчини "меҳрибон табиат" муҳити билан ўраб олишингиз ва шу билан портрет чизишингиз керак. Ўқитувчи одоб-ахлоқ кодексида шундай дейилиши кераклигига ҳақли равишда ишонишимиз мумкин: ўқитувчи - бу бадиий касб. Ҳар бир инсон ўзини қадрлаш ҳисси билан туғилади. Ҳаётга, тарбияга киришнинг ҳар қандай жараёни эса маълум даражада мажбурлаш жараёнидир. Ўз-ўзини ҳурмат қилишни камайтирмасдан қандай мажбурлаш керак? Бу санъат. Буни фақат ўқитувчи қила олади. Шунинг учун, боланинг тўғри ривожланиши учун катталар бериши мумкин бўлган асосий ғоя сифатида болага бўлган муҳаббатни таъкидлаш керак. Болага қизиқишсиз ва унга муҳаббатсиз мулоқот зарарли мулоқотдан бошқа нарса эмас.

Польшанинг буюк ўқитувчиси Януш Корчак болани ота-онаси эмас, балки ўзи бўлишга чақирди. У ота-оналар қилган ҳар бир нарса учун миннатдорчилик талаб қилмасликлари кераклигига ишонтирди. Агар сиз буни талаб қилмасангиз, унда миннатдорчилик янада ҳалол бўлади. Януш Корчак боладан хафа бўлмаслик кераклигини ўргатган ва унинг муаммоларини қадрлашга чақирган. Болани ташвишга соладиган ҳамма нарса, ота-она учун улар кулгили туюлиши мумкинлигига қарамай, у учун жиддий муаммодир. Унинг меҳрибонлик уйида болани камситмаслик асосий қоида бўлган ва ҳамма бу қоидага амал қилган.

Унинг меҳрибонлик уйида тез-тез бир-бири билан жанжаллашадиган болалар ҳам бир-бирларини севиб, кичикга ҳам, каттага ҳам ҳурмат кўрсатишга ҳаракат қилишган.

Януш, шунингдек, болаларни ўзиники ва бошқаларникига ажратмасликни васият қилган. У барча болаларга ёрдам беришга чақирди, шунда кимдир сизнинг болангизга ҳам ёрдам беради.

Унинг мафкураси педагогик жиҳатдан болага муҳаббат ва унинг ўзини ўзи англашига ёрдам беришга асосланган.

Ғалати, лекин ўқитувчи ўқувчи учун дўстнинг қиёфасини белгилаш учун ўзига "мантия ташлаши" мумкин. Ушбу турдаги муносабатлар талабанинг ўқитувчига ўртоқ ёки бир хил дунёқараш тарафдори сифатида муносабатда бўлишини таъминлайди.

Бу шуни кўрсатадики, асосий мулоқот нафақат ўқитувчидан талабага, объект сифатида субъектга, балки қарама-қарши ёъналишда ҳам ёъналтирилади. Бундай ҳолда, талаба, масалан, ўқитувчига ўз ғоялари ёки тажрибасини баён қилиши ва шу билан ўзаро мулоқотга кенг эркинлик бериши мумкин (коммуникатив проксемика доирасидаги ва инсоннинг ижтимоий табиатига эркинлик бериш, яъни ўзаро таъсир қилиш).

Аммо бу тушунчалар нимани англатади? Мисол учун, америкалик психолог Герберт Меад ўзаро таъсирни "мен" нинг шаклланиши деб таърифлайди.

Шундай қилиб, биз университетда ўқитувчи, мактаб психологи (яъни, "объект-субъект" ўзаро таъсири) айланишини кўрамиз. Менимча, бу болаларнинг ўқув жараёнидаги муҳим бўғиндир. Чунки Бу босқичда субъект ва объектда аффектив эмпатия ҳисси намоён бўлади. Эмпатия бошқа одамни тушунишнинг махсус усули сифатида ҳам таърифланади. Фақат бу ерда биз бошқа одамнинг муаммоларини оқилона тушунишни эмас, балки унинг муаммоларига ҳиссий жиҳатдан жавоб бериш истагини назарда тутамиз...

Менимча, ўқитувчи томонидан битимда энг тўғри ва мақбул деб қабул қилинган асосий нарса бу ўқувчининг ўзини нафақат бола, балки мураббий - катталар позициясидан ҳам ифодалаш қобилиятидир.

G'OFUR G'ULOMNING «SHUM BOLA» ASARIDAGI QAHRAMONNING PSIXOANALITIK VA IJTIMOIY TAHLILI.

Tashmatov Doniyor Kalonboy o‘g‘li.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 4-bosqich 408-guruh sirtqi ta’lim tinglovchisi III-darajali serjant

G'ofur G'ulomning «Shum bola» asari XX asrning eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Muallif qahramonining ichki dunyosini ustalik bilan tasvirlaydi, uning shaxsiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy haqiqat bilan to'qnashuvlarini ko'rsatadi. Asarning markazida yoshlikdagi bolalarning o'sish va rivojlanish jarayonida o'z o'rnini topishga intilgan qahramon tasvirlanadi.Ushbu ishning maqsadi — asosiy qahramonning psixologik holatini psixoanalitik nazariyalar yordamida tahlil qilish va ijtimoiy muhitning uning rivojlanishiga ta'sirini ko'rib chiqish. Biz

qahramonning ichki dunyosini chuqurroq tushunish uchun psixoanalizning yondoshuvlarini, shuningdek, ijtimoiy muhitni baholashda sotsiologik tushunchalarni qo'llaymiz.

Nazariy qismga o‘sak psixoanalitik yondoshuv adabiy qahramonlarni tahlil qilishda, psixoanaliz — shaxsiyatning chuqur qatlamlarini, ongsiz xohishlar va qahramonning ichki ziddiyatlarini o‘rganishda muhim vositadir. G‘ofur G'ulomning asari doirasida psixoanalizning asosiy maqsadi — qahramonning xulq-atvorining sabablarini aniqlash va uning xatti-harakatlariga ta'sir qilayotgan yashirin kechinmalarni ochib berishdir.

Freydning nazariyasiga ko‘ra, ongsizdagi ichki kechinmalar va xohishlar shaxsiyatning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Asardagi qahramon yashirin, bostirilgan xohishlarga ega bo‘lishi mumkin, bu esa uning xatti-harakatlari, atrofidagi odamlar bilan munosabatlari va ichki ziddiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, psixoanaliz qahramonning og'riqli kechinmalaridan himoyalanish uchun ishlatadigan himoya mexanizmlarini, masalan, repressiya, proektsiya yoki bostirishni aniqlashga imkon beradi. Bu uning ichki dunyosini va tashqi reallik bilan qanday munosabatda bo‘lishini tushunishga yordam beradi.

Ijtimoiy muhitning shaxsiyatni shakllantirishdagi o‘rniga keladigan bo‘lsak, Ijtimoiy muhit shaxsiyatning shakllanishida hech kam ahamiyatga ega emas. G‘ofur G'ulomning asarida qahramonning dunyoqarashiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillar ko‘rsatilgan. Oila tarbiyasi, sinfiy ajratish, shuningdek, o‘sha davrning axloqiy va madaniy me'yorlari o‘smirning xulq-atvoriga va dunyoqarashiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhit asarda qahramonning oilasi, jamiyat, va boshqa ijtimoiy muhit bilan munosabatlari orqali ifodalanadi. Ushbu omillarni tahlil qilish qahramonning ichki dunyosining o‘sha davr va ijtimoiy muhitda qanday shakllanganini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Qahramonning ichki kechinmalarini tahlil qilsak asar qahramoni o‘smir bo‘lishi sababli, u o‘z yoshiga xos ichki ziddiyatlarni boshdan kechiradi. Ushbu kechinmalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning oila va atrofdagi jamiyat bilan munosabatlariga bog‘liq. Uning xulq-atvorida mustaqillikka intilish, hayot ma'nosini izlash va ko‘pincha

qarama-qarshi xatti-harakatlar koʻrinadi. Qahramonning ichki dunyosining markaziy jihatlaridan biri uning onasi bilan boʻlgan ziddiyatidir. Qahramon, ehtimol, kattalardan e'tibor yoki tushunishni sezmaydi, bu esa uning begona boʻlish tuygʻusini shakllantiradi. Bu uning tanqidga nisbatan agressiv munosabatida yoki mustaqillikka boʻlgan intilishida namoyon boʻlishi mumkin. Bundan tashqari, oila bilan boʻlgan munosabatlarda yuzaga kelgan psixologik travmalar uning oʻzini va atrofidagi dunyoni qanday qabul qilishiga uzoq muddatli ta'sir koʻrsatishi mumkin. Masalan, qahramon oʻzini aybi ortidan xijolatlik sezishi mumkin, bu esa uning xulq-atvoriga ta'sir qiladi.

Ijtimoiy muhit tahlili shundan iboratki qahramon yashayotgan ijtimoiy muhit uning rivojlanishiga katta ta'sir koʻrsatadi. Gʻofur G'ulomning asari oʻsha davrning ijtimoiy haqiqatlarini, jumladan, sinfiy farqlar va ijtimoiy tengsizlikni aks ettiradi. Ushbu omillar qahramonning shaxsiyatini va uning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Oila: Qahramonning oilasida uning rivojlanishiga yordam beradigan hamda ichki ziddiyatlarini kuchaytiradigan omillar mavjud. Onaning kutilganidek muomala qilmasligi, uning avtoritarligi yoki aksincha befarqligi — bularning barchasi qahramonning dunyoqarashini shakllantiradi. Jamiyat: Jamiyatning kutganlaridan va axloqiy me'yorlaridan kutilgan talablar qahramonning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Masalan, jamiyatdagi oʻsmirlar tarbiyasi yoki ta'limga boʻlgan yondoshuv haqidagi stereotiplar qahramonning oʻzini ifoda etish va oʻzini anglash yoʻlida qoʻshimcha toʻsiqlarni yaratishi mumkin.

Xulosa qiladigan boʻlsak yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqib, biz shunday xulosaga kelishimiz mumkin: Gʻofur G'ulomning «Shum bola» asaridagi qahramonning ichki kechinmalari uning yashayotgan ijtimoiy muhitiga bevosita bog'liq. Psixoanalitik yondoshuv qahramonning ichki ziddiyatlarini, qoʻrqishlarini, xohishlarini va himoya mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy muhitni tahlil qilish uning shaxsiyatini va xulq-atvorini shakllantiruvchi tashqi omillarni aniqlashga yordam beradi. Gʻofur G'ulomning asari — bu faqat oʻsmir haqidagi hikoya emas, balki shaxsiyatning ijtimoiy va madaniy haqiqatlar kontekstida qanday shakillanishi haqida yorqin manzara. Ushbu ikki

elementning — qahramonning ichki dunyosi va ijtimoiy muhitining — o‘zaro ta'siri uning xulq-atvorini va dunyoqarashini tushunishga kalit hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ofur G‘ulom. (1954). Shum bola. Toshkent: “Yangi nashr”.

2. Freyd, S. (1923). id, ego va supper ego.

3.Erikson, E. H. (1950). Bolalik va jamiyat.

4.Mamatqulov, D. (1999). Ijtimoiy psixologiya: O'zbekiston, Tashkent.

5.Alimov, R. (2004). Adabiyotshunoslik: Teoriya va amaliyot. Toshkent: Muxlis.

HARBIY OLIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI O‘QITISh JARAYONIDA AXLOQIY-IRODAVIY TAYYORGARLIGI

M.R.Bekchanova ***Jamoat xavfsizligi universiteti “Tabiiy fanlar”kafedrasi o‘qituvchisi f.-m.f.b.f.d., (PhD)***

Zamonaviy Qurolli Kuchlarga bugungi kunda yuqori intellektga ega, nazariy va amaliy jixatdan tayyorgarligi yuqori bo‘lgan harbiy mutaxassislar tayyorlash doimo dolzarb muammolardan biri hisoblangan. Harbiy mutaxassislarni komil shaxs qilib shakllantirishning asosiy maqsadi professional kadrlarga bo‘lgan talablarni amalga oshirishdir. Harbiy oliy ta’lim muassasalari tizimini yanada takomillashtirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida harbiy ilm-fanning mutaxassislarni tayyorlashda maxsus o‘choqlariga aylantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Harbiy mutaxassislarni tayyorlashning boshida albatta harbiy ta’lim turadi va shuningdek kursantlarning axloqiy-irodaviy tayyorgarligini yuqori bosqichga ko‘tarish alohida e’tiborga molik masaladir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida (2020 yil) tarbiya va ta’lim tushunchalarga quyidagicha ta’rif berilgan: “Tarbiya aniq maqsadli ham ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon”[1].

Shuningdek qonunda “Ta’lim-tarbiya oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, malaka hamda ko‘nikmalarni shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon”[2] sifatida ta’rif berilgan.

Ushbu ikkita tushuncha doimo yonma-yon turgani kabi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ham yonma-yon ta’rif berilgan.

Professional kadrlarni tayyorlashda axloqiy-irodaviy tarbiya tushunchasi biri-biriga hamohang bo‘lib, bir maqsadga erishish va yo‘naltirish oldiga qo‘ygan maqsadga erishish uchun xizmat qiladi.

Harbiy oliy ta’lim tizimida bugungi kunda harbiy pedagogika va psixologiya fanlariga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Harbiy pedagogika va psixologiyada harbiy kadrlarning axloqiy-irodaviy tayyorgarligi doimo dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan va xozir ham xuddi shunday.

Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi ustida ko‘plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan.Harbiy oliy ta’lim sohasida kursantlarni o‘qitish va tarbiyalash muammolarining nazariy tomonlarini hamdo‘stlik davlatlari olimlardan Bazakov A.I., Lukov G.D., Barabanshikov V.A., Fedenko N.F., Babanskiy Y.K., Bikov A.K., Skotkin M.I., Biochinskiy I.V., Gulyaev V.N., Rudenko Y.K.,lar qisman o‘rganganlar. O‘zbekiston Respublikasida pedagog olimlar R.Maxmudov, K.Xoshimov, Sh.Akramova, A.Mirsoatov, Sh.Xatamov, R.Xodiev va Rasulmetov M.N.lar o‘zlarining ilmiy maqolalarida harbiy ta’lim va tarbiyaning kursantlarni o‘qitishdagi rolini ochib berishga e’tibor qaratgan.

Har bir harbiy pedagoglar asarlaridan, ilmiy maqolalaridan umumiy bir jihatni ko‘rish mumkin, ya’ni yuksak ma’naviy axloq va tartib intizom. Buyuk sarkardalarlarning tarixini o‘rganadigan bo‘lsak, ular ham axloqiy tarbiyaga ega bo‘lgan, irodali, mard, vatanparvar qo‘shinlarni o‘rgatishga va tarbiyalashga e’tibor qaratishgan. Sarkardalar qo‘shinlari orasida tartib intizomga rioya qilishni eng asosiy vazifalardan deb hisoblashgan[3].Tartib intizom bor joyda mustahkamlik va g‘alabaga ishonch bo‘ladi.Tartib intizom esa asosan qonunlarga buysunadi. Bugungi kunda Harbiy xizmatchilar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy

nizomlari talablariga buysunadi[4]. Umumharbiy nizomlar talablariga buysunish uchun harbiy oliy ta’lim muassasalari kursantlarini o‘qitish jarayonida, ularning axloqiy – irodaviy tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Yuksak axloqqa, mustahkam irodaga ega kursantgina, Umumharbiy nizomlarga, undan tashqari , qonunlarga, buyruqlarga buysunib o‘z Vatanini himoya qiladi.

Harbiylik kasbini o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan bugungi kun kursanti bevosita harbiy axloqqa ega bo‘lishi kerak. Tarbiyaning asosini axloq tashkil etishi hech kimga sir emas.

“Axloq”-arabcha so‘z bo‘lib, kishining tabiati, muomala, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab, xatti-harakat odobi degan ma’nolarni anglatadi[5].

“Axloq-odob” – odamlarning o‘z xulq-atvorida va kundalik harakatlarida amal qiladigan andozalar va me’yorlardir. Ushbu fikr bevosita harbiy xizmat olib boruvchi shaxslarga ham taalluqlidir.

Axloqiy tarbiyaning maqsadi ta’lim faoliyatining mazmunini boyitish orqali maqsadga erishiladi, buni ta’lim jarayonining sub’ekti va ob’ekti o‘rtasidagi hamkorlikning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi.

Kursantlarning axloqiy-irodaviy tayyorgarligi - bu harbiy xizmatchilarning shaxsiy va professional faoliyatida yuqori axloqiy sifatlar, irodasini xizmat faoliyatida namoyon qilishga yo‘naltirilgan tarbiya jarayoni. Harbiy tayyorgarlik harbiy kadrlarning ruhiy barqarorligini ta’minlash, ularning xizmat vazifalarini vijdonan bajarishlari hamda favqulotdagi vaziyatlarda mas’uliyat bilan qaror qabul qilishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Harbiy oliy ta’lim muassasalari kursantlarining ta’lim-tarbiya jarayonida axloqiy - irodaviy tayyorgarligining asosiy maqsadlari bizningcha keng tushuncha bo‘lib, quyidagilarga asoslanib olib boriladi.

1. Kursantlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, jasorat, mas’uliyat va adolat hislatlarini rivojlantirish.

2. Kursantlarning irodalarini ma’naviy axloqiy fazilatlarga suyanib mustahkamlash. Ularda mustahkam intizomni shakllantirib, kursantlarda sabr, favqulotdagi vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish.

3. Har bir harbiy xizmatchi kursantlarda ruhiy barqarorlikni ta’minlash.

Kursantlarda stress va emotsional bosimga chidamlilikni shakllantirish va rivojlantirish.

Harbiy oliy ta’lim muassasalari kursantlarini o‘qitish jarayonida axloqiy - irodaviy tayyorgarligini yuqorida qayd etilgan asosiy maqsadlaridan kelib chiqib quyidagi yo‘nalishlar buyicha tarbiyalash mumkin:

1) axloqiy tarbiya:

harbiy an’analarni o‘rganish va ularga amal qilish;

harbiylar jamoasida hamjihatlik va birdamlik muhitini shakllantirish;

me’yoriy huquqiy bilimlarni mustahkamlash.

2) irodaviy tarbiya:

qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyatini rivojlantirish;

favqulotdagi vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini o‘rganish;

ishonchli va qat’iyatli munosabatni shakllantirish.

3) ruhiy -amaliy mashg‘ulotlar orqali irodani mustahkamlash.

stressli holatlarda o‘zlarini boshqarish mashqlari;

sumulyatsiya mashqlarda bevosita ishtirok etish;

Murakkab vaziyatlarda kasbiy amaliy mashqlarni bajarish orqali iroda shakllanadi. Kursantlarda iroda - maqsadga intilish, qat’iyat, matonat, o‘zini boshqara olish kabi sifatlarni shakllantiradi.Bu sifatlar kursantlarning turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishida va muvaffaqiyatga erishishida muxim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini o‘qitish jarayonida axloqiy - irodaviy tayyorgarligi nafaqat o‘ziga, shuningdek tarbiya sub’ektlarining bevosita ishtirokiga bog‘liq deb hisoblaymiz.

Ushbu tayyorgarlik kursantlarning harbiy xizmatga tayyor bo‘lishlarini ta’minlash, ularda shaxsiy barqarorlik va yuksak intizom bilan kurasha oladigan professional kadrlar qilib shakllantirish asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, harbiy

xizmatchilarning shaxsiy mas’uliyatini va jamoa oldidagi burchini chuqur his qilishlari uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan, 3-modda.

2. O‘sha manba

3. Maxmudov R.M. Harbiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. -T. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018 yil. -160 bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari. -T. “Sharq”nashriyoti. 2007 yil

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.1. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -B.120.

INNOVATSION TIZIMLAR ASOSIDA TALABALARDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK STRATEGIYALARINING SHART –SHAROITLARI

Qayumov Shohruh Abdujalol o‘g‘li –
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktaranti

Anotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni 2024—2030 yillar davrida rivojlantirish konsepsiyasida jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasini to‘liq ko‘lamda rivojlantirish yo‘lida hozirgi paytda mamlakatda bunga to‘sqinlik qiluvchi bir qator quyidagi jiddiy kamchiliklar ko‘rsatilgan:aholini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etish, o‘sib kelayotgan avlodni uyg‘un ravishda ma’naviy va jismoniy kamol toptirishni ta’minlash uchun shart-sharoitlarni shakllantirish ishlarini tashkil etishning past darajasi, natijada — jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishni istovchilarning yetarlicha qamrab olinmasligiy oshlarni jismoniy rivojlantirish muammolarga oid materiallarni takomillashtirish, ta’lim jarayonida talabalar ning sport musobaqalarini tashkil etishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

Kalit so’zlar: Sog’lom turmush tarzi, aholi, innovatsiya, talaba, sport, immunitet, rivojlantirish, pedagogika, strategiya, olimpiada, mehnat, tabiat

Аннотация: В концепции развития физического воспитания и массового спорта в Республике Узбекистан на период 2024-2030 годов указан ряд серьезных недостатков на пути полномасштабного развития сферы физического воспитания и массового спорта в республике. В стране на данный момент: , в частности, широко привлекать молодёжь к занятиям физической

культурой и массовым спортом, организовать создание условий для обеспечения гармоничного духовного и физического развития подрастающего поколения. низкий уровень, в результате недостаточного освещения вопросов физического воспитания и массового спорта, совершенствованию материалов, связанных с проблемами физического развития студентов, развитию педагогических и психологических возможностей организации спортивных соревнований студентов в образовательном процессе придается особое значение.

Ключевые слова: Здоровый образ жизни, население, инновации, студент, спорт, иммунитет, развитие, педагогика, стратегия, олимпиада, труд, природа.

Annotation: In the concept of development of physical education and mass sports in the Republic of Uzbekistan for the period of 2024-2030, a number of serious shortcomings are indicated in the way of full-scale development of the field of physical education and mass sports in the country at the moment: in particular, to widely involve young people in physical education and mass sports, to organize the creation of conditions to ensure the harmonious spiritual and physical development of the growing generation. low level, as a result of insufficient coverage of physical education and mass sports, improvement of materials related to the problems of physical development of students, development of pedagogical and psychological possibilities of organizing sports competitions of students in the educational process is given special importance.

Key words: Healthy lifestyle, population, innovation, student, sport, immunity, development, pedagogy, strategy, Olympics, labor, nature

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish” [29] alohida a’kidlangan. Respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning soni yildan yilga ko‘paymoqda va ularning aksariyati o‘quv dasturlarida belgilangan yuklamalarni bajarishga to‘liq holatda tayyor emas. Jismoniy tayyorgarligi past bo‘lgan talabalar tomonidan mashg‘ulotlar rejimi doirasida tuzilgan o‘quv mashg‘ulotlari dasturlarini bajarilishi qiyin bo‘lmoqda. Bunga sabab, talabalarning jismoniy tayyorgarligi va ular tomonidan bajariluvchi me’yoriy testlar o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir. Mazkur holat turli darajadagi jismoniy rivojlanganlikka va jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalarning harakat faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan yangi klaster-modul metodini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

[29] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta Sh.M.Mirziyoevning “Jismoniy tarbiya va ommvaiy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-3031-sonli Qarori Lex.uz

Aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan keng qamrab olishni ta’minlaydigan innovatsion shakllar va mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni 2019 — 2023 yillar davrida rivojlantirish konsepsiyasida hamda O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 dekabrdagi PK.-421-son qarorida jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasini to‘liq ko‘lamda rivojlantirish yo‘lida Respublika mahallalari, tumanlari va mintaqalari bo‘yicha tegishli hududlarda aholining jins-yosh tarkibi xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o‘tkaziladigan sport tadbirlarining ommaviyligi va muntazamliligini ta’minlab sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish, aholining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etish ishlari doirasida sport muassasalari, ijro etuvchi hokimiyat organlari va joylarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘zaro hamkorligining namunaviy modelini ishlab chiqish va joriy etish, aholining turli qatlamlarini qamrab olishni kengaytirishga mo‘ljallangan o‘tkaziladigan «Sport — hayot tarzi» sport va jismoniy tarbiya — ommaviy mavzuli tadbirlarning turlari xilma-xil bo‘lishi va tez-tez o‘tkazilishini, yangi media-texnologiyalardan foydalangan holda faol ishtirokchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish choralarini ta’minlash, Jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasida, shu jumladan, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash uchun ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga investitsiyalarni keng jalb etish, fuqarolarda kichik yoshdan boshlab sog‘lom turmush tarziga, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga, sog‘lom, kuchli va amaliy ijobiy qiziqishni singdirishga yo‘naltirilgan tizimning yanada rivojlanishini ta’minlaydigan normativ-huquqiy bazani shakllantirish kabi vazifalar belgilangan bo‘lib, 2019 — 2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

Mijozni mo‘tadil qilish, ovqat iste’molida mijozni issiqchan yoki sovuqchanligiga qarab tanlash hamda havoni nam yoki quruqligiga e’tibor berish va hokazolar. Gavdani chiqindidan tozalash, shaxsiy gigienaga e’tibor berish. To‘g‘ri tuzilishni saqlash. Bo‘yiga nisbatan tana og‘irligini oshirmaslik. Burun orqali olinadigan havoni yetarli va yaxshi olish.Kiyimga e’tibor berish. Jismoniy va ruxiy harakatlarni tartibga solishlar kiradi.

Jismoniy tarbiya - pedagogik jarayon bo‘lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni shakllantirish ham yaxshilashga qaratilgan asosiy vositalardan biridir. Jismoniy tarbiya inson sog‘lom turmush tarzini tartibga solishda juda katta o‘rin tutadi va hech qanday isbot talab qilmasligini ko‘rsatadi.

Sog‘lom odamda mijoz pand berishining ehtimoli bor deb o‘ylash mumkinmi?

mumkin bo‘lsa juda ham uzoq. Sog‘lom bo‘lgan organizm o‘z-o‘zidan vaqtida, me’yorda, yaxshi ovqatlarni talab qiladi. Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadigan odam doimo yuvinib taranib yursa uning gavdasida chiqindini bor deb kim hisoblaydi. To‘g‘ri tuzilishu, nafas olishlarni gapirmasak ham bo‘ladi, negaki jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchi odamning qaddi-qomati kelishgan bo‘lishligi, nafas olishlari yuksak darajada rivojlanganligini bilmaydigan yoki bilsada tan olmaydigan odam bo‘lmasligining o‘zi kifoya.

Demak, XXI asrdagi aholi oldida turgan dolzarb muommolardan biri aholi istiqomat qilayotgan mintaqalarni, ularni o‘rab turgan atrof-muhitni tezroq sog‘lomlashtirishni talab etiladi.

Zamonaviy sport o‘yinlari — bu yuqori faol o‘yin harakatlari, o‘yinchidan funksional imkoniyatlari, tezlik, kuch sifatlarini safarbar etishni talab qilishi bilan ifodalanadigan atletik o‘yin.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining jismoniy tayyorgarligining asosiy maqsadi — o‘zini har tomonlama rivojlantirish, funksional imkoniyatlarini oshirish va salomatligini mustahkamlashdir. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantiruvchi bilimlar quyidagi vazifalarni yechishga qaratilgan:

— organizmning funksional tayyorgarlik darajasini oshirish va uning imkoniyatlarini kengaytirish;

—o‘yin faoliyati samaradorligini ta’minlab beradigan jismoniy sifatlar: kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik bilan bevosita bog‘langan kompleks jismoniy qobiliyatlar — sakrovchanlik, start tezkorligi va irg‘ituvchanlik harakatining quwati, o‘yin chaqqonligi, o‘yin chidamliligi darajasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori” 2015. 4-b.
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637, 2020 yil 23 sentabr.
3. Sh.M.Mirziyoevning oliy majlisga murojaatnomasi. // «Xalq so‘zi» gazetasi. 2020 yil, 25 yanvar, 19(7521)-son.
4. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi” //lex.uz// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.02.2019 y., 09/19/118/2612-son;

6. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son farmoni.

7. Sh.M.Mirziyoevning “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2019 yil 27 avgustagi PF-5789-soni farmoni.

8. Sh.A.Qayumov “Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi” Monografiya. T.: Ziyo chashmasi. 2023. 109 b.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH XIZMAT FAOLIYATIDA OLIB BORADIGAN XARBIYLARNING FUTBOL O’YINI ORQALI TEZKORLIK SIFATINI ZAMONAVIY USULLAR BILAN RIVOJLANTIRISH

Namozov Zafar Abduraximovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak harbiy xizmatchilar va jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning psixologik pedagogik bilimlarini futbol orqali integratsiya jarayonning ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqa prinsiplarining ayrim jihatlari yoritilib berilgan.

Tayanch so‘zlar: boshlangich ta’lim, o‘qituvchi, integratsiya, komponent, psixologik pedagogik, prinsiplar,bilim, ko‘nikma, malaka.

Harbiy futbolchining jismoniy sifatlarini tarbiyalash sport mashg‘ulotlarining muhim jihatlaridan biri sanaladi. Jismoniy sifatlar futbolchi organizmining morfo-funksional, morfo-fiziologik va biologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Jismoniy sifatlar shug‘ullanuvchilarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarliklarining takomillashuviga, butun organizm sog‘lomlashishiga, ruhiy emosional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, futbolchilar har bir harakatni tobora ishonch bilan bajaradilar, yangi harakatlarni tezroq o‘zlashtiradilar va yuqori natijali ko‘rsatkichlarga erishadilar.

Harbiy futbolchining asosiy jismoniy sifatlarini rivojlanishi harakat ko‘nikmalarining shakllanishi bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi. Ana shu jarayonga xizmat qiluvchi mashqlar sport mashg‘ulotlar mashg‘ulotlariga qat’iy izchillikda va ketma-ketlikda kirishiladi. Bugungi kunda futbolchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash uchun maxsus vositalardan, mashqlar majmuasidan foydalanishni o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Harbiy futbolchilarning tezkorlik sifatini

rivojlantirish nazariyasi usul va uslublari hozirgi asrga kelib adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tezkorlik sifatlarini oshirish uchun ko‘plab tadqiqot ishlari, ilmiy izlanishlar va amaliyotlar, xar-xil usul va uslublar hamma sport turlari uchun ishlanib o‘rganilib chiqilmokda. Maqsad va vazifalar. Hozirgi zamon futbolida o‘yin usullari takomillashib, futbolchilarning o‘yin harakatlari mukammallashib bormoqda.

Futboldagi yangi va samarali usullarning paydo bo‘lishi, futbolchilarning harakatlari yuksak darajada bo‘lishini talab etmoqda. Har bir futbolchi bir o‘yin davomida jamoasining g‘alaba qozonishi uchun ko‘pgina harakatlarni bajarishadi (1,3).

Bizga shu narsalar ma’lumki, futbolchilarning maydondagi asosiy harakatlariga: yurish, yugurish, to‘p bilan yurish, to‘p bilan yugurish, sakrashlar, to‘pga zarba berish to‘p bilan aldab o‘tish, to‘p uzatish, to‘pni to‘xtatish, to‘pni yon chiziqdan tashlash, jarima to‘pini bajarish, burchakdan to‘pni tepish, fintlar, podkad tashlash, to‘pni aniq mo‘ljalga yetkazish, raqib bilan to‘p uchun kurashish va boshqa bir qancha harakatlar kiradi. Harbiylar o‘rtasida o‘tkaziliayotgan musobaqalar tahlili hamda ilmiy izlanishlar shuni ta’kidlaydiki, musobaqa paytida samaradorlikka yetolmaydigan asosiy sifatlardan biri futbolchilarimizning jismoniy tayyorgarligining va tezkorlik tayyorgarligining pastligidir .

Ilmiy izlanishlarga qo‘shilgan holda 17 Harbiyga to‘lgan futbolchilarda tezkorlik sifati yuqori kvalifikasion sportchi darajasiga yetib borgan bo‘ladi. Keyinchalik uning sifatlari sezilarli darajada o‘zgaradi. Bunday jarayon sabablaridan biri nerv koordinatsiya aloqalari va nerv to‘qima apparati shakllanishining to‘xtashidir. Yana bir tomondan esa uslubiy faktorlarni ta’siri bo‘ladi. Bunda mashg‘ulotlar davomida tezkorlik sifatiga yunaltirilganlik yetarli darajada emasligi va mashg‘ulot samaradorligini oshirayotganda qo‘llaniladigan usul va uslublar oddiy, bir xilda ekanligi sabab bo‘lib kelmokda (45,59). Tadqiqot usullari va tashkil etilishi. Olimlarning ta’kidlashicha Harbiy futbolchilar malakali futbolchilarga qaraganda belgilangan vaqt ichida ko‘proq usullarni bajarar ekan. ko‘rinib turganidek, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq juda katta. Lekin hozirgi zamon futbolida esa bunday katta farq bo‘lishi mumkin emas Tadqiqot natijalari va ularni muxokama qilish.

Adabiyot manbalarni o‘rganib va o‘quv-mashg‘ulotlari shuni ko‘rsatadiki ko‘pgina futbol maktablari bulimlarida o‘smirlar va Harbiylarni tezkorlik tayyorlashga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Harbiy futbolchilar tarbiyasini metod va vositalar bilan oshirish asosida asosan tezkorlik sifatini tarbiyalash darajasini oshirish kerak.

Harbiy futbolchilarda tezkorlik sifatini oshirish dinamikasi quyidagicha xarakterlanadi: -natijalarning o‘sishiga qarab, 15-30 metrga startdan chiqishini baholash. -tayyorgarlik jarayonini oxirida 60 metrga yugurish natijasini ma’lum bir oshirish. -musobaqajarayonida 60 metrga yugurishning yuqori tezligini uzun fazalarda ushlay bilish. -musobaqa jarayonining tugashiga vertikal sakrashlarning yuqori natijasidan ham oshirishga harakat qilish. Harbiy futbolchilar mashg‘ulot jarayonida tezkorlikni oshirish uchun quyidagi mashqlardan foydalanilsa maqsadga muvofikdir: yugurayotgan vaqtlarda to‘pni oyoq bilan olib yurish, yugurayotganda to‘p bilan mashqlar bajarish, bundan tashkari to‘pni xar-xil olib yurishlar, aldab o‘tishlar, to‘p uzatishlar, darvozaga to‘pni tepish usullari kiradi. Bir mashqni bajarilishi uchun o‘rtacha 5-7 sekund vaqt beriladi. Yugurish oralig‘i 35 metr bo‘ladi. Olim shuni ta’kidlaydiki, ushbu mashqlar bajarish masofasini va vaqtini taqsimlay bilish mashqning ko‘p marotabalab bajarishiga bog‘liq.

Bu mashqlar futbolchilarning qobiliyatining o‘sishiga va funksional jismoniy sifatlarini oshishiga olib keladi. Harbiy futbolchilarda tezkorlikni tarbiyalash juda ham kerakli jarayondir. Futbolchilar ma’lum bir miqdorda tezlilik va kuchlilik va tezkorlik sifati bilan boshqa sport turi bilan shug‘ullanayotgan sportchilardan orqada. Bu tezkorlikni 11-12 Harbiydan boshlab tarbiyalash o‘rinlidir.

Futbolni zamonaviy talab darajaci asosida rivojlantirish futbolchilarning yuqori jismoniy tayyorgarligini talab etadi, shulardan eng asosiylaridan biri bu tezkorlik sifatini tarbiyalashdir. Harbiylarda bu sifatlarni tarbiyalashda eng muxim davr deb hisoblanadi. Tarbiyalash davrida tezkorlik sifati, hajmi, vosita va metodlarni o‘zgartirish o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini ma’lum bir darajadagi ijobiy natijalarini ko‘rsatadi. O’tkazilgan tajribalarimiz tahlili shuni ko‘rsatadiki, futbolchilarning layoqatligiga va qobiliyatlariga xar tomonlama aniq baxo berilishi futbolchi kelajagining samarali bo‘lishini tahlil qilib quyidagi xulosaga kelish mumkin,

Harbiylarga va o‘smirlarga tezkorliktayyorgarligiga yetarli darajada e’tibor berilishi uchun hozirgi talablarga javob beradigan metodlar bilan tarbiyalash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akromov R.A. Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash. Tosh. 1994 y 74 bet.
2. Borenbayev K.S. Pedagogicheskiye metodы i sredstva vospitaniye skorostnых kachestv u yunых futbolistov na etape nachalnoy spesializasii. Avtoref. 1999 g 22 str.
3. Drandrov G.L. Razvitiye skorostno-silovых kachestv i bыstrotы futbolistov 13-16 let s uchetom tipologicheskix osoьyennostey proyavleniya svoystv nervnoy sistemi. 1989 g.69 str.
4. Kayumov Sh.A Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini innovasion yondashuvlar asosida rivojlantirish. Avtoref. 2023 y. 19 bet
5. Basketbolchilarda tezkorlik, harakat texnikasi va aniqligi o`rtasidagi o`zaro bog`liqliq. “Jismoniy tarbiya, sport mashg`ulotlari nazariyasi va uslubiyatining nazariy-amaliy muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani -B. 256-259
6. Nurmatova Sh.M. Boshlang`ich tayyorgarlik bosqichida Harbiy basketbolchilarning harakat tezkorligini rivojlantish. FAN-SPORTGA” ilmiy-nazariy jurnal 2022. №3.-B.73-76.
7. Nurmatova Sh.M. Harbiy basketbolchilarning harakat tezkorligini rivojlantirishda maxsus mashqlar samaradorligi “FAN-SPORTGA” ilmiy-nazariy jurnal 2022. №7.-B.54-56.

MUSIQA – HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLOVCHI OMIL.

Madumarov Azizbek Dostonbekovich

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyi o‘qituvchisi.

Musiqaning inson psixologik holatiga ta’siri keng qamrovli va murakkab jarayon bo‘lib, u individual va ijtimoiy kontekstlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Harbiy xizmatchilar uchun esa musiqa nafaqat estetik zavq manbai, balki ularning stressga chidamliligini oshirish va psixologik barqarorlikni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16 fevraldagi PQ-129-son qarori bilan tashkil etilgan Harbiy musiqa akademik litseyi harbiy orkestr va badiiy jamoalar uchun maxsus musiqiy kadrlarni tayyorlashga

yo‘naltirilgan muhim institut sifatida shakllandi[1]. Ushbu maqola harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi va barqarorligini mustahkamlash jarayonida musiqiy ta’limning roli va samaradorligini ilmiy tahlil qiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligiga musiqiy ta’limning ta’sirini baholash uchun nazariy va empirik yondashuvlar uyg‘unligi qo‘llanildi. Ilmiy adabiyotlarning kontent-tahlili, harbiy musiqachilar bilan olib borilgan intervyular va harbiy orkestr ishtirokchilarining fiziologik hamda psixologik ko‘rsatkichlari asosida tadqiqot natijalari shakllantirilib, M. Y. Umurova[4], V. I. Petrushin [2], A. V. Fomin, M. A. Zotova[3], M. Vachi, M. Koyama, M. Utsuyama, B. B. Bittman, M. Kitagava va K. Xirokava [5] tadqiqotlari tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyining amaliy tajribasi tahlil qilindi. Xususan, xor ijrochiligi, orkestr yoki ansambl tarkibida kuylash va cholg‘u ijro etish insonda jamoaviylik, hamkorlik va o‘zaro hurmat kabi muhim fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, jamoaviy musiqiy faoliyat shaxsda kollektiv fikrlash, mas’uliyat hissi va bir-birini qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [2,70-b].

Shu nuqtai nazardan, M. Vachi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot diqqatga sazovor. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, baraban chalgan guruh a’zolarida nazorat guruhiga nisbatan immun tizimi hujayralari faolligining normallashuvi va kayfiyatning ko‘tarilishi kuzatilgan [5, 65-b]. Ushbu dalillar baraban chalishning neyroendokrin va neyroimmun tizimlarga stressga qarama-qarshi yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga egaligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Musiqa va psixologik barqarorlik

Musiqa harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim omildir. Turli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqaning emotsional-regulyativ funksiyalari insonning stressga chidamliligini oshiradi, fiziologik ko‘rsatkichlarini optimallashtiradi va kognitiv jarayonlarni faollashtiradi.

Harbiy sharoitda, ayniqsa, yuklama kuchaygan holatlarda, musiqa reflektiv va adaptiv xususiyatlari orqali jismoniy va aqliy barqarorlikni ta’minlaydi.

2. Stressni kamaytirish va o‘zini boshqarish qobiliyatini oshirish

Musiqaning stressni kamaytirishdagi o‘rni empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan bo‘lib, ayniqsa, harbiy orkestr mashg‘ulotlarida qatnashish xizmatchilarning fiziologik va emotsional holatini me’yorlashtirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ritmik va harmonik tuzilmalarga asoslangan musiqa parasimpatik asab tizimini faollashtirib, kortizol sekretsiyasini kamaytiradi, bu esa stress reaksiyalarining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, musiqaviy repetitsiyalar xizmatchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatini kuchaytiradi va operativ qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilaydi.

3. Harbiy musiqa akademik litseyining amaliy tajribasi

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyi harbiy orkestrlar va badiiy jamoalar uchun zarur bo‘lgan musiqiy kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Litsey o‘quvchilari harbiy orkestr va ansambllarda faol ishtirok etish barobarida musiqiy psixologiya asoslarini ham o‘rganish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, 2024 yil dekabr oyida litsey ta’lim tizimidagi 80 yillik ilmiy-ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan "Musiqiy ta’lim va harbiy vatanparvarlik an’analarining istiqboli" mavzusidagi I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Ushbu konferensiyada harbiy musiqiy ta’limning zamonaviy muammolari, uning strategik istiqbollari va psixologik aspektlari chuqur muhokama qilindi.

Musiqiy ta’lim harbiy xizmat sharoitida psixologik barqarorlikni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Harbiy orkestr va ansambllarda ishtirok etish xizmatchilarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi, jamoaviy birdamlikni mustahkamlaydi va hissiy barqarorlikni oshiradi. Musiqaning harbiylar hayotidagi roli faqat motivatsion omil sifatida emas, balki ruhiy muvozanatni saqlash, operativ vaziyatlarga moslashuvchan yondashish va stress reaksiyalarini kamaytirish jarayonlarida ham sezilarli darajada namoyon bo‘lmoqda.

Harbiy xizmatchilar kundalik hayotda yuqori stress darajasiga duch keladi, bu esa ularning kognitiv faoliyatiga va psixoemotsional holatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, klassik musiqa, ayniqsa, Motsart kompozitsiyalari, stressni kamaytirish va harbiy xizmatchilarning diqqat-e’tiborini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, "Motsart effekti"ning neyrofiziologik jihatlari insonning idrok va fikrlash jarayonlarini yaxshilashda samarali ekani bilan ajralib turadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokni shakllantirish va rivojlantirish ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu yosh davrda bolalar jismoniy, hissiy va intellektual jihatdan tez rivojlanishadi, shuning uchun ularning ijtimoiy muhiti ularning idrokiy qobiliyatlari va fikrlash mahoratining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

1. Ijtimoiy muhitning ta’siri. Maktabgacha yoshdagi bolalarning idroki, asosan, ularning atrofidagi odamlar bilan o‘zaro aloqalari orqali shakllanadi. Bola oilada, bolalar bog‘chasida va keng jamiyatda boshqalar bilan munosabatda bo‘lish orqali oliy ta’lim va bilimlarni, ahloqiy normalarni, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Ular kim bilan va qanday munosabatda bo‘lishni o‘rganishadi, bu esa ularning ishlash va fikrlash qobiliyatlariga ta’sir qiladi.

2. Ta’lim va o‘yinlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar muhim oralashuv vositasi bo‘lib, ular orqali bolalar dunyoni tushunishadi va o‘zgarishlarga munosabat bildirishni o‘rganishadi. Ijtimoiy o‘yinlar (masalan, rol o‘yinlari, guruhdagi o‘yinlar) bolalarning ijtimoiy idrokini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu o‘yinlarda bola boshqalarning hissiyotlari va ehtiyojlarini tushunish, uziga xos munosabatlarni hosil qilish va guruhdagi faoliyatga integratsiya qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

3. Ta’lim beruvchilar va oilaning roli. Maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilada bolalarning idrokiy rivojlanishiga muhit yaratish muhim. Ta’lim beruvchi va oila a’zolari bola bilan ijtimoiy aloqa o‘rnatib, ularga yaxshi munosabatlar, muloqot va turli qiziqarli faoliyatlar orqali bolaning idrokiy quvvatlarini rivojlantirishga yordam beradilar.

4. Ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish. Bolalarga axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni o‘rgatish – ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zgaruvchan va nafsoniy ehtiyojlarning ta’sirida bo‘lishsa-da, ularning oilasi va jamiyati ularga axloqiy qoidalarni va ijtimoiy normalarni tushuntirish va ularga bog‘liq xulq-atvorlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning idroki va ijtimoiy rivojlanishi, ularning muhitiga bog‘liq. Oila, maktab va atrofdagi ijtimoiy muhit, ularga ijtimoiy ko‘nikmalarni va qiymatlarini o‘rgatib, kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning idroki va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun oila, maktab va jamiyatning birgalikda faol ish olib borishi zarur. Tavsiyalar har bir faoliyat va muhitda bolalarning rivojlanishini ko‘zda tutadi va ularning ijtimoiy-emotsional, kognitiv va axloqiy ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

1. Ijtimoiy muhitni yordamchi qilish zarur.

Oilada ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash: Bolalarning yoshlarini hisobga olgan holda oilada o‘zaro muloqotni rag‘batlantirish muhim. Bolalarga o‘z fikrlarini

erkin bildirish va boshqalar bilan qarorlar qabul qilishga yordam berish, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ijobiy o‘rnak ko‘rsatish lozim. Bolalar kattalarning xulq-atvori va munosabatlarini kuzatib, ulardan ko‘p narsani o‘rganadilar. Shuning uchun oilada va maktabda yaxshi munosabatlar va madaniyatni o‘rnatish zarur.

2. Maktabgacha ta’limda faoliyat va o‘yinlar orqali ta’lim berish shart.

Rol o‘yinlar va ijtimoiy o‘yinlar: Oilada va maktabda bolalarga turli ijtimoiy rollarni bajarishga imkon berish. Masalan, «doktor-xokim» kabi rollar orqali bolalar boshqalarning hissiyotlari va ehtiyojlarini tushunishga o‘rganadilar.

Guruhdagi faoliyatlar: Bolalarni jamoaviy o‘yinlarda ishtirok ettirish, ularga boshqalar bilan hamkorlik qilish, muammolarni hal qilish va jamoada faol ishlash ko‘nikmalarini oshiradi.

Munosabatlar va ehtiyojlarni tushunish: Bolalarga boshqalarning ehtiyojlarini va hissiyotlarini tushunishga yordam beradigan o‘yinlar va faoliyatlarni tashkil qilish.

3. Ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish zarur.

Axloqiy normalarni shakllantirish: Bolalarga yoshlariga mos tarzda axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy normalarni tushuntirish. Masalan, “hurmat” va “adolat” kabi konsepsiyalarni og‘zaki so‘z va amallar orqali o‘rgatish.

Empatiyani rivojlantirish: Bolalarga empatiya va boshqalarning hissiyotlarini tushunishni o‘rgatish zarur. Bu bolalarni yordam berish, rahm-shapkatlik va boshqalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishga undaydi.

4. Pedagogik yordam va individual yondashuv kerak.

Individual yondashuv: Har bir bolaning xususiyatlari va qobiliyatlarini inobatga olish. Pedagog bola bilan individual ishlash orqali uning ehtiyojlariga mos ta’lim va treninglarni tashkil qilishi lozim.

Ta’lim beruvchilarning rolini kuchaytirish: Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning bolalar bilan bo‘lgan munosabatlari juda muhim. Ularning yordami bilan bolalar ijtimoiy aloqalarda qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirish olishadi.

5. Shaxsni mustaqillikka undovchi muhit yaratish.

Mustaqil ishlashga imkon berish: Bolalarga o‘zini-o‘zi tarbiyalash va mustaqil qarorlar qabul qilishga ko‘maklashish. Masalan, bolalarga muammolarni o‘zlari hal qilish, yangi vazifalarni bajarishda yordam berish, ularning ishonchini oshiradi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Javobgarlik va hissiy xulq-atvorni rivojlantirish: Bolalarga o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishni o‘rgatish. Ular har bir harakatining oqibatlarini tushunib, o‘z atvorlarini tartibga sola olishlari kerak.

6. Hissiy intellektni rivojlantirish.

Xissiy o‘zini idora qilish: Bolalarga o‘z hissiyotlarini tanish, tushunish va idora qilishni o‘rgatish. Bu, ularga stress va tartibni saqlashda yordam beradi, shuningdek, ijtimoiy muhitga moslashishga yordam beradi.

Xissiy empatiyani targ‘ib qilish: Bolalarga hissiy empatiyani oshirish uchun maxsus mashg‘ulotlar olib borish, ya’ni ularga bir-birining hissiyotlariga ehtiyojlarini tushunishga yordam berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokni shakllantirish va rivojlantirish uchun oila, maktab va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bolalarga ijtimoiy ko‘nikmalarni, axloqiy qadriyatlarni va empatiyani o‘rgatish, ularning idroki va shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Faoliyat orqali ta’lim berish, individual yondashuv va yordamchi muhit yaratish bolalarning rivojlanishini rag‘batlantiradi va ularga ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Piaje J. «Intellektning rivojlanishi» (The Psychology of Intelligence) Nashriyot: Routledge & Kegan Paul (UK)

2. Vigotskiy L. S. «Ijtimoiy psixologiya» (Social Psychology) Nashriyot: Harvard University Press (USA)

3. Erikson E. «Shaxs rivoji» (Childhood and Society) Nashriyot: W.W. Norton & Company (USA)

4. Tomas A., Chess S. «Shaxslar va ixtiyorlar» (Temperament and Personality in Childhood) Nashriyot: Routledge (UK) 2015 yil.

5. Lovell B. T. «Maktabgacha ta’limda ijtimoiy va axloqiy rivojlanish» (Social and Moral Development in Early Childhood Education) Nashriyot: Teachers College Press (USA) 2005 yil.

6. Aynsvort M. «Tugatilgan munosabatlar» (Attachment and Loss) Nashriyot: Basic Books (USA)

7. Levi G. «Bolalarning rivojlanishida ijtimoiy va pedagogik omillar» (Social and Educational Factors in Child Development) Nashriyot: Cambridge University Press (UK) 2000 yil.
8. Vuds E. «Maktabgacha ta’lim: nazariy va amaliy asoslar» (Early Childhood Education: Theories and Practices) Nashriyot: Routledge (UK) 2007 yil.
9. Dyui Dj. «Ta’lim va ijtimoiy munosabatlar» (Democracy and Education) Nashriyot: Macmillan (USA)
10. Kolberg L. «Axloqiy rivojlanish» (Moral Development) Nashriyot: Harper & Row (USA)
11. Shternberg R. «Intellekt va ijtimoiy muvaffaqiyat» (Intelligence and Social Success) Nashriyot: Cambridge University Press (UK) 2020 yil.
12. Neris G. «Ijtimoiy va emotsiyali rivojlanish: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun» (Social and Emotional Development: Implications for Early Childhood) Nashriyot: Routledge (UK) 2013 yil.

ZIGMUND FREYDNING «PSIXOANALIZ» NAZARIYASI ASOSIDA FORREST GAMP PSIXIKASINING TAHLILI VA UNGA PSIXOLOGIK MASLAHAT.

Soipov Muxammadaziz Kozimjon o‘g‘li
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti 4-bosqich tinglovchisi

Annotatsiya

Maqolada Zigmund Freydning psixoanaliz nazariyasi asosida Forrest Gamp psixikasining tahlili haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: U(Id), Men(Ego), Oliy men(Super ego), shaxs.

Zigmund Freyd (1-rasm) 1986-yilda Freyburgda , o‘sha paytdagi Avstriya-Vengriya imperiyasining hozirgi kunda Chex Respublikasiga taalluqli qismida tug‘ildi. U tibbiyotni Venada o‘rgandi va shu yerda Avstriyani natsistlar 1938-yilda anneksiya qilgunlariga qadar yashadi. Yahudiy sifatida u vatanini tashlab ketishga majbur bo‘ldi va Londonga borib o‘rnashdi, o‘sha yerda 1939-yilda vafot etdi. Ontogenez rivojlanish psixikasi tushunchasiga psixoanalitik yondashuv asoslari Z.Freyd tomonidan kiritilgan. Z.Freyd inson psixikasini 3 bosqichga ya’ni psixik jarayonlarni prinsipial anglash imkoniyati mezoni bo‘yicha ong, ongosti va ongsizlikka ajratadi. Uning ilmiy qiziqishlari birinchi navbatda jinsiy va agressiv qiziqishlarini majmuasiga qaratilgan. Aynan ongsizlik jamiyatga qarshi turadi. Freyd shaxs rivojlanishini individni tashqi ijtimoiy dunyoga moslashishi sifatida kiritgan hamda unga begona lekin juda ham zarur deb hisoblaydi. Inson shaxsi Z.Freyd bo‘yicha o‘z tarkibiga tuzilmaviy komponentlarni qamrab oladi:

U (Id) - ongsizlik, Men (Ego) – ong, Oliy Men (Super Ego) – ongosti.

1. U (Id) - ongsizlik shaxsning primitiv yadrosi va tug‘ma xarakterga ega, ongsizlik joylashgan va qoniqish tamoyiliga bo‘ysunadi. Idda tug‘ma impulsiv qiziqishlar mavjud (hayot instinkti Eros va o‘lim instinkti Tanatos) va psixik rivojlanishni energetik asosini tashkil etadi.

2. Men (Ego) – ong shaxsni ratsional va anglanuvchi qismi. U biologic yetilishga ko‘ra, hayotning 12 va 36 oylari orasida yuzaga keladi va reallik prinsipi bilan boshqariladi. Egoning vazifasi sodir bo‘layotganlarni tushuntirish va insonni xulqini shunday tuzish kerakki, uni instinktiv talablari qondirilishi, jamiyatning va ongning cheklovlari buzilmasligi kerak. Egoning hamkorligida individ va sotsium o‘rtasidagi nizo hayot mobaynida sustlashishi kerak.

3. Oliy Men (Super Ego) – ongosti shaxsning tuzilmaviy tarkibi sifatida eng ohirida 3-6 yoshlar orasida shakllanadi. Super Ego insof uni moslashishini ifodalaydi va bu jamiyatda qabul qilingan normalarni amal qilinishini qattiq nazoratga oladi.

U (Id) – ongsizlik va Oliy Men (Super Ego) – ongosti tarafidagi an’analar odatda nizoli xarakterga ega bo‘lib, bu xavotirlanish, asabiylashini keltirib chiqaradi. Yuqoridagi keltirilganlarni Z.Freyd «Aysberg» misolida ifodab tushuntiradi. (2-rasm)



Z.Freydning psixoanaliz nazariyasi asosida psixikasi tahlil qilinayotgan Forrest Gamp shaxsi 1994-yilda suratga olingan «Forrest Gamp» filmining bosh qahramoni hisoblanadi. Ushbu filmdagi voqeliklar asosan amerikalik yozuvchi va ertakchi Uinston Grumning 1986-yilda yozilgan romani hamda badiiy to‘qimalar

asosida ekran yuzini ko‘rdi. Keyinchalik bu film 6 marta «Oskar» mukofotini qo‘lga kiritdi. Asar asosida ishlangan filmda Forrest Gamp rolini Tom Hanks ijro etgan. Forest Gampning xarakteri Z.Freydning U (Id) - ongsizlik, Men (Ego) – ong, Oliy Men (Super Ego) – ongosti tushunchlari asosida tushunilishi mumkin: **U (Id) – ongsizlik** Forestning bolalik va yetuklik davridagi yugurish harakatlari. Bunga sabab qilib uning yoqtirgan qizi Jennining unga nisbatan ko‘p bor aytgan “Forest yugur” degan so‘zlaridir. Bu so‘zlar Forest uchun butun hayoti davomida uning id (ongsizlik)giga singib ketganini ko‘ramiz.



Shu sababdan u aqliy koeffitsiyenti 75% (normada 80%dan kam bo‘lmasligi kerak) bo‘lsa ham u yugurishi tufayli ko‘plab yutuqlarga erishdi (kollejni muvaffaqiyatli tamomladi, urushdan tirik qaytdi, 3 yildan ortiq yugurishi ortidan ancha mashxur bo‘ldi). (4-rasm)





Men (Ego) – ong Forestning muammolarni hal qilish qobiliyatlari: armiyada xizmat qilishi, Kravetka ovlash biznesini ochishi, buyruqni o‘z vaqtida bajarishi, o‘quv jarayonida barcha ma’lumotlarni o‘zlashtirishi. (5-rasm)





Oliy Men (Super Ego) – ongosti axloqiy qadriyatlar ya’ni onasining unga bergan saboqlari hamda ularga amal qilishi, sevgan insoni va do‘stiga sodiqlik, g‘amxor ota bo‘lishlik, kechirimliklik, insonlarga yordam berish shular jumalasidan. (5-rasm)







Forrest Gampga psixologik maslahat.

ID: Forest o‘z instinktlari va ehtiyojlarini juda tabiiy ravishda ifodalaydi, lekin ba’zida atrofdagilarni tushunmaydi, xatolarga yo‘l qo‘yadi. Ko‘pincha ongsizlik uni xatti-harakatlarini boshqaradi. (Yugurishi, ping-pong o‘ynashi, kravetka biznesiga kirib kelishi, kemasiga Jenny deb nom berishi). Forest o‘zining ehtiyojlarini boshqarishga yordam beradigan, aqliy qarorlarni ko‘p qilishi kerak, intiktiv harakatlar o‘rniga ongli harakat qilishi kerak.

EGO: Forest o‘ziga ishonchni oshirish, shaxsiy qobiliyatlarini to‘g‘ri baholab qarorlar qabul qilishni o‘rganishi kerak.

SUPEREGO: U doimo o‘z onasi va Jennining saboqlariga amal qilishga harakat qiladi, do‘stining xotirasi uchun uning nomiga biznes ochadi. Ushbu xulq-atvor normalari uning erkin inson ekanligini qaysidir ma’noda majburiyat yuklangan insonga aylantirib qo‘yadi. Ushbu holatda ham me’yorga amal qilish lozim.

OVQAT HAZM QILISH SISTEMASI VA OVQATLANISH TARTIBI.

Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna,

Jizzax Davlat pedagogika universiteti Biologiya va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

***Abdug’afforova Zarina Abdumalik qizi**, JDPU biologiya yo’nalishi I-kurs talabasi.*

Annotatsiya: Ovqat hazm qilish sistemasi inson hayot faoliyatida juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada inson ovqat hazm qilish a’zolari sistemasi, uning tuzilishi va ishlash mexanizmi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Hazm qilish sistemasi, tishlar, so‘lak, kimyoviy parchalanish.

Odamning hazm qilish sistemasi ozuqani parchalab, uning hujayralar tomonidan o‘zlashtira olinishini ta’minlaydi. Hazm qilish ozuqaning og‘izga (og‘iz bo‘shlig‘i) kirishi bilan boshlanadi. Og‘izda mexanik va kimyoviy parchalanish birdek ro‘y beradi. Tishlar ozuqani chaynab, parchalasa (mexanik), so‘lak suyuqligi tarkibidagi amilaza uglevodlarni parchalaydi (kimyoviy).Ozuqa chaynalib, so‘lak orqali ho‘llangandan keyin (luqmaga aylangandan so‘ng)qizilo‘ngach tomon harakatlanadi. Qizilo‘ngach og‘iz bo‘shlig‘i bilan oshqozonni o‘zaro bog‘lash vazifasini bajaradi va bu sohada hech qanday hazm qilish jarayoni sodir bo‘lmaydi.Luqma oshqozonga tushgandan so‘ng kimyoviy va mexanik ta’sirlarga uchraydi. Oshqozon devori muskullari ovqatni aralashtirib (mexanik), uning hazm qiluvchi fermentlar va oshqozon shirasi ta’sirida parchalanishini (kimyoviy) ta’minlaydi. Bu jarayonlar natijasida luqma ximusga aylanadi. Ovqat oshqozonda bir necha soat davomida hazm bo‘ladi. Bu vaqt mobaynida pepsin deb ataluvchi ferment ovqat tarkibidagi oqsillarni parchalaydi. Shundan so‘ng ximus asosiy hazm qilish jarayonlari kechadiganing ichki ichakka o‘tadi. Jigarda hosil bo‘luvchi o‘t suyuqligi o‘t pufagidan ichakka quyilib, yog‘lar parchalanishiga yordam beradi. Bunga qo‘shimcha ravishda ichak devori va oshqozon osti bezidan ajraluvchi fermentlar ham ovqat tarkibidagi moddalarni hazm qilishda ishtirok etadi.Oziqning ko‘p qismi ingichka ichakda absorbsiya qilinadi. Bu moddalar ichak devoridagi qontomirlar orqali qonga so‘rilgandan so‘ng faqat hazm bo‘lmaydigan moddalar va suv qoladi.Keyin ximus yo‘g‘on ichakka o‘tadi. Bu yerda suv so‘riladi va hazm bo‘lmaydigan moddalar bakteriyalar tomonidan parchalanib, muhim hayotiy moddalar sintezlanadi (K vitamini kabi).Najas deb ataluvchi konsentratsiyalashgan qoldiq to‘g‘ri ichakdan o‘tib,anal teshigiorqali tashqariga chiqarib yuboriladi.Qo‘shimcha organlar hazm qilishda bevosita emas, balki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Ular quyidagilardir:

-O‘t pufagi: jigar tomonidan ishlab chiqarilgan o‘t suyuqligini o‘zida saqlaydi Oshqozon osti bezi: oqsillar va uglevodlarni parchalashda yordam beruvchi oshqozon shirasini ishlab chiqaradi.



Salomatlikka aloqador muammolarning ko‘pchiligi hazm qilishdagi muammolardan kelib chiqadi. Noto‘g‘ri ovqatlanish tufayli inson organizmiga foydali oziq moddalar juda kam miqdorda tushadi. Shu tufayli, ovqat hazm qilish jarayoni normal kechishi, shuningdek, butun organizm uchun ham to‘g‘ri ovqatlanish kerak.

Ovqat hazm qilishni yaxshilash uchun quyidagi maslahatlarga quloq tuting:

Shoshmasdan tanovvul qiling. Ovqatni yaxshilab chaynash kerak: hazm qilish og‘iz bo‘shlig‘ida boshlanadi. Yaxshilab chaynash orqali oshqozon va ichak ishini ancha yengillashtirgan bo‘lasiz.

Katta tishlamang. Ovqatni katta-katta tishlab, tez-tez yeganda, hazm qilish tizimiga ovqat bilan birga havo ham kiradi, natijada oshqozonda og‘irlik, og‘riq paydo bo‘ladi.

Ko‘proq suyuqlik iching. Ichak faoliyatini yengillashtirish va qabziyatlar oldini olish uchun kuniga kamida 8—9 stakan suv iching. Me’da shirasini suyultirmaslik va hazm qiluvchi fermentlarni yuvib yubormaslik uchun, suyuqlikni ovqat qabul qilishdan yarim soat avval ichish tavsiya etiladi.

O‘ta qaynoq yoki o‘ta sovuq narsa yemang. Gap shundaki, oshqozonda ovqatni hazm qilish jarayoni ovqatning harorati odam tanasi harorati bilan bir xil bo‘lsagina boshlanadi.

Muntazam ravishda ovqatlaning. Hazm qilish tizimiga ortiqcha og‘irlik tushirmaslik uchun kun davomida asosiy ovqatlanish paytidan oldin tamaddi qilib olmaslik kerak. Shuningdek, har kuni bir xil vaqtda ovqatlanish maslahat beriladi, shunda organizmda ishlay boshlash vaqti bo‘yicha odat shakllanadi.

To‘g‘ri ovqatlaning. Ovqat hazm qilishi yaxshi bo‘lishi uchun tez tayyor bo‘ladigan oziq-ovqatlardan (fast food) voz kechish kerak. Ertalab hali uyg‘onib ulgurmagan organizmga og‘irlik tushirmaslik va butun kun uchun energiya to‘plab olish maqsadida yengil, lekin kaloriyali ovqat yeyish kerak. Og‘irroq taomlar tushlikka mos tushadi, biroq kechki ovqatga bunday taomlar yeyish va to‘yib ovqatlanish hech ham mumkin emas.

Qatiq mahsulotlarini iste’mol qiling. Qatiqda ichak faoliyatini normallashtiruvchi foydali bakteriyalar bo‘ladi. Bundan tashqari, qatiq moddalar almashinuvi jarayonini yaxshilaydi, hazm qilish organlarining shilliq qatlamini shakllantiradi, zaharli moddalarni chiqarib tashlaydi.

Adabiyotlar :

1.Abdullayevich, B. E., & Uchqun o’g’li, B. S. (2021). Transitional features of acute herpetic stomatitis in children and modern approaches to treatment.World Bulletin of Public Health,1(1), 1-3

2.Ugli, B. S. U., & Bekchanovich, K. Y. (2020). Classification of vitamins and disease syndrome.Science and Education,1(1).

3.Madiyev Rustam Zoirovich, Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li, & Abdullaeva Dilnoza Ergashevna. (2021). Effectiveness of endovideolaparoscopic technology in the treatment and early prevention of intestinal obstruction in children. European Journal ofresearch Development and Sustainability, 2(7), 68-73.

4.Мустафақулова Д. И .Тизимли тафаккурнинг хусусиятлари. Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириў Некис,2022

5.Mustafaqulova D.I.Talabalarda tizimli tafakkurni rivojlantirish ,Journal of Natural Science N 5/3 2021

6.Mustafaqulova D.I. Biologiyaning tizimli xarakteri-talabalar tizimli tafakkurini shakllantirish imkoniyati. SCIENCE AND INNOVATION 2022

HARBIYLAR JAMOASIDA O‘ZARO TUSHUNISH VA REFLEKSIV JARAYONLAR

Podpolkovnik Ergashev Elyor Urdushevich

Boshqaruv psixologiyasi barcha fanlar ichida nisbatan navqiron, lekin juda tez rivojlanib borayotgan istiqbolli fandir. Bu fanning rivojlanishiga avvalo boshliqlar bilan qo'l ostidagi xodimlar o'rtasidagi tushunmovchiliklar, o‘zaro kelishmovchiliklar, ijtimoiy hayot va amaliyotning o'sib borayotgan ehtiyojlari, ya'ni jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni psixologik jihatdan o'rganib, tushuntirib

berish zarurati turtki bo'lyapti. Boshliq xodimlar muloqoti muammosi nafaqat boshqaruv psixologiyasida, balki ijtimoiy psixologiya, falsafa, pedagogika, mantiq, kriminologiya, Harbiylar jamoasini boshqaruv fanlari tizimida ham o'rganiladi. Bu fanlar ushbu muammoni o'z yo'nalishidan kelib chiqqan holda o'rganadilar. Boshqaruv psixologiyasida esa boshliq xodimlarning kasbiy muloqoti jarayonida shaxslararo munosabat psixologiyasiga katta e'tibor beriladi.

Harbiy boshliqlarning muloqot jarayonlari ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarga bog'liq holda shakllanib boradi. O'zbeklarning tarixiy shakllangan an'analari, muayyan urf-odatlari, ma'lum udumlari, shaxslararo munosabati, muloqot maromi va fikrlash xususiyati boshqa xalqlarnikidan sezilarli darajada tafovutlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kasb bayrami munosabati bilan so'zlagan nutqida: «Ayni paytda harbiy xizmatchilarning aholi hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari bilan yaqin hamkorligi yanada mustahkamlandi, ularning safarbarligi va sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi tezkor kurash olib borish imkoniyatlari oshib bormoqda» - degan edi. Bu, o'znavbatida, har bir boshliq xodimni faoliyati davomida va aholi bilan muloqot qilish jarayonida xushmuomala bo‘lishga undaydi.

O'zbeklarning milliy xarakteri, fazilatlari ularga xos xususiyatlar majmuasidan iborat. Milliy xarakter irodaviy sifatlar (mustaqillik, prinsipiallik, o'zini o'zi tuta bilish, bardoshlilik, qat'iyat, matonat va h.k.) hamda axloqiy xislatlarni (madaniyatlilik, xushmuomalalik, poklik, intizomlilik, samimiylik, haqqoniylik, insonparvarlik va boshqalarni) qamrab oladi. Shuningdek, boshliq xodimlarning boshqa shaxslarga munosabatlari ularga bo'lgan his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi. «Psixologiyani o'rganish - hayotni, insonni o'rganish degani. Kerak bo'lsa, boshliqlik qilmoqchi ekansiz, yetakchi bo'lib odamlarga ko'rsatma bermoqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o'rganish kerak» Bu esa ayniqsa bugun boshliq xodimlarining boshqaruv psixologiyasini o'rganishlariga qo'yiladigan talab ortib borayotganidan dalolat beradi. Muomala juda murakkab jarayon bo‘lib, Boshliq xodimlarning o'zaro iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlari yig'indisidan tashkil topadi. Boshliqlar o'rtasidagi muomala jarayonida barcha

madaniyat turlarining botiniy va zohiriy xususiyatlari mujassamlashgan bo'ladi. Shu sababli uni tarixiy vorisiylik va zamonaviylik talablari darajasida shakllantirish harbiy xizmatchilarning ichki va tashqi madaniyatining uyg'unligini hamda mushtarakligini ta'minlaydi.

Harbiy boshliqlar harbiy xizmatchilarning fuqarolar bilan muomala qilish madaniyati ularning alohida shaxslar, oilalar, mehnat jamoalari, ijtimoiy guruhlar, jamoat va davlat tashkilotlari, muassasalar, xorijiy davlat fuqarolari bilan bo'ladigan hamda qonun, farmon, nizom va buyruqlardagi axloqiy va huquqiy normalar, prinsiplar bilan tartibga solingan axloqiy estetik, huquqiy munosabatlar tizimidir. Harbiy boshliqlar milliy qadriyatlarga suyangan holda muomala qilishlari lozimdir.

Mamlakatimizni isloh etish va yangilashga qaratilgan dasturiy vazifalarni bajarishda biz milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga katta e'tibor qaratdik. Muomala jarayoni boshliq va har bir harbiy xizmatchilarning faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Faoliyat jarayonida muomalaning har bir turi ishtirok etadi. Boshliq xodim muomalaning qonuniyatlariga suyangan holda shaxslararo munosabatga kirishadi. Muomala jarayonida boshliq xodimning har bir bilish sifati (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar boshliq xodimning mantiqiy fikrlashi, o'tmishni hozirgi voqelik bilan bog'lashi, o'zaro solishtirish va qiyoslash malakasini oshirish, obyekt va sharoitni mukammal idrok etishida yordam beradi. Inson o'z faoliyati jarayonida boshqa shaxslar bilan muloqotda bo'lishiga to'g'ri keladi. Bunda odamlar axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar, ta'lim beradilar, tajriba almashadilar. Muloqot har qanday faoliyatning zaruriy, muhim jihatidir. Aynan muloqot jarayonida va faqat u orqali insonning mohiyati namoyon bo'ladi, o‘zaro tushunishga, ishni bajarish chog'ida uyg'unlikka erishiladi, u yoki bu holatlarda bir-birlarining xatti-harakatlarini bashorat qilish qobiliyati o'sadi yoki, aksincha, boshliq bilan uning qo'l ostidagilar o'rtasidagi tushunmovchilik natijasida nizolar va axloqiy ziddiyatlar, ishdagi kelishmovchiliklar yuzaga keladi, muloqotga kirishuvchining xatti-harakatini oldindan ko‘rishga qobiliyatsizlik namoyon bo'ladi. Muloqot odamlarning o‘zaro

hamkorlik qilish shakllaridan biri. Muloqot boshliqlarning voqelikni aks ettirishi natijasini ifodalovchi xabarlar almashish jarayoni bo'lib, ular ijtimoiy borliqning ajralmas qismi hamda jalarming individual va ijtimoiy ongi shakllanishi va amal qilishining vositasidir.

Muloqot yordamida boshliqlar va xodimlarning birgalikdagi faoliyat jarayonida maqsadli hamkorligini tashkil etish, tajriba almashish, mehnat va turmush ko'nikmalarini hosil qilish, ma'naviy ehtiyojlarni namoyon etish va qondirish yuz beradi. Muomala harbiy xizmatchilar uchun yangi axborot almashish jarayoni bo'lib, bu haqda Bernard Shou quyidagilarni qayd etadi: «Agar menda bitta olma va sizda ham shuncha olma bo‘lib, o'zaro almashsak, sizda ham, menda ham, bittadan olma qoladi, agar har birimizda shaxsiy fikr bo'lib, ularni o‘zaro almashsak, bunda har birimizda ikkitadan g'oya bo'ladi».

Harbiy boshliqlar fuqarolar bilan muloqot chog'ida xizmat vazifalarini bajaradilar va, tabiiyki, faoliyatining samaradorligi ularning shaxslar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa o'rnatish qobiliyatiga bog'liq. Kommunikativ xususiyatlar harbiy boshliqlar kasb mahoratining muhim tarkibiy qismidir. Muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, jamiyatda uning o'z o'rni va roli mavjud. Muloqot shaxslar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan aloqalar rivojlanishidan iborat ko'p qirrali jarayondir. Muloqot boshliq bilan harbiy xizmatchilar o'rtasida axborot ayirboshlanishini o'z ichiga oladi. Boshliqlar munosabatga kirishar ekanlar, eng muhim vositalardan biri sifatida tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir tomoni munosabatga kirishuvchilarning o'zaro munosabat jarayonida faqat so'zlar emas, balki xatti-harakatlar (mimika, imo-ishora) bilan ham ayirboshlashlaridan iborat. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashi, muomala madaniyatiga ham bog'liq bo'ladi, chunki muloqot shaxsning tabiiy ehtiyojidir.

Harbiy jamoasini boshqarish jarayonida boshliqning qo'l ostidagi xodimlar bilan muloqot qilish metodikasi ketma-ket keluvchi olti bosqichli jarayondan iboratdir. Ular quyidagilar:

1 Kesqich - hamjihatlik;

II bosqich umumiy yoki o'zaro mos keladigan manfaat va qiziqishlarni aniqlash;

III bosqich - muloqot uchun taklif etiladigan sifat va qabul qilinadigan prinsiplarni topish;

IV bosqich - muloqot uchun xavfli bo‘lgan sifatlarni aniqlash;

V bosqich moslashish;

VI bosqich individual ta'sir etish va suhbatdoshga umumiy qoidalarni yaratish va birgalikda harakat qilish.

Bosqichlarning ketma-ketligiga rioya etish ishni to'g'ri tashkil qilishda katta ahamiyatga egadir. Bosqichlar aloqa jarayonida kuzatilayotgan o‘zgarishlarning ketma-ketligini kuzatish dasturi sifatida namoyon bo'lishi, shuningdek hamkorlik yo'llarini nazorat qilishi mumkin. Boshliqlar muloqoti psixologik jihatdan u yoki bu tarzda bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan odamlar o'rtasida u yoki bu vositalar orqali maqsadga muvofiq, bevosita yoki bilvosita aloqa o'rnatish va uni saqlab turish jarayonidir.

Harbiy xizmatchilar faoliyatida muloqotning quyidagi turlari mavjud: bevosita, bilvosita, rolli, mazmunli, rasmiy, norasmiy. Bevosita muloqot shaxs bilan yuzma-yuz» suhbatlashish bo'lib, bunday holatda uning ishtirokchilari o‘zlari idrok qiladilar, aloqa qiladilar va hamma mavjud vositalarni qo'llaydilar. Bilvosita muloqot ham aloqa vositasi bo‘lib, unda shaxslar, bo'limlar va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan, telegraf, telefon orqali so'zlashish). Muloqotning ba'zi turlari ijtimoiy rollar orqali vujudga keladi. Bunday muloqot rolli muloqot deb ataladi. Masalan, tergovchi bilan jabrlanuvi o'rtasidagi muloqot rollidir. Individ boshqa shaxsga o'zining ahvoli, kayfiyati, xohish-istagini bildirishda mimika, harakat, imo-ishoradan foydalanib axborot berishi mazmunli muloqot deh ishordi. Rasmiy muloqot - yuridik kuchga ega bo'lgan, davlat va jamiyat manfaatini ko'zlagan hamda qayd etiladigan muloqot turn (masalan, tergov jarayonida so'roq qilish). Norasmiy muloqot haxslararo o'zaro muloqot jarayonida o'zini qiziqtirgan u yoki bu ma'lumotga ega bo'lishni taqozo etadi.

Muloqotga kirishishda faqat so'zlar emas, balki harakatlar, imo-ishoralar ham muhim rol o'ynaydi. Boshliq xodimlarning muloqot qilish jarayoni uchta jihatni qamrab oladi:

1) kommunikativ (axborot berish);

2) interaktiv (birgalikda harakat qilish);

3) perseptiv (birgalikda idrok qilish).

Boshliq xodimning muloqotga kirishishida boshqa bir shaxsning bilimini o'zinikidan kam va sayoz, dunyoqarishini tor deb o'ylashi ham muhim hisoblanadi, chunki boshliq xodimlar o'z «Meni» bilan ajralib turishga harakat qiladilar. Muloqot jarayonida axborotni boshqa kishiga yo'llayotgan kishi kommunikator, uni qabul qilayotgan kishi esa resipient deb nomlanadi. Harbiy boshliqlar xodimlarining faoliyatida muloqot o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, ularning asosiy boshliqlik faoliyatini egallaydi. Ayniqsa bevosita muloqot boshliqning asosiy faoliyatiga xosdir, chunki chilangar temir bilan, zootexnik hayvonlar bilan ishlasa, huquqni muhofaza qilish organining boshlig'i shaxslar bilan, aholi bilan, jinoyatchi, guvoh, gumon qilinuvchilar bilan ishlaydi; har birining o'ziga xos psixologiyasi, o'ziga xos dunyoqarashi va muomalasi bor. Bu boshliqlarning boshliqlik faoliyatida va muloqot jarayonida ko'rinadi. Boshliqlik faoliyatida, uning muloqotida nutq ayniqsa uning ravonligi, atamalarni to'g'ri va o'z joyida ishlatishi va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashryoti, 2021. 458-bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent: «O'zbekiston», 2016. -56 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.:"O‘zbekiston" NMIU, 2017. 486 bet

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-103 bet

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-591 bet

6. O'zbekiston T.."O'zbekiston", 2021. Respublikasining Konstitutsiyasi.

7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. T., 2020.

8. Maxmudov R.M. Penitensiar psixologiya va pedagogika. darslik T.: 2018.

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY STRESS PSIXOPROFILAKTIKASI

Norbutayev Samandar Abdubakirovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Annotatsiya: *Maqolada, harbiy xizmatchilarda kasbiy stress xizmat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan stressogen vaziyatlar va unga nisbatan bildiriladigan reaksiyalarning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, stressogen vaziyatlardan chiqib ketishda shaxsda mavjud bo‘lgan moslashuvchanlik, ruhiy barqarorlik kabi sifatlarning ahamiyati psixologik jihatdan ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: optimizm, pessimizm, frustratsiya, psixologik zo‘riqish, realistlar, negativistlar stress, stressogen vaziyat.

Hozirgi kundagi dunyo shiddat bilan yangilanib borayotgan paytda insonlar zamon bilan hamnafas yashash va undan ortda qolmaslik uchun tengdoshlari kabi jismonan baquvvat va ruhan sog‘lom bo‘lishlari kerak ekanligini psixologlar tomonidan ta’kidlanib kelinmoqda. Jismonan sog‘om va ruhan tetik bo‘lish uchun esa harbiy xizmatchilar ham psixologik bilimlardan xabardor bo‘lishlari kerak.

Harbiy xizmatchilar xizmat faoliyati davomida turli iste’mol qilinadigan axborotlar muloqot vaqtida turli xil stress holatini keltirib chiqarishi mumkin. Stress holatidan chiqib ketish uchun esa harbiy xizmatchida bilim, ko‘nikma va malaka kerak bo‘ladi. Ammo, kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma malaka hamma harbiy xizmatchilarda ham shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Harbiy xizmatchilarning temperamenti har xil bo‘lganligi sababli, ularning tashqi ta’sirga beriluvchanligi ham turlicha bo‘ladi. Harbiy xizmatchilarning tashqi ta’sirlarga javob reaksiyasi ularning individual psixologik sifatlari orqali ko‘rsatiladi. Psixolog olimlar tomonidan shaxsning hayot faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan stress holatlarini o‘rganish yuzasidan shaxsdagi optimizm va pissimizm kabi psixologik holatlarning ta’siri o‘rganilgan.

Insonlarning indiviual psixologik jarayonlarini o‘zbekistonlik olimlar tomonidan o‘rganib chiqilgan. O‘zbek olimlaridan stress muammosini E.G‘.G‘oziev, N.G.Kamilova, Z.T.Nishonova hamda ularning shogirdlarining tadqiqotlarida o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi [1.3].

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning nafaqat o‘z mutaxassisligi doirasida bilim olishiga, balki ularning salomatligi masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa ularning ruhiy jihatdan salomatligini ta’minlash uchun ularning psixologik savodxonligini oshirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O.N.Stolpovskayaning fikricha, harbiy xizmatchilar o‘qish va xizmat faoliyati davrida o‘zining kasbiy kelajagini ko‘ra bilsa, uning uchun o‘qish va xizmatda yuqori natijalarga ehga bo‘lish istagi va shuning natijasida yutuqlarga erishish imkoniyati ham muhim bo‘ladi.[2.7]

Shu munosabat bilan muammoning harbiy xizmatchilar jamoasida o‘rganilganligini ham tahlil qilishga urindik. Adabiyotlarda shaxs bajarayotgan faoliyatining funksional ishonchliligi u boshqarayotgan ob’ektning holatiga qanchalik to‘g‘ri va o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kirita olishiga bevosita bog‘liqligi ko‘rsatilgan.[3.9] Harbiy xizmatchilarning o‘z kuch va imkoniyatlariga ishonchlari hamda atrofdagi do‘stlaridan ijobiy muomala qilishlarini kutishlari optimistik xarakter bilan tavsiflanadi. Bunday harbiy xizmatchilar o‘zlarining boshlagan ishlaridan faqat ijobiy natija chiqishiga ishonadi. Muvafaqqiyatsizlikka uchragan taqdirda ham o‘z boshlagan ishlaridan to‘xtamasdan harakat qiladilar. Aksincha, o‘zlarining imkoniyatlariga ham o‘z yonidagi insonlarga ham ishonmaydilar ularning yaxshilik tilashlariga shubha ko‘zi bilan qaraydiganlar pissimistik xarakter bilan tavsiflanadi. Bunday xarakterga ega harbiy xizmatchilar yolg‘izlikka moyil va “ichimdagini top” deydigan insonlar xarakteri bilan tavsiflanadilar. [4.3]

Keltirilgan ma’lumotlarga tayanib, biz o‘z oldimizga harbiy xizmatchilarning stress holatlarga chidamliligi bilan ko‘p omilli shaxs so‘rovnomasini doirasida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari bilan olib borilgan psixologik testlar natijalari ham aynan yuqoridagi tahlillarga mos kelganligini qayd etib o‘tamiz. Berilgan natijalarni quyidagicha tahlil qilish mumkin: natijalarga ko‘ra, **“moslashuvchanlik” t**estini topshirgan 36 nafar harbiy xizmatchidan 31 nafari qoniqarli, 4 nafari qoniqarsiz; o‘rganilgan harbiy xizmatchilarning 11.1% harbiy xizmatda o‘z o‘rtoqlariga qo‘shilib ketish, harbiy sharoitga ko‘nikish sekin kechayotganligini ko‘rish mumkin.

“Asabiy-ruhiy barqarorlik” testini topshirgan 57 nafar harbiy xizmatchilardan 53 nafari qoniqarli, 4 nafari qoniqarsiz. O‘rganilganlarning 7.0% asabiy-ruhiy nobarqaror ekanligi aniqlanib, ushbu harbiy xizmatchilarning oilaviy sharoitlari va xizmatgacha bo‘lgan mashg‘ulotlari o‘rganilib chiqib, individual o‘rganish maqsadga muvofiq.

“Kommunikativ sifatlar” testini topshirgan 28 nafar harbiy xizmatchidan 25 nafari qoniqarli 3 tasi qoniqarsiz. O‘rganilganlarning 10.7% o‘z xizmatdoshlari bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklari borligi aniqlanib, ularning jamoaga qo‘shilib ketishlariga qarshilik qilayotgan axloqiy me’yorlarni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar berish kerak.

“Ahloqiy me’yorlar” testini topshirgan 47 nafari harbiy xizmatchidan 42 nafari qoniqarli va 5 nafari qoniqarsiz baho olganlar. O‘rganilgan harbiy xizmatchilarning 11.9%da ahloqiy me’yorlarning buzilishlari kuzatilgan. Ularda so‘zlashuv jarayonida noodatiy qiliqlar mavjudligi aniqlangan.

Shunday qilib, asabiy-ruhiy nobarqaror ekanligi aniqlangan harbiy xizmatchilarning oilaviy sharoitlari va xizmatgacha bo‘lgan mashg‘ulotlari o‘rganib chiqilib, xizmatdoshlari bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklari borligi aniqlangan, ularning jamoaga qo‘shilib ketishlariga qarshilik qilayotgan axloqiy me’yorlarni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar berish, ahloqiy me’yorlarning buzilishlari kuzatilganligi, ularda so‘zlashuv jarayonida noodatiy qiliqlar mavjudligi aniqlangan.

Bu natijani quyidagicha tahlil qilish mumkin: harbiy xizmatchilar mavjud vaziyatni, ya’ni xizmat faoliyati mobaynida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni o‘z imkoniyatlari darajasida baholaydilar va atrofdagilarga o‘zini ko‘rsatish uchun “osmonga sakramaydi”lar. Ular berilayotgan topshiriqlarning ko‘pligi, qiyinligidan hech qachon nolimaydilar, ular hayotda o‘zlarining mavjud imkoniyatlaridan va erishgan yutuqlaridan qoniqish hosil qilib yashaydilar. Shuning uchun bu toifaga kiradigan harbiy xizmatchilar psixologik stresslarga nisbatan chidamli bo‘ladilar. Lekin bu ular hech qachon stressga berilmaydilar, degan fikrni ifodalamaydi, ularda ham stressga berilishga moyillik mavjud, lekin shunga qaramasdan, ularning yutug‘i

shundaki, ular vaziyatni to‘g‘ri baholagan holda qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini izlaydilar, harakat qiladilar, topadilar va stressdan tez chiqib ketadilar.

O‘rganish natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-fuqarolik hayotidan kelib harbiy hayotda moslashishish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin;

-harbiy xizmatchilarda kuzatiladigan stress ularning harbiy xizmatini bajarishi bilan bog‘liq holda kechadi, ularni bartaraf etishda harbiy xizmatchining shaxsiy kognitiv imkoniyatlarining etishmasligi natijasida kelib chiqadi;

-harbiy xizmat jarayonida mavjud bo‘lgan stressogen omillarining barchasi harbiy xizmatchilar tomonidan jiddiy qabul qilinadi va va ularning xizmat faoliyatida ham o‘z aksini topadi.

Harbiy xizmatchilarda kasbiy stresslarni oldini olish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz;

-Psixologlarning ko‘rsatkichi past harbiy xizmatchilar bilan alohida, individual ish olib borishlari maqsadga muvofiq.

Psixologlar tomonidan har doim harbiy xizmatchilarga:

- avvalo o‘z kuchlariga ishonish kerakligi;

-har qanday vaziyatda ham faol harakat qilish muvafaqqiyatga yetkazishini bilishlarini;

-har qanday muammoning echimi mavjudligini;

-muammolar insonning rivojlanishi uchun yaratilgan imkoniyat ekanligi va taraqqiyot sari olg‘a yurish kerakligi aytib turilsa, stressga chidamlilik ortishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.google.com/search. Talabalarda-stressga-chidamlilikning-psihologik-tahlili (1).Pdf
2. Bodrov V.A. Информацион стресс. – издателъство “Институт психологии”, 1997. 15 b.

3. Анциферова Л. Психология Повседневности: Жизненно мир личности и техника её бытия. Психологический журнал. М., 1993,. 26 b.
4. Ismoilova N.Z. Talabalarda talabalarda stressga chidamlilikning psixologik tahlili. Ilmiy maqolasi.

СОДЕРЖАНИЕ И АНАЛИЗ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДОПРИЗЫВНОЙ МОЛОДЁЖИ

Эгамбердиев Рустам Нарзуллаевич

Доцент. Джизакский государственный педагогический университет Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы содержания физической подготовки допризывной молодежи, дается анализ физической подготовленности юношей старших классов, предлагаются практические рекомендации по содержанию допризывной подготовки и улучшению физической подготовленности юношей в старших классах.

Ключевые слова: физическое воспитание, допризывная подготовка, юноши, физическая подготовленность.

Актуальность. Обретение независимости Республикой Узбекистан стало важной вехой в судьбах нового суверенного государства. В связи с этим начался новый этап в развитии физической культуры и спорта, который обусловлен общественным прогрессом. На современном этапе развития общества оздоровление, сохранение и укрепления здоровья молодежи приобретает важное государственное значение.

В Указе Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», (подписанным 7 февраля 2017 года, за номером УП – 4947) говорится, что важным направлением является совершенствование государственной молодежной политики: - воспитание физически здоровой, духовно и интеллектуально развитой, самостоятельно

мыслящей, преданной Родине молодежи с твердыми жизненными взглядами, повышение ее социальной активности в процессе углубления демократических реформ и развития гражданского общества.

Наиболее существенным результатом полноценного использования физической культуры допризывной молодежи, является достижение юношами комплексных показателей физического совершенства. Воспитание скорости, силы и выносливости является необходимым условием в процессе допризывной подготовки и физического совершенствования юношей.

Во всех звеньях системы физического воспитания, составляющей неотъемлемую часть системы воспитания, преследуется цель – на основе полноценного использования факторов физической культуры реализовать возможности оптимального физического развития людей, всестороннего совершенствования свойственных каждому человеку физических качеств и связанных с ними способностей в единстве с воспитанием духовных и нравственных качеств, характеризующих общественно активную личность, обеспечить на этой основе подготовленность каждого члена общества к плодотворной трудовой и другим общественно важным видам деятельности.

Степень изученности нашей темы является возрастающие требования к всестороннему физическому развитию подрастающего поколения обусловлены не только необходимостью подготовки их к эффективной и полноценной трудовой деятельности, но и к службе в Армии.

В последнее время наблюдается процесс снижения физической подготовленности допризывников, значительная часть из них не может выполнить нормативные требования, в результате чего все большее число юношей недостаточно готовы к службе в Вооруженных Силах. Поэтому в области физической культуры и спорта интенсивно идет процесс выработки и внедрения в практику физкультурно-

оздоровительной работы различных методик, способствующих развитию физических способностей и повышающих уровень здоровья человека.

Существующие учебные программы подготовки допризывников, в том числе физической подготовки, разработанные много лет назад, не удовлетворяют требованиям современной армии. Предлагаемые разнообразные формы занятий разрозненны, существуют в отрыве друг от друга.

Проблема подготовки будущих защитников Родины заключается в формировании их готовности к службе в Вооруженных Силах. Содержание готовности будущего воина к службе в армии в первую очередь включает физическую подготовку юношей. Поэтому физическая подготовка юношей допризывного возраста эффективнее всего осуществляется на занятиях по физической культуре в условиях школы.

Для того, чтобы выбрать оптимальные физические нагрузки во время выполнения физических упражнений, в частности во время учебных и тренировочных занятий физической культурой, необходимо учитывать состояние здоровья, степень физической подготовленности и другие функциональные характеристики учащихся.

Воспитание силы, выносливости и ловкости является возможностью целесообразно воздействовать на процесс физического совершенствования, оптимизировать и реализовать при определенных условиях в физическом воспитании в допризывной подготовке юношей.

Традиционный путь освоения ценностей физической культуры с приоритетом физической подготовки, направленный на выполнение унифицированных программных зачетных нормативов, - это лишь базис для формирования всей системы ценностей физической культуры, которые далеко не исчерпываются только физическими кондициями молодого человека и представляют собой единство в развитии духовной и физической сфер.

Формирование установки современного человека на здоровый образ жизни приобретает исключительную актуальность, так как наше общество отмечает неутешительную статистику: прогрессирующее ухудшение состояния здоровья населения в целом и учащихся образовательных учреждений всех типов, в частности, лишь 10% выпускников могут считаться здоровыми. Значительная часть нарушения здоровья у детей вызвана неправильным образом жизни и недостатком двигательной активности.

Однако, до настоящего времени методика совершенствования физической подготовленности допризывной молодежи недостаточно разработана. В связи с этим возникает необходимость поиска и обоснования дополнительных средств и методов эффективного повышения физических возможностей развития и контроля общей выносливости учащихся старших классов.

По данным проведенных нами исследований физическая подготовленность военнослужащих отстает от современных требований. Решение поставленных задач вызывает особую практическую значимость в связи с главной задачей независимой Республики Узбекистан – борьба за здоровое поколение.

Физический компонент в подготовке будущего воина означает совокупность физических качеств и соответствующих им ощущений в организме таких как сила, быстрота, реакция, чувство свободного дыхания, четкой работы сердца.

Физическая готовность допризывника к службе в Вооруженных силах определяется главным образом способностью реализовать двигательные возможности в экстремальных условиях современного боя.

Однако в доступных нам литературных источниках мы не встретили единого мнения в вопросах подбора оптимальных нагрузок для повышения общей физической подготовленности военнослужащих.

Цель нашей работы изучить содержание и методику допризывной физической подготовки юношей в условиях школы

Задачи исследования:

1. Изучить теоретические основы физической подготовки юношей допризывного возраста;
2. Выявить особенности физической подготовленности юношей допризывного возраста;
3. Выработать рекомендации по содержанию физической подготовки юношей допризывного возраста.

Объектом исследования является система физического воспитания учащихся 10-11х классов.

Предмет исследования включает определение содержания средств контроля и развития физической подготовки юношей допризывного возраста.

Выявлено, что в допризывном возрасте продолжается совершенствование движений (ходьба, бег, прыжки, метания) и двигательных качеств (быстрота, ловкость, гибкость, сила и выносливость), заканчивается физическое развитие, ускоряются темпы развития скелетной мускулатуры, нарастает мышечная сила, увеличивается прыгучесть.

На занятиях физической культурой необходимо уделять внимание физической подготовке будущих воинов.

Сочетая занятия физической культурой с общефизической подготовкой, мы тем самым осуществляем процесс всесторонней физической подготовки, имеющий большое оздоровительное значение. Обычно, развивая физические качества, мы совершенствуем и функции организма, осваиваем определенные двигательные навыки. В целом этот процесс единый, взаимосвязанный, и, как правило, высокое развитие физических качеств способствует успешному освоению двигательных навыков. Исследования, связанные с совершенствованием методики общей и военно-прикладной физической подготовки в общеобразовательной

школе, предполагают новый подход к решению существующей проблемы. Авторы данных исследований повышение уровня физической подготовленности молодежи видят в повышении двигательной активности учащихся за счет увеличении количества уроков физической культуры и самостоятельных занятий.

В течение недели учащиеся призывного возраста должны пробегать не менее 10-15 км (1,5-2 км в день). На занятиях физической культурой с этой целью используются нагрузки для развития специальных видов выносливости: интенсивный бег на отрезках 400-500 м, бег с переменной скоростью, повторный бег на коротких дистанциях (30-60 м).

При выполнении упражнений направленных на воспитание выносливости, паузы отдыха, наоборот сокращаются, чтобы последующие упражнения выполнялись на фоне неполного восстановления.

Физиологически обоснованными в этом возрасте средствами развития выносливости являются различные виды циклических упражнений, повышающие аэробную производительность организма. Хорошо зарекомендовал себя в этом отношении равномерный бег умеренной (в пределах 60% от максимальной) мощности с постепенно увеличивающейся продолжительностью.

Для здорового подростка, не занимающегося физическими упражнениями, границы колебаний ЧСС составляют 60-70 уд/мин. Первые занятия (1 недели) могут состоять из 500-800 м малоинтенсивного бега, чередуемого с ходьбой (400 м). Каждые 2 недели дистанция увеличивается на 200 м. Уже через 3 месяца систематических занятий занимающийся легко переносит 25-30 минутный бег. ЧСС при этом должна держаться на уровне 140-150

уд/мин. С повышением скорости бега и других упражнений циклического характера резко возрастает их энергетическая стоимость.

Для повышения физической подготовленности учащихся и формирования интереса к самостоятельным занятиям физическими упражнениями, необходимо дать им достаточно широкий круг знаний, сформировать навыки и умения, не ограничиваясь содержанием учебного материала программы.

Прежде всего, учащиеся должны овладеть двигательными навыками, которыми они будут пользоваться во время самостоятельных занятий. Общеразвивающие упражнения являются содержанием утренней гимнастики, динамических пауз во время приготовления уроков, входят в содержание самостоятельных занятий по развитию основных двигательных качеств, прогулок. Также необходимы формировать прочные навыки ходьбы и бега. С них начинается, ими и заканчивается каждое самостоятельное занятие. Важно, чтобы учащиеся умели правильно ходить и бегать, изменять скорость и темп движения, длину шага, силу отталкивания в упражнениях, навыки и умения в упражнениях, связанных с висами и упорами (подтягивание в висе, сгибание и разгибание рук в упоре лежа).

Выводы:

1. Единственной мерой предупреждения и ликвидации отрицательных последствий гипокинезии являются расширение двигательной активности учащихся призывного возраста, повышение интенсивности физических упражнений, моторной плотности физкультурных занятий, широкое использование в занятиях игр, упражнений спортивного характера на воздухе, особенно направленных на развитие общей выносливости, обеспечивающей значительный оздоровительный и общеукрепляющий эффект.

Литература:

1. Бальсевич В.К. Концепция альтернативных форм организации физического воспитания детей и молодежи //Физическая культура: образование, воспитание, тренировка. 1996 г., № 1, С. 8-17.

2. Брехман И.И. Валеология — наука о здоровье. М., 1990 , 206 с.

3. Иващенко Л.Я. Программирование занятий оздоровительной направленности // Теория и практика физической культуры, № 1, 1990 г., С. 31-34.

4. Кошбахтиев И.А. Валеология студенческой молодежи. Учебное пособие. Ташкент ,2000, - 147 с.

5. Лисицкая Т.С. Принципы оздоровительной тренировки // Теория и практика физической культуры, - 2002, № 8, - С. 6-14

HARBIY XIZMATCHILAR VA KURSANTLARDA PSIXLOGIK PROFAYLINGNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MUOMMOLARI.

Qobilov Zufarjon Rahimjon o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti ofitseri
Eshtilovov Sardorjon Burxonovich
DXX CHQ Harbiy qism katta ofitser

Psixologik profiling — bu shaxsning shaxsiyati, xulq-atvori, ruhiy holati va motivatsiyalarini tushunish va tavsiflash jarayonidir. Bu usul, asosan, jinoyatlarni tergov qilish, klinik psixologiya, inson resurslarini boshqarish jamoat tartibini saqlash vazifasida faoliyat hamda turli xavf tahlilida qo’llaniladi. Psixologik profaylingning asosiy maqsadi shaxsning xulq-atvorini va ruhiy holatini aniqlab, ularning kelajakdagi harakatlarini yoki qarorlarini oldindan bashorat qilishdir.

Harbiy sohada psixologik profayling (psixo-profiling) ning qo‘llanilishi, bir tomondan, shaxsiy psixologik xususiyatlarni tahlil qilish va harbiy xodimlarning xulq-atvorini tushunishga yordam berish uchun zarur bo‘lsa, boshqa tomondan, ba’zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Harbiy sohada psixologik profaylingni qo‘llashdagi asosiy muammolar quyidagilar bo‘ishi mumkin:

1. *Shaxsiy maxfiylik va etik muammolar*

Psixologik profayling jarayonida shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda maxfiylikni ta’minlash juda muhimdir. Agar profayling o‘zgaruvchan yoki noaniq usullarda amalga oshirilsa, bu shaxsning ruhiy holatiga, fikrlash tarziga yoki shaxsiyatiga nohaq ta’sir qilishi mumkin. Shaxsiy hayotning buzilishi, maxfiylikni hurmat qilmaslik va psixologik usullarni noto‘g’ri qo‘llash etik muammolarga olib kelishi mumkin.

2. *Yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar*

Psixologik profaylingda shaxsning xulq-atvori, hissiy reaksiyalari va psixologik holatini tahlil qilishda, ba’zan noto‘g‘ri yoki noaniq ma’lumotlarga asoslanish mumkin. Agar harbiy xizmatchi o‘zini yoki boshqalarni noto‘g‘ri ta’riflashga harakat qilsa, yoki profaylingni o‘tkazayotgan psixologda xato bo‘lsa, bu

harbiy operatsiyalarni va jamoaviy ishlarni noto‘g‘ri yo‘naltirishga olib kelishi mumkin.

3. *Stress va psixologik yuk*

Harbiy xizmatchilar, ayniqsa jangovar vaziyatlarda, katta psixologik bosim ostida bo‘lishadi. Psixologik profayling ularga ta’sir qilishi va ularning ruhiy holatini yanada murakkablashtirishi mumkin. Ba’zan profilaktik psixologik tahlillar harbiy xoizmatchining ongida stress yaratishi mumkin, bu esa ularning samaradorligini pasaytirishi yoki boshqalar bilan munosabatlarini yomonlashtirishi mumkin.

4. *Muvofiqlik va bir xillikni ta’minlash*

Harbiy sohada psixologik profaylingning samarali bo‘lishi uchun, barcha xodimlar uchun bir xil va aniq metodika asosida ishlash kerak. Ammo har bir shaxsning psixologik holati individual va o‘ziga xos bo‘lgani sababli, bitta profiaying usuli har doim ham har bir xodim uchun mos kelmasligi mumkin. Bu esa harbiy tizimda xodimlar o‘rtasida notekislikni keltirib chiqarishi mumkin.

5. Harbiy va fuqarolik psixologiyasi o‘rtasidagi farq

Harbiy psixologik profayling, fuqarolik kontekstida qo‘llaniladigan psixologik profilingdan farq qiladi. Harbiy vaziyatlar ko‘pincha o‘ziga xos bo‘lib, yuqori stress, ekstremal vaziyatlar va murakkab etik tanlovlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, harbiy xizmatchilarning psixologiyasini to‘g‘ri tushunish uchun maxsus psixologik usullarni ishlab chiqish zarur. Agar bu usullar noto‘g‘ri yoki moslashtirilmagan bo‘lsa, bu harbiy xizmatchilarning holatini noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin.

6. *Psixologik sog‘liqni baholashda xatoliklar*

Psixologik profaylingda ba’zan biror bir shaxsning psixologik salomatligini aniqlashda xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, juda kuchli stress ostida bo‘lgan yoki xavfli vaziyatlarda ishlayotgan xodimlar, noto‘g‘ri tahlil qilinishi mumkin. Bunday xatoliklar, o‘z navbatida, harbiy xizmatchini noto‘g‘ri baholash va unga noto‘g‘ri psixologik yordam ko‘rsatish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

7. *Keng tarqalgan stereotiplar*

Harbiy psixologik profaylingda stereotiplarga asoslangan qarorlar qabul qilinish xavfi mavjud. Masalan, psixologik profaylingda jinsiy, irqiy yoki milliy guruhlar bilan bog‘liq stereotiplarga asoslanish, nohaq xulq-atvor yoki baholashni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa jamoaviy ishlarni yomonlashtirishi va harbiy tizimda ijtimoiy nohaqlikni kuchaytirishi mumkin.

8. *Kadrlar etishmasligi va psixologik tayyorgarlik*

Harbiy sohada psixologik profaylingni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun psixologlarning yuqori malakaga ega bo‘lishi zarur. Ba’zan, psixologik tahlillarni o‘tkazish uchun yetarli tajribaga ega bo‘lmagan kadrlar mavjud bo‘lishi mumkin, bu esa xatoliklar yoki noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga olib keladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda muxtasar qilib aytishhiimiz mumkinki harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatlari davomida psixo-profaylingni

qo‘llash samarli hisoblanib bu qo‘llovcchidan psixologik bilmlarni yaxshi o‘zlashtirish, irqiy milli va diniy streotiplarga berilmaslik, obektivlikni talab etadi.

Psixologik profaylingni jamoat xavfsizligini ta’minlovchi bo‘lajak ofitser kadrlar tayyorlashdagi o‘rni haqida fikr yuritsak, avvalo kursant shaxsini psixologik porteriti to‘g‘ri anglab oolish zarur.

Kursantlar (harbiy akademiya yoki ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan talabalar) uchun psixologik profaylingni rivojlantirish, ularning psixologik holatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshiroq tushunish va nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, kursantlarning kasbiy va shaxsiy o‘sishiga yordam beradi. Psixo-profaylingni rivojlantirishning ba’zi asosiy yo‘nalishlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. *Kursantlarning psixologik salohiyatini baholash*

Kursantlarning psixologik xususiyatlari, temperamentlari, stressga chidamliligi, qaror qabul qilish qobiliyati va boshqaruv vositalari psixologik profayling yordamida baholanadi. Bu baholash kursantning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatini va kelajakdagi harbiy faoliyatdagi potentsialini aniqlashga yordam beradi.

Amaliyot:

• Psixologik testlar va intervyular (masalan, shaxsiyat tahlili, stress testlari)

• Psixologik stressga qarshi chidamlilikni baholash

• Psixologik kasbga yo‘naltirish (kursantning qaysi harbiy mutaxassislikda muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkinligini aniqlash)

2. Jamoaviy ish va etika

Psixologik profayling kursantlarni jamoaviy ishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Kursantlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni va guruhdagi rollarni tushunish, ularni samarali ishlashga undash muhimdir. Psixologik profayling orqali jamoada liderlik, hamkorlik va moslashuvchanlikni rivojlantirish mumkin.

Amaliyot:

• Guruhdagi ro‘lni aniqlash (liderlik yoki kuzatuvchi pozitsiyalar)

• Guruh ichidagi konfliktlarni boshqarish

• Kursantlarni murakkab vaziyatlarda qarorlar qabul qilishga o‘rgatish

3. Stress va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish

Harbiy sohada stress bilan ishlash va uni boshqarish juda muhim. Psixologik profiling, kursantlarning stressga qanday javob berishini va stressni qanday boshqarishni o‘rganishlarini aniqlashda yordam beradi. Boshqaruv va stressni yengish bo‘yicha maxsus treninglar orqali kursantlarning psixologik chidamliligi oshirilishi mumkin.

Amaliyot:

• Stressni boshqarish bo’yicha maxsus treninglar (masalan, nafas olish usullari, meditatsiya, jismoniy mashqlar)

• Psixologik stress tahlilini o‘tkazish (kursantning stressga qanchalik chidamli ekanligini aniqlash)

• Yaxshi qaror qabul qilishni o‘rgatish (stressli vaziyatda o‘zini qanday tutish kerakligini o‘rgatish)

4. Liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish

Psixologik profiling liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Kursantlarning harbiy rahbarlikdagi salohiyatini aniqlash, ular qanday lider sifatida faoliyat yuritishini tushunish, va bu salohiyatni rivojlantirishga yordam berish kerak.

Amaliyot:

• Liderlikni baholash testlari (masalan, Meyers-Briggs tipi, 360 gradusli baholash)
• Kursantlarni lider sifatida rivojlantirish uchun maxsus treninglar
• Psixologik tahlil yordamida kursantlarning rahbarlik xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirish

5. O‘z-o‘zini anglash va motivatsiya

Psixologik profayling orqali kursantlarning o‘z-o‘zini anglash darajasini oshirish va ularga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini tushunishga yordam berish mumkin. O‘z-o‘zini anglash va motivatsiya harbiy sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan asosiy omillardan biridir.

Amaliyot:

• Motivatsiya va o‘z-o‘zini anglash testlari
• Kursantlar uchun psixologik seminarlar va treninglar (o’z-o’zini anglash, maqsad qo’yish, motivatsiya)
• Shaxsiy rivojlanish bo’yicha maslahatlar

6. Psixologik xavfsizlikni ta’minlash

Harbiy tizimda psixologik xavfsizlik muhim ahamiyatga ega. Psixologik profayling, kursantlarning ichki xavfsizlik hissini ta’minlashga yordam beradi, shu bilan birga, ularning fikrlarini erkin ifodalashiga va muammolarini ochiq muhokama qilishiga imkon yaratadi.

Amaliyot:

• Psixologik xavfsizlikni yaratish bo‘yicha treninglar (xavfsiz muloqot muhitini yaratish)
• Kursantlar bilan individual suhbatlar, shaxsiy va kasbiy muhokamalar.

Xulosa;

Kursantlar uchun psixologik profaylingni rivojlantirish, ularning ruhiy barqarorligini va qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bu jarayon kursantlarni stressni boshqarishga, jamoada samarali ishlashga, va o‘z shaxsiyatlarini rivojlantirishga undaydi. Harbiy psixologiya va psixo-profilingni o‘rgatishda, harbiy tizimda ishlaydigan psixologlar, pedagoglar va boshqaruvchilar o‘zaro hamkorlikda kursantlar uchun eng samarali yondashuvlarni ishlab chiqishlari kerak.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH XIZMAT FAOLIYATIDA HARBIY XIZMATCHILAR IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH VA HAMKORLIK ISHLARI.

M. S. Usmonova

Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi S.Sultonov, U. Berdimuradov JDPU I-bosqich talabasi

Annotatsiya.*Maqolada jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda milliy gvardiya bo’linmalari hamda ichki ishlar organlari o‘zaro hamkorligining huquqiy va tashkiliy asoslari ilmiy tahlil qilib, sohani nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavfsiyalar berilgan. Shuningdek, ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari ilmiy tahlil qilinib uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bo‘yicha fikr va mulohazalar bildirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya organlari, patrul, post, patrullik xizmati, hamkorlik.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni

«Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini «Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda[1].

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi va rahbarligi ostida so‘nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari asosida ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ish uslublarini, aholiga xizmat ko‘rsatish masalalarini, hamkorlik mexanizmlarini, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini va shaxsiy tarkib bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish choralarini kuchaytirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Shuningdek, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda jinoyat o‘choqlari»ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish belgilandi[2].

Bizga ma’lumki, bugungi kunda ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligi qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarda, ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirishi [3] shuningdek, Milliy gvardiya o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamkorlik qilishi belgilangan[3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3786-son (2018 yil 19 iyun) qarori asosida Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlashning yangicha tizimini nazarda tutadigan «Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasi joriy etilib, soat 16:00 dan 8:00 ga qadar vaqt oralig‘ida ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya saf bo‘linmalari jamoat tartibini ta’minlash kuchlarining kamida 70 foizini, shuningdek, jamoatchilik vakillarini jalb qilish orqali tunu kun uch smenali patrul rejimi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, qaror bilan: patrullik qilish uchun biriktirilgan hududda jamoat tartibini buzish holatlari mavjud emasligi, ularning o‘z vaqtida oldi olinishi va ularga chek qo‘yilishi sutkaning kechki va tungi

vaqtida xizmat olib borayotgan jamoat tartibini ta’minlash kuchlari faoliyatini baholashning eng muhim mezonlari hisoblanishi belgilandi; konsepsiyani amalga oshirish doirasida jamoat tartibini ta’minlash kuchlarini muvofiqlashtirish va aloqa mobil markazlarining faoliyat yuritishi amaliyoti joriy etildi va ular ichki ishlar bo‘limlari xizmat ko‘rsatish hududlariga biriktirildi; Toshkent shahrining har bir mahallasida «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari kuch va vositalarini boshqarishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PQ-4343-son (2019 yil 29 may) qarori Toshkent viloyatida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tish, shuningdek, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalarining kuch va vositalarini nazorat qilish va boshqarishning samarali tizimini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, mazkur qarorga muvofiq, Toshkent viloyati ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari kundalik xizmat o‘tashlari bevosita mintaqalar bo‘yicha taqsimlanadi; mintaqaviy hududlar rahbarlariga patrul-post xizmati naryadlarining kundalik joylashuvini belgilash huquqi berildi; Toshkent viloyati tuman (shahar)larida Milliy gvardiya va ichki ishlar organlarining jamoat tartibini ta’minlash kuchlari tarkibida birgalikda patrullik xizmatini o‘tash tartibi joriy qilindi[4].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora- tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5050-son (2021 yil 2 aprel) qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi boshqaruv tizimi joriy etildi:

birinchidan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta’minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona «poytaxt mintaqasi» tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshirilishi belgilandi;

ikkinchidan, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi zimmasiga, umumiy boshqaruvi ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatildi. Yagona «poytaxt mintaqasi» tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari boshliqlarining hamraisligida Jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Toshkent shahar va Toshkent viloyati Milliy gvardiya boshqarmalarining boshliqlari mazkur Kengash raisining o‘rinbosarlari hisoblandi. Kengash yig‘ilishlari har oyda kamida bir marotaba o‘tkazilishi hamda unda poytaxt mintaqasida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish natijasida aniqlangan muammolarni o‘zaro hamkorlikda hal etish bo‘yicha manzilli choralar aniqlanishi belgilandi.

Shu bilan birga, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida Yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etilib, unga quyidagilar asosiy vazifalari etib belgilandi:

birinchidan, poytaxt hududida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni uzluksiz monitoring qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar hokimligining tegishli kuch va vositalarini boshqarish;

ikkinchidan, jinoyatlar, hodisalar va favqulodda holatlar haqidagi xabarlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar yuzaga kelganda vakolatli idoralarning harakatlarini markazlashgan holda muvofiqlashtirish.

Mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligiga bo‘lgan har qanday tahdidlarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida tashkil etish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, ushbu sohadagi bo‘linmalarining kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

«Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5077-son (2021 yil 15 aprel) qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti etib qayta tashkil etildi[4].

Universitetda Ichki ishlar vazirligi uchun – jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining tegishincha jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligi va pasport tizimi talablarini amalga oshirish yo‘nalishlarida malakali kadrlarni maqsadli tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatni samarali tashkil etishga qodir bo‘lgan malakali mutaxassislarni tegishli ixtisoslik va huquqshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan holda o‘qitish hamda ularni jangovar va jismoniy tayyorgarlikdan o‘tkazish orqali maqsadli tayyorlash

Universitetning asosiy faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash

maqsadida, yana bir muhim hujjat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2021 yil 29 noyabr) PF-27-son farmoni qabul qilindi[5].

Farmonga muvofiq, quyidagilar belgilandi. Xususan,

birinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi;

ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash sohasida sodir etiladigan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolati ichki ishlar organlari bilan bir qatorda Milliy gvardiyaga berilishi bo‘yicha vazifalar belgilandi;

uchinchidan, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya jamoat xavfsizligini ta’minlovchi sub’ektlar sifatida mustahkamlandi va ularning aniq vakolat doiralari belgilandi.

Mazkur farmon asosida tasdiqlangan «2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi»ga muvofiq, quyidagi vazifalar belgilandi,

birinchidan, guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish vaqtida Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari tomonidan foydalaniladigan maxsus texnik vositalarni, shuningdek, tezkor axborot almashish, quyi tizimdagi bo‘linmalarni oqilona boshqarish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish;

ikkinchidan, «Jinoyat o‘choqlari» hisoblangan hududlarda tungi vaqtda ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalarining harbiy xizmatchilari va xodimlaridan iborat avtopatrul, otliq va piyoda patrullarning uzluksiz faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularning vakolat doirasini belgilash va funksional majburiyatlarini tasdiqlash;

uchichnchidan, Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlashga mas’ul bo‘linmalarining huquqbuzarliklarni aniqlash va ma’muriy jazo choralarini qo‘llash vakolatini kengaytirish;

to‘rtinchidan, Milliy gvardiya va ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari hamda «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish;

beshinchidan, Milliy gvardiya va ichki ishlar organlaridan jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan bo‘linmalarning axborot tizimlari (probatsiyaning markazlashgan elektron tizimi, yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining yagona avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimi) bazasida «E-jamoat havfsizligi» yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga to‘liq tatbiq etish.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘tgan davr ichida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli va tizimli islohotlar o‘z samarasini bermoqda. Bugungi kunda 2017 yilga nisbatan jinoyatlar soni 12 mingga kamaygani, joriy yilning olti oyi yakuniga ko‘ra esa, mavjud 9 ming 251 ta mahalladan qariyb 50 foizida bironta ham jinoyatga yo‘l qo‘yilmaganini alohida ta’kidlash lozim. Bu albatta islohotlarimizning ijobiy samarasidan dalolat beradi va bu ishlarimizni izchil davom ettirishni taqozo etadi[6].

Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligini tashkil etish masalalari ko‘rilayotganda, avvalo o‘rganilayotgan ob’ektda *o‘zaro hamkorlik* tushunchasiga ta’rif berib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashdagi *o‘zaro hamkorlik* – ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarning qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlariga asoslanib, o‘zaro kelishilgan holda faoliyatning shakl va usullari, xizmat vakolatlaridan samarali foydalanishi bo‘lib[7], bunda ikki yoki undan

ortiq xizmat, ya’ni boshqaruvning bir-biriga bo‘ysunmagan alohida ishtirokchilari o‘z harakatlarini o‘zaro kelishib bajarishadi[8]. Kriminolog Z.S. Zaripov aytganidek, hamkorlikni tashkil qilishga ichki ishlar organlari tizimidagi mehnat taqsimoti, tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasida vazifalar va majburiyatlarning taqsimlanishi kabi masalalarni qamrab olgan maqsadning vujudga kelishi sifatida ham qarash mumkin. O‘zaro hamkorlikning maqsadi boshqaruv tizimi oldida turgan umumiy vazifalarini hal etishda kuch va vositalarni to‘g‘ri taqsimlashni anglatadi[6].

Huquqshunos olim I. Ismailov o‘z tadqiqotlarida bu boradagi hamkorlikni quyidagi to‘rt yo‘nalishga:

a) ichki idoraviy hamkorlik;

b) idoralararo hamkorlik;

v) jamoatchilik bilan hamkorlik;

g) xalqaro hamkorlikka ajratadi [10] .

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligi keng qamrovli aloqalarni o‘z ichiga oladi va organlarning *tashqi hamkorlik* yo‘nalishi hisoblanadi.

Barcha sharoitlarda ham hamkorlik qo‘shma tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish, ma’lumotlarni ayirboshlash, jamoat tartibini muhofaza qilish masalalari yuzasidan takliflar tayyorlash va tegishli tashkilotlarga taqdim etish yo‘li bilan amalga oshiriladi[6].

Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligini turli shakllari mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda ikkiga: *o‘zaro axborot almashish* hamda faoliyatga doir muayyan chora-tadbirlarni hamkorlikda rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini umumlashtirish, muayyan vazifalarni hal qilishda o‘zaro yordam berish va qo‘llab- quvvatlashda namoyon bo‘ladigan *amaliy hamkorlik*ka ajratish mumkin.

Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasida ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining o‘rtasidagi o‘zaro axborot almashish hamkorlikning keng tarqalgan shaklidir. Ichki ishlar organlarining xodimlari aynan axborotni yig‘ish, tahlil qilish va uni almashish asosida ishlab chiqqan xulosaga ko‘ra huquqbuzar yoki huquqbuzarlikka moyil bo‘lgan shaxslar bilan munosabatda bo‘lishi, ularning taqdirlarini belgilashi bois ayrim olimlar tomonidan axborot olish va unga ishlov berishni ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy texnologiyalaridan biri deya ta’kidlanadi

Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini

ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligining *prinsiplarini* quyidagilar tashkil etadi:

– Konstitutsiya va qonun ustuvorligi;

– oldindan ishlab chiqilgan va kelishilgan reja asosida o‘tkazilishi;

– quyi organlarning yuqori organlarga bo‘ysunishi;

– belgilangan vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

– har qanday masalalarning uyushqoqlik va tezkorlik bilan hal etilishi.

Nazarimizda, hozirgi kunda ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligi: *birinchidan*, birgalikda yo‘riqnomalar o‘tkazishda;

ikkinchidan, huquqbuzar va jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar haqida axborotlarni o‘zaro almashishda;



uchinchidan, huquqbuzarliklar jumladan, jinoyatlarning sodir etilish sababi va sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etishda;

to‘rtinchidan, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash hamda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir tadbirlarni hamkorlikda amalga

oshirishda; *beshinchidan,* ilg‘or tajribalarni o‘zaro almashishda namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorlini samarali tashkil etilishi-

birinchidan, ushbu hamkorlikning huquqiy tartibga solinganligiga;

ikkinchidan, o‘zaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, usul va shakllarining, kuch va vositalarining aniq belgilab olinganligi, shuningdek hamkorlikning funksional vakolatlar doirasi bilan aniq chegaralanganiga;

uchinchidan, hamkorlikning muhim sharti bo‘lgan axborot muhitining yaratilganligiga;

to‘rtinchidan, hamkorlikning birgalikda rejalashtirilishi, rejalarning amaldagi ijrosi samarali ta’minlanishi va ish natijalarining birgalikda tahlil qilib borilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligining *o‘ziga xos jihatlari* sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– birgalikdagi faoliyatning sub’ekt, ob’ekt va predmeti, umumiy maqsad, vazifa va yo‘nalishlarining mavjudligi;

– hamjihatlik, o‘zaro yordam ko‘rsatish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslanganligi;

– ijobiy natijalarga erishish uchun intilish;

– hamkorlikning mukammal (optimal), har ikki tomon uchun maqbul shakl va usullarining qo‘llanishi;

– axborot ta’minoti va tahlilga egaligi;

– ishtirokchilarning hamkorlikni tashkil etish uchun mas’ulligi va birgalikdagi faoliyatning baholab borilishi.

XULOSA.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi o‘zaro hamkorligining huquqiy va tashkiliy-taktik asoslarini takomillashtirish jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga qarshi qaratilgan g‘ayriijtimoiy hatti-harakatlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish kabi faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun imkon beradi

ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-қудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи
2. Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш. Юрид. фан. номзоди. Дис.-Т., 2008. – Б. 114.
3. Ўзбекистон Республикасининг ички ишлар органлари тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, – 2017. – № 37. – 978-м.
4. Asadov, S. F. O. G. L. (2021). FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA DAVLAT ISHTIROKI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK
MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(11), 789-799.
5. Koryogdiyev, B. U. O. (2021). BITIMNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH VA UNING OQIBATLARINI QOLLASH FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMOYA
QILISH VOSITASI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(11), 211-225.
6. Ўзбекистон Республикасининг миллий гвардияси тўғрисидаги қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2020 й., 03/20/647/1569- сон.

HARBIY XIZMATCHILAR UCHUN PSIXOLOGIK MASLAHAT BERISHNING NAZARIY AHAMIYATI

M. S. Usmonova

Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi.

T.Abduazizov, S.Maxmarasulov JDPU I-Bosqich talabasi

Annotatsiya.Maqolada psixologik maslahat ishini olib borishning amaliy va nazariy jihati yoritilgan. Psixologik ishlarning dolzarb muammolaridan, harbiy psixologlarning amalga oshiradigan ishlari ketma-ketligi hamda psixologik maslahat ishlarini yo„lga qo„yish masalasi bo„yicha fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, maslahat vazifalari harbiy xizmatchini (mutaxasislikka) yo„naltirish hamda maslahat berish ishini amalga oshirish zarurati turli omillar bilan asoslangan.

Kalit so‘zlar: harbiy psixolog, axloqiy-ruhiy xolat-muhit, xulq-atvor, nizo, emotsiya, extiyoj, psixologik maslahat, malaka, ko„nikma, iqtidor, intellekt, shaxs fazilati.

Bir so’z bilan aytganda ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borgan huquqshunos olimlar to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, ichki ishlar organlari bilan Milliy gvardiya faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlar huquq tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ma’lumki, har qanday davlat organi boshqa tuzilmalar bilan hamkorlikni tashkil qilmasdan turib, ichki imkoniyatlari doirasida o‘z faoliyatining samaradorligini ta’minlay olmaydi. Jumladan, ichki ishlar organlari ham o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda tarkibiy tizimga kiruvchi tarmoq xizmatlari, boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi[1].

O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi va «Milliy gvardiyasi to‘g‘risida»gi qonunlari bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib

hisoblanadi. Ushbu qonun asosida qabul qilingan qonun osti hujjatlarda ya’ni Prezident farmon, qaror va farmoyish, Vazirlar Mahkamasining qarori hamda idoraviy normativ-huquqi hujjatlar va qo‘shma qarorlarda ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari o‘zaro hamkorligining tashkiliy asoslarini belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonun va 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF- 5005 son (2017 yil 10 aprel) farmoni jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy tartibga soladigan muhim hujjatdir. Farmonda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sub’ektlarining vazifalari, funksiyalari va javobgarligini aniq chegaralash, takrorlanuvchi va dolzarbligini yo‘qotgan vakolatlarni chiqarib tashlash, bo‘linmalarning tezkorligi va samaradorligini ta’minlovchi moddiy- texnik ta’minoti darajasini mustahkamlash, zamonaviy ilmiy-texnik vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash nazarda tutildi[2].

Mazkur farmon ijrosi doirasida qabul qilingan ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy tartibga solishda asosiy o‘rin tutadigan quyidagi muhim hujjatlar – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PQ-3528-son (2018 yil 14 fevral), «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3528-son (2018 yil 14 fevral) qarori bilan Toshkent shahrida qayta tashkil etilgan ichki ishlar bo‘limlari

zimmasiga sektorlar hududlarida jamoat tartibini saqlashni amalga oshirish uchun javobgarlik yuklatilib, ularning rahbarlariga hududga biriktirilgan patrul-post xizmati naryadlarining kundalik dislokatsiyasini belgilash huquqi berildi[3].

Mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini ta’minlash tizimida keng ko‘lamli demokratik islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasining yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son (2021 yil 26 mart) farmoni qabul qilindi.

Farmonga binoan ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari sifatida quyidagilar belgilandi:

birinchidan, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi belgilandi. Unga muvofiq, mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo‘g‘ini hisoblanib, uning negizida ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari, Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklatildi;

ikkinchidan, ushbu Farmon bilan ichki ishlar organlari tiziminiyanada takomillashtirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» tasdiqlandi. Unga

muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi jamoat xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish belgilandi:

-O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash;

-patrul-post va yo‘l-patrul xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya xizmatlari bo‘linmalarining o‘zaro hamkorlikda ishlashi bo‘yicha yangi mexanizmlarni belgilash;

-Milliy gvardiya bo‘linmalarining jamoat tartibini saqlash tizimidagi vakolatlari va shaxsiy javobgarligini belgilash;

- probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini kunlik nazorat qilishda profilaktika inspektorlaribilan hamkorlik mexanizmlarini joriy etgan holda probatsiya bo‘linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish[3].

Sir emaski, hozirda harbiy qism va muassasalarni yuqori malakali psixolog kadrlar bilan ta‟minlash oson emas. Psixolog mutaxassislarga extiyoj katta ekanligini hisobga olgan holda bunday mutaxassislarni tayyorlashga alohida e‟tibor berish zarurati mavjud. Hozirgi kunda faoliyat ko„rsatayotgan mutaxassislarni malaka oshirish kurslarida tahsil olishini ta‟minlash ham harbiy psixologlar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu kurslarda tashxis, kasbga yo‘naltirish nazariyasi va amaliyoti ayniqsa psixodiagnostik metodikalardan foydalanishning axloqiy talablariga rioya qilish, qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga diqqatni qaratish maqsadga muvofiq.

Harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmatni nazariy metodologik ta‟minlash psixologik va pedagogik tashxis nazariyasini yaratish mutaxassislarning pedagogik psixologik tashxisning kasbga yo„llashning ijtimoiy-iqtisodiy ruhiy va huquqiy tomonlarini chuqur bilishi va tushunishini taqozo qiladi [4].

Harbiy psixologlar faoliyatini takomillashtirishning yana bir mas‟uliyatli, qiyin, lekin juda muhim tomoni tashxis amaliyotini uslubiy ta‟minlashdir.

Fikrimizcha, harbiy qism va muassasalarda ishlayotgan amaliyotchi psixologlar uchun psixodiagnostik metodikalardan foydalanish psixologik tuzatish va rivojlantirish ishlarini tashkil etish uchun o„tkazilishi lozim bo„lgan seminar-treninglarning tashkil etish bo„yicha qo„llanmalar tayyorlab seminar treninglar

tashkil qilish lozim. Ushbu seminar-treninglarda kerakli adabiyotlar tarqatilsa, harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmat samaradorligiga hamda psixologik-pedagogik tashxis sifatiga ijobiy ta’sir qilgan bo’lar edi.

XULOSA

Harbiy qism va muassasalarda psixologik xizmatning joriy etilishining o„ziga xos katta ahamiyati hozirgi kunda shaxsiy tarkibning xizmat olib borishida bir qator psixologik to„siqlarning oldini olishga nisbatan talabning ortib-borayotganligida yaqqol ko„rish mumkin. Harbiy xizmatchilar amaliyotchi psixologlarga asosan o„zlarining shaxs xususiyatlarini, irodaviy sifatlari, his-tuyg„ulari, o„z-o„zini boshqarish imkoniyatini, intellektual salohiyat darajasini psixodiagnostik uslublar yordamida aniqlash va o’z imkoniyatlarini ruyobga chiqarish, rivojlantirish, kasbga yo’naltirish, shaxslararo munosabatlardagi muammolarni hal etish masalalari bo’yicha murojaat qilishlari

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Ўзбекистон Республикасининг ички ишлар органлари тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, – 2017. – № 37. – 978-м.

2. O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilariningma‟naviy-ma‟rifiy saviyasini oshirishtizimini tubdan takomillashtirish to„g„risida” gi O„zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2018 y.PQ-3898 qarori.

3.Mudofaa Vazirining “O„zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo„shinlarida psixologik ishlarni tashkil etish Nizomini tasdiqlash to„g„risida” gi 797-sonli bo„yrug„i. 15 avgust 2019-yil. 1-bob Umumiy qoidalar 4 bandi.

4.Z.Nishonova, Sh.Asomuddinova. Psixologik maslahat. O„quv qo„llanma. O„zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2010. 5 bet.

5.Райгородский Д.Я. редактор-составитель. Практическая психодиагностика методики и тесты. Издательский:Дом«БАХРАХ-М» Самара 2001г. Ст-3.

6.Sh.M.Mirziyoev O„zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo„llagan bayram tabrigi// “Xalq so„zi”, 2017-yil 14-yanvar.

SHAXSNING O’Z-O’ZINI TARBIYALASH VA BOSHQARISH JARAYONI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sadriddinova Feruza Meliyevna (PhD) dotsent A.Qodiriy nomidagi J.D.P.U.

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxsning o’z-o’zini tarbiyalash va boshqarish jarayoni pedagogik-psixologik muammo sifatida ko’rib chiqiladi. O’z-o’zini tarbiyalash tushunchasi, uning mohiyati va ta’sir omillari yoritiladi. Maqolada ilmiy yondashuvlar, zamonaviy psixologik tadqiqotlar hamda pedagogik amaliyotdan misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: shaxs, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini boshqarish, pedagogik-psixologik muammo, intizom, motivatsiya, refleksiya, hissiy intellekt, ta’lim, tarbiya, ijtimoiy moslashuv, shaxsiy rivojlanish, pedagogik amaliyot, psixologik jarayon, mustaqil fikrlash, mas’uliyat, axloqiy tarbiya, o‘qitish metodlari, shaxs kamoloti, ongli rivojlanish.

Shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqarish jarayoni insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon individuallikni shakllantirish, o‘zini anglash va ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonlarini qamrab oladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash shaxsning intellektual, axloqiy va ruhiy o‘sishiga xizmat qilib, pedagogik va psixologik muammolar doirasida alohida o‘rganilishi lozim.

Shuningdek, bu jarayon shaxsning ichki nazorat tizimini mustahkamlash, mas’uliyat hissini rivojlantirish va kelajakka oid rejalarning samarali amalga oshishiga yordam beradi. Masalan, A. Banduraning o‘z-o‘zini nazorat qilish nazariyasiga ko‘ra, inson o‘z xatti-harakatlarini ichki motivatsiya va atrof-muhit omillariga qarab boshqaradi. Shu sababli, ushbu jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirish o‘qituvchi va psixologlar oldidagi muhim vazifalardan biridir. O'zaro ta'sir - bu inson

faolligining ko'rinishi sifatida, muloqotning interfaol shakli va individ faoliyatining ma'lum bir turi sifatida mustaqil ahamiyat kasb etuvchi jarayon. O'zaro ta'sir jarayonida muloqot vujudga keladi va bunda inson o'zini-o'zi anglaydi, o'z ehtiyojini, shaxsiy hayotiy tushunchalarini, faolligini namoyon etadi. Buning uchun inson o'zining qaysi tizimga va qaysi jamiyatga xosligini anglashi zarur. O'zaro ta'sir jarayonida ishtirok etayotgan inson nafaqat o'zini va shaxsiy xususiyatlarini, balki aniq holatni, vaziyatni ham o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, bunda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi subyektlaming rivojlanishi amalga oshadi, shuningdek, o'zaro ta'sir jarayoni ham rivojlanadi.[7-b] O‘z-o‘zini tarbiyalash – bu shaxsning ongli ravishda o‘zini rivojlantirishga, ichki fazilatlarini takomillashtirishga va jamiyat talablariga mos keladigan xulq-atvor me’yorlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatidir. Bu jarayon insonning ijtimoiy-madaniy tajribasi, kasbiy kompetensiyalari va axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. J. Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, inson o‘z bilimi va tajribasini mustaqil egallash orqali shaxsiy kamolotga erishadi. Shu boisdan, pedagoglar va ota-onalar bolalarni mustaqil fikrlash, o‘z harakatlariga javobgarlik hissi bilan yondashishga o‘rgatishlari muhimdir. Boshqalardan yaxshiroq bo’lishga intilishdan, o’zgarishga harakat qilishdan, yaqin insonlarning talablari, iltimosi va ko’ndirishlaridan xech qanday o’zgarishlar sodir bo’lmaydi. O’z o’zini boshqarish (lot. regulare – tartibga solish, to’g’irlamoq) – bu oldindan ongli ravishda tizimiy tashkillashtirilgan individning o’zining ruxiyatiga uning xususiyatlarini xoxlagan yo’nalishda o’zgartirish maqsadida ta’sir o’tkazishdir. [3-b]

Shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga ta’sir qiluvchi omillar ikki asosiy guruhga bo‘linadi: ichki va tashqi omillar. Ichki omillar insonning individual xususiyatlari, shaxsiy intizomi, motivatsiyasi, irodaviy sifati va ma’naviy qadriyatlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, Viktor Frankl o‘zining ekzistensial psixologiya nazariyasida shaxs hayotining ma’nosini anglash orqali ichki motivatsiyaga erishishini ta’kidlaydi. Tashqi omillar esa oilaviy tarbiya, ta’lim tizimi, ijtimoiy muhit va kasbiy faoliyatdan iborat bo‘lib, insonning ongli ravishda o‘zini rivojlantirish jarayoniga ta’sir qiladi. Masalan, Lev Vygotskiy ta’lim muhitining

shaxs rivojlanishidagi o‘rnini yoritib, inson faqatgina ijtimoiy o‘zaro munosabatlar orqali o‘zini tarbiyalay olishini ta’kidlagan.

O‘z-o‘zini tarbiyalash psixologik jihatdan insonning ichki dunyosiga, emotsional barqarorligiga va motivatsion tizimiga bog‘liqdir. Bu jarayonda insonning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati, o‘ziga bo‘lgan munosabati va o‘zini anglash darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. D. Goleman tomonidan ilgari surilgan hissiy intellekt nazariyasida shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglab yetishi va ulardan samarali foydalanish qobiliyati o‘z-o‘zini boshqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘z-o‘zini boshqarish – shaxsning ichki intizomi, vaqtni samarali taqsimlash, muammolarni hal qilish qobiliyatini o‘z ichiga olgan jarayondir. Ushbu jarayon individual rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib, insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishini ta’minlaydi. G. Kershenbaumning refleksiv pedagogika konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchilar va talabalar o‘z faoliyatlarini tahlil qilish orqali mustaqil o‘rganish va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

O‘z - o‘zini boshqarishni tadqiq qilish bilan birga olimlar avvalo uni shaxsning o‘z - o‘zini anglash bilan bog‘liqligi g‘oyasini ilgari surishgan. Psixologiya fanida o‘zini o‘zi anglashning psixologik mohiyatini talqin qilishda ikki xil qarash, yondashish vujudga kelgan bo‘lib, ular o‘zaro qiyoslanganda bir-biridan katta farqqa ega. Birinchi yondashuv tavsifiga qaraganda, o‘zini o‘zi anglash – bu o‘z yo‘nalishini o‘zgartirgan ongning aynan o‘zidir. Shuning uchun u shaxs ongining maxsus ko‘rinishidan boshqa narsa emas. [2-b]

Pedagogik amaliyotda o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqarish bo‘yicha bir nechta samarali usullar mavjud. Birinchidan, refleksiya – shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilish jarayoni bo‘lib, uni rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradi. Ikkinchidan, motivatsiya tizimini shakllantirish – o‘quvchilar va talabalarni o‘z oldiga maqsad qo‘yishga va unga erishishga undash. Uchinchidan, faol o‘rganish metodlari – loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va tajriba almashish orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish. To‘rtinchidan, o‘zini baholash va o‘z-o‘ziga baho berish – shaxsiy kamchiliklarni anglash va o‘z ustida ishlash jarayonlari.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqarish jarayoni insonning ongli ravishda rivojlanishiga va jamiyatga moslashuviga xizmat qiladi. Ushbu jarayon samarali tashkil etilgan taqdirda, inson mustaqil qaror qabul qila oladi, ijtimoiy jihatdan faollashadi va o‘z kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada, jamiyatda yetuk, mas’uliyatli va ma’naviy barkamol shaxslar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.T.Turg'unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva “Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari”. 7-b
2. B.X.Avezova “ Shaxsda o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik jihatlari” UrDPI “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi “Journal of science-innovative research in uzbekistan” jurnali Volume 1, ISSUE 8, 2023. NOVEMBER 3-b.
3. M.J. Yo`ldasheva “Shaxs o’z-o’zini boshqarish muammosi psixologik tadqiqotlarda o’rganilishi” Journal of new century innovations. 2-b.

TALABALARDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRIISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI VA AHAMIYATI.

Mustafaqulova Dildora Ismatulllayevna,
Jizzax Davlat pedagogika universiteti Biologiya va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi,
Ravshanov Begzod Doniyor o‘g‘li
JDPU biologiya yo’nalishi I-kurs talabasi.

Annotatsiya. Bu maqolada talabalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shartlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tafakkur, mantiqiy fikrlash, qobiliyat, ijodiy, kreativ, abstrakt.

Fikrlash, mulohaza qilish, atrofdagi jarayon hodisalarni mantiqiy tahlil qilish bu kognitiv jarayondir. Kognitiv jarayonlar ma`lumotlarni qabul qilish, saqlash, ularni ko`paytirish tahlil qilish kabilardir. Bularga insonlarning qobiliyatlari va iste`dodlari kiradi. Ma`lumki faqat inson ongli fikrlash, tahlil qilishga qodir.

Insongina sabab-natija munosabatlarini kuzatgan holda izchil mantiqiy mulohazalar quradi. Bu qobiliyat insonga tug`ilgandan berilmaydi, lekin bu zarur, chunki usiz rivojlanish va o'rganish mumkin emas. Bu borada evropalik olim S.L. Rubinshteyn o`ylamay urib dunyoni anglashimizning iloji yo`q degan g`oyani ilgari surgan holda: “Fikrlash - sezgilar va idroklarni o‘zaro bog‘laydi: solishtiradi, ularni qarama-qarshi qo‘yadi, munosabatlarni ochib beradi, farqlarni ko`rsatadi; munosabat va tushunish ular orqali voqelik hodisalarning mohiyatini chuqurroq anglashni imkonini beradi”.

Insonda mantiqiy tafakkur rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va uni shakllantirish masalalari ta`limda ham doimo dolzarb masala sifatida qaralgan. Chunki jamiyatni tashkil qiluvchi insonlar mantiqiy tafakkurlasa o`sha jamiyatda yuqori ko`rsatkichdagi progress bo`ladi. Bir qator psixolog va pedagoglar mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni o'ziga xos xususiyatlari L.S. Vygotskiy, P.Ya. Galperin, V.V. Davydov, L.V. Zankov, N.B. Istomin, P.G. Lubochnikov, R.S. Nemov,L.Yu. Ogerchuk, S.L. Rubinshteyn, N.F.Talizina, O.K. Tixomirov va boshqalar o‘rganganlar. Shuningdek, evropalik olimlar Zak, Yu.M. Kolyagin, L.M. Likhtarnikov, L.G. Peterson, D. Poya, G.I. Sarantsev, L.M. Fridmanlar mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda nostandart topshiriqlardan foydalanish juda yaxshi samara berishini o`z ilmiy izlanishlari orqali isbotlaganlar. Lekin, yuqorida keltirilgan olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga qaramay, hozirgi kunda nostandart vazifalar yordamida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish muammosi amalda etarlicha ko'rib chiqilmagan. Bu esa bugungi kunda zamon talablarini shiddat bilan yangilanishi, kadrlar sifatiga bo`lgan talablarning oshishi oliy ta`lim tizimida tahsil olayotgan talabalarda mantiqiy tafakkurini rivojlantirish orqali ularni ijodiy va kreativ sifatlarini rivojlantirish zaruriyati dolzarbligini belgilaydi. Buyuk chex pedagogi Ya.A. Komenskiy ham ta`lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish juda samarali deb hisoblagan. Uning fikricha, talabalar ma`lumotlarni bilishi, ko`rishi va xulosalar bilan tanishishi juda ham muhim.

Xulosa bolaning hayotiy tajribasi bilan bog'liq bo'lishi kerak, shundagina ular unga tushunarli bo'ladi. Mantiqiy fikrlash kelib chiqishiga ko`ra vizual-samarali, vizual-majoziy, mavhummantiqiy va og'zaki-mantiqiy fikrlash bilan farqlanadi.

Ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega. Vizual-samarali fikrlash voqelik ob'ektining moddiy, jismoniy o'zgarishiga asoslanadi: muammoni hal qilishda, inson ob'ektning xususiyatlarini tekshiradi, tahlil qiladi va uni o'zgartiradi. Vizual-majoziy fikrlash bilan inson endi haqiqiy, jismoniy harakatlarni bajarmaydi, unga vaziyatni, nostandart vazifani o'z ongida tasavvur qilish va tarkibiy ob'ektlar bilan muayyan harakatlarni bajarish kifoya. Bu jarayonda xotira muhim rol o'ynaydi. Og'zaki-mantiqiy fikrlash uchun aniq belgilangan nutq muhim, uning davomida odam murakkab mantiqiy konstruktsiyalardan foydalanadi va qaysi aqliy operatsiyalarni mohirona bajarishga yordam beradi. Og'zaki-mantiqiy fikrlash amaliy harakatlarni majoziy tasvirlar bilan birlashtirishga imkon beradi. Abstrakt-mantiqiy fikrlashni eng yuqori deb hisoblash mumkin, ammo undan uzoqdir fikrlashning yakuniy shakli. Vazifa ustida ishlayotganda, u odamga ob'ektning muhim xususiyatlarini muhim bo'lmagan narsalardan ajratishga, hisobga olishga imkon beradi. Shveysariyalik pedagog G.Pestalozzi va rus olimi K.D.Ushinskiy ham vizual o'rganish ta`rifdoridir. Ularning qarashlaricha taqqoslash, tahlil qilish, bayonotlar qurish aniq misollar, nostandart vazifalar bo'yicha amalga oshirilishi kerak, deb ta'kidlaydilar. Mantiqiy rivojlanish fikrlash o'qitishning asosiy vazifasiga aylanishi kerak, chunki mantiq har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga yordam beradigan eng muhim fanlardan biridir. Mantiqiy fikrlash, L.A. Venger, muammoni hal qilishda odamning bosib o'tadigan yo'lidir. Ushbu qaror qabul qilinadi avval tushunchalarda, so'ngra xulosalarda shakllanadigan o'tmish tajribasining asosi [3]. Bu borada oliy ta`lim muassasalarining texnologik ta`limy yo`nalishida tahsil olayotgan talabalarda mantiqiy tafakkurini rivojlantirish juda muhim. Ularda mantiqiy tafakkurini rivojlantirish orqali ijodiy va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi. Buni amalga oshirish uchun quyidagilarni:

1) birinchi navbatda, ta`lim jarayonida berilayotgan ma`lumotlar orqali fikrlashni rivojlantirish jarayonining davomiyligini amalga oshirish;

2) ikkinchidan, talabalarni o`zlarini ham ushbu jarayonni amalga oshirishda faollikka undash va buni shaxsiy qadriyatga aylantirish;

3) uchinchidan, ta`lim jarayonida talabalarga berilayotgan ma`lumotlar kichik qismlarda, mantiqiy ketma ketlikda, uzviylikda berilishi;

4) to`rtinchidan, talabalarga mantiqiy qonuniyatlarning o`zi, texnikasi haqida tushunchalar berish kerak. Yuqori ko`rsatilganlar hisobga olingan holda mashg`ulotlarni tashkil etilishi texnologik ta`limy o`nalishi talabalarida ya`ni talabalarda bo`lajak texnologik ta`lim o`qituvchilarida mantiqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga hamda o'zlashtirgan mantiqiy fikrlash usullarini mustaqil ravishda o`zlari ham qo`llay olish imkonini beradi. Bu borada olim N.Muslimov bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida talabalarni mustaqil izlanishga undaydigan topshiriqlarni berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi[4]. Bo`lajak texnologik ta`lim o`qituvchilari mantiqiy fikrlashning mohiyatini yaxshiroq tushunishlari uchun uning tuzilishini bilishingiz lozim:

1) motivatsion-maqsadli komponent - mantiqiy fikrlashni rivojlantirish emas ichki motivlarsiz amalga oshirilishi mumkin;

2) mazmun komponenti - ko'pgina omillarga bog'liq bo'lgan ta'lim faoliyati natijalari: bilimning chuqurligi, hajmi, izchilligi, amaliy ko'nikmalar.

3) operatsion-funktsional komponent - bu usullar, usullar,vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan operatsiyalar;

4) refleksiv komponent - fikrlash jarayonining amalga oshirilgan nazorati.

Xulosa. Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz mantiqiy fikrlash fikrlash murakkab kognitiv jarayon degan xulosaga keldik. Bo`lajak texnologik ta`lim oqituvchilarini mantiqiy tafakkurini rivojlantirish orqali ta`lim jarayonining sifatiga ijobiy ta`sir ko`rastish mumkin. Bunda talabalarda tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, muhokama qilish kabi jihatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, oliy ta`lim muassalarida tehsil olayotgan bo`lajak texnologik ta`lim o`qituvchilarini mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik va uslubiy ishlarni unumli, tizimli tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер, 2000. 2. Коменский Я.А. Великая дидактика. Москва: Педагогика, 1982.

3. Алексеева О.В. Логическая подготовка младших школьников при обучении математике. Диссертatsiя … кандидата педагогических наук. Москва, 2000.

4. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси / Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.

5. Malikova, D. (2020). Deposit base of Uzbekistan commercial banks. World Scientific News, (143), 115-126.

6. Malikova, D. (2020). Consulting services market of Uzbekistan. World Scientific News, (145), 168-179.

7. Malikova, D. (2023). METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ECONOMIC SECURITY OF BANKS. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects, 96-98.

8. Malikova, D., & Ziyadullayeva, M. (2023). INFLATION: THEORETICAL ASPECTS AND ANALYSIS OF PRICE CHANGES IN UZBEKISTAN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(2), 204-207.

9. Malikova, D., & Abduganieva, F. (2023). The Role of Consulting in the Modern Economy. Global Scientific Review, 12, 1-4.

10. Malikova, D., & Rakhmonov, N. (2023). MONETARY AGGREGATES AND THEIR IMPORTANCE IN THE ECONOMY. 11. Malikova, D., & Ochilova, I. (2023). Analysis of the Current State of Deposit Operations of Commercial Banks of Uzbekistan. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 28-31. 12. Malikova, D., & Ochilova, I. (2023). THE IMPORTANCE OF DOMESTIC BANKS’PRECIOUS METALS ACCOUNTING OPERATIONS. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(2).

13. Маликова, Д. (2021). UMUM TA’LIM MAKTABLARIDA KITOBXONLIK STRATEGIYASINI QO ‘LLASH: Malikova Dilrabo Mahmudovna, O ‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (7), 299- 305.

HARBIY XIZMATCHILARDA ADDIKTIV XULQ SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFI.

Qarshibayev Murodil Qarshibay o‘g‘li

Tayanch so‘zlar: harbiy xizmatchi, addiktiv, xulq shakllanishi, xulq.

Kursant hayoti harbiy muhitning ta’sirida tarbiyalanadi. Harbiy an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar kursantlarni kamolotga va yetuklikka yetkazishda asosiy o‘rin tutadi. Eng muhimi kursantlar harbiy hayot maktabi orqali jamiyat va harbiy talablarini his etadi, anglaydi va nihoyat harbiy jamoaga va jamiyatga nafi tegadigan yetuk ofitser bo‘lib shakllanadi deb xulosa chiqarish mumkin. Lekin “Tanganing ikki tomoni bor” deganlaridek, kursantlar jamoasida nizoli holatlar bo‘ladi. Konfliktlarning jamiyat hayotidagi doimiy va umumiy hodisa sifatida tan olinishi har qanday konfliktning u ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ko‘lamda, shaklda va tanglik darajasida muqarrar tarzda namoyon bo‘lishini keltirib chiqarmaydi. Ijtimoiy konfliktlarni tartibga solish muammosi konfliktli vaziyat sabablariga ta’sir etish, konfliktning salbiy oqibatlarini tugatish yoki konflikt natijalaridan foydalanish maqsadida konfliktning borishini muayyan yo‘nalishga solish imkoniyatiga asoslanadi. Konfliktni tartibga solish haqidagi masala nazariy va amaliy jihatdan uni o‘rganishga loyiq mustaqil muammodir. Bu muammoni o‘rganuvchilar konfliktni tartibga solishni unga bo‘lgan eng oqilona yondashuv deb hisoblaydilar. Har doim ham ochiq to‘qnashuvdan qutulish mumkin emas, biroq, doimo konfliktli hodisalarning rivojlanishi uchun haddan tashqari katta mablag‘ sarflash va talafotlar ko‘rishdan xalos bo‘lish mumkin.

Xizmat bo‘yicha tegishli ofitserlar, xodimlar, xizmatchilar va boshqa ofitserlarning pedagogik madaniyatini oshirish. Bu ma’rifiy ishlarni olib borishni tashkil etishda o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham yo‘q emas. Xususan, hozir davlat ta’lim-tarbiya muassasalarida ishlayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi, madaniyat xodimlari, ichki ishlar, hokimiyat vakillari, mahalla faollarining jamoaviy an’analar bo‘yicha ma’lumotlari va malakalari hozirgi talab darajasida deb xulosa chiqarish qiyin. Shuning uchun bu muammoni hal etishni keng qamrovli tarbiyaviy ishlardan boshlash maqsadga muvofiq. Yana oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan yosh malakali mutaxassislar o‘quv reja va o‘quv dasturlari, davlat ta’lim standardlarida ham jamoaviy an’analar, qadriyatlar, ma’naviyatlar bo‘yicha mavzular va ularga ajratilgan soatlar hozirgi hayot talabi darajasida emasligini aytish zarur. Ammo istiqlolning keyingi uchinchi, to‘rtinchi

yillarida jamoa tarbiyasini yaxshilash bo‘yicha 1996-yilni “Amir Temur” yili deb e’lon qilingani, HOTM larida harbiylar tarbiyasini o‘rganuvchi bo‘limning tashkil qilinishi kabi amaliy tadbirlarning bajarilishi bu sohada ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishga asos bo‘lmoqda.

Bizningcha, harbiy jamoada komandirlarning harbiy jamoaviy an’analar bo‘yicha ma’rifiy ishlarni quyidagi yo‘nalish va shakllarda olib borilsa, hozirgi hayot talablariga uyg‘un bo‘ladi.

Jamoada komandirlar o‘z kursantlari ongida harbiy an’analarga qiziqishni tarbiyalash eng muhim masaladir. Buning uchun kursantlargi an’analar haqida aniq ilmiy ma’lumotlar berilishi lozim. Ma’lumotda harbiy an’analarning mazmuni, tuzilishi, shakli, maqsadi, vazifalari haqida ularni harbiy jamoada, ijtimoiy hayotida qo‘llashning ta’lim-tarbiyaviy, amaliy ahamiyatini kursantlarga o‘rgatish talab etiladi. Kursantlarda, harbiy an’analarga intilish, xohishni, hurmatni tarbiyalamay shu jamoaning haqiqiy harbiy vatanparvari bo‘lishi mumkin emasligiga ishontirish komandirlarning muqaddas vazifasidir.

Har qaysi keyingi bo‘g‘in avvalgisini o‘z ichiga oladi (masalan, konfliktni tinchitish konfliktni oldini olish bo‘yicha tegishli choralarni nazarda tutadi). “Konflikt transformatsiyasi” atamasi keng ma’noda faoliyat sohasini umumiy ko‘rsatish uchun foydalaniladi. Konfliktning oldini olish-majburiy konfliktning boshlanishini yo‘qotish, barham toptirishni maqsad qilib qo‘yadi. Konfliktni tinchitish kelishuv bitimiga erishish orqali majburiy harakatlarni to‘xtatishni maqsad qilib qo‘yadi. Konfliktni tartibga solish zo‘rlikni cheklash va tomonlar xulq-atvoridagi ijobiy o‘zgarishlar yordamida kelgusida unga yo‘l qo‘ymaslikni maqsad qilib qo‘yadi. Konfliktni hal qilish konfliktlar sabablariga qaratilgan bo‘ladi va konfliktlashuvchi tomonlar o‘rtasida yangi mustahkam munosabatlarni qurishga intilishdan iborat. Konflikt transformatsiyasi konfliktning yanada keng ijtimoiy va siyosiy manbalariga hamda kurashning negativ energiyasini ijobiy ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga aylantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Konfliktlarni tartibga solish muammosi ma’lum darajada ijtimoiy jarayonlarni boshqarish muammosining bir qismini tashkil etadi. Fan tomonidan uni boshqarish

haqida ishlab chiqilgan asosiy g‘oyalar konfliktli vaziyatlarni boshqarishning aniq usul va yo‘llarini topishda katta ahamiyatga ega. Konfliktli menejment sohasidagi mutaxassislar umumiy xarakterdagi qator asosiy qoidalar muayyan holatdagi konfliktni boshqarish muammosini hal qilishni ta’minlashga olib keladi deb hisoblaydilar.

Ijtimoiy konfliktlarni oldini olish va tartibga solish ko‘proq ular namoyon bo‘ladigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muhitning umumiy holatiga bog‘liq. Shunga ko‘ra, konfliktlarni tartibga solish jarayonida qator uzviy jihatlar va bu vazifani yaxshi hal etishga ta’sir etuvchi zarur ijtimoiy shart-sharoitlarni aniqlash lozim. Konfliktlarni boshqarishda axborotning roli ahamiyatlidir. Konfliktlarga qarshilik ko‘rsatishga bo‘lgan har qanday urinish konfliktlar hali endi yuzaga kelayotgan vaqtda yoki ijtimoiy muhitga tarqalishi arafasida ularni manfaatdor taraflar tomonidan zudlik bilan ilg‘ab olishdan boshlanadi. Shu bois aynan konfliktlarni aniqlashga alohida e’tibor qaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sovetskiy endsiklopedicheskiy slovar. Pod pedaksi. A.M.Proxorova. Izdaniye vtoroye M.Sovetskaya endsiklopediya 1983 bet-21.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.. Ikkinchi jild. Toshkent-2020. Bet-616.

HARBIY XIZMATCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA MOSLASHUVINING TARIXIY-NAZARIY JIHATLARI

Tursunov Kamariddin Gulomovich
batalyon komandiri;

Tayanch so‘zlar: kasbiy faoliyat, moslashuvchanlik, adaptatsiya, harbiy faoliyat, xizmatga moslashuv.

Darhaqiqat barchamizga ma’lumki, dunyoda armiyaga e’tibor, qurol-yarog‘ga bo‘lgan sarmoyalar miqdori kengaymoqda. Harbiy xizmatchilarni kasbiy, ya’ni harbiy faoliyatga moslashuvi – harbiy xizmatchilarni o‘z kasbini puxta egallashda asosiy o‘rin tutadi. Jamiyatni rivojlanishida moddiy muammolarni hal qilish barobarida harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga moslashuvi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga

muvaffaqiyatli moslashuvi ularning xizmati va turmush tarzidagi yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga bevosita va bilvosita yordam beradi. Xizmat faoliyatiga moslashuv bevosita tarbiya va ta'limning o'zaro hamkorligining maxsulidir. Xizmat faoliyatiga harbiy xizmatchilarning moslashuvining pedagogik va huquqiy jihatlari bevosita xizmat joyidagi muhit, o'qish (Umumharbiy Nizomlari), o'qitish va tarbiya bilan bog'liq. Harbiy xizmatchilarning xizmatga moslashuvi xizmat o'tashga kelgan kundan boshlanadi va xizmat tuganuncha moslashish davom etishi kuzatuvlarimizdan ma'lum bo'ldi.

Xizmat davomida ofitserlar tarbiya subekt sifatida harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati davrida ijtimoiy-huquqiy munosabatlarini tartibga solish, xizmat vaqtida voqea, hodisalarga huquqiy jihatdan to'g'ri, obektiv munosabatda bo'lish bu - xizmatga moslashuvining huquqiy-pedagogik, ijtimoiylashuvining natijasidir. Moslashuv muammolari ayniqsa harbiy xizmatchilarning xizmatga moslashuv muammolari so'nggi 30 yil mobaynida pedagoglar, psixologlar, kriminolog olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar, monografiyalar, maqolalar, dissertatsiyalar yozilgan. Lekin aynan harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga moslashuvi muammolarining pedagogik jihatlariga bir butun holatda yetarli darajada to'liq o'rganilmagan. **Moslashuv** - lotin tilidan olingan bo'lib "**Adaptation**"[36] ma'nosini anglatadi, tibbiyotda va fizialogiyada "ko'nikma" manosida tushuniladi.[37] Shuningdek, boshqa lug'atlarda, moslashmoq, mos holga kelmoq, mos bo'lmoq, muvofiqlashmoq, sharoitga moslashmoq.[38]

Xizmatga moslashuv bu - keng tushuncha. Moslashuvga ta'sir qiluvchi omillarga jamiyat, madaniyat, davlat va tarbiyadir. Shuning uchun ham xizmat faoliyatga moslashuvning huquqiy jihatlarini pedagogika, psixologiya, falsafa, harbiy fanlardir. Chunki, ularning mazmunida davlat, jamiyat hayoti bilan bog'langan huquqiy, siyosiy masalalar bevosita vatanparvarlik, milliy g'oya kabilar o'z ifodasini topgan.

[36] Sovetskiy endsiklopedicheskiy slovar. Pod pedaksi. A.M.Proxorova. Izdaniye vtoroye M.Sovetskaya endsiklopediya 1983 bet-21.
[37] Sovetskiy endsiklopedicheskiy slovar. Pod pedaksi. A.M.Proxorova. Izdaniye vtoroye M.Sovetskaya endsiklopediya 1983 bet-21.
[38] O'zbek tilining izohli lug'ati.. Ikkinchi jild. Toshkent-2020. Bet-616

Shu jihatdan ham harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatga moslashuvi umumiy qonuniyatlarga suyanib olib boriladi.

Harbiy xizmatchilar jamoada va ijtimoiy hayotda oddiy harbiy an'analarga rioya etishi amaliy ahamiyatga ega deb komandirlarni ishontirish va uni bajarishga undash darkor. Harbiyiy an'analarning kursantlarni rivojlanishidagi amaliy vazifasi bundan oldingi ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari natijasida hosil bo'ladi. Buni sodda etib harbiy jamoaviy an'analarning kursantlarga o'rgatishdagi hamda tarbiyalashdagi vazifalari ya'ni bilimi, ko'nikmalari, odatlari kursantlarning umumiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, natijada ular barkamol bo'lib har tomonlama etishadi. Bu jarayonni komandirlarga quyidagicha izohlab berish mumkin. Kursant jamoada harbiy an'analarga amal qilishda xizmat faoliyatida zarur bo'ladigan axloq, mehnat, estetik tarbiyalarga doir muomala ko'nikmalari haqida ilmiy ma'lumotga ega bo'ladi. Ana shu ma'lumotga tayanib kursant xizmat faoliyati va ijtimomy hayotda axloq, odob, mehnat ko'nikmalarini, insoniy xulq-atvorni shakllantirib, barkamollikka erishadi.

Moslashuv jarayon sifatida harbiy xizmatchilarda xizmatga oid tassavvurlarni, bilimni kengaytiribgina qolmay, balki harbiy xizmatchilarning har birida harbiy - pedagogik tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishga, rivojlantirishga bevosita yordam beradi. Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga bevosita umumiy moslashuvning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilarning xizmatga moslashuvining tarixiy tajribasini o'rganish ilmiy adabiyotlarning tahlil etish ushbu mavzulada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish, bilish, aniqlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Undan tashqari tarixiy jihatdan ijtimoiy o'zlashtirilgan, orttirilgan bilim, malaka, o'quvlarini o'rganish ushbu muammoga bog'liq bo'lgan nazariyaning rivojlantirishning asosini tashkil etadi.

Muammoga tarixiy yondashuv u yoki bu masalaning mohiyatiga kirib borish vositasidir. Tarixiy yondashuv metadologik sifatida o'tmishni bilish, uning mohiyatini anglash demakdir. Tarixchi olim V.I.Pogudin tarixiy tajribaga jiddiy e'tibor berib, "Tarixiy tajriba amaliyotda sinalgan va o'zini oqlagan mazmun, usullar,

shakllar, uslubiyotlardan boshqa narsa emas”. Ularning paydo bo‘lishining va rivojlanishidan harbiy xizmatchilrning faoliyatiga moslashuvida foydalaniladi.

Sharqda va uning tarixida siyosiy - huquqiy idrok bilan ma’naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o’zida mujassam etgan buyuk arboblar ko‘p bo‘lgan deb aytishimizga haqlimiz. Ushbu buyuk shaxslarning asosiy xizmatlari komil insonni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatiga moslashuvining tarixiy tajribasini tizimli ravishda o‘ganish bugungi kunda harbiy xizmatchilarning moslashuvining nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishga bevosita va bilvosita yordam beradi. Harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatiga moslashuvida ijtimoiy institutlarning ish tajribasini tarixiy o‘rganishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

3. Sovetskiy endsiklopedicheskiy slovar. Pod pedaksi. A.M.Proxorova. Izdaniye vtoroye M.Sovetskaya endsiklopediya 1983 bet-21.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.. Ikkinchi jild. Toshkent-2020. Bet-616.

THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN AN INDIVIDUAL’S LIFE.

Senior Lieutenant O‘ktamov Dilshod O‘tkir o’g‘li. Psychologists of the Psychological Support Group of the Bukhara Regional Security Department.

Abstract: This article addresses the issue of the organization of psychological services in today's globalization process to ensure the growth of a healthy person. Furthermore, the seven key areas where psychological services were implemented in Uzbekistan: education, workplaces, family life, transportation, healthcare, law enforcement, and sports are outlined. These services aim to support personal and professional development, enhance mental well-being, and ensure the harmonization of individual and social psychology.

Keywords: Psychologist Social Psychology, Psychological Counseling Worldview, Applied Psychology, Economic, Political, Legal.

SHAXS HAYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O‘RNI

Annotatsiya**:** Mazkur maqolada bugungi globallashuv jarayoniga xos psixologik xizmatnitashkil etish, sog’lom shaxsning o'sishini ta'minlash muammosi masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, bunda O‘zbekistonda psixologik xizmatlar joriy etilgan yetti asosiy yo‘nalish: ta’lim, mehnat jamoalari, oilaviy hayot, transport,

sog‘liqni saqlash, huquq-tartibot tizimi va sport kabilar bayon etilgan. Ushbu xizmatlar shaxsiy va professional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, ruhiy farovonlikni oshirish hamda individual va ijtimoiy psixologiya uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Psixolog, ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya, dunyoqarash, amaliy psixologiya, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy.

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ СЛУЖБ В ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос организации психологической службы в условиях современного процесса глобализации для обеспечения роста здорового человека. Кроме того, в тексте выделены семь ключевых направлений, в которых были внедрены психологические службы в Узбекистане: образование, рабочие коллективы, семейная жизнь, транспорт, здравоохранение, правоохранительная система и спорт. Данные службы направлены на поддержку личностного и профессионального развития, улучшение психологического благополучия и обеспечение гармонии между индивидуальной и социальной психологией.

Ключевые слова: психолог, социальная психология, психологическое консультирование, мировоззрение, прикладная психология, экономическая, политическая, правовая, идеологическая.

Introduction

Understanding, analyzing, and developing human psychology has always been one of the leading tasks of socio-economic development in all eras and nations. At the turn of the 20th century, the field of psychology and its leading scholars successfully substantiated the theoretical and scientific inevitability of establishing a system of psychological services for both individuals and society. In global psychology, the issue of organizing psychological services is receiving special attention as a distinct area of research. Psychological studies highlight that psychologists strive to do everything possible to ensure the comprehensive development of individuals, while social psychological services and their unique characteristics are being explored. Various methods and modern technologies for

organizing psychological services, along with the implementation of psychological mechanisms that represent these approaches, are of particular importance. At the same time, the establishment of psychological services is viewed as a crucial means of addressing personnel-related challenges. Today, theoretical-scientific and practical-methodological efforts in the education system serve as a foundation for the implementation and development of psychological services. However, there remains a significant gap in comprehensive studies that deeply analyze the current state and practical activities of psychological services while outlining their future prospects. Therefore, addressing this issue necessitates conducting psychological and social psychological research focused on the establishment, current state, and prospects of psychological services in Uzbekistan, particularly in the context of digital economic development. From this perspective, psychological services in educational institutions and workplaces must be analyzed in terms of their scientific and organizational aspects, as well as their role in ensuring social-psychological protection. However, there is currently a lack of in-depth research dedicated to these aspects. Furthermore, the modern directions of social psychology and psychological counseling do not explicitly define specific tasks related to the implementation of psychological services. In addition, the experience of psychological services in educational and labor institutions remains insufficiently studied in relation to ensuring the successful professional activities of students and employees. The absence of scientifically grounded and practically applicable recommendations that align with Uzbekistan’s path to independence, its economic and social development, and its strategic goals is a pressing issue.

Several researchers, including Andreeva G.M., Davletshin M.G., Zabrodin Yu.M., Carnegie D., Karimova V.M., Parigin B.D., Shoumarov G’.B., and G’oziev E.G’., have contributed to identifying the key social psychological tasks essential for the successful organization of psychological services. The progress of modern psychology is inherently linked to human practical psychology and cannot be separated from an individual’s social activity and societal role. From this perspective, managing human factors and social processes effectively requires providing

psychological services to both society and its members. Addressing this issue demands interdisciplinary collaboration between economics, law, ethics, ethnography, history, sociology, and other related fields to resolve practical psychological challenges. The methodology of psychological services is primarily shaped within the framework of "psychological social psychology," emphasizing the necessity of integrating theoretical knowledge with practical applications to enhance individual and collective well-being.

Discussion and Analysis

The development of any scientific field is directly linked to the formation of methodological frameworks that reveal new directions based on emerging facts. Without a precise methodology, achieving concrete practical results is nearly impossible. One of the crucial and evolving tasks of social psychology is to analyze how theoretical, practical, and empirical research in the field of psychological services methodology has been addressed up to the present day. As evidenced by specialized psychological literature, the general methodological directions of social psychological services in Western psychology can be explained through the research of notable scholars. Wilhelm Wundt’s monumental ten-volume work Völkerpsychologie (Folk Psychology), published in 1900, significantly contributed to illuminating the various directions of social psychology by uncovering the complexities of human spirituality, culture, and ideology. Similarly, the English psychologist William McDougall’s 1908 book Introduction to Social Psychology introduced the theory of “social behavior instincts.” Unlike Freud’s psychoanalytic approach, McDougall’s theory was the first to provide a foundation for understanding the harmony between human instincts and activity. Empirical studies conducted by B.M. Teplov, V.S. Merlin, V.D. Nebylitsin, E.A. Golubeva, B.R. Qodirov, and their students have played a crucial role in the advancement of social psychology and psychological services. Their research has focused on the natural and inherent characteristics of individuals, specific elements of higher nervous activity, and the influence of education, external environment, and the organization of activities on human development. These findings have provided valuable opportunities for

studying individual aptitudes and using them as a foundation for fostering personal growth and activity.

Recent studies confirm that the successful organization of any activity largely depends on individual characteristics, particularly temperament and personal working style. In educational and labor activities, the development of methodological approaches to analyze and enhance these factors is a fundamental responsibility of psychological services. For instance, E.A. Klimov's empirical research demonstrated that both "mobile type" and "immobile type" workers could achieve high levels of efficiency when working on multiple machines. The key factor in their success was their ability to adapt to similar work conditions by selecting and implementing different action strategies. Scholars widely agree that an individual's working style does not emerge instantly but develops over time, often spontaneously, based on personal emotional and nervous traits. Therefore, psychological services must approach each individual by exploring ways to align their abilities with the demands of their activities. This process enables individuals to refine and develop their personal working styles, ultimately contributing to both personal and societal progress.

K.K. Platonov made significant contributions to the development of social psychology methodology by addressing the problem of social-psychological individuality. He argued that understanding psychological services requires recognizing that an individual is shaped not only by personal characteristics but also by the social significance of these characteristics. He emphasized the necessity of creating conditions for self-assessment and continuous personal development. Professors E. G'oziyev, I. Tursunov, and J. Ikromov, in their research The 20th Century and Human Development, highlight key aspects that require serious attention in studying individual, personal, and subjective development within the framework of psychological services. These aspects form the foundation for effective psychological support, ensuring that individuals can maximize their potential while contributing to the social progress of their communities.

The development of an individual is determined by various essential factors and conditions, including social, economic, political, legal, ideological, pedagogical, and environmental influences. Additionally, personal attributes such as internal laws of development, psychological mechanisms, stages of belief stabilization, and involution play a crucial role in shaping human progress. Understanding the core components of human structure, their interactions, responses to external influences, and their development throughout life is fundamental to social psychology and psychological services. It is impossible to ensure the social balance between individual and activity, individual and society, and individual and individuality without thoroughly analyzing a person's spiritual and psychological experiences within the framework of societal perspectives. The philosophy of social psychological protection, as a psychological safeguard, also demands such an approach. Today, psychological services have become increasingly accepted and valued for their significant contributions to personal growth and well-being. However, despite their importance, the widespread promotion of psychological services has faced several challenges, including the lack of official governmental directives and a shortage of practicing psychologists. This has hindered the full-scale implementation of psychological services in schools. By the 1990s, with Uzbekistan's independence and the rise of national consciousness, psychological services, like other social sectors aimed at fostering human and societal development, found a strong foundation for expansion. This period marked a critical transition toward training practicing psychologists, a necessity for the successful implementation of psychological services in the country. Recognizing the need for qualified school psychologists, Uzbekistan initiated efforts to train specialists capable of assessing and improving the psychological climate in schools. The first practicing psychologist retraining courses were established in Tashkent, followed by Bukhara, Navoi, Andijan, Samarkand, and other regions. Graduates of these programs have since played key roles as organizers, promoters, and researchers in the field of psychological services across many schools in the country.

The Unique Development of Psychological Services in Uzbekistan

Psychological services worldwide are implemented in different scientific and organizational formats, tailored to the social, economic, and political contexts of each country. Similarly, Uzbekistan needed to develop its own model suited to its unique socio-economic conditions. Given the shortage of experienced specialists, the first initiative to address this issue was to train school psychologists from among the most advanced and talented teachers. A logical question arises: Why were only experienced teachers selected for these courses? This decision was based on several key considerations:

1. Expertise in Education: A school psychologist must have a deep understanding of student development, the learning process, and educational standards. Only teachers with substantial experience could effectively analyze and support students' psychological well-being.
2. Limited Training Time: Individuals with no prior pedagogical experience would struggle to develop the necessary psychological analysis skills in just 4–5 months of training.
3. Long-Term Educational Planning: Establishing psychology faculties in universities would take several years, delaying the development of practical psychological services. Moreover, even after graduation, new specialists would lack direct teaching experience, making it difficult for them to apply psychological analysis effectively in school settings.

Thus, prioritizing the training of experienced educators as school psychologists ensured a more immediate and effective implementation of psychological services in Uzbekistan's education system.

Conclusion

Based on research findings and the objectives of psychological service initiatives, the first phase of organizing and developing psychological services in Uzbekistan has been structured around seven key areas:

a) Psychological Services in Educational Institutions – Providing psychological support for students, teachers, and administrative staff to ensure a healthy learning environment.

b) Psychological Services in Workplaces – Enhancing productivity and mental well-being among employees in various professional settings.
c) Psychological Services in Family Life Institutions – Offering guidance on marriage, parenting, and family relationships to strengthen family dynamics.
d) Psychological Services in Transportation Facilities – Addressing the psychological challenges faced by transport workers and passengers, ensuring safety and mental stability.
e) Psychological Services in Healthcare Institutions – Supporting patients, doctors, and healthcare staff to improve medical outcomes and emotional resilience.
f) Psychological Services in Law Enforcement and Judicial Systems – Assisting officers, legal professionals, and detainees in handling stress, decision-making, and rehabilitation.
g) Psychological Services in Sports Institutions – Enhancing athletes' mental strength, motivation, and overall performance.

Today, various social-psychological initiatives are being implemented within these seven sectors to ensure the harmony between individual psychology and societal development. These efforts play a crucial role in self-awareness, personal growth, and psychological protection, allowing professionals in these fields to minimize failures and achieve higher efficiency in their respective domains

References

1. Barotov Sh.R.Ta'limda psixologik xizmat.Oquv qo'llanma .Buxoro 2007 y.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent.1999y
3. Tadjieva S.X., Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". T.: RBIMM, 2011 y. 142 b
4. Shirin Kamolova, PREEMSTVENNOST FORMIROVANIYA MIROVOZZRENIYA STUDENTOV NA OSNOVE OBЩECHELOVECHESKIX SENNOSTEY , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
5. Shirin Kamolova, THE ROLE OF UNIVERSAL AND SCIENTIFIC VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 2 (2021): Jurnal pedagogiki I psixologii v sovremennom obrazovanii (oktyabr)
6. Shirin Kamolova, O'QITUVCHI PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI

SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: Tom 2 № 5 (2022): Jurnal pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii (yanvar)
7. Shirin Kamolova, ISPOLZOVANIE INTERAKTIVNЫX METODOV V OBRAZOVANII YAVLYAETSYA TREBOVANIEM SEGODNYASHNEGO DNYA , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 2 (2021): Jurnal pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii (oktyabr)
8. Shirin Kamolova, AVESTODA AXLOQIY IDEAL VA UNING IJTIMOIYPSIXOLOGIK KO‘RINISHLARI , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari (Noyabr)

OILAVIY MUHITNING VOYAGA YETMAGANLAR XULQ-ATVORIGA TA’SIRI

Uktamova Umida Sunatullayevna
Jizzax Davlat Pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy muhitning voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga ta’siri tahlil qilingan. Oiladagi muhit, yoshlar xulq-atvorida muhabbat, hurmat va ishonch asosida ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agressiya, emotsional barqarorlik va ijtimoiy munosabatlar oilaviy muhitdagi tarbiya, zo‘ravonlik, mehr-muhabbat va oila a’zolarining o‘zaro munosabatlariga bog‘liqdir. Maqolada oilaviy muhitning yoshlarga ta’siri hamda uning yoshlar psixologik holatlariga, ijtimoiy va emotsional rivojlanishga ta'siri o‘rganilgan. Bu tadqiqotlar yoshlar xulq-atvorining shakllanishida oilaviy muhitning ahamiyatini aniqlashga yordam bermoqda.

Kalit so‘zlar. Oilaviy muhit, yoshlar xulq-atvori, agressiya, emotsional rivojlanish, zo‘ravonlik, psixologik tarbiya, ijtimoiy munosabatlar, oilaviy tarbiya, oila a’zolari, psixologiya, pedagogika.

Oilaviy muhit yoshlar xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Oila insonning birinchi ijtimoiy muhiti bo‘lib, bu yerda farzandning emotsional va psixologik rivojlanishining asosiy asoslari yaratilmoqda. Voyaga yetmaganlar xulq-atvorining shakllanishida oilaviy munosabatlar, oiladagi munosabatlar va psixoemotsional muhit muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada oilaviy muhitning voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga ta’siri va oiladagi muammolarning yoshlar psixologik holatiga ta'siri tahlil qilingan.

Oila, yoshlarning ilk o‘rganish va ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi. Ulardagi xulq-atvor, xususan agressiya, tazyiq va ijobiy munosabatlar oiladagi o‘zaro

munosabatlar, mehr-muhabbat, hurmat va ishonchga bog‘liqdir. Agar oilada muhabbat va hurmat atmosferasi bo‘lsa, yoshlar hamjihat, sabr-toqat va ijobiy xulq-atvorga ega bo‘lishadi.

Oilaviy muhitdagi salbiy omillar yoshlar xulq-atvorida ko‘plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Oiladagi zo‘ravonlik, ishontirish yoki ijtimoiy muammolar (masalan, alkogol va narkotiklar bilan bog‘liq muammolar) yoshlarda agressiya, tajovuz va emotsional barqarorlikning buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. [2]

Emotsional yordam va qo‘llab-quvvatlash Oilada farzandga bir-biriga muhabbat va hurmat ko‘rsatish, yoshlarning emotsional jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. Agar oilada ota-ona yoki qonuniy vakillar farzandga muammolarga tushuncha va yordam ko‘rsatsa, ularning psixologik sog‘lig‘i mustahkamlanadi. Bu yoshlarda o‘zini bag‘ishlash va ijobiy xulq-atvorni shakllantiradi.

Oila farzandga yaxshi xulq va yaxshi natijalar uchun rag‘bat ko‘rsatishni tashkil qilsa, bu yoshlarda ijobiy kuchlanish, ishonch va maqsadga yo‘nalishni shakllantiradi. Oiladagi qo‘llab-quvvatlash va ishonch yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Oilaviy tarbiya yoshlar xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Voyaga yetmaganlar uchun ota-onalarning xulq-atvor va javobgarlikni modellashtirishi ularning kelajakdagi xulq-atvorini belgilaydi. Ota-onalar farzandlarining o‘qishga bo‘lgan munosabatini, ijtimoiy munosabatlarini va ularning faoliyatini nazorat qilib, ularga zarur yordam va qo‘llab-quvvatlashni ko‘rsatishlari kerak. [8]

Oilaviy zo‘ravonlik va zo‘ravon munosabatlar. Oiladagi zo‘ravonlik yoshlarda agressiya va yomon xulq-atvorning ortishiga sabab bo‘ladi. Zo‘ravon oilaviy muhit yoshlar uchun xavfli bo‘lib, ularda kelajakda ham zo‘ravon munosabatlarini va agressiyani shakllantiradi. Bu yoshlarning emotsional va psixologik rivojlanishiga zarar yetkazadi.

Oilada farzandga e’tibor va muhabbat ko‘rsatilmasa, yoshlar o‘zlarini kamsitilgan va hurmat qilinmagan his qilishlari mumkin. Bu ularda emotsional muammolarni va ijtimoiy izolyatsiyani keltirib chiqaradi.

Oiladagi iqtisodiy muammolar yoshlarning ta’limga va ijtimoiy faoliyatga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agar oilada iqtisodiy yoki ijtimoiy tartibsizlik bo‘lsa, yoshlar stressga, tajovuzga va ijtimoiy muammolarga duch kelishadi.

Oilaviy muhit yoshlar xulq-atvorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ijobiy oilaviy muhit yoshlarning emotsional va psixologik rivojlanishini rag‘batlantiradi, ularning xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Salbiy oilaviy muhit esa agressiya, tazyiq va tajovuzni oshiradi. Shu bois, oiladagi muhitning yoshlar uchun qandaydir salbiy yoki ijobiy ta’sir qilishini tushunish va bu muammolarga to‘g‘ri yondashish talab etiladi. [5]

Voyaga yetmaganlar orasida oilaviy muhitning xulq-atvorga ta’siri mavzusi ilmiy tadqiqotlarda turli jihatlardan o‘rganilgan. Ushbu sohadagi tadqiqotlar har xil psixo-sotsiologik va pedagogik yondashuvlar asosida olib borilgan. Oilaviy muhitning yoshlar xulq-atvoriga ta’siri turli sohalarda yangiliklar bilan davom etishda.

Psixologiya sohasidagi tadqiqotlar:

Psixologiya sohasidagi tadqiqotlar oilaviy muhitning yoshlar xulq-atvorini qanday shakllantiradigani va agressiya, emotsional muammolarning sabablari haqida ko‘plab ilmiy ishlarni qamrab olgan. Ayniqsa, oiladagi zo‘ravonlik va mehr-muhabbatning yoshlar xulq-atvoriga ta’siriga oid tadqiqotlar juda keng o‘rganilgan. Bu tadqiqotlar yoshlarda agressiyaning shakllanishi, emotsional ishtiyoq va ijtimoiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq muammolarni tushunishda yordam berdi.

Sotsiologiya sohasidagi tadqiqotlar:

Oilaviy muhit va yoshlar xulq-atvoriga ijtimoiy omillarning ta’siri ham sotsiologiya sohasida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy muammolar, masalan, iqtisodiy va ijtimoiy stresslar oiladagi munosabatlar va farzandlar xulq-atvorini o‘zgartirishga sabab bo‘lishi mumkin. Yangi tadqiqotlar oilaviy muhitdagi iqtisodiy

yoki ijtimoiy tartibsizliklarning yoshlar xulq-atvoriga ta’sirini chuqurroq tahlil qilmoqda. [7]

Pedagogika sohasidagi tadqiqotlar:

Pedagogika va ta’lim sohasida oilaviy muhitning yoshlarning ta’limga va ijtimoiy faoliyatga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik tadqiqotlar oilaviy muhit va tarbiyaning yoshlarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi rolini o‘rgandi. Ta’lim va tarbiya jarayonida oilaviy muhitning yoshlar uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlandi.

Jamiyatdagi tadqiqotlar:

Oilaviy muhitning yoshlar xulq-atvoriga ta’siri jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Oiladagi tarbiyaning yoshlar ijtimoiy munosabatlariga, ularning ijtimoiy adaptatsiyasiga va jamiyatdagi roliga ta’siri haqidagi tadqiqotlar ishlanmoqda.

Umuman olganda, oilaviy muhitning yoshlar xulq-atvoriga ta’siri haqidagi tadqiqotlar ko‘p yillar davomida amaliy va nazariy jihatdan kengaygan. Bundan kelib chiqadigan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, oiladagi muhit yoshlarning psixologiyasiga va xulq-atvoriga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, oilaviy muhitning ijobiy yoki salbiy ta’siri yoshlarning ijtimoiy va psixologik holatiga aniq izoh berish uchun muhim ahamiyatga ega. [1]

Ushbu muammo yuzasidan quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin;

Oilaviy muhitni yaxshilash. Oilada muhabbat, hurmat va ishonch muhitini yaratish yoshlarning emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilaviy munosabatlarda bir-birini tushunish va muammolarni birgalikda hal qilishga qaratilgan tarbiya usullarini joriy etish kerak. Ayniqsa, ota-onalar farzandlariga o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va ular bilan ochiq muloqot olib borish imkonini berishlari lozim. [10]

Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish. Oiladagi zo‘ravonlik yoshlar xulq-atvoriga katta zarar yetkazadi. Shunday qilib, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va uning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun oilaviy psixoterapiya, treninglar va jamoaviy

yordam dasturlarini joriy qilish zarur. Oiladagi zo‘ravonlikka qarshi tadbirlar ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga ko‘maklashadi. [4]

Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy va psixologik yordami. Oilada farzandga psixologik yordam va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish kerak. Mustaxkam oilaviy tarbiya yoshlarning ijtimoiy va emotsional salomatligini saqlashga yordam beradi. Farzandlarga ijobiy xulq-atvorni o‘rgatish uchun oila a’zolarining mas’uliyatini oshirish muhim.

Ijtimoiy va pedagogik dasturlar. Oiladagi muammolar yoshlar xulq-atvoriga ta’sir qilganida, ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va pedagogik dasturlar orqali xulq-atvorni to‘g‘rilash lozim. Maktablarda, jamoat tashkilotlarida yoshlar uchun maxsus psixologik va pedagogik treninglar tashkil qilish kerak. Bu dasturlar yoshlarning ijtimoiy adaptatsiyasini yaxshilash va ularga turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutishga yordam berishi mumkin. [9]

Ma’naviy va axloqiy ta’lim. Oilada farzandga axloqiy va ma’naviy tarbiya berish muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy qadriyatlar, o‘z-o‘zini hurmat qilish va boshqalarga ehtirom ko‘rsatish prinsiplarini yoshlarga yetkazish ularning ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Ota-onalarning farzandlari bilan axloqiy, ma’naviy suhbatlar olib borishlari zarur.

Oilaviy muhit yoshlarning xulq-atvorini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ijobiy oilaviy muhit yoshlar xulq-atvorini yaxshilash va ularni salbiy ta’sirlardan himoya qilishga ko‘maklashadi. Oilada muhabbat, hurmat, ishonch va psixologik qo‘llab-quvvatlash yoshlarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Oiladagi zo‘ravonlik va salbiy munosabatlar yoshlarda agressiya, stress va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, oilaviy muhitni yaxshilash, ota-onalarga yoshlarning emotsional va psixologik holatiga e’tibor berish, tarbiyani ilg‘or pedagogik usullar bilan bayram qilish yoshlarning ijobiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзаева, М. С. Психологические аспекты агрессии у подростков: Теория и практика. Тошкент: Академия. 2023

2. Существуют две основные модели оценки эффективности коучинга: по результату и по процессу. При оценке «по результату» сравнивается состояние системы до и после коучинга по заданным заранее параметрам. При оценке «по процессу» оценивается эффективность самого процесса

коучинга начиная от первой встречи коуча с заказчиком. Для такой оценки могут использоваться уров-невые модели (например, модель «часовой башни»).

3. Существует значительное количество исследований эффективности коучинга в рамках отдельных теоретических подходов, однако сравнительные исследования эффективности различных подходов все еще остаются вопросом дальнейших исследований.
4. Исследования эффективности коучинга чаще всего представлены в рамках когнитивно-бихевиорального подхода, что очевидно связано с наличием формализованной методологии. Активно развиваются также исследования в рамках модальностей, однако исследования эффективности затрудняются здесь значительной вариативностью, как процессуальных, так и побочных переменных.
5. Исследования эффективности коучинга имеют ряд ограничений, обусловленных особенностями самой практики: 1) небольшие выборки респондентов (достаточно сложно обеспечить большие выборки при длительной индивидуальной работе); 2) среди методов преобладают опросные методы и субъективная обратная связь коучи, в лучшем случае — квазиэкспериментальный план исследования; 3) в исследованиях эффективности коучинга затруднен контроль побочных переменных.
6. Для более достоверных результатов необходимо развитие количественных и объективных методов оценки. Несмотря на то, что коучи-практики часто опираются на предположение о наличии психофизиологических оснований эффективности коучинга, таких исследований среди опубликованных работ нами не обнаружено. По-видимому, это одно из перспективных направлений исследований в данной области.

Литература

1. *Виноградова Е.Л.* Коучинг и психотерапия: возможности пересечения практик [Электронный ресурс] // Консультативная психология и психотерапия. 2010. № 1. С. 200—219. URL: https://psyjournals.ru/mpj/2010/n1/27896.shtml (дата обращения: 01.03.2022).
2. *Улановский А.М.* Коучинг с оглядкой на науку: практики позитивной жизни [Электронный ресурс] // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2012. Том 9. № 4. С. 59—80. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kouching-s-oglyadkoy-na-nauku-praktiki-pozitivnoy-zhizni (дата обращения: 01.03.2022).
3. *Чухно Ю.А.* Рынок коучинга в России: исследование ICF-Россия 2012 [Электронный ресурс] // Организационная психология. 2014. № 1. С. 25—32. URL: https://orgpsyjournal.hse.ru/data/2014/07/22/1310875940/2014_1_4(Чухно)25-32.pdf (дата обращения: 01.03.2022).

4. Analysis of executive coaching effectiveness: A study from the coachee perspective. Management Letters / E. Albizu, I. Rekalde, J. Landeta, P. Ferrin // Cuadernos de Gestion. 2019. Vol. 19. № 2. P. 33—52. DOI:10.5295/cdg.170876ea
5. *Berg I., De Jong P.* Interviewing for solutions. California: Brooks/Cole, 2002. 336 p.
6. *Bernard M., David O.* Coaching for Rational Living: Theory, Techniques and Applications. Springer International Publishing AG, 2018. 483 p. DOI:10.1007/978-3-319-74067-6
7. Бандура А. Теория социального научения. СПб, Евразия, 2000.
8. Кови С. Семь навыков высокоэффективных людей. М., Альпина Паблишер, 2017.

ПРОБЛЕМЫ ЦИФРОВОЙ И ГАДЖЕТОЗАВИСИМОСТИ У МОЛОДЕЖИ

Файзиева Нодира Собировна, преподаватель-стажер Джизакского государственного педагогического университета

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается, как в современном обществе молодежь все чаще сталкивается с проблемой зависимости от цифровых технологий и гаджетов. Автор обращает внимание на необходимость изучения данной проблемы, так как она существенно влияет на социальное, психологическое и физическое здоровье молодежи. Отмечается, что молодые люди все больше времени проводят перед экранами, что может привести к негативным последствиям, таким как нарушение сна и ухудшение общения в реальной жизни. На основе проведенного анализа предлагается ряд рекомендаций по решению проблемы цифровой и гаджет-зависимости среди молодежи.

Ключ слова: Цифровых технологий и гаджетов, смартфоны, планшеты и компьютеры для общения, цифровая зависимость, проблема цифровой зависимости, молодые люди, изучения информации, развлечений и работы, телефон.

ABSTRACT: In modern society, young people are increasingly facing the problem of addiction to digital technologies and gadgets. The author draws attention to the need to research this problem, as it significantly affects the social, psychological and physical health of young people. The author emphasises that young people spend more and more time behind screens, which can lead to such negative consequences as sleep disturbance, deterioration of communication in real life. Based on the analysis, the author offers a number of recommendations to address the problem of digital and gadget addiction among young eople.

Key words: Digital technologies and gadgets, smartphones, tablets and computers for communication, digital addiction, the problem of digital addiction, young people, studying information, entertainment and work, telephone.

Цифровые технологии стали, неотъемлемой частью нашей жизни, оказывая огромное влияние на различные сферы общества. Они предоставляют нам возможность быстрого доступа к информации, упрощают наши коммуникации и существенно улучшают наши производительность. Особенно высокий интерес к этим технологиям проявляет молодежь, которая выросла во времена их активного развития.

Молодые люди, находясь на этапе своего развития и формирования, особенно восприимчивы к новым технологиям. Использование гаджетов и цифровых платформ стало нормой для большинства. Они активно используют смартфоны, планшеты и компьютеры для общения, изучения информации, развлечений и работы. Однако это использование не всегда остается в рамках нормы.

Цифровая зависимость - это состояние, при котором человек испытывает психологическую или физическую зависимость от использования цифровых устройств. Человек, страдающий от такой зависимости, часто отказывается от реальных отношений и общения, предпочитая виртуальные взаимодействия.

Проблема цифровой зависимости является довольно распространенной среди молодежи. Опросы показывают, что большинство молодых людей испытывают трудности в дедлайне, проводя больше времени в Интернете, чем они считают нужным. Это может негативно сказываться на их психологическом здоровье и академических достижениях.

Цифровая зависимость оказывает серьезное влияние на психическое здоровье молодежи.

Во-первых, использование гаджетов в большом количестве и нарушение суточного режима питания электронной информацией приводит к снижению концентрации и внимания. Испытывая постоянное желание проверять социальные сети и другую информацию в интернете, молодые люди не могут сфокусироваться на заданиях или на общении в реальном мире.

Во-вторых, цифровая зависимость приводит к социальной изоляции и утрате коммуникационных навыков. Постоянное присутствие в онлайн-мире мешает формированию личных отношений и развитию социальных навыков, что может привести к проблемам взаимодействия и адаптации в реальном мире.

Наконец, цифровая зависимость влияет на сон и психическое здоровье молодежи. Чрезмерное использование гаджетов в вечернее время вызывает проблемы с засыпанием и приводит к нарушению биоритмов организма. Кроме того, частое постоянное использование электронных устройств может вызывать стресс, тревогу и депрессию.

Цифровая зависимость оказывает негативное влияние на учебу и работу молодежи. Постоянное использование социальных сетей и приложений на

телефоне или планшете приводит к потере времени, которое можно было бы использовать на более продуктивные задачи.

Кроме того, цифровая зависимость снижает продуктивность и эффективность работы или учебы. Непрерывное переключение между задачами и постоянная проверка уведомлений ухудшают качество выполненной работы и требуют больше времени на ее завершение.

Однако самое серьезное воздействие цифровой зависимости заключается в ограничении возможностей для личностного развития и карьерного роста молодых людей. Постоянное присутствие в виртуальном мире мешает развиваться в реальной жизни, обретать новые навыки и общаться с разными людьми. В результате это может приводить к прекращению карьерного роста и ограничению потенциала молодежи.

Как определить, есть ли зависимость у человека или нет. Если вам легко проводить выходные без средств связи, если в день делаете не более 5 звонков и не "зависаете" всё свободное время в мессенджерах или соцсетях, можете быть спокойны. Но если в вас вселяется тревога при мысли о том, что придётся расстаться со своим гаджетом даже ненадолго, то стоит пройти этот небольшой тест. Мы предлагаем пройти небольшой тест. Вам необходимо дать простые ответы.

Телефон – это главное устройство в моей жизни. Я не представляю свою жизнь без него.

Я провожу со своим смартфоном много времени. Гораздо больше, чем уделяю другим занятиям.

Я конфликтую с близкими из-за того, что много времени уделяю своему гаджету.

С каждым днём я все больше времени провожу с телефоном в руках. При этом неважно, как его использую, возможны игры, общение или чтение.

Мой телефон способен поднять мне настроение, когда он рядом, мне спокойнее.

Если я не могу пользоваться смартфоном, то начинаю нервничать.

Мне постоянно хочется использовать смартфон, при каждом удобном случае я беру его в руки.

У меня не получается сократить время использования. Постоянно появляется повод вновь взять смартфон в руки.

Иногда я врал окружающим людям о том, сколько времени я провёл за своим телефоном.

Я часто откладываю важные дела, чтобы заняться чем-то не очень полезным на смартфоне.

Если вы отметили у себя 5 и более пунктов, есть повод задуматься о гаджет-зависимости и начать профилактику: например, ограничить для себя время использования смартфона, планшета и компьютера.

Если же вы согласились с 9 утверждениями из 10, то, скорее всего, вам уже нужна помощь специалиста, а частое общение со своим любимым гаджетом выходит за рамки рабочей и бытовой необходимости.

На основании вышеизложенного сформулированы пути решения проблемы цифровой зависимости у молодежи.

Одним из путей решения проблемы является осознание и понимание собственной зависимости от цифровых технологий. Важно понимать, что умеренное и разумное использование цифровых устройств и онлайн-сервисов является ключом к эффективному решению этой проблемы.

Для борьбы с цифровой зависимостью, важно развивать навыки управления временем и установить границы для использования цифровых устройств. Например, можно создать регулярные периоды без использования смартфонов или установить ограниченное время на просмотр социальных сетей. Более того, осознание последствий чрезмерной зависимости от цифровых устройств может способствовать более здоровому и сбалансированному образу жизни.

Важную роль в решении проблемы цифровой зависимости играют образование и информированность общества. Школы и учебные заведения должны включать в свои программы обучения информацию о вреде чрезмерного использования цифровых технологий и обучать навыкам эффективного и безопасного использования. Кроме того, необходимо проводить информационные кампании, направленные на повышение осведомленности общества о проблеме цифровой зависимости и возможных путях ее решения.

Другим важным способом решения проблемы цифровой зависимости является развитие альтернативных форм активности. Физическая активность, чтение книг, общение с друзьями и близкими в реальной жизни – все это может помочь уменьшить желание быть постоянно подключенным к цифровому миру. Нужно развивать интересы и хобби вне сети, чтобы можно было наслаждаться моментами реальной жизни. В целом, решение проблемы цифровой зависимости требует комплексного подхода и активного участия, как индивидуального лица, так и общества в целом.

Осознанное использование цифровых технологий является важным аспектом современной жизни. Цифровые технологии предоставляют огромный потенциал для расширения знаний и возможностей. Однако, погружение в виртуальный мир без контроля может превратиться в цифровую зависимость, которая оказывает негативное влияние на нашу психику, отношения и профессиональные достижения. Только так мы сможем обеспечить здоровое и осознанное использование цифровых технологий и создать перспективу для устранения проблемы цифровой зависимости у молодежи.

Список литературы:

1. Пчёльник О.А. , Нефёдов П.В. Электромагнитное излучение мобильных телефонов и риск для здоровья пользователей//Фундаментальные исследования. – 2014.- № 1-. – с. 1972

2. Результаты измерений уровня SAR для различных моделей сотовых телефонов- http://www.vrednost.ru/sar.php

3. Сергучёв П.А. Негативное воздействие сотовых телефонов// Сборники конференций НИЦ Социосфера.- 2013.-№ 9. -с. 89

4. Текшева Л.М., Барсукова Н.К. Гигиенические аспекты использования сотовой связи в школьном возрасте//Гигиена и санитария. -2014. -№ 2. – с. 62

5. Щелкунов Г. Электромагнитные излучения сотового телефона и защита от них//Электроника: Наука, Технология, Бизнес . – 2008. - №7. – с. 81

6. Якшин С.Ю., Фатеев Д.В. Влияние сотового телефона на здоровье человека// Научные ведомости. – 2009.- №3 (58).- с. 88

7.Файзиева, Н. С.(2024 yil 15 mart) СЕМЬЯ ДИАГНОЗ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ,“INKLYUZIV TALIM ISTIQBOLI: MUAMMO VA YECHIMLAR” Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami, 365-369 бетлар

9.Fayziyeva N.S. (2024 yil) O‘SMIRNING NIZOLI XULQ ATVORI UNING AQLIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI,Ta’lim, fan va innovatsiya,238-240 betlar

10.Fayziyeva N.S. (2024 yil),STABILIZATION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN YOUNG FAMILIES LIKE AN IDEAL FAMILY, INTERNATIONAL CONFERENCE ON HIGHER EDUCATION TEACHING,18-20 betlar

Hosted from Hamburg, Germany

HISSIY INTELLEKT VA UNING AHAMIYATI

Safarova Umida Xayrulla qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU Amaliy psixologiya yo’nalishi 2-kurs talabasi

Hissiy intellekt (EI yoki EQ) bugungi kunda inson muvaffaqiyati va farovonligi uchun muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. IQ darajasi yuqori bo‘lishi insonni to‘liq muvaffaqiyatli qila olmaydi; yaxshi munosabatlar o‘rnatish, murakkab hayotiy vaziyatlarni boshqarish va ruhiy salomatlikni saqlash uchun hissiy intellekt katta ahamiyatga ega. Hissiy intellekt insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqalar his-tuyg‘ularini tushunish, boshqarish va samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha dastlab 1990-yillarda psixologlar Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan kiritilgan bo‘lsa-da, bu sohaning rivojlanishiga Daniel Goleman katta hissa qo‘shdi. U hissiy intellektni beshta asosiy elementga ajratgan: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar. O‘zini anglash insonning o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri aniqlash va ularning xatti-harakatlarga qanday ta’sir qilayotganini tushunish qobiliyatidir. Bu qobiliyat o‘z-o‘zini anglash va his-tuyg‘ularni ongli ravishda boshqarishga yordam beradi. O‘zini boshqarish esa stressni nazorat qilish, asabiylashish yoki salbiy emotsiyalarga berilmaslikni

anglatadi. Bu, ayniqsa, muhim qarorlar qabul qilishda asqotadi. Motivatsiya esa hissiy intellektning ichki mexanizmi bo‘lib, odamga o‘z maqsadlariga erishishda bardavom bo‘lish imkonini beradi. Empatiya boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini anglash va ularning ehtiyojlarini tushunish qobiliyati bo‘lib, bu yaxshi insoniy munosabatlarning asosi hisoblanadi. Ijtimoiy ko‘nikmalar esa samarali muloqot qilish, jamoada ishlash va boshqalar bilan muammosiz munosabatlar o‘rnatishni o‘z ichiga oladi.

Hissiy intellektning hayotdagi ahamiyati beqiyosdir. Birinchidan, bu qobiliyat insonning ruhiy salomatligini saqlashga yordam beradi, chunki his-tuyg‘ularni boshqarish stressni kamaytiradi va hissiy barqarorlikni oshiradi. Ikkinchidan, hissiy intellekt ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Masalan, empatiya va samarali muloqot ko‘nikmalari insonning boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlarini iliqroq va ishonchliroq qiladi. Uchinchidan, bu qobiliyat professional muvaffaqiyatga ham katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki yetakchilik, jamoada ishlash va konfliktlarni boshqarish hissiy intellektsiz imkonsizdir. Hissiy intellektni rivojlantirish mumkin va buning uchun maxsus mashqlar mavjud. Masalan, meditatsiya va refleksiya o‘zini anglashga yordam beradi, kundalik his-tuyg‘ularni yozib borish esa o‘zini boshqarishni yaxshilaydi. Empatiya rivojlantirish uchun boshqalarning his-tuyg‘ulariga e’tiborli bo‘lish va ular bilan ochiq muloqot qilish kerak. Ijtimoiy ko‘nikmalarni takomillashtirish uchun esa faol tinglash va samarali muloqot qilish qoidalarini o‘rganish tavsiya etiladi.

Hissiy intellekt (EI yoki EQ) insonning his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatidir. Bu qobiliyat nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki jamiyat bilan muvofiq munosabatlar o‘rnatishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda hissiy intellekt insonning turli hayotiy jabhalardagi muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida IQ darajasidan kam ahamiyatga ega emas. Hissiy intellekt inson hayotining barcha sohalarida muhim o‘rin tutadi. Birinchidan, bu qobiliyat ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi. His-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan odam stressli vaziyatlarda o‘zini tinchlantira oladi, muammolarga ijobiy yondashadi va ruhiy barqarorlikni saqlab qoladi. Shuningdek,

hissiy intellekti rivojlangan odam o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri tushunib, ulardan konstruktiv tarzda foydalanishi tufayli depressiya va xavotir kabi salbiy hissiy holatlarga kamroq beriladi. Ikkinchidan, hissiy intellekt insonning boshqalar bilan munosabatlarini mustahkamlaydi. Empatiya – hissiy intellektning asosiy komponentlaridan biri – boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini anglash va ularga mos ravishda javob qaytarish qobiliyatidir. Bu esa insonni mehribon, tushunadigan va samarali muloqot qiladigan shaxsga aylantiradi. Shaxsiy hayotda, oila a’zolari yoki do‘stlar bilan munosabatlarda, bu ko‘nikmalar iliq va mustahkam aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Uchinchidan, hissiy intellekt professional sohada ham katta ahamiyatga ega. Bugungi mehnat bozorida texnik bilimlardan tashqari, jamoada ishlash qobiliyati, konfliktlarni boshqarish va liderlik fazilatlari yuqori baholanadi. Hissiy intellekt aynan shu ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Yetakchi yoki jamoa a’zosi sifatida his-tuyg‘ularni boshqarish va boshqa odamlarni tushunish muvaffaqiyatning muhim kalitidir. Hissiy intellektning yana bir muhim jihati – qaror qabul qilish jarayonidagi o‘rni. O‘z his-tuyg‘ularini anglay olgan odam muhim qarorlarni xotirjam va aniq fikr yuritib qabul qiladi. Bu esa hayotning turli jabhalarida muvaffaqiyatli bo‘lish imkonini beradi.

Hissiy intellektni rivojlantirish uchun bir nechta samarali usullar mavjud. O‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish uchun muntazam ravishda o‘z hisobotini yuritish, ya’ni kunlik his-tuyg‘ularni yozib borish foydali. Meditatsiya va mindfulness mashqlari esa stressni kamaytirish va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Empatiyani rivojlantirish uchun esa boshqalarni tinglashga ko‘proq vaqt ajratish, ularning his-tuyg‘ularini tushunishga harakat qilish muhim. Xulosa qilib aytganda, hissiy intellekt inson hayotining har bir qismida – ruhiy salomatlik, ijtimoiy munosabatlar va professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu qobiliyatni rivojlantirish insonni hayotda yanada baxtli, muvaffaqiyatli va muvozanatli shaxsga aylantiradi. Shu sababli, hissiy intellektni rivojlantirish har bir insonning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. T. Turaeva - "Hissiy intellekt va uning ta'limdagi ahamiyati".- T.: 2008 yil

2. G. T. Mirzaeva - "Hissiy intellektning shaxsiy rivojlanishga ta'siri".-T.: 2011 yil

3. B. X. Xo'jaeva - "Psixologiyada hissiy intellekt: nazariya va amaliyot".-T.: 2010 yil

4. M. M. Asqarov - "Hissiy intellekt va ishchi guruhlar: samarali kommunikatsiya".-T.: 2012 yil

5. N. A. Tashxodjaeva - "Hissiy intellekt va stressni boshqarish".-T.: 2009 yil

6. Леонтьев А.Н (Москва-2004) "ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА"

7. Васильев В.И (Москва-2003) "ПСИХОЛОГИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА"

8. Пискарев С.И (Москва-2002) "ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ ЛИЧНОСТЬ"

9. Mamatov M.M "Этнопсихология"-T.: 1999 yil

MAKTAB O‘QUVCHILARINI KASBIY KAMOL TOPTIRISH

Tashpo‘latova Nodira Xudjamuradovna.

Jizzax davlat pedagogika universetiti Umumiy psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya Maktab psixologining kasb-hunarga yo‘naltirishi ishlari, kasbga yo‘naltirishning asosiy maqsadi, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari, kasbiy o‘zlikni anglashga tayyorlikni shakllantirish, o‘quvchining laqyoqatini va kasbiy qiziqishlarini diagnostika qilish, yuqori sinf o‘quvchilari bilan kasbga yo‘naltiruvchi korrektsion-rivojlantiruvchi ishlar faoliyatini tashkil etish masalalari keltirilgan.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jaxon standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kundagi taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizga bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yartuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon – e’tiqodli insonlar bo‘lib voyaga yetishsin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘rta maktab o‘quvchilarining hammasi kasb tanlashga kelganda oqilona va to‘g‘ri yo‘l tutadi, deb bo‘lmaydi, albatta. Ulardan

ba’zilari tavakkaliga ish tutsalar, ayrimlari ota – ona kasbini tanlaydilar yoki ko‘zga tashlanib turgan yaqqol namunalarga taqlid qiladilar, goho sevimli kishilari izidan borishni mshljallaydilar.

Ko‘pchilik o‘quvchilar ta’lim olish jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur hosil qiladilar, o‘zlari yoqtirgan kasb – hunar haqida o‘ylaydilar.

Maktab o‘quvchilarini mayllari, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ehtiyojlari tug‘ilishi psixologiya fanining shaxs muammosi bilan uzviy bog‘liqdir. Shaxs psixologiyasini o‘rganish o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish demakdir. O‘quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holdaularning har birini oqilona kasbga yo‘llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to‘g‘risidagi xujjatlarda o‘quvchilarni mustaqil kasb tanlashga (o‘z imkoniyatlarini o‘zi baholoash orqali) o‘rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta’kidlanadi. Shunga ko‘ra psixolog olimlar, metodistlar, tashhis Markaz xodimlari keng jamoatchilik bilan birgalikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb – kor tanlashga oid yo‘l – yo‘riqlari va metodlari ishlab chiqarishlari, kasb tanlash maslahatlari, rasmiy shaxobchalari kengaytirilishi, professiogramma, proseffiografiya, psixogrammalar ko‘lami orttirilishi lozim. Bu borada Respublika tashxis markazining 2003-yil ma’lumotlari juda qiziqarli va ba’zan munozaralidir. Bularni quyidagi raqamlarda ham ko‘rish mumkin:

Respublika bo‘yicha 9-sinflarni bitirgan o‘quvchilarni 8,00% ga sanoat yo‘nalishlariga yo‘llanma berilgan bo‘lsa, ularning atigi 3%i o‘qishga joylashgan. Soliqni saqlash sohalarida esa 12,60% yo‘llanma berilgan bo‘lsa, amalda ularning 4,80% o‘qishga kirgan. Ta`lim sohalariga esa 9,60% yo‘llanma berilgan bo‘lib, ularning 4,00%igina o‘qishga joylashganlar. (Maktab va xayot jurnaliga ilova. 2003-yil 24-39 betlar).

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o‘quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatiga qarab hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so‘ngra kasbga yo‘llash kerak.

Hozirgi davrda xalq ta’limi bo‘limlarida, ishlab chiqarishda, aholini ish bilan ta’minlash muassasalarida, kollejlar va Oliy O‘quv Yurtlarida yoshlarga kasb tanlash yo‘lini ko‘rsatadigan maxsus kasb – hunar kabinetlari tashkil etilgan. Bu borada Respublika tashxis markazining, hamda joylardagi uning bo‘limlarining faoliyati ibratlidir. Bundan tashqari, malakali psixologlar va pedagoglar (shu jumladan mahalla tarbiyachisi), murabbiylar, muhandislar va texniklar har bir kasb – hunarning o‘ziga xos tomonlari haqida malakaviy maslahatlar tashkil qilishadi.

Lekin yoshlarning kasb – hunar tanlashi asosan o‘rta maktabdan boshlanadi, shunga ko‘ra o‘quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o‘quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o‘zini – o‘zi namoyon etish) kabi

muhim vazifa turibdi. Psixologlar, bundan tashqari, o‘quvchilarning aql – idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari. Texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy – tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, psixologiya fani o‘quvchilarning kasb – hunar tanlashiga yordam beradigan, yo‘l – yo‘riqlar va tavsiyalar, mukammal qo‘llanmalar, aksariyat kasb – hunarning professiogrammasini hali to‘liq ishlab chiqqan emas. Lekin shaxs psixologiyasiga oid amaliy va nazariy materiallar yetarli miqdorda yaratilgan. Shaxs psixologiyasi masalalarini yoritish, ya’ni shaxsning bilish qobiliyatlari, aql – idroki, aql – zakovati, individual tipologik xususiyatlari, ruhiy xolatlarini aniqlash yhli bilan uning nimalarga qodir, qanday kasb – hunarga yaroqligi to‘g‘risida aniq fikr bildirish va muayyan tavusiyalar berish mumkin.

Keyingi yillarda o‘tkazilgan kuzatishlar Respublikamizda yoshlarni kasbga yo‘llash sohasida talay kamchiliklar borligini ko‘rsatdi. Buni biz viloyatlar kesimida hamda Respublika bo‘yicha 9-sinf bitiruvchilariga sohalar bo‘yicha tavsiyanomalar berishda ko‘rdik.

Darhaqiqat, maktabda o‘quvchilani kasb – hunarga yo‘naltirish va psixologik – pedagogik tashxis ishlarini amalga oshirishdagi dastlabki qadamlar boshlandi. O‘ylaymizki, ana shu dastlabki qadam maktablarda kasb – hunarga yo‘naltirish ishlarini olib boruvchi mutaxassis hamda o‘quvchilarni kasb – hunarga qiziqishi, moyilligi va layoqatini aniqlash bilan shug‘ullanadigan maktab amaliyotchi psixologi shtatlarni tashkil etishdan iborat bo‘lishi lozim. Chunki, bu mutaxassislarsiz maktabda mazkur ishlar haqida gapirish ham mumkin emas. Maktabda olib borilayotgan kasb – hunarga yo‘naltirish va psxologik pedagogik tashxis ishlarining ko‘lami, ularning saviyasi va malaka ko‘rsatkichi hamda faoliyatining aniqligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lishligi barchamizga ayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Leopold Sondi. Uchebnik eksperimentalьnoy diagnostiki vlecheniy. M.: Kogito-TSentr, 2005

2. V. I. Nikolaev. Test Sondi. Prakticheskoe rukovodstvo. M.: Kogito-TSentr, 2007

3. L. N. Sobchik. Metod portretnx veborov. SPb.: Rech, 2013

4. I. I. TSganok. Test Sondi. Diagnostika emotsionalnogo sostoyaniya, vlecheniy i potrebnostey. SPb.: Imaton, 2021

5. Rasulov A.I. Psixodiagnostika. – T.: «Mumtoz so’z», 2010. -20-b.

6. Dianina Ye.V. Rossiyskaya i zarubejnыe sistemы upravleniya professionalьnoy orientatsiey uchaщeysya molodeji: sravnitelьnыy analiz. // Jurnal «Sotsiodinamika», 2017, № 3. –S. 2

МЕНЕЖМЕНТ ПСИХОЛОГИЯСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ҚОНУНИЯТЛАРИ.

Tashpo‘latova Nodira Xudjamuradovna.

Jizzax davlat pedagogika universetiti Umumiy psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Менежмент психологияси амалий психологиянинг бир тармоғи сифатида бошқарув фаолиятини ва бошқа нарсаларни ўрганади. Бошқарув психологияси қонунлари шахслараро муносабатларда ва гуруҳли мулоқотда ўзаро муносабатларда намоён бўлади ва биз уларни билиш ёки билмаслигимизга қараб ҳар қандай қонун каби ҳаракат қилади. Менежмент психологияси ва умуман бошқарув фаолиятининг асосий қонунлари

1. Жавобнинг ноаниқлик қонуни.
2. Ўзаро идрокнинг номувофиқлиги қонуни.
3. Ўз-ўзини ҳурмат қилмаслик қонуни.
4. Ахборотни бузиш қонуни.
5. Ўз-ўзини сақлаш қонуни.
6. Компенсация қонуни.

Уларнинг ҳар бирига қарайлик. Жавоб ноаниқлиги қонуни ташқи таъсирларнинг ерта психологик шароитларга боғлиқлиги қонуни деб аталади. У иккита психологик ҳодисага асосланади-боғланиш ва онгнинг стереотиплари мавжудлиги. Апперент-идрокнинг ўтмиш тажрибасига боғлиқлиги. Онгнинг стереотиплари-бу атрофдаги воқеликни нотўғри ва тўлиқ акс еттирувчи ва хатти-ҳаракатларга таъсир қилувчи, аниқ ёки яширин алоқа тўсиқларини яратадиган барқарор фикрлар, баҳолар, ҳукмлар.

Ушбу қонунда айтилишича, турли одамлар турли вақтларда бир хил таъсирга турлича муносабатда бўлишлари мумкин. Бир киши ўз манзилидаги қўполликка қўполлик билан жавоб беради, бошқаси сукут сақлайди, учинчиси қўпол одамни тинчлантиришга ҳаракат қилади. "Бизнинг сўзимиз қандай жавоб беришини башорат қилиш бизга берилмаган", бу сўзларда Ф. Тютчев жавобнинг ноаниқлик қонунининг моҳиятини акс еттиради. Бош ушбу қонуннинг яна бир кўринишини ёдда тутиши керак: ҳатто бир хил одам ҳам турли вақтларда бир хил таъсирга сифат жиҳатидан бошқача муносабатда бўлиши мумкин.

Кўпгина ички психологик омиллар (кайфият, ҳиссий ҳолат ва бошқалар.) муайян вазиятларда маълум бир шахснинг реакцияларига жиддий таъсир қилади ва баъзан аниқлайди. Ва бу омилларни тўлиқ ҳисобга олиш мумкин емас. Сиз ҳар доим ва ҳамма жойда суҳбатдошингизнинг ҳар қандай

ҳаракатингизга реакциясини (жавобини) аниқлай оласиз деб ўйламанг. Жавобни кутиш мумкин емас-бу бошқарув психологиясининг ўзгармас қонуни. Масалан: хўжайин буйруқ беради ва унинг бажарилишига умид қилади (маълум бир жавобни кутади). Баъзан қилади, баъзида еса йўқ. тасаввур қилайлик, вазифа нотўғри, нотўғри бажарилган ёки умуман бажарилмаган.

Бошлиқ бўйсунувчидан вазифа бажарилмаганлиги сабабларини билиб олади ва шу билан бирга вазиятни ўзи таҳлил қилади. Бундай вазиятда иккаласи ҳам апперсепсия ва онг стереотиплари таъсири остида бу ҳақиқат учун ўзларининг, баъзан диаметрал қарама-қарши тушунтиришларига ега. Менежер ўз ходимини сусткаш ёки саботажчи деб ҳисоблаши мумкин. Бўйсунувчи, ўз навбатида, ўзини оқлаш учун ўнлаб "объектив" ҳолатларни топиши мумкин. Бошлиқ ҳам, бўйсунувчи ҳам хато қилади: биринчиси, улар бўйсунувчи билан мулоқот қилишнинг яроқсиз усулини танлаганликлари учун, иккинчиси-ўзларини ҳимоя қилишнинг нотўғри усулини танлаганликлари учун.

Ўзаро идрокнинг номувофиқлиги қонуни шундаки, инсон ҳеч қачон бошқа одамни бу шахс ҳақида жиддий қарорлар қабул қилиш учун етарли бўлган тўлиқлик билан тушуна олмайди. Бизнинг идрокимиз шундай" тартибга солинган", у деярли ҳеч қачон тўлиқ адекват, аниқ ва тўлиқ бўлмайди. Ҳатто кўзимиз олдидаги енг оддий объектни ҳам биз ҳеч қачон тўлиқ сезмаймиз, лекин уни ҳар доим маълум бир бурчакдан кўрамиз, яъни унинг фақат кўринадиган ва рецепторларимизга бевосита таъсир қиладиган қисми.

Бу бузилиш кўплаб сабабларга кўра юзага келади, уларнинг асосийлари психологлар қуйидагиларни ҳисоблашади:

1.Инсон доимо ўзгариш ҳолатида. Маълумки, ҳар қандай вақтда ҳар бир инсон жисмоний, физиологик, интеллектуал, ижтимоий, ахлоқий, ҳиссий ва жинсий ривожланишнинг турли даражаларида бўлиши мумкин.

2.Инсон ҳар доим онгли равишда ёки онгсиз равишда бировнинг манипуляцияси қурбонига айланмаслик учун ўз хусусиятларини ва "заиф томонларини" очиб беришга уринишлардан ўзини ҳимоя қилади.

3.Кўпинча одам ўзи ҳақида тўлиқ маълумот бера олмайди, чунки у ўзини тўлиқ билмайди. Ва баъзи ҳолларда, у кўпинча билмаган ҳолда ўзи каби емас, балки бошқа одамларнинг назарида бўлишни хоҳлаган тарзда кўринишга ҳаракат қилади. Психологларнинг таъкидлашича, ҳар қандай бошқарув қарорини қабул қилишда идрокнинг етишмаслиги ва одамнинг ўзини ўзидан яхшироқ кўрсатиш истаги ҳисобга олиниши керак. Бошқарув фаолиятини амалга оширишда, идрок етишмаслиги қонунини ҳисобга олган ҳолда, менежерлар одамларга ёндашишнинг қуйидаги тамойилларидан фойдаланишлари керак:

а) бошқарув нуқтаи назаридан шиор шаклини оладиган universal истеъдод принципи: "қобилияциз, қобилияциз одамлар йўқ. Бошқа нарсалар билан банд одамлар бор";

б) ривожланиш принципи шундаки, қобилиятларни (ҳам умумий, ҳам махсус) ривожлантириш мумкин;

с) битмас-туганмаслик принципи шуни кўрсатадики, инсонга берилган ҳеч қандай баҳо якуний деб ҳисобланмайди.

Ўз-ўзини ҳурмат қилмаслик қонуни. Ушбу қонуннинг моҳияти шундан иборатки, инсон ўзини баҳолашга ҳаракат қилганда, бошқа одамларни баҳолаш каби ички тўсиқлар ва чекловларга дуч келади. Маълумки, ўз-ўзини ҳурмат қилиш камдан-кам ҳолларда етарли - бу ортиқча ёки кам баҳоланади. Инсон ўзини қандайдир тарзда ортиқча баҳолаши ва шу билан бирга ўзини қандайдир тарзда камситиши одатий ҳолдир ва бу унинг ўзи ҳақида қилган хулосаларига таъсир қилади.

Инсон нафақат оқилона, мантиқий, оқилона мавжудот, балки ҳиссий, мантиқсиз ва баъзан ақл бовар қилмайдиган мавжудотдир, шунинг учун одамни маълум бир тарзда ҳаракат қилишга мажбур қиладиган яширин ички ҳаракатлантирувчи кучлар баъзан бу одамнинг ўзи томонидан амалга оширилмайди. Шунинг учун мантиқий, оқилона интроспекция (шунингдек, бошқа одамларни таҳлил қилиш) ҳеч қачон етарли даражада етарли емас. Ахборотни бузиш қонуни.

Баъзан уни бошқарув маълумотларининг маъносини йўқотиш қонуни ёки бошқарув маълумотларининг маъносини ажратиш қонуни деб аташади. Ушбу қонуннинг моҳияти шундан иборатки, бошқарув маълумотлари (кўрсатмалар, буйруқлар, буйруқлар ва бошқалар.) ҳаракат жараёнида маънони ўзгартиришга интилади "юқоридан пастгача."Ахборотнинг маъносини йўқотишнинг марказида бошқарув маълумотлари узатиладиган тил мавжуд. Тилда ишлатиладиган тушунчалар қанчалик қатъий ёки аниқ бўлмасин, ҳар доим бир хил хабарни турли хил талқин қилиш имконияти мавжуд. Оғзаки маълумот 50% гача аниқлик билан қабул қилиниши аниқланди.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арская Л. Р. Япония: Фан ва менежмент санъати. Москва, 1998 йил.

2. Андреева Г. М. Ижтимоий Психология, Москва, 2000.

3. Андриенко Е. V. Ижтимоий психология, Москва, 2001.

4. Axelrod A., Ҳолти Ж. 201 қийин мулоқот ҳолатларида ғалаба қозониш усули. Челябинск, 1999.

5. Агеев В. S. Гуруҳлараро ўзаро таъсир. Москва, 1990 йил.

6. Агеев В. S. Гуруҳлараро муносабатлар психологияси, Москва, 1999 йил.

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY STRESS PSIXOPROFILAKTIKASI

Norbutayev Samandar Abdubakirovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Maqolada, harbiy xizmatchilarda kasbiy stress xizmat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan stressogen vaziyatlar va unga nisbatan bildiriladigan reaksiyalarning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, stressogen vaziyatlardan chiqib ketishda shaxsda mavjud bo‘lgan moslashuvchanlik, ruhiy barqarorlik kabi sifatlarning ahamiyati psixologik jihatdan ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: optimizm, pessimizm, frustratsiya, psixologik zo‘riqish, realistlar, negativistlar stress, stressogen vaziyat.

Hozirgi kundagi dunyo shiddat bilan yangilanib borayotgan paytda insonlar zamon bilan hamnafas yashash va undan ortda qolmaslik uchun tengdoshlari kabi jismonan baquvvat va ruhan sog‘lom bo‘lishlari kerak ekanligini psixologlar tomonidan ta’kidlanib kelinmoqda. Jismonan sog‘om va ruhan tetik bo‘lish uchun esa harbiy xizmatchilar ham psixologik bilimlardan xabardor bo‘lishlari kerak.

Harbiy xizmatchilar xizmat faoliyati davomida turli iste’mol qilinadigan axborotlar muloqot vaqtida turli xil stress holatini keltirib chiqarishi mumkin. Stress holatidan chiqib ketish uchun esa harbiy xizmatchida bilim, ko‘nikma va malaka kerak bo‘ladi. Ammo, kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma malaka hamma harbiy xizmatchilarda ham shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Harbiy xizmatchilarning temperamenti har xil bo‘lganligi sababli, ularning tashqi ta’sirga beriluvchanligi ham turlicha bo‘ladi. Harbiy xizmatchilarning tashqi ta’sirlarga javob reaksiyasi ularning individual psixologik sifatlari orqali ko‘rsatiladi. Psixolog olimlar tomonidan shaxsning hayot faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan stress holatlarini o‘rganish yuzasidan shaxsdagi optimizm va pissimizm kabi psixologik holatlarning ta’siri o‘rganilgan.

Insonlarning indiviual psixologik jarayonlarini o‘zbekistonlik olimlar tomonidan o‘rganib chiqilgan. O‘zbek olimlaridan stress muammosini E.G‘.G‘oziev, N.G.Kamilova, Z.T.Nishonova hamda ularning shogirdlarining tadqiqotlarida o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi [1.3].

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning nafaqat o‘z mutaxassisligi doirasida bilim olishiga, balki ularning salomatligi masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa ularning ruhiy jihatdan salomatligini ta’minlash uchun ularning psixologik savodxonligini oshirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O.N.Stolpovskayaning fikricha, harbiy xizmatchilar o‘qish va xizmat faoliyati davrida o‘zining kasbiy kelajagini ko‘ra bilsa, uning uchun o‘qish va xizmatda yuqori natijalarga ehga bo‘lish istagi va shuning natijasida yutuqlarga erishish imkoniyati ham muhim bo‘ladi.[2.7]

Shu munosabat bilan muammoning harbiy xizmatchilar jamoasida o‘rganilganligini ham tahlil qilishga urindik. Adabiyotlarda shaxs bajarayotgan faoliyatining funksional ishonchliligi u boshqarayotgan ob’ektning holatiga qanchalik to‘g‘ri va o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kirita olishiga bevosita bog‘liqligi ko‘rsatilgan.[3.9] Harbiy xizmatchilarning o‘z kuch va imkoniyatlariga ishonchlari hamda atrofdagi do‘stlaridan ijobiy muomala qilishlarini kutishlari optimistik xarakter bilan tavsiflanadi. Bunday harbiy xizmatchilar o‘zlarining boshlagan ishlaridan faqat ijobiy natija chiqishiga ishonadi. Muvafaqqiyatsizlikka uchragan taqdirda ham o‘z boshlagan ishlaridan to‘xtamasdan harakat qiladilar. Aksincha, o‘zlarining imkoniyatlariga ham o‘z yonidagi insonlarga ham ishonmaydilar ularning yaxshilik tilashlariga shubha ko‘zi bilan qaraydiganlar pissimistik xarakter bilan tavsiflanadi. Bunday xarakterga ega harbiy xizmatchilar yolg‘izlikka moyil va “ichimdagini top” deydigan insonlar xarakteri bilan tavsiflanadilar. [4.3]

Keltirilgan ma’lumotlarga tayanib, biz o‘z oldimizga harbiy xizmatchilarning stress holatlarga chidamliligi bilan ko‘p omilli shaxs so‘rovnomasini doirasida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari bilan olib borilgan psixologik testlar natijalari ham aynan yuqoridagi tahlillarga mos kelganligini qayd etib o‘tamiz. Berilgan natijalarni quyidagicha tahlil qilish mumkin: natijalarga ko‘ra, **“moslashuvchanlik” t**estini topshirgan 36 nafar harbiy xizmatchidan 31 nafari qoniqarli, 4 nafari qoniqarsiz; o‘rganilgan harbiy xizmatchilarning 11.1% harbiy xizmatda o‘z o‘rtoqlariga qo‘shilib ketish, harbiy sharoitga ko‘nikish sekin kechayotganligini ko‘rish mumkin.

“Asabiy-ruhiy barqarorlik” testini topshirgan 57 nafar harbiy xizmatchilardan 53 nafari qoniqarli, 4 nafari qoniqarsiz. O‘rganilganlarning 7.0% asabiy-ruhiy nobarqaror ekanligi aniqlanib, ushbu harbiy xizmatchilarning oilaviy

sharoitlari va xizmatgacha bo‘lgan mashg‘ulotlari o‘rganilib chiqib, individual o‘rganish maqsadga muvofiq.

“Kommunikativ sifatlar” testini topshirgan 28 nafar harbiy xizmatchidan 25 nafari qoniqarli 3 tasi qoniqarsiz. O‘rganilganlarning 10.7% o‘z xizmatdoshlari bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklari borligi aniqlanib, ularning jamoaga qo‘shilib ketishlariga qarshilik qilayotgan axloqiy me’yorlarni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar berish kerak.

“Ahloqiy me’yorlar” testini topshirgan 47 nafari harbiy xizmatchidan 42 nafari qoniqarli va 5 nafari qoniqarsiz baho olganlar. O‘rganilgan harbiy xizmatchilarning 11.9%da ahloqiy me’yorlarning buzilishlari kuzatilgan. Ularda so‘zlashuv jarayonida noodatiy qiliqlar mavjudligi aniqlangan.

Shunday qilib, asabiy-ruhiy nobarqaror ekanligi aniqlangan harbiy xizmatchilarning oilaviy sharoitlari va xizmatgacha bo‘lgan mashg‘ulotlari o‘rganib chiqilib, xizmatdoshlari bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklari borligi aniqlangan, ularning jamoaga qo‘shilib ketishlariga qarshilik qilayotgan axloqiy me’yorlarni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar berish, ahloqiy me’yorlarning buzilishlari kuzatilganligi, ularda so‘zlashuv jarayonida noodatiy qiliqlar mavjudligi aniqlangan.

Bu natijani quyidagicha tahlil qilish mumkin: harbiy xizmatchilar mavjud vaziyatni, ya’ni xizmat faoliyati mobaynida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni o‘z imkoniyatlari darajasida baholaydilar va atrofdagilarga o‘zini ko‘rsatish uchun “osmonga sakramaydi”lar. Ular berilayotgan topshiriqlarning ko‘pligi, qiyinligidan hech qachon nolimaydilar, ular hayotda o‘zlarining mavjud imkoniyatlaridan va erishgan yutuqlaridan qoniqish hosil qilib yashaydilar. Shuning uchun bu toifaga kiradigan harbiy xizmatchilar psixologik stresslarga nisbatan chidamli bo‘ladilar. Lekin bu ular hech qachon stressga berilmaydilar, degan fikrni ifodalamaydi, ularda ham stressga berilishga moyillik mavjud, lekin shunga qaramasdan, ularning yutug‘i shundaki, ular vaziyatni to‘g‘ri baholagan holda qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini izlaydilar, harakat qiladilar, topadilar va stressdan tez chiqib ketadilar.

O‘rganish natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-fuqarolik hayotidan kelib harbiy hayotda moslashishish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin;

-harbiy xizmatchilarda kuzatiladigan stress ularning harbiy xizmatini bajarishi bilan bog‘liq holda kechadi, ularni bartaraf etishda harbiy xizmatchining shaxsiy kognitiv imkoniyatlarining etishmasligi natijasida kelib chiqadi;

-harbiy xizmat jarayonida mavjud bo‘lgan stressogen omillarining barchasi harbiy xizmatchilar tomonidan jiddiy qabul qilinadi va va ularning xizmat faoliyatida ham o‘z aksini topadi.

Harbiy xizmatchilarda kasbiy stresslarni oldini olish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz;

-Psixologlarning ko‘rsatkichi past harbiy xizmatchilar bilan alohida, individual ish olib borishlari maqsadga muvofiq.

Psixologlar tomonidan har doim harbiy xizmatchilarga:

- avvalo o‘z kuchlariga ishonish kerakligi;

-har qanday vaziyatda ham faol harakat qilish muvafaqqiyatga yetkazishini bilishlarini;

-har qanday muammoning echimi mavjudligini;

-muammolar insonning rivojlanishi uchun yaratilgan imkoniyat ekanligi va taraqqiyot sari olg‘a yurish kerakligi aytib turilsa, stressga chidamlilik ortishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.google.com/search. Talabalarda-stressga-chidamlilikning-psihologik-tahlili (1).Pdf
2. Bodrov V.A. Информацион стресс. – издателъство “Институт психологии”, 1997. 15 b.
3. Анциферова Л. Психология Повседневности: Жизненно мир личности и техника её бытия. Психологический журнал. М., 1993,. 26 b.

4. Ismoilova N.Z. Talabalarda talabalarda stressga chidamlilikning psixologik tahlili. Ilmiy maqolasi.

O‘SMIRLAR XULQ-ATVORIDAGI O‘ZGARISHLAR

Usmonova Mohlaroyim Xoliyor qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, II bosqich talabasi

Annotatsiya. O‘smirlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlarning sabablari biroz murakkab bo‘lib, ularning rivojlanish jarayonida turli ijtimoiy, madaniy va oilaviy omillar ham katta rol o‘ynaydi. Xulq-atvordagi o‘zgarishlar ko‘plab ichki muammolarni, masalan, o‘zlikni anglash, emotsional o‘zgarishlar va ijtimoiy moslashuvni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, o‘smirlar o‘zlarining yangi erkinliklariga intilishadi, lekin ba’zan bu o‘zgarishlar ota-onalar va jamiyat tomonidan to‘g‘ri tushunilmasligi mumkin.

O‘smirlarning xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni to‘g‘ri tushunish va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun ota-onalar, o‘qituvchilar va ijtimoiy muhitning o‘rni nihoyatda muhimdir. O‘smirlar uchun psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ularning o‘zlarini anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlash, muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, xulq-atvor o‘zgarishlari, biologik, psixologik va ijtimoiy omillar, shaxsiy rivojlanish, o‘zlikni anglash, ijtimoiy moslashuv, ota-onalar roli, emotsional o‘zgarishlar

O‘smirlik davri – inson hayotining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biridir. Bu davrda bolalar kattalar dunyosiga kirishadi va shaxs sifatida shakllanayotgan vaqtning o‘zida turli ijtimoiy, emotsional va psixologik o‘zgarishlarni boshdan kechirishadi. O‘smirlarning xulq-atvoridagi o‘zgarishlar ulardagi biologik, ijtimoiy va psixologik omillar ta’sirida yuzaga keladi. Ushbu maqolada o‘smirlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlarning sabablari, uning ijtimoiy va psixologik aspektlari va ta’sirlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

O’smirlik yoshining klassik tadqiqotiga nazar solsak, unda turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlar borligining guvoxi bo’lamiz. O’smirlik yoshiga xos yorqin Psixologik konsepsiyalardan biri XX asrning boshlarida L.S.Vigotskiy (1930) tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariya bo’lib, unda mazkur yosh simptomatikasi, o’smir psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o’zgaruvchanlik, uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretatsiyasi berilgan.

L.S.Vigotskiy ta’lim va taraqqiyotning o’zaro masalasini ko’rib chiqdi. Bunda u quyidagi vaziyatni keltirib chiqardi. Bolaga psixik hayotidagi qiyin shakllar muloqot jarayonida shakllanadi, demak muloqot nisbatan tizimlashtirilgan shaklda – o’qitishda rivojlanishni shakllantiradi, yangi psixik ma’lumotlarni vujudga keltiradi, oliy psixik funksiya takomillashtiriladi. Ta’lim psixikaning shakllanishida muhim rol egallab, uning shakllari esa rivojlanish jarayonida o’zgaradi. [23-b]

Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O’smirda ro’y beradigan biologik-jismoniy o’zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O’smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo’lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bolmaydi. Jinsiy yetilish o’smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta’sir ko’rsatib bu ta’sir bevosita emas, balki ko’proq bilvositadir.

O’smirlar o’zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. O’smirlik darida kattalarga nisbatan agressiv munosabatning paydo bo’lishi, negativizm singari noxush xulq-atvor alomatlari o’z–o’zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetishlish tufayli paydo bo’ladigan belgilar bo’libgina qolmay, balki ularga bilvosita ta’sir ko’rsatadigan o’smir yashaydigan ijtimoiy shart–sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, jamoadagi mavqei, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o’rni sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. [29-b]

Keyingi paytlarda yoshlar o‘rtasida tajovuzkorlik, agressiv xulq uchrab turibdi. Sababi yoshlarimiz telefon, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli mentalitetimizga, milliy qadriyatlarimizga xos bo‘lmagan videoroliklar, materiallar, voqea hodisalarga guvoh bo‘lmoqdalar. Kattalarularning xattiharakatlarini nazorat qila olmayaptilar. O‘smirlik davri olimlar tomonidan eng qiyin davr, inqiroz davri, o‘tish davri deb e’tirof etiladi. Haqiqatdan bu davrga kiradigan bolalarga tarbiya-ta’lim berish ham qiyin bo‘lib qoladi. Ular qaysar, o‘zini boshqalar tan olishlarini xoxlaydigan, romantik bo‘lib qoladilar. Shuning uchun o‘smirlarni vaqtincha qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir, ammo vaqt o‘tishi bilan uning fikrlari bilan yolg‘iz qolishiga imkon berilishi kerak. Agressiv xulq - shaxsning ma’naviy buzuqlikka asoslangan, boshqarishning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta’sir o‘tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga

qaratilgan g‘ayriinsoniy xususiyat. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo‘lishi ko‘pincha ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda yuz beradi. Shaxsning o‘ziga qaratilgan tajovuzkorlik “autoagressiya” (bunday holat shaxsdagi patologik o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi) deb ataladi. O‘z joniga qasd qilish, o‘ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko‘rinishlaridir. Jaholatga botgan, johillik va zo‘ravonlikni maqsadga erishishning asosiy va ustuvor vositasi deb biladigan shaxslarda Agressiv xulq kuchli bo‘ladi. O‘smirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqishi juda dolzarb masala hisoblanadi. [74-b]

Xulosa qilib aytganda, bunday natijaga erishish amaliyotda faol uslublarini qo'llashni taqozo etadi. O'qitish jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi turli pedagogik texnologiyalar, iterfaol metodlarni qo'llanishi mustaqil fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijobiy yondoshishga, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish, adabiyotlardan unumli foydalanish kasbga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Biz ulardan ba'zilari haqida to'xtalib o'tdik, ushbu zamonaviy metodlar o'qitishning samarasini oshirishga, talabalarda mantiqiy, aqliy, mustaqil fikrlashi shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, raqobatbardosh yetuk mutahassis bo'lishlariga ijobiy fazilatlarga boy ko'p omilli shaxs bo'lishiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1.M.G. Davaetshin, Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlanov, S.To'ychieva. "Yosh va pedagogik psixologiya" o`quv metodik qo`llanma. Toshkent 2004 yil

2. Olimov L.Y va boshq. "Psixodiagnostika". – T.: Turon zamin-ziyo, 2014. – 288 b.

3. Ismoilova D. "O'smirlik yoshidagi o'quvchilarning xulq-atvor xususiyatlari". Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари. – T.: 2022. 239-242 b.

HARBIY XIZMATCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN AXLOQIY-RUHIY HAMDA PSIXOLOGIK ISHLAR TIZIMI VA UNING XARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Sulaymonov Ikrom Musurmonovich

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o'quv markazi "Maxsus va o'q otish tayyorgarplik" sikli boshlig'i, podpolkovnik

Mamlakatimizda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim ahamiyati borasida tizimli ishlar tashkil etish Konsepsiyasiyasi ishlab chiqilganligi bu boradagi davlat siyosatining o'zagini tashkil etadi. Harbiy xizmatga jismonan va ruhan tayyor bo'lgan yoshlar bilan axloqiy-ruhiy tayyorgarlik ishlarini olib borish Qurolli Kuchlarda (jumladan, O'zbekiston Milliy gvardiyasida ham) asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikdan ko’zlangan asosiy maqsad, shaxsiy tarkibni g’oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirish, buning uchun dunyo va mintaqada hukm surayotgan harbiy-siyosiy vaziyatning xususiyatlarini inobatga olgan holda yurtimiz xavfsizligiga tahdid tug’dirayotgan xavf-xatarlar mazmunini tushuntirish, barcha pog’onadagi komandirlarga tez o’zgaruvchan vaziyatda mustaqil va to’g’ri qaror qabul qilishni o’rgatish, bo’linmalar oldida turgan vazifalarni bajarishda har bir harbiy xizmatchida barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta’minlash, jamoaga daxldorlik hissini rivojlantirish hamda ularning davlatimiz manfaatlarini himoya qilish yo’lida barcha imkoniyatlarini safarbar etishdan iborat.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning maqsadlariga erishishdagi asosiy vazifalar ushbu maqsadga bevosita yo’naltirilgandir:

- shaxsiy tarkibni xizmat va jangovar vazifalarni bajarish chog’ida maqsad sari intilish, yuqori darajadagi faollik va tashabbuskorlikni namoyon qilish, safdoshlariga yordam ko’rsatish ruhida tarbiyalash;

- harbiy xizmatchilarda jangovar tayyorgarlik, qorovullik (jangovar navbatchi bo’linma) va ichki xizmat sharoitidagi mavjud qiyinchilik va psixologik yuklamalarga, turli xavf-xatarlarga, mashaqqat va cheklovlarga bardosh berish qobiliyatini oshirish;

- qurol va texnikalarni doimiy soz va jangda qo’llashga shay holatda tutish zaruratini ularning ongiga singdirib borish;

- xizmat faoliyati davomida barcha pog’onadagi komandirlar, harbiy jamoa faollaridan shaxsiy namunalikni ta’minlashni talab qilish;

- qo’shinlarda erishilgan ijobiy natija va shaxsiy tarkibning oqilona harakatlarini umumlashtirish, targ’ibot qilish, alohida o’rnak ko’rsatgan harbiy xizmatchilar tajribalarini ommalashtirish va ularni rag’batlantirish;

- shaxsiy tarkibni mavjud xavf-xatarlardan ogoh qilish, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlari to’g’risida doimiy ravishda axborot berib borish;

- turli xizmat va jangovar-o’quv topshiriqlarini bajarayotgan bo’linmalar shaxsiy tarkibiga, topshiriqning maqsadi va mazmunini, ularni bajarish tartibi va ketma-ketligini tushuntirish;

- bo’linmalar va shaxsiy tarkibni me’yoriy davriy nashriyot, xat-xabarlar va tarbiyaviy texnik vositalar bilan ta’minlash;

- xizmat va jangovar vazifalarni bajarish davrida turli psixologik ta’sirlarga tushgan harbiy xizmatchilarga malakali psixologik va tibbiy yordam ko’rsatish.

Shaxsiy tarkibning barqaror axloqiy-ruhiy holatini ta’minlash maqsadida quyidagilar amalga oshirilishi tegishli huquqiy- me’yoriy hujjatlarda belgilab berilgan:

- O’zbekiston Respublikasi siyosatini bo’linmalar hayotiga qat’iylik va izchillik bilan joriy etish;

- shaxsiy tarkibda faol hayotiy pozisiya, vatanparvarlarga xos dunyoqarashni shakllantirish va ishonib topshirilgan qurol-yarog’, texnikalarni mukammal darajada o’zlashtirish va mohirona qo’llash qobiliyatini tarbiyalash;

- harbiy xizmatchilarga dunyo va mintaqada hukm surayotgan harbiy (ijtimoiy)-siyosiy vaziyat to’g’risida ma’lumotlarni o’z vaqtida yetkazish va ularning tub mazmun-mohiyatini tushuntirish;

- turli yot g’oyalarning asl mohiyatini fosh etish hamda ularning natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlar xususiyatlarini harbiy xizmatchilar ongiga singdirish;

- ijtimoiy-siyosiy va axborot-psixologik vaziyatni uzluksiz ravishda prognoz qilish hamda yuz berayotgan o’zgarishlarga o’z vaqtida chora ko’rish;

- shaxsiy tarkibni salbiy axborot-psixologik ta’sirdan himoyalash;

madaniy hordiq olish ishlarini tashkillashtirish.

Shaxsiy tarkibni jangovar vaziyatdagi qiyinchilik va xavf-xatarlarni yengib o’tishga tayyorligini shakllantirish, kuchli his-hayajon, psixik yuklama, turli mashaqqatlarga chidash qobiliyatini hosil qilish jangovar tayyorgarlik davridagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning **muhim vazifalaridan** biri hisoblanadi.

Shaxsiy tarkib uchun zarur bo’lgan psixologik sifatlarni muvaffaqiyatli shakllantirishga jangovar tayyorgarlik mashg’ulotlarini jang sharoitiga xos xolda o’tkazilgandagina erishiladi. Ushbu sharoitlar sirasiga qo’shinlarni dala sharoitida o’rgatish, eng avvalo taktik mashqlar, jangovar o’q otish, maxsus jihozlangan dala o’quv joylarida mashg’ulotlar o’tkazish va jismoniy mashqlar kiradi.

Shu maqsadda, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini ehtimol tutilgan xavf-xatar elementlaridan iborat vaziyatlarni shaxsiy tarkib boshidan kechirishi va his etishini ko'zlagan holda o'tkazish, xususan, taktik, o'q otish, maxsus, jismoniy tayyorgarlik, jangovar mashinalarni boshqarish va taktik mashqlarni o'tkazishda jang sharoitiga yaqin bo'lgan barcha qiyinchiliklarni modellashtirish, shu jumladan, mashg'ulotlar jarayonida imitasiya vositalaridan keng foydalanish **maqsadga muvofiq** bo'ladi.

Qo'shinlarda psixologik ishlarni tashkil qilish masalasi ham o'ta jiddiy masala hisoblanadi**.**

Psixologik ishlarni tashkillashtirish davomida quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- harbiy xizmat sharoitini psixologik jihatdan o'rganish, uni tahlil va prognoz qilish, harbiy xizmatchilarning psixofiziologik sifatlari hamda harbiy jamoaning ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda talablarni belgilash;

- harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlari, harbiy jamoalardagi ijtimoiy-psixologik sharoitning rivojlanish jarayoni va unda yuz berayotgan hodisalarni o'rganish va baholash (psixodiagnostika qilish) hamda uning kelgusidagi taraqqiyotini prognoz qilish;

- mustahkam harbiy intizom, uyushqoqlik va jipslikni ta'minlash, harbiy xizmatchilarning xulq-atvoridagi og'ishlar (deviant xulq-atvor)ni ogohlantirish maqsadida, shaxsiy tarkib psixoprofilaktikasi (psixologik bilim berish, psixogigiyenaga oid tadbirlar o'tkazish)ni tashkil qilish va o'tkazish;

- harbiy xizmatchilar va jamoalarni muayyan jangovar, axborot-psixologik va boshqa ekstremal sharoitlarda harakat qilishga qaratilgan psixologik tayyorgarligini tashkil etish yuzasidan tavsiyanoma (taklif)lar ishlab chiqish;

- xizmat va jangovar topshiriqlar bajarish jarayonida psixologik jihatdan ta'sir etuvchi omillarni yengib o'tishda, xulq-atvorda kuzatiladigan og'ishlarning klinik shakllarini bartaraf etishda harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko'rsatish.

Psixologik ishlarning diqqat markazida quyidagilar bo'lishi shart:

- qorovullik (jangovar navbatchi bo’linma) va ichki xizmatni ta’minlaydigan psixologik ishlarning samarali tizimini yaratish va qo’llash;

- harbiy xizmatchilar va jamoalarning individual-psixologik xususiyatlarini o’rganish, asabiylashadigan va psixologik beqarorlikka moyil shaxslarni aniqlash, huquqbuzarliklar va o’z joniga qasd qilish holatlarni profilaktika qilish bo’yicha psixologlarning ish shakli, usuli hamda faoliyatini takomillashtirish;

- psixologik ishlarni tashkil qilish tajribasini o’rganish va targ’ibot qilish;

- harbiy xizmatchilarning psixologik salomatligini saqlash va qo’llab turishga oid psixologik ishlarni o’tkazish, stress holatlariga uchragan shaxslarning holatini tiklash;

- ofiserlarning psixologik va pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish, harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari hamda fuqaro xodimlarni psixologik masalalardagi bilimini oshirish hamda harbiy qism va muassasalarni o’quv-metodik materiallar bilan ta’minlash;

- harbiy psixologlar faoliyatini moddiy-texnik ta’minlash ishlarini takomillashtirish.

Psixologik ishlarni tashkil etishda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

- qo’shinlarda bajarilayotgan topshiriq va vazifalarning o’ziga xosligi, harbiy qism va muassasalar joylashgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik vaziyatning harbiy xizmatchilar va jamoalarga nisbatan ta’siri;

- harbiy qism va muassasalarning shaxsiy tarkib bilan butlanganligining sifati va soni, harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari hamda fuqaro xodimlarning kayfiyati va holati, ularning psixologik holatiga ta’sir etuvchi tashqi axborot-psixologik omillar.

Psixologik ishlarga oid tadbirlar harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiya rejasida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlari doirasida rejalashtiriladi.

Xulosa. Harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiya tadbirlari barcha toifadagi harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilarning intellektual saviyasi va bilimlarini oshirish, ona-Vatanni chin qalbdan sevib ardoqlash, uni har qanday g’animdan har qanday sharoitda ishonchli himoya qila olish va buning uchun

harb ilmini puxta egallash, jangovar texnika va qurol-yarog'lardan mohirona foydalana olish, tartib-intizom, axloq-odob, o'zaro ko'makdoshlik singari ko'plab sifatlarni o'zida mujassamlashtirish, eng muhimi, ona yurti himoyasida, harbiy jamoada alohida o'rni bor ekanligini chuqur idrok etish maqsadida tashkil etib boriladi.

Harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya zarur yo'nalishlardan biri bo'lib, u har bir komandir, har bir harbiy xizmatchidan ulkan fidoyilik va katta mas'uliyat, betinim o'z ustida ishlashni, turli usul hamda vositalardan foydalanishni talab qiladi.

HARBIY XIZMATCHILARNING O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH PSIXOLOGIYASI

Sadirova Zumrad Kudratjonovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi“Psixologiya” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Sadirov Kudratjon Baxronovich
“LAWTAX” MCHJ yuriskonsulti, Qurolli Kuchlar zaxirasidagi podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning o‘zini boshqarish psixologiyasi haqidagi yondashuvlar va uning jangovar va xizmat faoliyatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada stress va psixologik jarohatlar, xususan post-travmatik stressni boshqarishning ahamiyati ham ko‘rib chiqilgan. O‘zini boshqarish psixologiyasi, jumladan, nafasni boshqarish, mushak tonusini boshqarish, resursli holatlarni vizualizatsiya qilish kabi usullar keng qamrovli tarzda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmat, o‘zini boshqarish, hissiy holat, stress, psixologik salomatlik, post-travmatik stress, jangovar harakat, psixologik jarohatlar, psixologik moslashuv.

O‘zini boshqarish masalasi uzoq vaqtdan beri barcha psixologik maktablar va yo‘nalishlar psixologlarini qiziqtirib kelgan. Hozirgi kunda ushbu qiziqish nafaqat odamlarning psixologik madaniyatining o‘sishi, balki zamonaviy faoliyat turlari, insonlararo munosabatlar, shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi muhim siyosiy aloqalar bilan ham izohlanadi. Harbiy xizmatchilarning o‘z-o‘zini boshqarish psixologiyasi –

psixologiyaning muhim sohasi bo‘lib, unda harbiy xizmatchilarda o‘zini nazorat qilish, o‘zini tartibga solish va o‘z his-tuyg‘ularini, fikrlarini va harakatlarini xizmat sharoitida samarali boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish usullari va mexanizmlari o‘rganiladi. Bu jarayonlar xizmat davomida ekstremal va stressli vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishi, barqarorlikni va yuqori samaradorlikni ta’minlashi uchun zarurdir. Harbiy xizmatchilarning o‘zini boshqarish psixologiyasining bir qancha o‘ziga xos asosiy jihatlari mavjud. Jumladan:

o‘zini nazorat qilish va hissiy holatni boshqarish;

o‘zini rag‘batlantirish va intizom;

stressga chidamlilikni rivojlantirish;

jamoaviy ish va o‘zaro aloqalar;

adaptatsiya (moslashuv) jarayoni;

post-travmatik stressni (PTS) boshqarish va boshqalar.

Harbiy xizmatchilar ko‘pincha yuqori darajadagi stress, jismoniy va psixologik yuklamalar bilan yuzma-yuz keladilar. O‘zini nazorat qilish ularga tashqi chaqiruvlarga qaramay, diqqatini jamlash va qaror qabul qilish imkonini beradi. Hissiy holatni boshqarish kritik vaziyatlarda panika, xavotir va boshqa nojo‘ya reaksiyalarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Hissiyotlarni boshqarish qobiliyati nizolarni oldini olishga yordam beradi va chidamlilikni oshiradi. Bundan tashqari intizom va o‘zini rag‘batlantirish harbiy xizmatda muhim omillar hisoblanadi, chunki bu harbiy xizmatchilarning xizmat majburiyatlarini har qanday sharoitda bajarishiga ta’sir qiladi. O‘zini psixologik boshqarish o‘zini intizom bilan tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi, bu esa harbiy xizmatchilarga faqat buyruqlarni bajarish emas, balki tashabbus ko‘rsatish va jamoa manfaatlari yo‘lida harakat qilish imkonini ham beradi.

Harbiy xizmatchilar jismoniy va psixologik yuklamalarga tayyor bo‘lishlari kerak, masalan, uzoq muddatli tarang vaziyatlarga, jangovar harakatlar, yuqori xavf

sharoitida xizmat qilish yoki ekstremal iqlim sharoitlariga. Stressga chidamlilik sovuqqonlikni saqlashga va har qanday holatda mantiqiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. O‘zini boshqarishning ahamiyatiga qaramasdan, harbiy xizmatchilar yolg‘iz harakat qila olmaydilar. Hamkasblar bilan o‘zaro aloqalar, jamoada ishlash qobiliyati, kommunikatsiya va qo‘llab-quvvatlash muvaffaqiyatli xizmatning eng muhim tarkibiy qismlariga aylanishi kerak. O‘zini boshqarish psixologiyasi, shuningdek, liderlik ko‘nikmalarini va guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, jangovar harakatlarda ishtirok etgan ko‘plab harbiy xizmatchilar PTS (post-travmatik stress) bilan duch kelishadi. PTS, ayniqsa, frontdan qaytgandan keyin yoki jangovar zonalarda uzoq vaqtdan keyin harbiy xizmatchilar orasida keng tarqalgan. Jangovar harakatlarda qatnashgandan so‘ng, ko‘plab harbiy xizmatchilar bir qator psixo-emotsional qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, masalan: qo‘rqinchli xotiralar; o‘zini boshqalardan ajralgan his qilish, oila va do‘stlardan uzoqlashish; hissiyot bilan bog‘liq muammolar, masalan, asabiylashish, tajovuzkorlik, depressiya; aybdorlik yoki uyat hissi, ayniqsa xizmatchi qiyin voqealarni boshdan kechirgan bo‘lsa; diqqatni jamlash, qaror qabul qilishda qiyinchiliklar, xavotirning kuchayishi va boshqalar [1]. O‘zini boshqarish psixologiyasi mana shunday stress va psixologik jarohatlarning oqibatlarini yengish uchun strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi, bu esa xizmatdan keyin psixologik salomatlikni va hayot sifatini yaxshilashga olib keladi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning qariyb 90 foizi jang paytida qo‘rquvni aniq ifodalangan shaklda boshdan kechirishadi. Bundan tashqari, ularning 25 foizida qo‘rquv ko‘ngil aynish va qayt qilish, 20 foizida esa siydik chiqarish va ichak faoliyatini nazorat qila olmaslik bilan birga keladi. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, askarlarning taxminan 30 foizi jangdan oldin, 35 foizi jang paytida va 16 foizi jangdan keyin eng katta qo‘rquv va stressni boshdan kechirishadi [2](1-rasm).



1-rasm. Harbiy xizmatchilarda qo‘rquv holati ko‘rsatkichlari.

Olimlarning fikricha, “moslashish” ya’ni “adaptatsiya” masalasi ham harbiylar orasida ko‘p uchraydigan asosiy muammolardan biri bo‘lib, psixologiya fanining diqqatini jalb qilmoqda. Nemis tadqiqotchisi E. Dinterning aniqlashicha, jangovar harakatlarga moslashish jarayoni taxminan 15-25 kun davom etadi, shundan so‘ng harbiy xizmatchi o‘zining ma’naviy-psixologik imkoniyatlarining cho‘qqisiga chiqadi [2]. Harbiy psixologiyaga murojaat qiladigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash kerakki, harbiy xizmatchilarni moslashtirish jarayoni o‘zgargan sharoitlarda shaxsning aqliy moslashuvining barqarorlik holatiga erishishga qaratilgan [3]. Bu harbiy xizmat paytida ijtimoiy muhit sezilarli darajada o‘zgarishi bilan bog‘liq, bu esa ijtimoiy moslashishga og‘riqli, ziddiyatli xarakter beradi. Harbiy xizmatga munosabat har doim ma’naviy qadriyatlarga (Vatan oldidagi burch, mustaqillik sari qadam va boshqalar) asoslangan. Zero, uning kasbiy faoliyati darajasi va bajargan xizmat va jangovar topshiriqlar darajasi yosh harbiyning qanchalik puxta tayyorgarlik ko‘rganiga bog‘liq bo‘ladi [3].

Harbiy xizmatchilarning moslashuvi ularning faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi: kuchaygan intensivlikning ko‘plab stress omillariga ta’sir qilishi, qurol va harbiy texnikadan amaliy foydalanish, psixologik va jismoniy ortiqcha yuklarning paydo bo‘lishi, shaxslararo munosabatlardagi yuqori keskinlik. Rossiyalik psixolog N.P. Tatyanchenkoning fikriga ko‘ra, harbiy xizmat shartlariga

psixologik moslashish harbiy xizmatchining ichki resurslari va shaxsiy fazilatlariga murojaat qilish qobiliyatida, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan o‘ziga xos ichki yordamning mavjudligida namoyon bo‘ladi [4].

Agar harbiy xizmatchining tafakkuri mana shunday psixologik holatlarga to‘liq singib ketgan bo‘lsa va uning his-tuyg‘ulari xizmat davomida orttirilgan stress omillarining ta’siri bilan to‘liq aniqlansa, uning faoliyat samaradorligi pasayadi, shuning uchun harbiy xizmatchi o‘z funksional holatlaridagi xavfli o‘zgarishlarni o‘z vaqtida sezishni va ularni normal chegaralarga qaytarishni o‘rganishi kerak. Albatta, har bir harbiy xizmatchi aqlan o‘zini o‘zi boshqarishning “uzoq” usullarini ishonchli tarzda o‘zlashtirishi kerak, masalan, E. Jeykobsonga ko‘ra nerv-mushaklar bo‘shashishi, I. Shultsga ko‘ra autotreninglar. Bunday usullar harbiy xizmatchilar tomonidan jangovar harakatlar yoki xizmat faoliyati orasidagi tanaffuslarda o‘z holatlarini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin [5]. Biroq, ba’zan harbiy faoliyatlar ma’lum chegaralarda funksional holatlarni optimallashtirishga qodir bo‘lgan aqlan o‘zini o‘zi boshqarishning “qisqa” yoki ekspress usullarini ham talab qiladi.

Bugungi kunda psixologlar tomonidan inson o‘zining ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatishning asosiy yo‘llari taklif qilinmoqda. Bunday yo‘llarga quyidagilar kiradi: nafasni boshqarish, suyak mushaklarining tonusini boshqarish, resursli holatlarni va muvaffaqiyatli harakatlarni vizualizatsiya qilish, istalgan holatlarni va harakatlarni verbalizatsiya qilish, resursli holatlarni mustahkamlash kabilar [6]. Harbiy xizmat davomida ushbu usullarni takroran bajarish va ularning samaradorligiga ishonish harbiy xizmatchini turli vaziyatlarda o‘zida uchraydigan salbiy-hissiy holatlardan xalos bo‘lishida yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, harbiy xizmatchilar ko‘pincha yuqori darajadagi psixologik va jismoniy stresslarga duch keladilar, bu esa o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi. Hissiy holatni boshqarish va stressni yengish, shuningdek, psixologik jarohatlar, jumladan post-travmatik stressni boshqarish, harbiy xizmatchilarning psixologik salomatligini saqlash va xizmatdan keyingi hayot sifatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. O‘zini boshqarish harbiy xizmatchilarga

nafaqat xizmat vaqtida, balki ular jangovar harakatlardan qaytganidan keyin ham psixologik muammolarni yengish va sifatli hayot kechirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati:

1. Караяни А. Г. Военная психология: учебник и практикум для вузов. М: 2016. 280 с.

2. Статья: Военная психология https://ru.wikipedia.org

3. Назаров Г.Ю. Статья: Особенности саморегуляции и социально-психологическая адаптация военнослужащих в поликультурном воинском коллективе // Электронный научный журнал «Пензенский психологический вестник» 2020.

4. Татьянченко Н.П. Адаптация военнослужащих по призыву к условиям службы // Вестник Московского университета МВД России. 2012. 170-171 с.

5. Караяни А.Г. Утлик Э.П. Статья: Саморегуляция функциональных состояний в боевой обстановке // Психопедагогика в правоохранительных органах, 2018.

6. Караяни А. Г. Приемы психической саморегуляции // Практическое пособие для телохранителей. М: 1992. 30 с.

TA’LIM JARAYONIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Podpolkovnik Bo‘tayev Ulug‘bek Abdusattorovich,

O‘R MG IO‘M Ijtimoiy-gumanitar fanlar sikli katta o‘qituvchisi – psixolog.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim sohasida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro hamkorlik masalalari, uning psixologik xususiyatlari hamda mavjud muammolar va ularning yechimi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, o‘quvchi, talaba, bilim, auditoriya, mashg‘ulot, hamkorlik, faoliyat, usul, munosabat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы взаимодействия учителя и ученика в сфере образования, их психологические особенности, а также существующие проблемы и их решения.

Ключевые слова: учитель, ученик, студент, знание, аудитория, занятие, сотрудничество, деятельность, метод, отношение.

Annotation. This article discusses the issues of collaboration between teachers and students in the field of education, its psychological characteristics, as well as existing problems and their solutions.

Keywords: teacher, student, learner, knowledge, classroom, lesson, collaboration, activity, method, relationship.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyev o‘qituvchi va murabbiylarga yo‘llagan bayram tabrigida **“...donishmandlar aytganlaridek, mamlakat avvalo, yerdan rizq-nasiba undiradigan dehqonlar, xalqni yovdan, turli yovuzliklardan himoya qiladigan askarlar, yosh avlodga ta’lim va tarbiya beradigan fidoyi muallimlarning sa’y-harakati bilan obod va farovon bo‘ladi”** deb ta’kidlab o‘tgan [1. 1-b].

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ustoz-murabbiylarimizning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar buning yaqqol isbotidir.

Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarini isloh qilayotganda ularning boshqa davlatlardagi oliy o‘quv yurtlari bilan uzviy aloqasini ta’minlash zarur. O‘z pedagoglarimiz bilan cheklanib qolmasdan, chetdan malakali pedagoglarni ta’lim sohasiga jalb qilish zarur va bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy bilimlarning ilg‘or tajribalarini yosh avlodga o‘rgatish darkor. Mazkur masalalar Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan dastur va yo‘l xaritalariga asosan bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

Shuningdek, yurtimiz yigit-qizlari, ya’ni talabalarimiz, magistrantlarimiz va yosh ilmiy tadqiqotchilarimiz taraqqiy topgan davlatlarning o‘quv markazlarga borib,

yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganib kelayotgani bugun o‘z samarasini bermoqda va uning salmog‘i yildan yilga ortib bormoqda.

Talaba bilish jarayonida mustaqil ishlashning ahamiyati, kasb va darslik ustida ishlash, mustaqil ishlashning asosiy ko‘rinishlari, mustaqil tarzda konspekt tuzish, referat, doklad, kurs ishlari tayyorlash, mustaqil ishlashda o‘zaro fikr almashish, munozara, debat usullari va treninglar o‘tkazib borish, talabalarga bilim berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’limning ham maqsadi ana shunday usullarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishni taqozo etadi va bunday usullardan hozirgi kunda barcha uzluksiz ta’lim tizimida pedagoglarimiz talaba va o‘quvchi hamkorligida amalga oshirishlari bugungi kun talabidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda o‘rta ta’lim maktablarining faoliyatini takomillashtirish yo‘lida pedagogik oliy o‘quv yurtlari, akademik litsey, kasb hunar kollejlari, maktablarga malakali kadrlarni milliy istiqlol g‘oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mulohaza yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni yanada yo‘lga qo‘yish kerak.

Hamkorlik pedagogikasi turli mamlakatlarda ilg‘or pedagogik-novatorlar ishtirokida rivojlandi. XX asrning 70 yillarida AQShda R.Jonson, Sh.Sharon; Italiyada – M.Montessori; Buyuk Britaniyada – R.Gane, Dj.Brigs, Levi Stross; XX asrning 80-yillarida Rossiyada S.L.Soloveychik, V.F.Amonashvili, N.A.Shalva, V.Shatalov, S.N.Lisenkova; XX asrning 90 yillarida O‘zbekistonda J.Yo‘ldoshev, V.Karimova, N.Sayidahmedov, R.Ishmuhamedovlarning fikrlari shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchining integral fanlar asoslari va o‘quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi. O‘qituvchi va o‘quvchilarning jonli muloqoti ta’lim muassasalarida pedagogik sharti va mazmuni sifatida namoyon bo‘ladi [2. 53-54-b].

Hamkorlikdagi o‘quv faoliyatining maqsadi o‘zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmni yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli natijasida talabalar mustaqil ishlay oladi, ilgari surilgan yangi g‘oyalar va o‘zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog‘liq maqsadlar va sheriklikda shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o‘qituvchi bilan talabaning birgalikdagi xatti-harakatlarining sistemasini tushunish kerak. Bunday xatti-harakatlar o‘qituvchining talabaga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi:

- talabalarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi;

- o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi.

Psixologiya fanida hamkorlikning sakkizta shakli mavjud, ular quyidagilardan iboratdir:

1) faoliyatga kirish;

2) mustaqil harakatlar;

3) o‘qituvchi harakatni boshlab beradi va unga talabani jalb yetadi;

4) taqlid harakatlari;

5) madad harakatlari (o‘qituvchi talab orqali maqsadni va o‘ziga o‘qishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi);

6) o‘zini o‘zi boshqarish harakatlari;

7) o‘zini o‘zi boshqaruvchi harakatlar;

8) o‘zini uyushtiruvchi harakatlar.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, har qanday kasb egasining kishilar bilan odatiy o‘zaro hamkorlik tizimidagi muloqoti shunchaki o‘z-o‘zicha sodir bo‘ladi [3. 94-b].

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi xatti-harakatlar shaklida namoyon bo‘lib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri qo‘yiladigan ushbu almashuvni o‘z ichiga oladi: o‘qituvchi harakat boshlaydi, talaba uni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o‘rganish va tajribalarda sinab ko‘rishning asosiy maqsadi talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda ta’lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyat bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir. V.Ya.Lyaudis va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi mahsuldor faoliyati o‘rganilgan [4. 51-52-b].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan tadqiqotlarda hamkorlik faoliyati uchta o‘zaro bog‘liq fazadan iborat ekanligi ko‘rsatilgan, jumladan birinchi “faza - faoliyatni egallash” deb nomlangan bo‘lib, u o‘z ishiga ushbu hamkorlik shakllarini qamrab olgandir:

1) o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasidagi birgalikda amalga oshadigan harakatlarni turkumlarga ajratuvchi tizim;

2) talabalarning o‘qituvchi faoliyatiga taqlid qilishga asoslangan harakatlari yig‘indisi;

3) talabalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan harakatlar majmuasi hamkorlik faoliyatining ikkinchi fazasi - talabalarning o‘qituvchi faoliyatiga muvofiqlashtirilgan hamkorlik harakatlari majmuasi;

4) talabaning o‘z - o‘zini boshqaruvchi harakatlari tizimi;

5) talabalarning o‘z - o‘zini qo‘zg‘atuvchi xatti-harakatlari va boshqalar hamkorlik faoliyatining uchinchi fazasi - hamkorlik faoliyatidan yangi bir taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilish, takomillashishda, shuningdek, o‘qituvchi bilan talaba hamkorligi sheriklik darajasiga o‘sib o‘tishda o‘z ifodasini topadi.

Balki talaba o‘z faoliyatini mustaqil, o‘qituvchining yordamisiz, uning nazorat va ko‘rsatmalarisiz tashkil etishga, o‘qish mahoratini egallashdan boshlashi kerakdir.

Haqiqatdan ham ko‘pchilik hollarda talabalar o‘zlarining mustaqil bilim olish faoliyatlarini noto‘g‘ri tashkil qiladilar. Bu faoliyat ko‘p mehnatni talab qiladi, ular esa imkoni boricha tezroq va iloji boricha oson yo‘l bilan bilim egallash asosida ish olib borib, kam mehnat sarflashga harakat qiladilar.

Talaba shunday xayol bilan ish tutadi, semestr davomida ko‘p ishlarni bajarishga ulgurish kerak, chuqur o‘ylab o‘tirishga va uzoq izlashga iloj yo‘q (vaqt yo‘q, o‘zi hammasini hal etishi ham qiyin).

Shuning uchun ma’ruza konspektlari va darsliklar bilan cheklanadilar. Bular esa imtihonda tekshirish uchun yetarli emas.

Bu holat o‘quv yurti sharoitlarida mustaqil bilim olishni bilmasligi sababli sodir bo‘ladi, umuman talabalar bunda hech narsa o‘rganmaydi. Buning natijasida talaba mustaqil bilim olishga bilimlar olishning asosiy usuli kabi munosabatda bo‘lmaydi, balki asosiy auditoriya mashg‘ulotlariga qandaydir qo‘shimcha deb hisoblaydilar.

Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarimiz bilan uzviy hamkorlik o‘rnatish, ularning olayotgan bilimlarini doimiy ravishda nazorat qilish va ularga yaqindan yordam berish, kerak bo‘lsa ular bilan ustoz-shogird an’analarini davom ettirgan holda amaliy ko‘mak berish bugungi kunda biz qurmoqchi bo‘lgan Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Шавкат Мирзиёев. Президент ўқитувчи ва мураббийларга табрик йўллади. https://daryo.uz/k/2024/09/30/prezident-oqituvchi-va-murabbiylarga-tabrik-yolladi .

2. Абдуллаева Ш., Чориев Р. Ҳамкорлик педагогикаси. - Т.: «Kamron Press», 2016.

3. Маъмуров Б.Б. Ўқувчи шахсига йўналтирилган ўқув-билув жараёнини ташкил этишнинг педагогик шарт-шароитлари. Монография. - Т.: «Ниҳол», 2014.

4. Электронная библиотека МГППУ: В.Я.Ляудис. Структура продуктивного учебного взаимодействия. https://psychlib.ru/mgppu/hre/hre-044.htm#$p44.

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARDA MILLIY XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Jumanova Nasiba Sherbayevna

JDPU Umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Insonning psixik rivojlanishida, uning ijtimoiylashuvida maktabgacha yosh davri muhim o'rin tutadi. Sababi bola nutqining rivojlanishi, ijtimoiy normalarning egallanishi, rolli o'yinlarda aks etgan kattalarga taqliq shu davlarga xos xususiyatlar hisoblanib, bu orqali bola jamiyatga ijtimoiylashib boradi. Qator olimlarning ta'kidlashicha, bolalarning milliy an'analar, marosimlar, rasm-rusumlar, bayramlarda bevosita ishtirok etishi ularda ma'naviy-axloqiy sifatlar, milliy xarakterning shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan ularda milliy xususiyatlarni rivojlantirishda milliy an'analar aks etgan vaziyatlarni imitatsiya (ko'rsatib berish) qildirish samarali natija berishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy xususiyatlarni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan korreksion ishlarda quyidagi holatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq sanaladi:

- korreksion ishlar mobaynida boladan o'z-o'zini yuqori darajada ixtiyoriy boshqarish talab etilmasligi kerak;

- maktabgacha yosh davrida ixtiyoriy diqqatning yetarli rivojlanmaganligini inobatga olib, shuningdek bolalardagi irodaviy va hissiy zo'riqishni oldini olish maqsadida korreksion tadbirlar ularda o'yin tariqasida o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Quyida maktabgacha yosh davrida milliy xususiyatlarni rivojlanishga yordam beruvchi o'yinlarni keltirib o'tamiz.

1-mashg'ulot. "Syyujetli rasm" o'yini *O'yin maqsadi:* Bolalarda ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish, ularda axloqiy me'yorlar haqida tushuncha hosil qilish asosida milliy xususiyatlar bilan tanishtirish. Bolalarga ijobiy va salbiy holatlar tasvirlangan bir necha kartochkalar ko'rsatiladi. Masalan, avtobusda mo'ysafidga joy berayotgan bola, kattalarga salom bermay, bepisand o'tib ketayotgan

qiz, onasiga ko‘maklashib, hovli supurayotgan farzand, ko‘chada qo‘lidagi qog‘ozni yerga uloqtirib ketayotgan bola va hokazo. Bu kabi rasmlar bola bilan tahlil qilinib, qaysi hatti-harakat qanday baholanishi so‘raladi. “O‘rdak-g‘oz” o‘yini *O’yin maqsadi*: Bolalarda shaxslararo munosabatlar jarayonidagi salomlashish odobi, so’rashish ko’nikmalarini shakllantirish. O‘yin ishtirokchilari doira bo‘lib turadilar. Boshlovchi doira ichida turadi va doira bo‘ylab aylanib, qo’li bilan ko‘rsatib “O‘rdak, o‘rdak, o‘rdak, … g‘oz” deb to‘xtaydi. “G‘oz” deganda kimni ko‘rsatgan bo‘lsa, o‘sha ishtirokchi aylanadan chiqib, boshlovchiga qarama-qarshi tomonga yugurishi kerak. Ularning vazifalari – bo‘sh joyni birinchi bo‘lib egallashdan iborat. Ammo ahamiyatli tomoni shundaki, boshlovchi va “g‘oz” ishtirokchi bir-biri bilan to‘qnash kelganlarida, bir-birlariga tabassum qilgan holda qo‘l berishlari va “Xayrli tong, xayrli kun, xayrli kech” deb ko‘rishishlari, shundan so‘nggina yana bo‘sh o‘rin uchun harakat qilishlari lozim bo‘ladi. Boshlovchi barcha qatnashchilarning “g‘oz” vazifasini bajarishlarini va ko‘rishish jarayonida so‘zlarni aniq hamda baland ovozda aytishlarini nazorat qilishi lozim. “So‘zlarni tasvirla” mashqi. *O’yin maqsadi:* Ushbu o‘yin bolalarda tafakkur, xayol jarayonlarini rivojlanishiga yordam berish bilan birga ularni milliy narsa-buyumlar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bolalarga do‘ppi, chopon, childirma, karnay, beshik kabi milliy narsa-buyumlar tasviri ko‘rsatiladi hamda ovoz chiqarmasdan imo-ishoralar orqali uni boshqa ishtirokchilarga tasvirlab berish aytiladi. Qolgan ishtirokchilar esa uni qanday predmet ekanligini topishlari talab etiladi. O‘yin yakunida har bir predmet qanday vazifani bajarishi bolalar bilan tahlil qilinadi.

2-mashg’ulot Milliylik tilda aks etar ekan, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash uchun eng avvalo uni o’z ona tilida erkin, tiniq va ravon so’zlashga o’rgatish lozim. Bolani dastavval o’z ona tilining go’zal va boy imkoniyatlari bilan tanishtirish, uni o’z ona tilida fikrini erkin, go’zal va ravon bayon eta oladigan darajaga yetkazish, shundan so’nggina xorijiy tillarni o’rgatishga kirishish kerak. Quyida biz maktabgacha yosh davrida bolalarning nutq xususiyatlarini, so’z boyligini oshirishga yordam beruvchi mashqlarni keltirib o’tamiz. “Ertak aytamiz” mashqi. Mashq maqsadi: o’zbek xalq ertagini birgalikda tahlil qilish orqali bolalarda nutq

ko’nikmalarini shakllantirish. Mashqning borishi: Bolaga tanish bo’lgan ertak, masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagi voqealari tasvirlangan syujetli rasmlar ko’rsatiladi. Bolalardan rasm asosida ertakni so’zlab berish so’raladi. Ertakdagi ijobiy va salbiy qahramonlar bolalar bilan tahlil qilinadi. “Rasmlardan kasblarni top” mashqi. Mashq maqsadi: Bolalarning nutq xususiyatlarini o’stirish, so’z boyliklarini oshirish, milliy tilda so’zlashish ko’nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Mashg’ulot avvalida turli kasblar tasvirlangan kartochkalar ilib qo’yiladi. Ko’rsatma: bolajonlar, sizlarga hozir kasblar nomini aytib o’taman. Sizlar esa menga o’sha kasb tasvirlangan rasmni ko’rsatasiz. Muallim, farrosh, qandolatchi, tarbiyachi va hokazo. Har bir kasb egalari nima ish bilan shug’ullanishi birgalikda tahlil qilinadi. Odatda sozlashuv jarayonida kam qo’llaniladigan muallim, qandolatchi kabi so’zlarning mashg’ulot mobaynida ishlatilishi bolalarga nutqda so’zlarning sinonimlaridan ham erkin foydalana olishlariga, so’z boyligining oshishiga imkon beradi. “Muallim” so’zini tilga olganda, bu so’z “o’qituvchi” so’ziga ma’nodosh ekanligini bolalarga tushuntirib o’tish lozim. “Rasmga qarab hikoya tuzing” mashqi. Mashq maqsadi: Bu metodikaning maqsadi bolalarning so’z boyligini o’rganishdan iborat. Ammo ushbu metodikani nafaqat psixodiagnostik, balki, psixokerreksion maqsadlarda ham qo’llash mumkin. 3-4 yoshli bolalarga shu yoshga xos rasmlar ko’rsatiladi. 4-5 yoshli bolalarga esa undan biroz murakkabroq rasm ko’rsatiladi. Agar bola tushunmasa yoki diqqati chalg’ib ketsa, psixolog yoki tarbiyachi unga alohida tushuntirish berib, diqqatini jalb etadi. Bolalar rasmni tomosha qilishni tugatganlaridan so’ng ko’rgan rasmlari haqida gapirib beradilar. Har bir rasm haqida o’rtacha 2 дақиқа davomida hikoya tuzadilar. Bunda bolaning nutqida qayd etilgan ot, fe’l, sifatniing oddiy shakli, sifatning qiyosiy darajasi, sifatning orttirma darajasi, ravish, olmosh, bog’lovchilar, old qo’shimchalar, qo’shma gap va uning tuzilishiga e’tibor qaratiladi. Bolaning har bir hikoyasidan so’ng psixolog yoki tarbiyachi adabiy so’zlardan foydalangan holda hikoyaga qo’shimchalar kiritib o’tishi lozim. 3-mashg’ulot. Marosim va an’analarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu ularda xalq nazokati, ruhiyatining aks etishidir. Bolalarda milliy xususiyatlarni rivojlantirishda milliy an’analar aks etgan vaziyatlarni sahnalashtirish ham samarali natija berishi mumkin. Bolalarga

milliy qadriyatlarimizga mos hatti-harakatlarni rivojlantirishda quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin: “Erta tong” mashqi. Mashqning maqsadi: Ma’lum hatti-harakatlarni imitatsiya qildirish orqali bolalarni urf-odat va an’analar bilan tanishtirish, shuningdek ularda milliy his-tuyg’ularni rivojlantirish. Mashqni boshlashdan avval boshlovchi bolalarga xalqimizga xos bo’lgan tozalik, ozodalik, bag’rikenglik xususiyatlari haqida bayon etadi. Ota-bobolarimiz erta tongdanoq xo’roz qichqirishi bilan uyg’onganliklarini, barvaqt uyg’onish ish unumini oshirishi va baraka kelishining sababi deb qarashganini so’zlab beradi. Kelin va qizlarning birinchi ishni ko’cha va hovli supurishdan boshlashlari faqat bizning xalqimizga xos bo’lgan odatlardan biri ekanligini, bu odat zamirida tozalik va ozodalikka intilish, boshqalarga hurmat va ehtirom ko’rsatish, bu orqali insonlarning bahru dili ochilishiga sabab bo’lishiga intilish g’oyasi yotishi bolalarga tushuntiriladi. So’ng bolalarning biri xo’roz, qolganlari uyqudagi bolalar rolini ko’rsatadilar. Tarbiyachi yoki psixolog ko’rsatmasiga binoan barcha bolalar qo’llarini boshlari tagiga qo’yib, uxlayotgandek o’tiradilar. Xo’roz rolini o’ynayotgan bola xo’rozdek qichqirishi bilan ko’zlarini ochib uyg’onishadi. Yuz-qo’llarini yuvish hatti-harakatlarini bajarishadi. Bir-birlari bilan salomlashib, qizlar hovliga suv sepib supurayotganlarini imitatsiya qiladilar. Qiz bolalar vazifani bajarib bo’lgach, o’g’il bolalarga ketmon chopish holatini ko’rsatib berish vazifasi beriladi. Bolalar bu vazifalarni bajarishga qiynalishsa, boshlovchi avval o’zi ko’rsatib berishi mumkin. Mashq yakunida ota-bobolarimiz tomonidan erta tongdanoq yumushlarni bajarishga kirishish odati ham jismoniy quvvatni oshirsa, ham ko’tarinki kayfiyat baxsh etganini bolalarga so’zlab beriladi.

Bolalarga birorta syujetli rasm ko’rsatilib, voqeya ular bilan tahlil qilinadi. So’ng rasmlar tartibi chalkashtirib yuboriladi. Bolalardan hikoya ketma-ketligiga muvofiq ravishda rasmlarni to’g’ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni keltirib o‘tish mumkin: 1) maktabgacha yosh davrida o‘yin faoliyati o‘z mavzusining haddan tashqari sermazmunligi va boyligi bilan ajralib turadi; 2) o‘rta va katta maktabgacha

yoshdagi bolalar o‘yinlari, o‘yinchoqlari, yasagan buyumlari milliy urf-odatlar, an’analarga asoslanganligi ularda milliy tuyg‘uning aks etishiga xizmat qiladi; 3) o‘yin jarayonida bolada vatanparvarlik tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi; 4) bolalar o‘yinlari ularning bilish faoliyati (diqqat konsentratsiyasi, xayol jarayonlari, xotira tasavvurlari) , individual psixologik sifatlari(irodaviy sifatlar, dunyoqarash, qiziqish va boshqalar), ijtimoiy psixologik (hamkorlikdagi faoliyatga qodirlik, tashkilotchilik va muloqotchanlik, ijtimoiy rol talabiga bo‘ysunish kabi) xususiyatlari rivojlanishiga yordam berish bilan birga ularda milliy qadriyatlarning o’zlashtirilishiga sabab bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy ahloqiy tarbiyasi.-T.: TDPU.1999.

2. Sherboevna, N. J. (2020). THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE CULTIVATION OF CHILDREN'S SPEECH IN PRESCHOOL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

HISSIY INTELLEKT VA UNING AHAMIYATI

Safarova Umida Xayrulla qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU Amaliy psixologiya yo’nalishi 2-kurs talabasi

Hissiy intellekt (EI yoki EQ) bugungi kunda inson muvaffaqiyati va farovonligi uchun muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. IQ darajasi yuqori bo‘lishi insonni to‘liq muvaffaqiyatli qila olmaydi; yaxshi munosabatlar o‘rnatish, murakkab hayotiy vaziyatlarni boshqarish va ruhiy salomatlikni saqlash uchun hissiy intellekt katta ahamiyatga ega. Hissiy intellekt insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqalar his-tuyg‘ularini tushunish, boshqarish va samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha dastlab 1990-yillarda psixologlar Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan kiritilgan bo‘lsa-da, bu sohaning rivojlanishiga Daniel Goleman katta hissa qo‘shdi. U hissiy intellektni beshta asosiy elementga ajratgan: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar. O‘zini

anglash insonning o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri aniqlash va ularning xatti-harakatlarga qanday ta’sir qilayotganini tushunish qobiliyatidir. Bu qobiliyat o‘z-o‘zini anglash va his-tuyg‘ularni ongli ravishda boshqarishga yordam beradi. O‘zini boshqarish esa stressni nazorat qilish, asabiylashish yoki salbiy emotsiyalarga berilmaslikni anglatadi. Bu, ayniqsa, muhim qarorlar qabul qilishda asqotadi. Motivatsiya esa hissiy intellektning ichki mexanizmi bo‘lib, odamga o‘z maqsadlariga erishishda bardavom bo‘lish imkonini beradi. Empatiya boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini anglash va ularning ehtiyojlarini tushunish qobiliyati bo‘lib, bu yaxshi insoniy munosabatlarning asosi hisoblanadi. Ijtimoiy ko‘nikmalar esa samarali muloqot qilish, jamoada ishlash va boshqalar bilan muammosiz munosabatlar o‘rnatishni o‘z ichiga oladi.

Hissiy intellektning hayotdagi ahamiyati beqiyosdir. Birinchidan, bu qobiliyat insonning ruhiy salomatligini saqlashga yordam beradi, chunki his-tuyg‘ularni boshqarish stressni kamaytiradi va hissiy barqarorlikni oshiradi. Ikkinchidan, hissiy intellekt ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Masalan, empatiya va samarali muloqot ko‘nikmalari insonning boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlarini iliqroq va ishonchliroq qiladi. Uchinchidan, bu qobiliyat professional muvaffaqiyatga ham katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki yetakchilik, jamoada ishlash va konfliktlarni boshqarish hissiy intellektsiz imkonsizdir. Hissiy intellektni rivojlantirish mumkin va buning uchun maxsus mashqlar mavjud. Masalan, meditatsiya va refleksiya o‘zini anglashga yordam beradi, kundalik his-tuyg‘ularni yozib borish esa o‘zini boshqarishni yaxshilaydi. Empatiya rivojlantirish uchun boshqalarning his-tuyg‘ulariga e’tiborli bo‘lish va ular bilan ochiq muloqot qilish kerak. Ijtimoiy ko‘nikmalarni takomillashtirish uchun esa faol tinglash va samarali muloqot qilish qoidalarini o‘rganish tavsiya etiladi.

Hissiy intellekt (EI yoki EQ) insonning his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatidir. Bu qobiliyat nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki jamiyat bilan muvofiq munosabatlar o‘rnatishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda hissiy intellekt insonning turli hayotiy jabhalardagi

muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida IQ darajasidan kam ahamiyatga ega emas. Hissiy intellekt inson hayotining barcha sohalarida muhim o‘rin tutadi. Birinchidan, bu qobiliyat ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi. His-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan odam stressli vaziyatlarda o‘zini tinchlantira oladi, muammolarga ijobiy yondashadi va ruhiy barqarorlikni saqlab qoladi. Shuningdek, hissiy intellekti rivojlangan odam o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri tushunib, ulardan konstruktiv tarzda foydalanishi tufayli depressiya va xavotir kabi salbiy hissiy holatlarga kamroq beriladi. Ikkinchidan, hissiy intellekt insonning boshqalar bilan munosabatlarini mustahkamlaydi. Empatiya – hissiy intellektning asosiy komponentlaridan biri – boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini anglash va ularga mos ravishda javob qaytarish qobiliyatidir. Bu esa insonni mehribon, tushunadigan va samarali muloqot qiladigan shaxsga aylantiradi. Shaxsiy hayotda, oila a’zolari yoki do‘stlar bilan munosabatlarda, bu ko‘nikmalar iliq va mustahkam aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Uchinchidan, hissiy intellekt professional sohada ham katta ahamiyatga ega. Bugungi mehnat bozorida texnik bilimlardan tashqari, jamoada ishlash qobiliyati, konfliktlarni boshqarish va liderlik fazilatlari yuqori baholanadi. Hissiy intellekt aynan shu ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Yetakchi yoki jamoa a’zosi sifatida his-tuyg‘ularni boshqarish va boshqa odamlarni tushunish muvaffaqiyatning muhim kalitidir. Hissiy intellektning yana bir muhim jihati – qaror qabul qilish jarayonidagi o‘rni. O‘z his-tuyg‘ularini anglay olgan odam muhim qarorlarni xotirjam va aniq fikr yuritib qabul qiladi. Bu esa hayotning turli jabhalarida muvaffaqiyatli bo‘lish imkonini beradi.

Hissiy intellektni rivojlantirish uchun bir nechta samarali usullar mavjud. O‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish uchun muntazam ravishda o‘z hisobotini yuritish, ya’ni kunlik his-tuyg‘ularni yozib borish foydali. Meditatsiya va mindfulness mashqlari esa stressni kamaytirish va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Empatiyani rivojlantirish uchun esa boshqalarni tinglashga ko‘proq vaqt ajratish, ularning his-tuyg‘ularini tushunishga harakat qilish muhim. Xulosa qilib aytganda, hissiy intellekt inson hayotining har bir qismida –

ruhiy salomatlik, ijtimoiy munosabatlar va professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu qobiliyatni rivojlantirish insonni hayotda yanada baxtli, muvaffaqiyatli va muvozanatli shaxsga aylantiradi. Shu sababli, hissiy intellektni rivojlantirish har bir insonning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. T. Turaeva - "Hissiy intellekt va uning ta'limdagi ahamiyati".- T.: 2008 yil

2. G. T. Mirzaeva - "Hissiy intellektning shaxsiy rivojlanishga ta'siri".-T.: 2011 yil

3. B. X. Xo'jaeva - "Psixologiyada hissiy intellekt: nazariya va amaliyot".-T.: 2010 yil

4. M. M. Asqarov - "Hissiy intellekt va ishchi guruhlar: samarali kommunikatsiya".-T.: 2012 yil

5. N. A. Tashxodjaeva - "Hissiy intellekt va stressni boshqarish".-T.: 2009 yil

6. Леонтьев А.Н (Москва-2004) "ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА"

7. Васильев В.И (Москва-2003) "ПСИХОЛОГИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА"

8. Пискарев С.И (Москва-2002) "ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ ЛИЧНОСТЬ"

9. Mamatov M.M "Этнопсихология"-T.: 1999 yil

JAMOAT XAVSIZLIGINI TA’MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILARNING AHLOQIY-RUHIY O’ZINI-O’ZI BOSHQARISH MUAMMOLARI.

leytenant R.B.Ne’matov

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Demokratik jamiyatda inson birinchi darajali masala ekanligi e’tiborga olinib, Konstitustiyada inson huquqlari, erkinliklari va burchlari masalasiga alohida ahamiyat beriladi. Konstitustiya O’zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo’lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi hamda ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida teng ekanligiga alohida urg’u beriladi. Bu qoida «Inson huquqlari to’g’risida»gi xalqaro huquqiy hujjatlardagi g’oya va me’yorlarni o’zida mujassamlashtirgan.

Konstitustiyaga muvofiq respublikamiz hududida ham, uning tashqarisida ham O’zbekiston o’z fuqarolarining huquqini himoya qiladi va ularga homiylik ko’rsatadi. Har kimga so’z va e’tiqod erkinligi berilgan. Har bir inson fikr yuritish va

uni ifodalash huquqiga ega. Bu faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Mamlakatimizda diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan, davlat diniy tashkilotlar faoliyatiga aralashmaydi. Davlat barcha dinlar uchun teng ravishda rivojlanish, fuqarolarga dinga e'tiqod qilish uchun imkoniyat yaratib bergan.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarga ega bo'lib, ular jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillari orqali ishtirok etadilar. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli, meros huquqi Qonun bilan kafolatlanadi. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, bilim olish, tibbiy xizmatlardan foydalanish, sud orqali o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga murojaat qilish huquqiga egadir.

Konstitustiyada fuqarolarning burchlari ham belgilab berilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi konstitustiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilar huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasining 48-moddasi fuqarolarni «Konstitustiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur» ekanligini ta'kidlaydi.

Harbiy shon-sharaf, sha'n darajasi jangchining o'ziga, jamiyatga va davlatga hamda shu bilan bir vaqtda, unga nisbatan odamlarning, jamiyatning ko'rsatgan xizmatlariga loyiq ravishdagi munosabatlarini ochib beradi. Mamlakatimizda har qanday mehnat hurmatga sazovor. Ammo shunday bir mehnat borki, u xalq tomonidan murakkabligi va ijtimoiy mas'uliyati jihatidan juda e'zozlanadi. Bu - harbiylik mehnati.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, *«Harbiy xizmat kishidan boshqa soha mutaxassislariga nisbatan ko'proq mardlik, matonat va fidoyilik fazilatlarini, o'z Vatani oldidagi burchi va qasamyodiga sodiqlikni talab etadi. U, shuningdek, doimiy tayyorgarlikni, o'z jonini ham ayamasdan har daqiqada Vatan himoyasiga tayyor bo'lish hamda uni mardlarcha, mohirona himoya qilishni talab qiladi. Bizning shonli askarlarimiz mamlakatimiz xavfsizligi va xalqimizning tinch-osoyishta hayotini ta'minlamoqdalar. Shuning uchun ham Vatan himoyachisi bo'lish — katta shon-sharafdir».*

Qism va bo'linmalarda asosiy qoidalar va tartibni tashkil qilish Umumharbiy nizomlar bilan qat'iy belgilanadi. Qurolli Kuchlar Ichki xizmat nizomi harbiy xizmatchiga o'z davlati Konstitustiyasiga va qonunlariga katiy rioya qilish, Umumharbiy nizomlar talablarini bajarish vazifasini yuklaydi. Umumharbiy nizomlar, shuningdeq harbiy burchni bajarishda rostgo'y, intizomli, mard va jasur bo'lish, oqilona tashabbuskorlikni namoyon etish, komandir (boshliq)larga so'zsiz

buysunish va ularni jangda himoya qilish, harbiy qism Jangovar Bayrog'ini avaylab-asrashni talab qiladi.

Qurolli Kuchlar Umumharbiy nizomlarida bayon etilgan ushbu va boshqa vazifalar, talablar shaxsiy tarkib faoliyatining huquqiy asosini yaratadi, harbiy xizmatchilar harakati, shuningdek, komandir qarorlarining huquqiy me'yorlarini ta'minlab beradi.

Komandirning qarori va buyruqlarida jangchilarning kundalik amaliy faoliyatidan ko'zlangan maqsad, ularga erishish yo'llari va usullari, ichki tartib, kun tartibi, moddiy va texnik ta'minot, qo'shin xizmatini tashkil etish va o'tash tartibi, shaxsiy tarkib hayoti hamda faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalar belgilanadi.

Buyruq - bu buysunuvchi uchun qonun. U so'zsiz, aniq va belgilangan muddatda bajarilishi kerak, deb ta'kidlanadi Intizom nizomida. Buyruqning bajarilmasligi, tinchlik vaqtida ham, urush vaqtida ham eng og'ir harbiy jinoyat sifatida baholanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoev rahbar siyosiy etukligi, yuksak axloqiyligi, munosibligi, tashabbuskor, ijodkor va yangilikka intiluvchanligi bilan ajralib turishi kerak, deb bir necha bor bejiz ta'kidlamagan. Bularning barchasi Qurolli Kuchlarimiz ofisterlariga ham bevosita taalluqlidir. Hayot, harbiy xizmat, mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatning xarakteri harbiy kadrlarimizdan g'oyaviy toblanganlik va siyosiy etuklik, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat, yuksak kasbiy mahorat, intizomlilik va ijrochilik, jangovar texnika va qurol-aslahani mukammal bilish, murakkab sharoitlarda qism va bo'linmalarni boshqara olish, irodalilik va tashkilotchilik qobiliyati, shaxsiy tarkib bilan ishlay olish, respublika rahbariyati, Mudofaa vazirligi qo'ygan har qanday vazifani bajarishga shaylik, xalqi, Vatani va Prezidentiga, Harbiy qasamyodi, harbiy burchiga sadoqatni talab etadi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi, mehnatning bir turi bilan band bo'lgan kishilar guruhlarining kasb-hunar jihatidan ajralib chiqish va tashkil etish usullariga qarab, ularda muayyan turdagi harakatlar va ruhiy ko'nikmalar vujudga keladi. Axloqni bir kasb-hunarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin: o'qituvchilik ixtisosiga qarab — pedagog axloqi; tibbiyot ixtisosiga qarab — shifokor axloqi; huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab — yurist axloqi; Qurolli Kuchlar ixtisosiga qarab — harbiy axloq va boshqalar.

Harbiy xizmatchilar axloqi — vatanparvarliq mardliq eng zamonaviy jang qurollari va vositalarini bilish, har qanday sharoitda qo'llay olish, jangovar o'rtoqlik qoidalariga sodiq bo'lib, jang maydonlarini tashlab ketmasliq Harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so'nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyati bilan ajralib turadi.

Harbiy xizmatchilarning axloqiy qoidalari Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlarda o'z ifodasini topgan. Harbiy xizmatchilar axloqining jamiyat rivojida tutgan o'rni mazkur mamlakat aholisining tinch-totuv yashashlari uchun har tomonlama sharoit yaratib berish, ya'ni ularni tashqi xavf-xatar - dushman tajovuzidan himoya qilish bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar axloqi murakkab tuzilishga ega bo'lib, axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlardan tashkil topgan uch qismdan iborat.

Harbiy xizmatchilarning axloqiy ongi - xizmat jamoalarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, g'oya, qarash, ishonch, tuyg'u kabi hissiyotlar tizimidan iborat bo'lib, bu ularning jamiyatdagi, kundalik turmushdagi, xizmat faoliyatidagi xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari va odatlarida, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik qarashlari, kechinmalari shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni, ular Vatanga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik, burchga sadoqat, jamiyat oldida mas'ullik, milliy iftixor, vijdon, or-nomus, qadr-qimmat, g'ypyp, ezgulikka intilish, g'amxo'rlik, samimiyat hissiyotlaridir.

Axloqiy amaliyot — kundalik faoliyatda aniq bir maqsaddan ko'zlangan tegishli vositalar, insoniylikka mos keluvchi ishonch, o'zaro hurmat, xushmuomalalik, samimiyat, kun tartibiga qat'iy rioya qilish, komandir va boshliqlar buyruqlarini o'z vaqtida bajarish va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Axloqiy munosabatlar — harbiy jamoalar va harbiy xizmatchilar o'rtasida amal qilinadigan qonunlar, nizomlar va buyruqlarda o'z ifodasini topgan axloqiy me'yorlar bilan chegaralangan aloqalar va ta'sirlarda namoyon bo'ladi. Axloqiy munosabatlar boshliqlar va buysunuvchilar, kattalar va kichiklar, xizmat lavozimlari va unvonlari teng bo'lgan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va muloqotlardan tashkil topadi.

Axloqiy kodekslar, qoidalar va me'yorlarning kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, kasbiy axloqlar tizimi borligining guvohi bulamiz. Kasbiy axloqiy me'yorlar zaminida kasbning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga qarab, uning sharoitlari, nizom va qoidalari hamda jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti mujassamlangan.

Kasbiy axloq umuminsoniy me'yorlar bilan chambarchas bog'liqdir. Unda umuminsoniy axloq me'yorlari va qoidalariga tayangan holda insonlarning turli ijtimoiy sohalardagi faoliyati namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham kasbiy axloq umuminsoniy me'yorlarga qo'shimcha talablar qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida Harbiy xizmat axloqi xalqimizning o'n ming yilliklar davomida to'plagan urf-odatlari, an'analari, axloqiy me'yorlariga tayangan holda harbiy xizmatni tashkil qilish va o'tash jarayonlarida harbiy xizmatchilarning axloqiy tarbiyasi shakllanadi.

Harbiy xizmatchining Vatanga muhabbati, ma'naviy mas'uliyati, or-nomusi, g'ururi va boshqa jihatlari kasbiy faoliyatning shart-sharoitlari, tashkil qilinishi, huquqiy asoslari va yo'l-yo'rig'ini belgilab beradi hamda kundalik faoliyati jarayonida aniq va yaqqol ko'zga tashlanadi. Kasbiy axloqning ijtimoiy vazifasi - harbiy burch va majburiyatlarni bajarishning ma'naviy-axloqiy sharoitini yaratishdir.

Adabiyotlar qo‘llanmalar:

1. Xarbiy xizmat axloqi.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risidagi qonuni» 2001 yil
3. Komandirlar va shaxsiy tarkib bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosarlariga metodik tavsiyalar. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi tarbiyaviy ishlar boshqarmasi.

4. «O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa Vazirligining infarmatsion blyutenlari.
5. Vatanparvar gazetasi maqolalari.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Umumxarbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent 2003 y
7. I.Karimov «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». 1996 yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi QK «Umumharbiy nizomlari» Toshkent 1996 yil.
9. “Axloqshunoslik” fanidan mustaqil ta’lim uchun uslubiy qullanma, 1995 yil, Pulatova D.A.
10. Estetika “Nafosatshunoslik” Toshkent 1995 yil, E.Umarov.

STRESSNI BOSHQARISH – SHAXS XUSUSIYATI SIFATIDA

O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi” dotsenti p.f.n.,
dotsent **Rejametova Irada Ikramshikovna**

Shaxs tushunchasi psixologiya fanida markaziy o‘rinni egallaydi va asosiy psixologik talqinlar shaxs mavzusi atrofida amalga oshadi. Shaxsning turli ta’riflari mavjud, lekin bu tushunchani to‘laroq aks ettiradigan quyidagisi o‘rinli: «Shaxs bu - o‘zining bilimi, hissiyoti va munosabatlari orqali tashqi olamni o‘zgartira oluvchi sub’ektdir». E’tibor berilsa, ushbu ta’rifda shaxsga xos uch jihat sanab o‘tiladi: bilish; hissiyot; munosabat. Shu uch guruhga kiruvchi xislatlar yagona maqsadga, ya’ni tashqi olamni insonning o‘z ehtiyojiga binoan o‘zgartirishga qaratilgan. Ishlab chiqarish sharoitida inson xulqini tushunish va uni boshqarish uchun shaxs tabiati haqida ma’lum bir ma’lumotga ega bo‘lish kerak. Tashkilotda shaxs o‘zgalar bilan munosabatga kirishar ekan, demak, u turli ijtimoiy guruhlar faoliyatida qatnashadi. Shu munosabat bilan shaxs a’zo bo‘lgan guruh va jamoalarga xos psixologik qonunlarni ham tahlil etish zarurati tug‘iladi.

Insonning ruhiy olami beto‘xtov harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, biri ikkinchisini bevosita taqazo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o‘xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to‘g‘risidagi taassurotlar, o‘tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar,

xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o‘zaro o‘rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur’ati, mazmuni, shakli, ko‘lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeliklariga, omillariga, ta’sir kuchlariga tez yoki sekin, engil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko‘rsatadilar.

Stresslarga qarshi kurashishning usullari:

- ✓ har kuni toza havoda, tabiat quchog‘ida sayr qilish; sevimli sport turlari yoki pedagoglik kasbiga umuman alaqasi yo‘q boshqa mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish; ortiqcha zo‘riqishga yo‘l bermaslik; ortiqcha ishlar va uchrashuvlarni imkon darajasida cheklash;
- ✓ teatrlarga, konsertlarga, badiiy ko‘rgazmalarga tashrif buyirish, yaxshi badiiy adabiyotlar o‘qish, mumtoz musiqa asarlarni tinglash, televizorda yomon narsalarni ko‘rishdan o‘zini tiyish;
- ✓ do‘stlar davrasida ko‘proq bo‘lish, o‘zi yoqtirgan odamlar bilan suhbat qurish yoki umuman tanimaydigan odamlarga muammolarini gapirib berish (“ichini bo‘shatish”); kayfiyat buzadigan aloqalardan olis yurish;
- ✓ stress vaziyatlar bilan to‘qnashganda boshqa, emotsional yoqimli mavzularga diqqatini yo‘naltirish, hayotdagi yaxshi onlarni eslash;
- ✓ qiziq, yaxshi haq to‘lanadigan va insonga qanoatlanish xissini beradigan ishlarga ishtirok etishga harakat qilish; ishda “foydali narsalarni yoqimli narsalar bilan birlashtirishga” erishish;
- ✓ ishning rang barangligiga erishish;faqat bir ish bilan mashg‘ulbo‘lish,garchi u sevimli va ko‘p foyda beradigan bo‘lsada, u bilano‘ralashib qolishga, oxir – oqibat undan sovishga olib keladi (“Hamma o‘z ishidan bezor”degan naql bejiz emas);
- ✓ ishda o‘ziga mas’uliyat olishda, hayotiy muammolarni yechishda, o‘z malakasini orttirishda rejalashtirishda imkon doirasida ish tutish (“ko‘rpaga qarab oyoq uzatish”); bu ishlarni bajarish uchun zo‘riqishga,o‘zini “”olib urishga yo‘l

bermaslik. Garchi oldingizga qo‘yadigan vazifalar albatta buyuk bo‘lishi shart emas, ular sizning qobiliyatlaringiz va imkoniyatlaringizga mos kelishi shart; ishni shunday rejalashtiringki, har qanday og‘ir nagruzkalar bo‘lgan sharoitda ham nafas rostlab olishga, orada dam olishga imkoniyat bo‘lsin;

- ✓ oldingizga maqsad qo‘yganingizdan keyin, so‘ngra boy berilganimkoniyatlardan afsuslanib yurmaslik uchun, unga erishishga astoydil kirishish kerak (mashhur qo‘shiqda aytilganday “So‘ngi qiynolg‘on yomon”)
- ✓ hamma narsada mukammallikka erishish mumkin emasligini esdan chiqarmang; faqat muvaffaqiyatlar, balki muvaffatiyatsizliklar ham bo‘lishiga ko‘niking; muvafaqiyatsizliklarning ham ijobiy tomonlari borligini, ular to‘g‘ri talqin etilib astoydil harakat qilinsa, ortidan albatta g‘alaba kelishini e’tiborda tuting; xato qilishdan qo‘rqmang, har bir ishda ma’lum bir foiz xatolar bo‘lishini esda tuting; xatolarni butunlay yo‘qotish mumkin bo‘lmasa, u holda kamaytirishga harakat qiling;
- ✓ hayotning mashaqatli, achchiq tamonlari ko‘p ekanligiga qaramasdan, hayot bizga inom etgan kichkina bo‘lsa ham sovg‘alardan quvona bilish;
- ✓ o‘z jismoniy holatiga doimo e’tibor berish, muntazam va xilma xil ovqatlanish, ichkilik va kashandalikdan bututnlay voz kechish;
- ✓ o‘zingizda har doim yuqori darajadagi hayotiy faollikni (tonusni) bir maromda saqlab turishga, uning pasayishiga yo‘l bermaslikka harakat qiling;

Psixologlar bundan tashqari psixofiziologik o‘z – o‘zini tartibga keltirish tizimidan foydalanishni tavsiya etadilar. Asab va boshqa tizimlarini, ruh va jismni sog‘lomlashtirish, hayotiy tonusni ko‘tarish uchun maxsus mashiqlar to‘plamidan iborat organizmning o‘z – o‘zini boshqarish kompleksini (majmuini) tavsiya etadilar. Bu mashqlar sodda va odamning o‘z – o‘ziga buyruq berishini taqozo etadi. Ularni bajarish uchun gavdani ma’lum bir holatda tutish kerak: stolga o‘tirish, boshni egish, gavdani ozgina oldinga egish, qo‘llarni tizzaga qo‘yish va ko‘zlarni yumish. Agarda imkon bo‘lsa divanga yotib qo‘llarni gavda bo‘ylab uzatish kerak. So‘ngra hayolda birin – ketin va belgili miqdorda o‘ziga quyidagi buyruqlarni berish zarur:

- ✓ “Men butunlay xotirjamman” –(bir marta).
- ✓ “Mening o‘ng qo‘lim og‘ir” (olti marta).

- ✓ “Men butunlay xotirjamman” – (bir marta).
- ✓ “Mening chap qo‘lim - issiq” (olti marta).
- ✓ “Men butunlay xotirjamman” – (bir marta).
- ✓ “Mening yuragim tekis va sokin uryapti” (olti marta).
- ✓ “Men butunlay xotirjamman” – (bir marta).
- ✓ “Mening nafasim – tekis va sokin” (olti marta).
- ✓ “Men yengil nafas olyapman” (bir marta).
- ✓ “Mening quyoshim issiq tarqatyapti” (olti marta)
- ✓ “Men butunlay xotirjamman” – (bir marta).
- ✓ “Mening peshanam - yoqimli darajada sovuq” (olti marta).
- ✓ “Men butunlay xotirjamman” – (bir marta).

Bu mashqlar tugallanganidan keyin qo‘l kaftlarini mushtlab siqish, butun gavda bilan kerishib, so‘ngra bo‘shashish, mushtlarni yozish va ko‘zlarni ochish kerak. 10 minutlar chamasida bajariladigan mazkur mashqni ishda bajarish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki¸stressni oldini olish, unga yo‘l bermaslik stresning og‘ir asoratlari bilan kurashishning eng samarali yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent, «Universitet» nashriyoti, 2002.
2. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya muammolari. Toshkent, «Universitet» nashriyoti, 1999.
3. Krasnyanskaya T.M. Bezopasnost cheloveka: psixologicheskiy aspekt: Uchebnoe posobie / Pod red. A.B. Nepomnyaщego. Stavropol: ZAO Pressa, 2005. –289 s.
4. http://www.voppsy.ru
5. http://flogiston.ru/arch

O‘Z – O‘ZIGA RUHIY TA’SIR ETISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi” dotsenti p.f.n.,
dotsent **Rejametova Irada Ikramshikovna**
Nizomiy nomidagi TDPU Umumiy pedagogika kafedrasi v/b dotsenti,
Abdullayeva Uguljon Ibadullaevna

Insonlarni tashqi ko‘rinishi jihatidan turli-tumanligi, bir-biridan farq qilishi qadimdan ma’lum bo‘lgan haqiqatdir. Yuz o‘nta qismdan tashkil topgan bo‘lsa ham, ming-minglab odamlar orasida ikkita bir xil, bir-biridan ajratish qiyin bo‘lgan qiyofadoshni topish nihoyatda mushkul. Insonlar nafaqat yuzi yoki tanasining tuzilishi bilan, balki xulq-atvori, hatti-harakatlari, xoxish-istaklari, qadriyatlari bilan ham farqlanadilar. Turli-tuman tarixiy, ijtimoiy va tabiiy sharoitlar inson shaxsiga, uning ruhiyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Natijada insonlar o‘rtasida turli tavofutlar vujudga keladi. Kishilar o‘rtasidagi individual tafovutlar bilan bir qatorda o‘xshashliklar ham mavjud. Har bir inson borliqni sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlari yordamida bilib oladi, bilish jarayonlari hamma uchun xos bo‘lsa ham xulq-atvordagi namoyon bo‘lishiga ko‘ra har bir kishi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Shunday qilib, biz ba’zi xususiyatlarimiz bilan kimgadir o‘xshaymiz, kimdandir farq qilamiz, lekin shunday sifatlar ham bo‘ladiki, biz hech qachon boshqalarga o‘xshashimiz mumkin emas.

Inson organizmi asosan ikki xil tartibda ishlashi mumkin:

- stress tartibida, ya’ni o‘z ruhiy va jismoniy kuch – imkoniyatlarini safarbar qilish, faollashtirish, zo‘riqish va hatto haddan tashqari zo‘r berib asabiylashish tartibida;
- odatdagi, ya’ni hotirjam, zo‘r berib harakat qilishni, ayniqsa haddan tashqari zo‘r berishni talab etmaydigan tartibda ishlash.

“Stress” qattiq hayajon, ruhiy zarba ma’nosini anglatadi. Pedagogik faoliyatda stress holatlar o‘qituvchining har doim ham hamrohi bo‘ladi. Uni butunlay yo‘qotish mumkin emas. 68% o‘qituvchilar ishda tez – tez stress holatlarning bo‘lib turishini, nafaqat o‘quvchilar, hamkasabalari, maktab rahbarlari va ota – onalar bilan munosabatdagi noqulay vaziyatlar o‘zlarining ruhiy salomatliklariga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omil deb biladilar. Stress holatlar o‘qituvchining salomatligiga, demak ish – faoliyatiga yomon ta’sir ko‘rsatadi. Agarda uni oldini olish va engishning usullari o‘rganilib, amalga oshirilmasa, stressning oqibatlari ko‘pgina ko‘ngilsiz holatlarga olib kelishi mumkin. Bordiyu o‘qituvchi me’yorida ishlasa, dam olsa, u holda stress paydo bo‘lmaydi. Ortiqcha, juda ko‘p fazifalarning yuklanishi, ishni muddatida va to‘liq bajarishga harakat qilib, haddan ortiq zo‘riqib ketishdan stress holatlar vujudga keladi. Stress bir martalik, ogir kechadigan, masalan, yaqin odamidan ayrilish, oila buzilishi, ishdan bo‘shash v.b yoki unchalik keskin bo‘lmasa-da, surunkali bo‘lishi ham mumkin.

Surunkali stressga kuyidagi holatlar misol bo‘lishi mumkin:

Sinf rahbarlarini sinf o‘quvchilari qabul qilmaydilar va ular orasidagi munosabatlar har doim keskin, chigal bo‘ladi. Yoki, direktorning o‘qituvchi bilan munosabati yaxshi emas va oqibatda direktor har doim o‘qituvchini asossiz ayblayveradi, har bir ishidan kamchilik topishga urinadi. Boshqa misol: o‘qituvchi eski metodikalar bilan ishlashga, bir qoliblikka, “xotirjam” kasbiy ish – faoliyatga ko‘nikib qolgan, ammo maktab rahbariyati undan tinimsiz izlanishni, yangi texnologiyalarni qo‘llashni talab qiladi. Natijada o‘qituvchi xavotirga tushadi, ishidan ayrilib qolishdan qo‘rqa boshlaydi, oqibatda esa unda stress paydo bo‘ladi.

Stress holatlar *ruhiy darajada* – jonsaraklik (xavotirlik, tashvishlanish), vahimaga tushish; *fiziologik darajada* – qon bosimining ortishi, pulsning tezlashishi; *fizikaviy – ximiyaviy darajada* – organizmning barcha sistemalarini faollashtiruvchi adrenalin va boshqa moddalarning jadal ishlab chiqarilishi bilan namoyon bo‘ladi. Stressning boshlanishi xavotirlanish hissi, teng ahvolga tushushi bilan harakterlanadi. Keyin esa organizmning butun kuchlari unga safarbar etiladi, ya’ni organizm stressogen (stress tug‘diruvchi) omillarga qarshilik qiladi. Agarda stress holatlari cho‘ziladigan bo‘lsa, u holda organizm kuchlarining holdan toyishiga olib keladi. Organizmning holsizlanishi, xotiraning susayishi, tajanglik, nunqning buzilishi, ishdagi qo‘pol xolatlarning ortishi, hazm qilish organlarning buzilishiga, infarkt va insult turidagi yurak qon – tomir kasalliklariga olib keladi.

Psixologlar stress holatlarni tartibga solish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilishni tavsiya etadilar:

- stressni vujudga keltiruvchi omillarga ko‘nikib ketaman deb umid qilmaslik;

- stress holatlarning hayotidan to‘liq chiqarib tashlashga orqa qilmaslik, negaki ular har qachon inson hayotining yo‘ldoshi bo‘ladi; uzgacha qiziqish va ma’no bag‘ishlaydi deb hisoblaydilar. D.Karnegining “agarda sizga limon nasib qilgan bo‘lsa, undan limonat qilishga harakat eting”, - degan maslahatini unutmang;

- stresslarga qarshi turish ularni mutlaqo yo‘qotishni emas, ularni imkoni boricha zaiflashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishni bildira

Foydalanilgan adabiyotlar

6. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent, «Universitet» nashriyoti, 2002.

7. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya muammolari. Toshkent, «Universitet» nashriyoti, 1999.

8. Леонтьев А.Н. Деятельность.Сознание личность. – Москва: Смысл Академия, 2005. – 352 с.

9. Душанов Р. Х., Фарфиев Ё. А. Касбий психология: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – 284-б.

10. http://www.voppsy.ru

11. http://flogiston.ru/arch

Nostandart vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning o‘zini boshqarish hamda xizmat faoliyatida yuzaga keladigan zo‘riqish va stress holatlarni oldini olishning psixologik usullari

Raximov Alisher Farxadovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, katta leytenant

Kirish

Insoniyat hamisha yorug‘ kelajakka intilib yashagan. U ilmiy-texnika inqilobi natijasida tabiatning ko‘plab sir-asrorlarini bilib oldi. Biroq, inson uning salbiy oqibatlari namoyon bo‘lishiga ham guvohdir. Masalan, transport shovqinlari, jismoniy toliqish, kam harakatchanlik, turli ziddiyatli vaziyatlar, ruhiy-ma’naviy nomukammallik, surunkali asabiylik, ruhiy zo‘riqishlarga sabab bo‘lmoqda. Xastaliklarning kelib chiqish sabablari xilma-xil. Ulardan eng asosiysi, insonning ruhiy muammolaridan biri - stress.

Asosiy qism

Stress (ing. Stress -so‘zidan olingan bo‘lib) taranglik, zo‘riqish, degan ma’noni anglatadi. Ushbu ibora ilk bor 1936 yili Kanada olimi Gans Selye tomonidan kiritilgan.

Stress Bosqichlari

- Taranglikning kuchayishi (xavotirlik);
- Stress holati (organizmning qarshilik ko‘rsatishi);
- Ichki taranglikning susayishi (toliqish);

Taranglikning kuchayishi (xavotirlik bosqichi)

Bu bosqichda inson organizmi mobilizatsiyasi boshlanadi. Nafas olish tezlashuvi, qon bosimi oshishi, psixik holatning qo‘zg‘alishi namoyon bo‘ladi. Inson e’tibori to‘liq qo‘zg‘atuvchiga yo‘naltiriladi. Shu paytning o‘zida inson o‘z-o‘zini, xatti-harakatlarini, xulqini, so‘zlarini boshqara olmay qolishi, kuzatiladi.

Organizm stressdan himoyalash mexanizmlarini ishga tushurishni boshlaydi. Bu bosqichda inson uzoq tura olmaydi, agar organizm bu bosqichni yengib o‘tsa, havotirlik bosqichi asta sekin so‘na boshlaydi. Agar, aksincha bo‘lsa, stressning keyingi bosqichi ishga tushadi.

Qarshilik ko‘rsatish bosqichi

Stressning ikkinchi bosqichida organizm rezerv kuchlarni safarbar qiladi. Organizmning barcha faoliyati katta kuch bilan ishlashni boshlaydi. Bu bosqichda vaziyat ikki hil yo‘nalishda rivojlanishi mumkin: inson o‘ta faollashib, o‘zida yangi harakatlarga va g‘oyalarga kuch topadi, organizm mobilizatsiyasi namoyon bo‘ladi yoki aksincha, organizm tormozlashib, passivlashadi, inson o‘z-o‘zini yo‘qotib qo‘yishi kuzatiladi.

Stress holatida inson xatti-harakatlari uning individual psixik xususiyatlariga bog‘liq.

Toliqish bosqichi

Agar stressning avvalgi bosqichlari bo‘lib o‘tsa-yu, lekin organizmning moslashuvchanligi sust bo‘lsa, stressning uchinchi bosqichi – toliqish yuzaga keladi.

Ushbu bosqich stress ta’siri uzoq bo‘lganda kuzatiladi. Bu bosqichda organizm zahirasining so‘nib borishi, zaiflashuvi kuzatiladi. Bunday jarayonlar kuchli depressiyaga yoki organizmning kasallanishiga zamin yaratadi.

Stress oqibatlari

Psixoemotsional zo‘riqish (stress) yurakning ishemik kasalligi, qon bosimi oshishi, ateroskleroz, nevrozlar, oshqozon va 12 barmoq ichak yara kasalligi, o‘sma shishlar, qandli diabet, tireotoksikoz va shunga o‘xshash ko‘plab kasalliklarga olib keladi. Chunki bunda asab tolalari doimo zo‘riqadi, taranglashadi, oqibatda ruhiy va jismoniy quvvat taqsimotida buzilish ro‘y beradi. Oilada, ishda va jamiyatda yuz berib turadigan ziddiyatli holatlar – salbiy emotsional stresslar bu muvozanatni izdan chiqaradi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, kasalliklarning 70% emotsional buzilishlar, ya’ni stress holatlari bilan bog‘liq ekan. Yevropa mamlakatlarida yiliga millionga yaqin inson stressogen vaziyatlar tufayli, yurak faoliyati buzilishidan olamdan o‘tar ekan.

Atrofdagilarga nisbatan ortiqcha talabchan bo‘lmang!

Atrofdagilarga ortiqcha talabchan bo‘lishingiz sizda ruhiy zo‘riqishni yuzaga keltiradi. Agar Siz yaqinlaringizning doimiy ravishda kamchiliklarini tanqid ostiga olib, ularni o‘zgartirishga kirishgan bo‘lsangiz – katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lasiz.

Donolardan biri “Agar sen vaziyatni o‘zgartira olmasang, vaziyatga nibatan o‘z munosabatingni o‘zgartir”, deb ta’kidlagan ekan. Shunday ekan, atrofdagilarni shundayligicha qabul qiling, vaqti kelib ular haqiqatan ham o‘zgarganining guvohi bo‘lasiz.

Har birimizda paydo bo‘layotgan fikr o‘z-o‘zidan shu fikrga doir emotsional holatni uyg‘otadi, bu holat esa shu holatga mos bo‘lgan xatti-harakatlarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, har qanday ijobiy harakat — yuzdagi tabassum, bosh va yelkani tik tutish kabilar miyada ham o‘z-o‘zidan shu harakatlarga mos keladigan fikrni uyg‘otadi. Demak, odamda ruhiyat va kayfiyat, fikr va harakat o‘zaro mutanosiblik kasb etgan.
Shuning uchun siz ham doimo o‘zingizga ishoning, bu ishonch esa kayfiyatingiz orqali harakatlaringizda, yuzingizda, yurish-turishingizda aks etib tursin.

Odamning o‘z tan-sihatligini saqlash tizimi uch asosiy qoida: o‘zini anglay olish, tarbiyalay olish va o‘z bilimini amalga oshira olishga asoslanadi.

Inson tan-sihatligini saqlash qurilmasiga yana uchta yaxshi tuyg‘u: ishonch, umid va muhabbat kiradi. Ular ichida eng asosiysi - ishonch inson umri va salomatligining asosidir. «Ixlos - xalos», degani shu bo‘ladi. Inson imkoniyatlari cheksizdir. O‘z kuchiga ishongan odam hamma narsaning uddasidan chiqadi. Faqat insonda ruh va vujud sof bo‘lmog‘i, miyasi xayrli niyatlar, toza tilaklarga to‘liq bo‘lmog‘i, bir so‘z bilan aytganda, odamda ma’naviyat birlamchi bo‘lmog‘i darkor.

Tashvishlarni unutishga harakat qiling!

Har kimga o‘z tashvishlaringiz to‘g‘risida so‘zlamang.

To‘g‘ri, suhbat davomida, siz yengillaganday bo‘lasiz, biroq biroz vaqt o‘tgach, o‘z muammongizga o‘ralib qolib, yana bironta yaxshi suhbatdoshga muxtojlik seza boshlaysiz.

Shunday ekan, asablaringiz dam olishiga ruxsat bering,

Asablarni estrada kuylaridan, ularning og‘ir, tez tempda yozilgan ohanglaridan asrang;

- qo‘rqinchli, jangari kinolar va ko‘rsatuvlarni ko‘rishdan saqlaning;
- har xil oilaviy, jamoa nizolariga aralashmang, hattoki ularni tahlil qilishga kirishmang.

Lekin...Klassik kuylarni ko‘proq tinglang va qancha ko‘p tinglasangiz bosh miyangizning o‘ng qismi shunchalik o‘z ish faoliyatini kuchaytiradi. Miyaning o‘ng qismi esa ong osti ish foliyati uchun javobgardir.

Qushlarning sayrashiga, daraxt barglari, ariqda oqayotgan suv shivirlashiga e’tiboringizni qarating.

Tabiat bergan in’omlardan oqilona foydalaning!

Siz dam olishni emas, faol harakatni tanlang, bema’ni orzuni emas, haqiqatni tanlang. Xo‘mrayib turishni emas, kulib qarashni tanlang, dushmanlikni emas, muhabbatni tanlang. Hayotdagi hamma yaxshi narsani tanlang. Eng asosiysi, hamisha ishlash imkoniyatini tanlang!

Mehnat qilish, bardosh berish g‘ayratidan qaytaradigan odamlarning gaplariga quloq solmang. Barcha norozilik, shubha-gumon, umidsizlik va o‘zingizdan nolishni bir chetga yig‘ishtirib, bor kuchingizni qiyinchiliklarni yengishga sarflang. Axir, erta bahorda ochiladigan gullar shamol yoki sovuqdan shikoyat qilmaydilar-ku?!

Lolaqizg‘aldoqlar to‘satdan qishning qaytishidan qo‘rqib yer ostiga yashirinib olmaydilar yoki yaqinlashib kelayotgan yozda ko‘payadigan yovvoyi o‘t va hasharotlardan qo‘rqib o‘smay qolmaydilar-ku! Ular noqulay sharoitlarga qarshi turolganlari uchun, yer va toshlarni yorib chiqolganlari uchun ham kishilar tarafidan ardoqlanadilar. Siz ham agar gullab-yashnamoqchi bo‘lsangiz, ulardan ibrat oling.

O‘z ehtirosingizni jilovlashni o‘rganing!

Emotsiya – bu biologik ehtiyojlarni tezda baholash va qondirishga bo‘lgan zaruriyat hisoblanadi. Emotsiyasiz hayot bo‘lmaydi. Emotsiyalar (ehtiroslar) – subyektiv sezgi sifatida turlarning saqlanib qolishida yashash uchun kurashda muhim ahamiyat kasb etadi va ular bosh miyaning maxsus limbik qismi tomonidan boshqariladi hamda dastlab bosh miyaning po‘stlog‘iga yo‘naltiriladi, so‘ngra vegetativ asab tizimi va endokrin bezlar orqali ichki a’zolarga yo‘naltiriladi, shuningdek, tezda butun tanani to‘liq qamrab oladi.

Inson 5 ta ruhiy sababga ko‘ra kasallanadi:

- qahr-g‘azab va xasad;
- xafagarchilik (ranj-alam);
- aybdorlik hissi;
- injiqlik va qaysarlik;
- hayotdan qo‘rqish.

Xasad qilmang!!!

Sababi shuki, besh daqiqa hasad o‘tida qovrilgan odam o‘z umrini ikki yilga qisqartiradi. Hasadgo‘ylar boshqalarga nisbatan ertaroq qarishlarini ko‘pchilik biladi. Hasadga surunkali berilish oqibatida qalbdan mehr-oqibat, shafqat, muhabbat uzoqlashib, ko‘zlar nursizlanadi, salbiy hissiyotlar hisobiga kishining kuch-quvvati pasayib ketadi. Odatda hasadgo‘ylarning yuziga erta ajin tushadi. Bunday odamlar katta ishlar qilishga qodir emas, ular o‘z-o‘zini qiynoqqa solib, mayda-chuyda ishlar girdobidan chiqa olmay yuraveradilar.

Sizga jismoniy mashqlar yordam beradi!

Sport stressni yengishga yordam beradi. Shunday ekan, o‘z ruhiy holatingizni sog‘lomlashtirmoqchi bo‘lsangiz muntazam ravishda sport bilan shug‘ullaning.

Jismoniy mehnat bilan band bo‘lishingiz, terlab ish qilishingiz qonga endorfin moddasini kiritadi, u esa esa kayfiyatni yaxshilab, og‘riqni qoldiruvchi modda hisoblanadi.

Demak, jismoniy mashqlar va jismoniy mehnat «stress qotili» hisoblanadi.

Stress profilaktikasi!

Stressni qisqa muddatli **relaksatsiya** yordamida ham bartaraf etish mumkin. Qulay joylashib, kuzingizni yuming. O‘zingizga ma’qul bo‘lgan ibora yoki so‘zni tanlang (masalan, «hammasi yaxshi bo‘ladi»). E’tiboringizni nafas olishga jamlang, har nafas olganingizda va chiqarganingizda ushbu iborani qaytaring, Bu mashqni hech bo‘lmaganda kuniga bir marta 10-20 daqiqa davomida takrorlang.

Xulosa

Demak, xizmatda, oilada, ishda va jamiyatdagi ziddiyatlar salbiy emotsional qo‘zg‘alishga sabab bo‘ladi, noxush qo‘zg‘alishlar bosh miyaga tarqalsa nevrozlarni, a’zolarga tarqalsa turli ichki kasalliklarni keltirib chiqaradi. yuqorida keltirilgan amaliy tavsiyalar va texnikalarni muntazzam ravishda qo‘llash salbiy psixofiziologik holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G‘og‘iev Umumiy psixologiya 2011 .
2. Э.Фромм Анатомия человека 1973.
3. Э.Кречмер Строение тела и характер 1995.

Harbiy xizmatchilarning muloqot madaniyatini yuksaltirish.

Raximov Alisher Farxadovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, katta leytenant

Kirish

Muomala o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, u odamlarning o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma’naviy munosabatlari, aloqalarining yig‘indisidan tashkil topadi. Harbiy xizmatchilarning fuqarolar bilan bo‘ladigan muomala madaniyati bu – ularning shaxslar, oilalar, xizmat jamoalari, ijtimoiy guruhlar, har xil jamoat va davlat tashkilotlari, muassasalari, xorijiy davlat fuqarolari bilan bo‘ladigan hamda qonun, farmon, nizom va buyruqlardagi axloqiy va xuquqiy normalar, prinsiplar bilan tartibga solingan axloqiy-estetik, xuquqiy munosabatlar tizimidir.

Insonlar o‘z faoliyati davomida, tabiiyki, boshqa odamlar bilan muloqotda bo‘ladilar. Ushbu jarayonda axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatadilar, ta’lim beradilar, tajriba almashadilar. Bu jarayon shaxslararo o‘zaro munosabatlarda *muloqot, muomala* deb yuritiladi.

Muloqot - ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir-biriga ta’sir etishi. Odamlar o‘rtasida axborot almashish, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, o‘zgalarni idrok qilish va tushunib baholash xarakteriga ega.

Muloqot yoki muomala yangi axborot almashinuvi jarayoni hamdir, bu haqda Bernard Shou quyidagilarni qayd etadi: «***Agar menda bitta olma va sizda ham shuncha olma bo‘lib, o‘zaro almashsak, sizda ham, menda ham bittadan olma qoladi, agar har birimizda shaxsiy fikr bo‘lsa va o‘zaro almashsak, unda har birimizda ikkitadan g‘oya bo‘ladi»***[49]. Ushbu ta’kiddan ham muloqot davomida o‘zaro fikr almashinuv munosabatlari yuzaga kelishini ko‘rish mumkin.

Kasbiy muomala ichki ishlar idoralari xodimi faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham muomalaning har biri turi faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Xodim muomala qonuniyatlariga suyangan holda kishilar bilan munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonida xodimning barcha kasbiy sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimni mantiqiy fikrlashiga, voqeani o‘tmishdagi vaziyat bilan bog‘lashiga, o‘zaro solishtirish va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Muloqot psixologik jihatdan bir-bir bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar o‘rtasida u yoki bu vositalar orqali maqsadga muvofiq, bevosita yoki bilvosita aloqa o‘rnatish va saqlab turish jarayonidir[50].

Muloqotning ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida quyidagi turlari mavjud:

1) bevosita; 2) bilvosita; 3) rolli; 4) mazmunli; 5) rasmiy; 6) norasmiy.

Bevosita muloqot «yuzma-yuz» suhbat bo‘lib, uning har bir ishtirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qo‘llaydi.

Bilvosita muloqot ham aloqa vositasi bo‘lib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan, telegraf, telefon orqali gaplashish).

Muloqotning ba’zi turlari ijtimoiy rollar orqali amalga oshirilib, rolli muloqot deyiladi. Bunday holatda odamlar muayyan ijtimoiy rollarni bajaruvi kishilar tarzida muloqotga kirishadilar. Masalan, tergovchi va jabrlanuvi o‘rtasidagi muloqot rollidir.

Individning boshqa shaxsga o‘z holati, kayfiyati, xohishini mimika, harakat, imo-ishora orqali bildirishi mazmunli muloqot deb ataladi.

Rasmiy muloqot yuridik kuchga ega bo‘lib, davlat va jamiyat manfaatini ko‘zlagan hamda qayd etiladigan muloqot turi (masalan, tergov jarayonidagi so‘roq qilish)dir.

Shaxslararo o‘zaro muloqot jarayonida o‘zini qiziqtirgan u yoki bu ma’lumotga ega bo‘lish norasmiy muloqot hisoblanadi.

Muloqotga kirishishda faqat so‘zlar emas, balki harakatlar, imo-ishoralar ham muhim ahamiyatga ega. Shaxslar o‘zaro muloqotga kirishar ekan, ushbu muloqot o‘zida uch muhim jihatni qamrab oladi;

1) kommunikativ (axborot berish); 2) interaktiv (birgalikda harakat qilish);

3) perseptiv (o‘zaro birgalikda idrok qilish).

Muloqot jarayonida axborotni boshqa kishiga yo‘llayotgan shaxs *kommunikator*, uni qabul qilayotgan kishi *retsepiyent* deb nomlanadi.

Muloqotda nutq muhim rol o‘ynaydi, uning ravonligi, so‘zlarning yaxshi va o‘z joyida to‘g‘ri ishlatilishi muvaffaqiyat garovidir. Nutq eshittirilishi yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo‘yilishi yoki kar-soqov kishilar uchun biror-bir mohiyatga ega bo‘lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi mumkin. Muloqotda ma’lumot beruvchi va qabul qiluvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik yuzaga keladi. Nutq shaxsning tashqi ko‘rinishi, kiyinishi, mimikasi, tez yoki sekin gapirishi, ovozi, salmoqlab yoki vazmin gapirishiga bog‘liq bo‘ladi.

Shaxs ma’lumotni ikkinchi bir shaxsga nutq bilan birga xatti-harakat, mimikalar orqali, shuningdek, yozma yoki ko‘rgazmali usulda berishi mumkin. Muloqot davomidagi emotsional holat muloqotga kirishayotgan shaxsning xatti-harakatiga salbiy ta’sir qiladi.

Muloqotning uzoq davom etishi ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Har qanday muloqotdan biror-bir maqsad ko‘zda tutiladi. Muloqotga kirishgan har bir shaxs uning yakunidan turlicha, ya’ni ijobiy yoki salbiy xulosa chiqarishi mumkin.

Shu o‘rinda K.S.Stanislavskiyning «muloqot jarayonida, avvalambor, insonning ko‘ngli, yuragi, ichki dunyosini qidirasiz», degan so‘zlarini eslash joiz. Ammo kishining ichki dunyosini bilish qiyin. Shu bois shaxsning faqat tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, o‘zini tutishi, gap-so‘zi yoki muomalasiga qarabgina xulosa chiqarish mumkin.

Ichki ishlar organlari xodimlari fuqarolar bilan muloqot qilishi uchun chuqur bilim va quyidagi ijtimoiy-psixologik fazilatlarga ega bo‘lishi kerak:

- notanish shaxslar bilan tezda muloqotga kirishish, ularga ma’qul bo‘lish;
- boshqa shaxslarning gapini eshitish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- odamlarga psixologik ta’sir ko‘rsata bilish;
- muloqot jarayonida psixologik to‘siqlarni bartaraf etish va hokazo.

Ichki ishlar organlari xodimlari qonunlar doirasida harakat qiladi, ya’ni jinoyatchining unga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabatiga qaramasdan muloqot qilishga majbur.

Shuningdek, muloqot jarayonida obyektning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olish lozim. Aytish joizki, ko‘p hollarda jinoyatga moyil shaxslar jamiyatdagi axloq qoidalaridan chiqishlari, odob, vijdon amriga bo‘ysinmaydilar. Natijada muloqot jarayonida har xil psixologik sun’iy to‘siqlar paydo bo‘ladi.

Muloqot jarayonida quyidagi psixologik to‘siqlar vujudga kelishi mumkin:

1) motivatsion to‘siqlar; 2) aqliy to‘siqlar (intellektual);

3) emotsional to‘siqlar; 4) tarbiyaviy jarayondagi to‘siqlar.

Motivatsion to‘siqlar shaxsning muloqotga kirishishdan bosh tortishi, muomalani to‘g‘ri, aniq olib borilishini xohlamasligida namoyon bo‘ladi.

Aqliy to‘siqlar shaxsning xodimga nisbatan bilim doirasi kengligi, hayotiy tajribani ko‘pligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi va huquqiy savodxonligi yuqori bo‘lgan taqdirda vujudga keladi.

Emotsional to‘siqlar muloqotga kirishuvchilarning psixologik va emotsional-irodaviy holatlari (tajovuzkorlik, qo‘rquv, asabiylashish, xo‘rlanish va boshqalar) dan kelib chiqadi.

Tarbiyaviy jarayonlardagi to‘siqlarga ichki ishlar organlari xodimlari tarbiyasi qiyin o‘smirlar, nosog‘lom oilalar va ilgari sudlangan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlar olib borayotgan vaqtda uchraydi.

Fuqarolar tomonidan berilgan ma’lumotlarning psixologik tahlili. Ichki ishlar organlari xodimlari o‘z faoliyati mobaynida fuqarolardan, ya’ni davo qiluvchi, guvox, jabrlanuvchi, xuquqbuzar voyaga yetmagan, muqaddam sudlangan, nosog‘lom oilalar va boshqalardan olayotgan ma’lumotlari katta axamiyat kasb etadi. Olinayotgan har qanday ma’lumotga ta’sir qiladigan omillar sinchkovlik bilan tahlil qilishni talab etadi. Shu sababli quyidagilarni aniqlash lozim:

– shaxsning axborotni idrok etishiga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar. (kuzatish sharoiti, ob-havo xolati, kunlik shart-sharoit, yoritilganlik darajasi va boshqalar);

– shaxsning axborotlarni idrok etish imkoniyatlari va sezgi a’zolari bilan bog‘liqligi. Shaxsning voqea-hodisani idrok etish joyi, obyektlar orasidagi masofa, yo‘nalishi, ko‘rish burchagi, o‘tirganlik, turish, yurish yoki yugurganlik holatlari va boshqa vaziyatlarning ta’sir etishi. Sezgi a’zolarining chegarasi, ko‘rish o‘tkirligi, ko‘zoynakning borligi yoki yo‘qotilganligi, eshitish apparati, quyosh nurini qaytaruvchi ko‘zoynak, sezgi a’zolarining patologiyasi bilan bog‘liqligi;

– axborotni idrok etish shaxsning individual-psixologik hususiyatlariga bog‘liqligi. Axborotni idrok etishda shaxsning xayotiy tajribasi, jinsi, yoshi, aqliy rivojlanish darajasi, egallagan kasbi, millati va individual-tipologik xususiyatlarining umumiy qonuniyatlariga bog‘liq. Odatda erkaklar joyni, yo‘lni, voqealarni yaxshi esda saqlasalar, ayollar esa vaziyatni, insonlarni, ularning kiyimlarini, ruhiy xolatlarini xotirada yaxshi saqlab qoladilar;

– shaxsning axborotni idrok etishi ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog‘liqligi. Voqea ishtirokchilarining simpatiya va antipatiya xolatlari ularning shikoyat, ariza va takliflarida kuchli namoyon bo‘ladi;

– axborotni idrok etish shaxsning psixik xolati bilan bog‘liqligi. Axborotni idrok etishda shaxsning psixik holati, ya’ni hayajon, qo‘rquv, daxshat, parishonlik o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Kriminal voqealar odatiy voqealarga nisbatan his-hayajonli bo‘lganligi sababli, jabrlanuvchi va guvohlar tomonidan esda yaxshi saqlanib qoladi, lekin shakllar, ranglar, o‘lchamlar noto‘g‘ri idrok etiladi.

Ma’lumki, suhbat jarayonida odamlarning biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o‘zaro mosligi, bir – birini to‘ldirishiga bog‘liq. Noto‘g‘ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o‘rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqiy asoslangan so‘zlardan foydalanib, ta’sirchan gapirishga o‘rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni – tinglash qobiliyatiga esa deyarli e’tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda, aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashicha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45% tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo‘ladiganlarning 35 – 40% oylik maoshi odamlarni «tinglaganlari» uchun berilar ekan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko‘proq foyda keltirar ekan.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer «Odamlarni o‘zingiz to‘g‘ringizda yaxshi fikrga ega bo‘lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo‘laversa, undan ranjiysiz, xatto u bilan aloqani ham uzasiz.

So‘nggi yillarda olib borilgan psixologik tadqiqotlarda muloqotga kirishuvchi shaxslar o‘rtasidagi oraliqning kommunikativ ahamiyati va muloqot samaradorligi sheriklar joylashuviga bog‘liqligi masalasiiga e’tibor berilmoqda. Muloqotga kirishuvchilar o‘rtasidagi masofalarning to‘rt turi farqlanadi:

– intim (0–0,5 m); shaxsiy (0,5–1,5 m); ijtimoy (1,5–3 m);
– ommaviy (3 metrdan ortiq).

Xodim masofani o‘zgartirish orqali gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvohga qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatishga erishishi mumkin, chunki bu bilan sheriklar o‘rtasidagi munosabatlar xususiyati o‘zgaradi.

Yozma nutq - ilmiy, rasmiy, publitsistik va qisman badiiy uslublar orqali ifodalanadi.

Yozma nutq ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Oddiy bildirgi yozishdan murakkab jinoiy ishlarni olib borishgacha bajariladigan ishlarni yozma nutqsiz tasavvur etish qiyin. Donolar, odatda, «yozuvingni ko‘rsat, men sening kimligingni aytib beraman» deydilar. Demak, yozuv odamning fe’lini ko‘rsatuvchi belgilardan biri ekan. Shuning uchun ham ichki ishlar organlarining xodimlari, eng avvalo, yozma nutq turlari va qoidalarini puxta egallagan bo‘lishlari lozim.

Idrok etish (ustanovka) notanish kishi haqida taassurotning shakllanishida idrokning ahamiyati ayniqsa, katta. Fanda A.A.Bodalevning ijtimoiy maylning ahamiyatini ochib bergan tadqiqotlari yaxshi ma’lum.

Tadqiqotlardan birida ikki guruh odamlarga ayni bir kishining surati ko‘rsatilgan. Ammo suratni ko‘rsatishdan avval birinchi guruhga suratdagi kishining ashaddiy jinoyatchi, ikkinchi guruhga esa qahramon ekanligi aytilgan. Shundan so‘ng har bir guruhga fotosuratdagi kishini so‘z bilan tasvirlab berish taklif etilgan. Birinchi guruh uni quyidagicha tavsiflagan: chuqur ko‘zlari yashirin yovuzligidan, bo‘rtib chiqqan engagi jinoyatda «oxirigacha borishga» qaror qilganligidan darak beradi va hokazo. Ikkinchi guruhda aynan o‘sha chuqur joylashgan ko‘zlar tafakkurning teranligidan, turtib chiqqan engak esa qiyinchiliklarni yengishdagi iroda kuchidan darak beradi, deb baholangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G‘og‘iev Umumiy psixologiya 2011 .
2. Э.Фромм Анатомия человека 1973.

3. Э.Кречмер Строение тела и характер 1995.

NIZOLI VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH VA O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH USULLARI

Saburov Alisher Ikramovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xafvsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, mayor

Nizoli vaziyatda ishtirok etayotgan shaxslarning xulqi va xatti-harakatlariga e’tibor bering. Nizoli vaziyat, o‘z xususiyatiga ko‘ra, insonlarning nizoli vaziyatdan tashqarida yashiringan xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi.

Nizoli vaziyatlardan chiqish yo‘llari

Moslashuv uslubi ikki tomon bilan ma’lumot almashishdagi hamkorlikni bildiradi, biroq qulay faoliyat muhitini tiklashda shaxsiy manfaatlarni nazardan chetda qoldirmang.

Ikkinchi tarafga natija muhim hisoblanib, siz uchun bu ikkinchi darajada, shuning uchun vaziyatga moslashishga harakat qiling.

Moslashuv uslubi quyidagi vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin:

– muhim vazifa muoammoni hal qilish emas, balki xotirjamlik va barqarorlikni saqlash;
– qarama-qarshilikning predmeti sizni qiziqtirmaydi;
– boshqalar bilan iliq munosabatlarni saqlab qolish o‘z nuqtai-nazarida turib olishdan yaxshiroq ekanini bilsangiz;
– haqiqat siz tomonda emasligini anglasangiz;
– hukmronlik yoki g‘alaba qilish imkoniyatingiz kamligini his qilsangiz.

Kutilmagan holda vujudga kelgan nizoli vaziyatni bartaraf etish usullari

– Qarshi tomon bilan kurashishni bas qilish, muammoli, nizoli vaziyatni keltirib chiqarish orqali masalani hal qilib bo‘lmasligini anglang, oqibatini tasavvur eting;
– Ikki tomon kelisha olmasligining asosiy sabablaridan biri bu – shaxslardan birining haq, ikkinchisining esa nohaq ekanligini tan olmasligi. Qaysar odamdan tashabbus kutgandan ko‘ra, o‘z xulqini o‘zgartirish samarali ekanligini yodda tuting. Bunday yo‘l tutganda yutib chiqish mumkin, lekin hech ham yutqazilmaydi.
– Ro‘parangizdagi shaxsga nisbatan salbiy hislarni iloji boricha kamaytiring, unda o‘zingizga nisbatan ijobiy hislar paydo qilishga harakat qiling;

– Bor kuchni murosa yoki hamkorlik asosida muammoni yechishga qarating;

– Nizoli vaziyatda nafaqat sizning, balki qarshi tarafning ham manfaatlari mavjudligini unutmang. U o‘z manfaatlarini, siz esa o‘zingiznikini himoyalashi tabiiy hol deb qabul qiling.

– Nizoli vaziyatning asl mohiyatini tushunish uchun u insonning o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘ring, yoki chetdan kuzatayotgan shaxs sifatida vaziyatning ijobiy va salbiy taraflarini, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini tasavvur qiling. Uning kuchli va haqli tomonlari, o‘zingizning ojiz va nohaq tomonlaringizni mulohaza qilib ko‘ring.

– Chetdan qaraganda qarshi tarafning asl niyat va maqsadlarini, nizoli vaziyatni keltirib chiqarish bilan nimaga erishmoqchiligini aniqlashga harakat qiling. Ko‘rinmas (ko‘zga tashlanmaydigan) maqsadlarni aniqlash muhim hisoblanadi.

– Qarshi tarafga xavf tug‘diradigan holatlarni o‘rganing. Nizoli vaziyatda nimadan xavfsiramoqda, nimani yo‘qotishdan qo‘rqmoqda.

– Nizoli vaziyatni odamlar nazaridan chetda, alohida tahlil qiling (chetdagi odamlarning ishtirokini, ularning o‘ziga xos ta’sir doirasini cheklash maqsadida).

– Nizoli vaziyatni hal qilish uchun o‘z manfaatlaringizni himoya qilgan holda, qarshi tarafdagi shaxsning maqsadlarini, manfaatlarini ham chetda qoldirmaydigan masalani hal qilishga mo‘ljallangan dastur tuzib oling. Agar raqibingiz manfaatlarini inobatga olmasangiz, bu faqat ezgu niyatga aylanib qoladi, yechimning uch-to‘rt variantini o‘ylab qo‘ying.

– Keskinlikni yumshatishni o‘ylab ko‘ring. Nizoli vaziyatni yumshatish raqiblar o‘rtasidagi qarama–qarshi fikrlarni kamaytirish manbai bo‘lib xizmat qilishi amalda sinalgan. Nizoli vaziyat juda tez va oson vujudga keladi. Uni bartaraf etish esa o‘ta murakkab va bosqichma-bosqich hal qilinadi. Muammoni qisman hal qilish, o‘zaro bir-birini yengishdan ko‘ra yaxshiroq usul hisoblanadi.

– Nizoli vaziyatni yechishda obyektiv mezon va imkoniyatlarni aniqlash (masalani yechish uchun muddat, muddatiga ulgurmasa javobgarlik usulini tanlash zarur).

– Amalga oshirilayotgan harakatlarda qarshi tarafning javob reaksiyasini ko‘ra bilish, vaziyatni oldindan bashorat qila olishning aniqligi nizoli vaziyatda harakatlanishda salmoqli ahamiyatga ega. Vaziyatni qanchalik aniq ko‘ra olsak, shuncha kam yo‘qotishlarga uchraymiz.

– «Nizoli vaziyat va munosabatlar ikkimiz uchun ham qo‘l kelmaydi, ko‘z–ko‘zga tushishiga to‘g‘ri keladi, » kabi iboralardan foydalanish mantiqqa ko‘proq to‘g‘ri keladi.

– Kurashni to‘xtatib, masalani tinch yo‘l bilan hal qilishni taklif qiling.

– Nizoli vaziyatda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tan oling;

– O‘zaro yonbosish niyatini (agar, raqib tomonidan kutilayotgan bo‘lsa) oshkor etish, izohlash;

– O‘zaro yon bosishlarni o‘ylab ko‘rish;
– Nizoli vaziyatni qisman yoki butunlay bartaraf etish;
– Agar suhbat natija bermasa, (vaziyatni yanada murakkablashtirmaslik uchun)salbiy hissiyotlarni namoyish qilmang;
– Masalani keyinroq yechishni taklif qiling.
– Nizoli vaziyatni bartaraf etishda, doimiy ravishda qo‘llaniladigan taktik va strategik harakat usullarini nazorat qiling (xulqdagi harakatlarni ham inobatga olgan holda).
– Qilinayotgan harakatlarning muvofiqligini yana bir bor baholang, qayerda to‘g‘ri va noto‘g‘ri harakatlarga yo‘l qo‘yilganligini aniqlang.

Qaltis vaziyatni «ishchi» usulda bartaraf etish

Emotsional zo‘riqish mavjud vaziyatlarda «agressiv himoya» qabilidagi javob reaksiyasi vujudga keladi, bunda tafakkur, diqqat, xotira jarayonlarining faoliyati susayadi. Ayniqsa, aqliy va emotsional zo‘riqish holatlari ko‘p bo‘lganda bu holat kuchli seziladi. *Masalan,* o‘zimiz ishongan, yaxshi bilgan axborotlarimiz ham ba’zida esdan chiqish hollari uchraydi. Bunday bu holat shaxs hissiyotlarining qo‘zg‘aluvchanlik darajasi bilan bog‘liq omil hisoblanadi. Shaxs hissiy holatining barqarorlashuvi natijasida (imtihondan so‘ng), xotirada mavjud bo‘lgan barcha bilimlar yana qayta tiklanadi. Emotsional zo‘riqish holatining salbiy asoratini (mushaklarning taranglashuvi, nafas olish, yurak urishining tezlashuvi, «miyaning bo‘shab qolishi», keraksiz fikrlarni ko‘payib ketishini *bartaraf etish uchun bir qancha usullar qo‘llanadi.*

– 2–3 marta chuqur nafas olib, so‘ng ohista nafas olishga harakat qiling.
– Xayolan qo‘l, oyoqlaringiz, yuzingizni ushlab ko‘ring (mushaklar bo‘shashiga yordam beradi)
– O‘zingizga «O‘zingni boshqara olasan», «Zarbaga bardosh berish zarur» kabi ong buyruqlarini bering.

Sizga qarata aytilgan salbiy fikr, tanqidni to‘g‘ri qabul qilish uchun fikr bildarayotgan shaxsni do‘st deb faraz qilish, hurmatini joyiga qo‘yib, ochiq chehra bilan uning barcha tanqid va fikrlarini bajonidil eshitishga tayyor ekanligingizni ko‘rsatuvchi tashqi qiyofa ifodasini namoyish qiling.

Qaltis vaziyat asoratini bartaraf etish asoslari

Qaltis vaziyatlarda harakatlanish ko‘pincha tomonlarning bir-biriga butunlay qarama-qarshi maqsadlarga erishish holatida kelib chiqishi kuzatilgan. Bunda raqiblarning har biri o‘z harakatlarini rejalashtirayotganda boshqalarning harakatlarini hisobga olib g‘alabaga erishish uchun unga to‘siqlar va qiyinchiliklar yaratadi. Bunda «raqib» tomonlar qanday fikrlayapti va qanday qarorlarga kelyapti, degan masala birinchi o‘ringa chiqadi. Psixologiyada bunday fikriy faoliyat **refleksiya,** ya’ni anglangan javob reaksiyasi hisoblanadi.

Bu jarayon raqibning fikrlari va harakatlariga taqlid qilish orqali o‘z mulohaza va xulosalarini tahlil qilish, fikrlash bilan belgilanadi. Qarama-qarshi harakat mavjud bo‘lganida refleksiv ustun bo‘lgan tomon g‘olib chiqadi. Xodim

uchun jinoyat sodir etayotgan shaxsning harakatlarining oldindan ko‘ra bilish, nafaqat ushbu harakatlarni sezish, balki ularni keyinchalik o‘zgarish xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘z vaqtida jinoiy harakatlarni oldini olishda asqotadi. Bunga faqat keyinchalik maqsadli ravishda ma’lumotlarni to‘plash, o‘rganish, tahlil qilish va ulardan foydalanish jarayonini modellashtirish orqali erishish mumkin.

Raqib xatti-harakatlarini refleksiv boshqarish quyidagilarni *tahlil qilishga asoslanadi:*

- uning umumiy moslashish qobiliyati;
- uning rigidligi, shablonligi;
- xodimning taktik rejalari, qanday ma’lumotlarga egaligi;
- to‘satdan harakat qilish, o‘ylangan qarshi harakatlarni amalga oshirish uchun vaqt va ma’lumot yetishmovchiligidan foydalanish.

Refleksiv mulohazada ustunlikka ega bo‘lish xodimning nafaqat raqib tomon xatti-harakatlarini oldindan ko‘rib, o‘z harakatlarini boshqarishiga, balki uning fikrlash jarayoniga faol ta’sir ko‘rsatishiga, xodim uchun ma’qul qarorga kelishiga asoslar yaratish imkonini beradi.

Xavfli, qaltis vaziyat bartaraf etilganidan so‘ng, xodimda ijobiy hislar vujudga keladi: kayfiyat ko‘tariladi, qaltis vaziyat bilan bog‘liq o‘tmish xotiralar o‘z qiymatini yo‘qotadi. Bo‘lib o‘tgan xavotir va tashvishlar o‘zini oqlamaydi. Xavotirni kutish jarayonidagi emotsional zo‘riqish holati shaxsni kam tashvishlantiradi.

O‘tmish xotiralarni ijobiy baholash shaxs ongida salbiy hislarni keltirib chiqarmaydi, aks holda xotiraga mudhish hislar o‘rnashib qolib, «nohaq», «alamli» manzara ongimizda gavdalanaveradi. Shaxs doimiy ravishda ongda mavjud hissiy holatga, kayfiyatga qaytaveradi. Bunday holat xodimda yanada kuchli zo‘riqish, xulqda salbiy o‘zgarishlarni shakllantirib, ish faoliyati susayishini keltirib chiqaradi.

Qaysi bir holat sizning ruhiyatingizga ko‘proq ta’sir qilishini o‘ylab ko‘ring: 1–2 daqiqalik qaltis vaziyatdagi ruhiy holatmi yoki doimiy ravishda bo‘lib o‘tgan vaziyatni mulohaza qilib, asab tolalaringizni o‘ldirishingizmi?

Bo‘lgan voqeani xuddi shunday bo‘lishi kerakdek qabul qiling. U siz uchun hayotingizda kutilgan voqeadek bo‘lib qolsin. Vaziyat, holatni ijobiy qabul qilish uning muhimlik darajasini susaytiradi, kayfiyat meyoriga kelguncha og‘riqli hislardan uzoqlashishga yordam beradi. Qaltis vaziyat asoratlarini o‘sha vaqtning o‘zida hal qilish zarur.

Xavotirdan qutulish uchun ertangi kunni o‘ylamasdan bugungi kun rejasini amalga oshirishga harakat qiling.

Xulosa qilib aytganda, rejadagi kunlik vazifalarni bajarishga harakat qilish natijasida ish bilan qiziqib muvaffaqiyatsizlikni qisman unutamiz, bu esa qaltis holat bilan bog‘liq his-tuyg‘ularni kamaytirish, vaziyatni o‘z foydamiz yo‘lida

o‘zgartirishga yordam beradi. Kunlik rejani to‘liq bajarish natijasida esa o‘z faolyatimiz, hayotimizdan qoniqish his qilamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Otajanov. Psixoanaliz asoslari. Toshkent “O‘zbekiston” 2004
2. Ageyev V.S. Psixologicheskoye issledovaniye sotsialnix stereotipov 1986
3. Alimov X. Milliylik va ijtimoiy ruhiyat .T., 1992
4. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti. -M.: MGU. 1990.
5. Bobneva M.I. Sotsialniye normi i regulyatsiya povedeniY. -M.: Nauka.

SHAXSNI O‘ZINI BOSHQARISHIDA ADAPTASIYA JARAYONINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Saburov Alisher Ikramovich, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xafvsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, mayor

Yangi xodimlarni kasbga bulgan talablar asosida ishga qabul qilish adaptasiya jarayoninig yengil o’tishini ta’minlovchi shartlardan biridir.

Tashkilot rahbari yangi xodim adaptasiyasini iloji boricha qisqa fursatda va salbiy asoratsiz o’tishiga ko’maklashishi lozim. Bu sohada ilg’orlab ketgan ayrim tashkilotlar ham bo’lib, ularning boy tajribasini tatbiq etish tashkilot mehnat samaradorligini oshirishdagi yana bir qo’shimcha omildir. Masalan, Rossiyadagi “Svetlana” HJda yangi xodimlar adaptasiyasini nazorat etish bo’yicha alohida dastur mavjud bo’lib, unga binoan bu jarayon tizimli ravishda olib boriladi.

Xususan, ma’lum vaqt oralig’ida tashkilotdagi yangi xodimlar tomonidan nazorat savolnomalari to’ldiriladi va adaptasiya darajalari aniqlanadi. Odatda bu ish bilan kadrlar bo’limi, kasbga munosiblik bo’limi mutaxassislari shug’ullanadilar. Mana shu so’rovlar asosida ish sharoitlariga o’rta yoki past darajada moslashayotgan xodimlar aniqlanadi. Keyingi bosqich sifatida adaptasiya jarayoniga salbiy ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi. Bu jarayonga endi tashkilotning yuqori bo’g’in va maxsus bo’limlar xodimlari jalb etiladi. Adaptasiya jarayoni muvaffaqiyatli o’tishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni

bartaraf etish bo’yicha alohida chora tadbirlar majmuasi ishlab chiqiladi. So’nggi bosqich sifatida ushbu tadbirlarning samarasi tekshirib ko’riladi. Bu sanab o’tilgan bosqichlar adaptasiyani tadqiq etish jarayonining asosiy qismlari bo’lib, bu tadbirlarga yosh xodimning mehnat ko’rsatkichlaridan manfaatdor bo’lgan barcha rahbarlarning qatnashishi ko’zda tutiladi.

Moslashish davri ba’zi korxonalarda kasb talablarini o’zlashtirish bilan bog’liq bo’lsa, boshqa tashkilotlarda adaptasiya muddati tashkilotning butkul hayot tarzi bilan uyg’unlashib ketishni nazarda tutadi. Bu borada iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar korxonalarida amalga oshirilayotgan kadrlar siyosatidan kelib chiquvchi tadbirlarni eslab o’tish ham o’rinlidir. Masalan, ko’pgina yapon kompaniyalarida yuqori axloq me’yorlariga ega bo’lish tashkilotning doimo diqqat markazida turadi. Xususan, “Masusita elektrik” kompaniyasida xodimga texnik malaka, korporasiya falsafasi, maqsadi va siyosati bilan sug’orish uchun 8 oy vaqt ajratiladi. Bu moslashuv davri bo’lib, aynan shu vaqt oralig’ida yangi xodim kompaniya qadriyatlari, xulq me’yorlari va madaniyatini o’zlashtiradi. Bunday tarbiya korxona rejalari va iqtisodining ochiq-oydinligi bilan birgalikda olib boriladi, hamda xodimda tashkilot hayotida faol qatnashish motivasiyasini shakllantirishga qaratiladi.

Adaptasiya jarayoni bosqichlari:

Rahbar xodimning yangi mehnat sharoitiga moslashishiga ko’mak ko’rsatar ekan, adaptasiya jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iboratligini nazarda tutishi lozim.

Yangi xodimning tayyorgarlik darajasini aniqlash. Aniqlangan daraja xodim manfaati yo’lida keyingi amalga oshirish lozim bo’lgan tadbirlarni rejalashtirish, zarur resurslarni qo’llash, xodimning tajriba sohasidan kelib chiqqan holda uning qobiliyatlari va malakasi darajasidagi vazifalarni aniqlab olish imkonini beradi. Kasbiy sohadan tashqari xodimning muloqotga moyilligi darajasini bilish tashkilotning kommunikasiya tarmog’iga tezroq kirishib ketishini ta’minlash uchun asos bo’ladi.

Oriyentasiya. Xodimni u bajarishi lozim bo’lgan vazifalar, majburiyatlar bilan tanishtirish. Bu bosqichda amalga oshiriladigan tadbirlarni quyidagi guruhlarga bo’lishimiz mumkin:

(a) Kompaniya asoslari – tashkilot tarixi va hozirgi holati haqidagi asosiy ma’lumot, strategik rejalar, xodimlar va rahbariyat munosabatlari qoidalari,

kasaba uyushmasi faoliyati, mehnat sharoitlari va ish tartibi, ish haqi belgilash tizimi, korxonadagi ijtimoiy ta’minot, maishiy xizmat va imtiyozlar;

(b) Mahsulot – korxona mahsulotlari tarkibi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish tizimi va texnologiyasi, asosiy mahsulot iste’molchilari va narxi, raqobatdosh mahsulotlar orasida tutgan o’rni;

(c) Ishlab chiqarish – ishlab chiqarishga oid qarorlar qabul qilish tartibi va xususiyati, tashkilot rejalari va loyihalar bilan tanishtirish, ishlab chiqarish jarayonining asosiy tamoyillarini o’rganish, bo’limning asosiy vazifalari va mas’uliyat darajasi, hisobot berish asoslari, mahsulotga yo’nalgan boshqaruv uslubini o’rganish va harajatlarni hisoblash, mehnatni muxofaza qilish va xavfsizlik asoslari;

(d) Sotuvlar – tashkilotning bozordagi ulushi va reklama jarayoni, raqobatdosh tashkilotlarning imkoniyatlari, sotuv agentlarining faoliyati, sotuv uslublari;

(e) Asosiy mehnat ko’nikmalari – aloqa vositalari va texnika jihozlaridan foydalanish bo’yicha mashqlar, muomalada bo’lish xususiyatlari, ish joyining xususiyatlari va talablarini o’zlashtirish, notiqlik san’ati, marketing va moliyaga taalluqli asosiy bilimlar, kasb talabidan kelib chiquvchi qo’shimcha malakalarni shakllantirish mashqlari.

Ushbu matndan ko’rinib turibdiki, ilg’or tashkilotlarda xodim adaptasiyasi har tomonlama amalga oshirish ta’minlanadi. Ma’lumot, ko’nikma va malaka jihatlarni bunday qamrab olish yangi xodimning tashkilot xayotiga kirib borishini ta’minlaydi va barcha kuch-g’ayratini tashkilot maqsadi yo’lida safarbar etish imkonini beradi.

Adaptasiyani amalga oshirish. Bu yangi xodimni yangi lavozimga va jamoada mavjud shaxslararo munosabatlar tizimiga moslashtirish jarayonidir. Bu bosqich doirasida yangi xodimning faol harakat qilishi, o’z-o’zini turli jabhalarda sinab ko’rishiga imkoniyat yaratish lozim. Xodimning erishayotgan muvaffaqiyatlari haqida ma’lumot yig’ib boriladi va faoliyati yuzasidan unga zarur tavsiyalar beriladi.

Faoliyat ko’rsatish. Shu bosqichda adaptasiya jarayoni tugaydi va xodim mustaqil ravishda o’z faoliyatini davom ettiraveradi. Bunda xodim uning mehnat faoliyati yunalishida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni o’zi yengib o’tish kuchiga ega bo’ladi.

Odatda, xodimning korxona talab va muhitiga qo’pol moslashuvi 1,5 – 5 yillar atrofida amalga oshadi. Adaptasiya jarayoniga ko’mak ko’rsatish sharoitida esa bu jarayon bir necha oylarda muvaffaqiyatli o’tishi mumkin. Adaptasiya jarayonini bu tarzda qisqartirish tashkilot uchun moddiy jihatdan ham ma’lum

darajada foyda beradi. Ayniqsa bu ko’rsatkich tashkilotga ko’p yangi xodimlar qabul qilingan sharoitda o’z samarasini beradi.

Yangi xodim adaptasiya jarayonining muvaffaqiyatli o’tishida ayniqsa rahbarning o’rni katta. Xodim tashkilot qadrityalarini o’zlashtirar ekan, o’z rahbarini namuna sifatida ko’radi. Adaptasiya jarayoninig boshlang’ich paytlarida rahbardan shaxsan olingan yo’riqnoma va tavsiyalar xodimning esida doimiy saqlanadi. Yangi xodim bilan birinchi hafta davomida va bir oydan so’ng suhbat o’tkazish juda muhimdir. Bunda xodim to’qnash kelayotgan muammolar hal etiladi, kerakli maslahatlar beriladi va xodimni ruhiy qo’llab-quvvatlash amalga oshiriladi. Mana shunday tadbirlar orqali xodim tashkilotga xos xususiyatlarni o’rganib, o’zlashtirib boradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G‘oziyev Ijtimoiy psixologiya . Toshkent “O‘zbekiston” 2011
2. Aleksandrovskiy Y. A. Sostoyaniya psixicheskoy dezadaptatsii i ix kompensatsi Y. M., 1976.
3. Berezin F. B. Psixologicheskaya i psixofiziologicheskaya adaptatsiya cheloveka. L., 1988.
4. Vasilyuk F. YE. Psixologiya perejivani Y. M., 1984.
5.

MAKTAB O‘QUVCHILARINI ESTETIK TARBIYALASHNING AHAMYATI

Paxratdinova Ulbolsin Kerimberdiyevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Kalit so‘zlar: *pedagogika, ta’lim, tarbiya, metodlar, jamiyat talablari, pedagogika tarixi, takomillashtirish, shaxsni shakllantirish.*

Annotatsiya: Maktab o‘quvchilarini estetik tarbiyalashning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda tarbiyaning rolini yoritib beradi, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, metodlari, uni tashkil etishdagi shakllar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ko‘rsatadi. Ushbu maqolada, pedagogikada ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Pedagogika tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va bolaning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o‘zgarib borishini o‘rgatish bilan birga tarbiyaning tarkibiy qismlari, ular o‘rtasidagi mustahkam aloqa va bog‘lanishlarni ochib beradi. Pedagogika fani tarbiyalovchilar va tarbiyalanuvchilarning faoliyatini ham o‘rganadi. Shuningdek, u tarbiyaviy muassasalardagi xodimlarga, ota-onalarga

yoshlarni tarbiya qilish, o‘qitishdagi mahoratini yanada takomillashtrish yo‘lida amaliy tavsiyalar beradi.

Pedagogikaning fan sifatida taraqiy etish jarayoniga turli pedagog olimlar tomonidan turlicha fikrlar beriladi. Pedagogika kontekstlik ma’nosiga ega bo‘lib o‘rganuvchining turli xil faoliyatlarida o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Amerikalik pedagog olim Bernstein fikriga ko‘ra, pedagogika bir insonning ongli faoliyati boshqa bir insonni o‘rganishini ta’minlaydi. Uning fikricha, pedagogika shaxsning yangi jihatlarini kashf qilish, fikrlarni bog‘lash, bilim, amaliyot va shaxs fikrini ta’minlovchi vosita xisoblanadi. Shu bilan birga u o‘qituvchining tashkilotchiligi, boshqaruvchanligi, talaba fikrini tahlil qila olishi va talabaga nisbatan o‘qituvchi masxuliyatini ko‘rsatuvchi xisoblanadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois ta’lim nazariyasi va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ta’lim nazariyasi – shaxsni intellektual jihatdan rivojlantirish, ta’lim jarayonining mohiyati, bosqichlari, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati birligi, o‘qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari kabi muammolarni tadqiq etadi.

Ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta’lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni berishga yo‘naltiriladi. Umumiy ta’lim asosida o‘zlashtirilgan ma’lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga imkon beruvchi maxsus ta’lim olishi uchun asos bo‘ladi. Maxsus ta’lim – o‘zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktab o‘quvchilarini estetik tarbiyalshda ta’sviriy san’at asarlarining o‘rni muhimdir. Buning uchun fan o‘qituvchisidan pedagogik mahorat talab qilinadi. Pedagogik ustoz esa, ta’lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o‘zgarib borishini o‘rgatadi, mukammal inson

tarbiyasining tarkibiy qismlarini va ular o‘rtasidagi aloqa va bog‘lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta’lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo‘llarini o‘rsatib beradi.

Pedagog o‘quvchilarning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini tarbiyalash uchun, ularning kundalik xatti-harakat va fe’l-atvorlariga doimo ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy hayot tajribasining ko‘rsatishicha, agar inson o‘z shaxsiy manfaatini ko‘zlab o‘qisa, o‘rgansa, o‘z ustida tinmay qunt bilan shug‘ullansa, u oliy ma’lumot olishi mumkin. Lekin haqiqiy mukammal kamolot egasi bo‘lishi uchun u ta’lim va ma’lumotdan tashqari, yuksak insoniy fazilatlar asosida tarbiyalangan bo‘lishi shart. Ana shu fazilatlarga ega bo‘lgan odamni tarbiya ko‘rgan odam deyiladi. Ma’lumki, har bir o‘qituvchi-tarbiyachi, o‘quvchi o‘z ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya pedagogika tarixi fanidan xabardor bo‘lmay turib, o‘qituvchilik qilishi mumkin emas. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun uning o‘tmishdagi taraqiyotini bilish kerak. Pedagogika tarixi o‘tmishda ta’lim-tarbiya borasida qanday kurashlar bo‘lgani va qanday qilib ijobiy yoki salbiy yakunlangani, ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o‘zgarishi tufayli pedagogik g‘oyalar, tarbiya muassasalaridagi ishlarning mazmuni va metodlari qanday o‘zgarib borganini, tarixda ijod etgan olimlarning pedagogik g‘oyalari va ularning faoliyatlari bilan tanishtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B.Ziyomuhammedov,Pedagogik mahorat asoslari.2019yil
2. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. O‘qituvchi, 2014.– 123 b.
3. Ochilova G.O., M usaxonova G.O. Pedagogika. 2005 yil.
4. Ibragimov X, Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. 2008 yil.
5. Hoshimov K.,Nishonova S. Pedagogika tarixi. 2015 yil.

KONFILIKTLARNI O‘RGANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK NAZIRIYALARI, PSIXOLOGIK YONDASHUV

Musayev Javohir Hojiakbar o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti 4-kursantlar bataloni 11-kursantlar vzvodi 411-b o‘quv guruhi kursanti

Annotatsiya. Ushbu tezisda konfiliktlarni o‘rganish haqida ijtimoiy-psixologik nazariyalar va ular bilan bir qatorda psixologik yondashuvlar to’liqroq yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inter guruh konfiliktlar, Frustatsiya-agressiya nazariyasi,I jtimoiy identifikatsiya, psixodinamik,kommunikativ,emotsional intellect.

Konfiliktlarni o‘rganishning ijtimoiy-psixologik naziriyalari, psixologik yondashuvlar haqida qisqacha tezislarni keltirish mumkin.

1)Ijtimoiy-psixologik nazariyalar:

Konfiliktning ijtimoiy asoslari: Konfiliktlar ijtimoiy guruhlar,individlar o‘rtasida farqlanishlar va manfaatlar to‘qnashuvi orqali yuzaga keladi. Ijtimoiy psixologiyada ,konfiliktlarni guruhlararo va individlararo munosabatlar,normative tizimlar,resurslar taqsimoti va boshqalar bilan bog’lashadi.

Interguruh konfiliktlari: Tajribalar , qabul qilish va aniqlash usullari, guruhning “biz” va “ular” hislari o’rtasidagi farqlarni yaratishi mumkin. Tajribalar asosida “us-uz” qarama-qarshiliklar rivojlanishi mumkin.

Tug’ilgan imkoniyatlar va to’siqlar : Resurslar yoki manfaatlar cheklangan bo’lsa bu konfliktni kuchaytiradi. Bu psixologik yondashuv resurslani taqsimlashda adolatli bo’lmaslikni yuzaga keltiradi.

2) Psixologik yondashuvlar:

Frustratsiya –agressiya nazariyasi: Konfiliktlar ko’pincha frustratsiya ya’ni o’z maqsadlariga erishishdagi to’siqlarga duch kelishdan kelib chiqadi.Bu to’siqlar agressiv reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

Aloxida shaxsning psixologik holati: Har bir individning xulq-atvori va psixologik holati konfiliktlarda qanday harakat qilishni belgilaydi. Masalan: axloqiy yoki tajribaviy yondashuvlarga qarab, konfiliktni hal etish usullari turlicha bo’lishi mumkin.

Kognitiv yondashuvlar: Konfiliktlar shaxslar o’rtasidagi tafovutlar va noto’g’ri tushinishlar natijasida yuzaga keladi. Kognitiv psixologiya konfiliktni qayta baholash va alternativ yondashuvlarni izlash orqali hal qilishni o’rganadi.

3)Boshqarish va Hal etish strategiyalari:

→ Konfiliktlarni hal etishda psixologik strategiyalar, masalan: murosaga kelish, kompromiss qilish yoki agressiyani nazorat qilish, ijtimoiy-psixologik muhitga qarab tanlandi.

→Taqsimlash, resurslar bilan ishlash yoki o’zaro tushunishni oshirish orqali konfiliktni oldini olish yoki kamaytirish mumkin.

Albatta, yana ba’zi muhim ijtimoiy-psixologik nazriyalar, va psixologik yondashuvlar , ijtimoiy psixologiya kontekstida konfiliktlarni taxlil qilish va ularni samarali hal etish uchun zarur bilimlarni beradi.

Albatta yana ba’zi muhim ijtimoiy –psixologik nazariyalar va psixologik yondashuvlar haqida batafsilroq tushintirish keltiraman:

1) Ijtimoiy- psixologik nazariyalar:

→Realistik konfilikt nazariyasi; Bu nazariyaga ko’ra ,ijtimoiy guruhlar o’rtasidagi konfiliktlar resurslar yoki imkoniyatlar taqsimotidagi tengsizliklardan keltirib chiqaman.Guruhlar o’z manfaatlarini himoya qilish uchun raqobqtlashadilar. Bu turdagi konfiliktlar uzoq muddat davom etishi mumkin va guruhlar o’rtasida dushmanlikni kuchaytirishi mumkin.Masalan: etnik guruhlar yoki sinflar o’rtasidagi ziddiyatlardir.

→Muvafaqqiyat va muvaffaqqiyatsizlik nazariyasi: Bu nazariyaga ko’ra, konfiliktlar odamlarning muvaffaqiyatsizlik yoki muvaffaqiyatni qanday tushuntirishlariga bog’liq bo’lishi mumkin. Agar odamlar muvaffaqiyatsizlikni boshqa kishilarning xulq-atvoriga yoki tashqi sharoitlariga bog’lashsa, bu konfilitlarni yanada kuchaytirishi mumkin.

→Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi: Bu nazariya odamlar o’zlarini ma‘lum bir guruhga oid deb his qilishlari va boshqa guruhlarni “biz” va “ular” tarzida ajratishlari orqali konfiliktlarni tushuntiradi.

Guruhlararo aloqalar va qarama-qarshiliklar odamlarning o’z guruhiga bo’lgan sodiqligi va boshqa guruhlarni salbiy baholashlari tufayli kuchayadi.

Shu tarzda, ijtimoiy-psixologik nazariyalar va psixologik yondashuvlar yordamida konfiliktlarni tahlil qilish va samarali boshqarish mumkin.

17-19 asrlarda ijtimoiy jarayonlarning jadal ravishda rivojlanishi nazariy xulosalarni tahlil qilish uchun katta turtki bo’ldi. Bunda sinflar orasidagi kurash konfiliktning bir shakli sifatida qaralgan . Bularning barchasi konfilikt muammosini ijtimoiy nuqtai nazardan o’rgangan sossiologiya fanlaridagi tadqiqot obyektlaridan biri bo’lganiga ishoradir.

Z.Freyd quyidagi aniq ta’rifni beradi: “Biz psixikaning bo’linishi ruhiy apparatning sintez qilishdagi tug’ma notekisligidan kelib chiqib emas, balki bunday bo’linish dinamik tarzda kechadigan, bir biriga qarama- qarshi yo’naltirilgan ruhiy kuchlarning konfilikti sifatida tushuntiramiz; bo’linish jarayonida biz ikki psixik guruxlarni birining boshqasiga qarshi faol tarzda intilishi natijasini ko’ramiz”An’anaviy psixoanalitik konsepsiyaga ko’ra inson konfiliktli tabiatga xos.

Mahalliy psixologiyada psixologik konfilikt hodisasining to’liqroq va izohli tavsifi V.S.Merlinga tegishli . Muallif ichki shaxsiy konfiliktga quyidagicha ta’rif beradi: “…. Ilgaridan shaxsning turli tomonlar , vositalar, munosabatlar va harakatlari orasida mavjjud bo’lgan yoki yangi paydo bo’lgan qaramaqarshiliklarning kuchayishi sababli shaxsning uzoq vaqt mobaynida yoki nisbatan kam vaqt davomidagi dezentegratsiyasi holati”. U tomonidan psixologik

konfilikt muammosi ishlab chiqilgan shaxsninng konfilikt vaziyatidagi motivatsiyasi tahlil qilingan shaxsning konfilikt vaziyatidagi ijtimoiy-tipik munosabatlari tavsifi berilgan hamda konfiliktli vaziyatning inson xarakteri shakllanishiga tasiri ochib berilgan.

K.Levinkonfilikt tabiatini fundamental jihatdan tadqiq qilgan olimlardan bo'lib uning tahlillari keyinchalik bu sohadagi tadqiqotlar uchun katta zaamin yaratib berdi. Levinning tipologik va vektorli psixologiya tushunchasini o'zida birlashtirgan maydon nazariyasi kuchlarga ega maydonning joylashmasligi holatining tahlilini o'z ichiga oladi. Kuchlar maydoni shu tariqa kesishishi lozimki qarama-qarshi yo'naltirilgan, lekin teng qiymatga ega bo'lgan kuchlar bitta nuqtalarda to'xtashi lozim.

Integratsiya- jamoatchilik kelishuviga erishishning zarur shartlaridan.Jamoatdagi integratsiya insonlarning ijtimoiy faoliyati motivatsiyasini belgilab beruvchi meyorlar va qadriyatlar yo'nalganligi asosiga quriladi.

Me'yorda faoliyat yurishi uchun ijtimoiy tizim boshqa tizimlar tomonidan qo'llab-quvvatlantirishi qaysidir elementi og'ishayotgan bo'lsa uning xulq atvorini minimal darajada bo'lsa ham nazorat qilishi lozim.Jamoatchilik tizimining barqarorligi tizimlar ichidagi o'zaro munosabatlari va tasiri boshqaruvini va ta'siri boshqaruvini amalga oshirayotgan ijtimoiy funksiyalarini majmui bilan tamnlandi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki:turli xil vaziyatlarda ham konfiliktga kelmaslik kofiliktli vaziyatlardan o'zini yo'qotmaslik kerar . Bunday konfiliktlar jamoga xam sovuqchilik olib keladi va qo'yilgan vazifani bajaraolmaslikka olib keladi deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jumayev R, O'tanov B "Konfiliktologiya asoslari"-T. 2015 yil.
2.Ansupova A.Y "Konfiliktologiya" M.T.D 1998 yil
3.Maxmudov R.M "Harbiy psixologiya va pedagogika"
4.Ahmedova M.T "Pedagogik konfiliktologiys"

MILLIY GVARDIYA BO‘LINMALARI HARBIY XIZMATCHILARIDAGI AXLOQIY-IRODAVIY SIFATLARNI BARQARORLASHTIRISHDA HARBIY RITUALNING AHAMIYATI

Abdullajanova Dilnozaxon Sultanbekovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc).,

Zohirov Nodirbek Ulug‘bekovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, leytenant.

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilardagi axloqiy-irodaviy sifatlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda uning namoyon bo‘lishida harbiy ritual(marosim)larning ahamiyati xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Harbiy xizmatchilar, axloqiy-irodaviy sifatlar, jasorat, qahramonlik, harbiy ritual(marosim) va boshqalar.

Аннотация: В данной статье говорится о взаимозависимости нравственных и волевых качеств военнослужащих и значении воинских ритуалов (церемоний) в ее проявлении.

Ключевые слова: Военнослужащие, морально-волевые качества, мужество, героизм, воинский ритуал и др.

Abstract: This article talks about the interdependence of the moral and volitional qualities of military personnel and the significance of military rituals (ceremonies) in its manifestation.

Key words: Military personnel, moral and volitional qualities, courage, heroism, military ritual, etc.

XXI asrdagi dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi ziddiyatli muammolar keskinlashayotgan bir davrda, yaratilayotgan zamonaviy texnologiyalar evaziga harbiy xizmatchilarning ehtimoliy urushdagi ahamiyati tobora kamaymoqda. Har bir rivojlanish jarayonida bo‘lgan davlatlarda harbiy soha ham boshqa yo‘nalishlar singari takomillashib bormoqda. Xususan, texnika taraqqiyoti asrida harbiy xizmatchilarning axloqiy-irodaviy sifatlardan sanalgan shaxsiy jasorati hamda

qahramonligi nisbatan pasayganligi oqibatida, ulardagi intellektual salohiyat va stressbardoshlilik eng muhim masalalardan hisoblanadi. Har bir davlat o‘z mudofaa sanoatini takomillashtirar, raqamlashtirar ekan, ahamiyati kamayayotgan yo‘nalishlarga urg‘u qaratsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jahondagi ikki yoki undan ortiq davlatlar aralashuvi xususida kechayotgan urushlarda, harbiy xizmatchilarning axloqiy-irodaviy sifatlari yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Harbiy xizmatchilardagi axloqiy-irodaviy sifatlarning yuksak ko‘rinishida esa, harbiy rituallarning ahamiyati ham o‘rinlidir.

Dunyo mamlakatlaridagi statistik ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, psixologik holat va stressga chidamlilik bo‘yicha, Amerika Qo‘shma Shtatlarda, Mudofaa vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 100 000 harbiy xizmatchiga 20 dan ortiq o'z joniga qasd qilish sodir bo'ladi. Bu tinch aholi sonidan yuqori.

NATO tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, jangovar harakatlarga jalb qilingan harbiy xizmatchilarning 30% ga yaqini travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD) ni boshdan kechiradi.

- Intizom hamda motivatsiya bo‘yicha,

Rossiyada harbiy prokuratura har yili 1000 ga yaqin “dedovshina” (harbiy mojarolar) holatlarini qayd etadi.

G‘arb mamlakatlarida yosh harbiy xizmatchilarning 15% gacha harbiy xizmatga moslashish muammolari tufayli shartnomani to‘liq bajarmaydi.

- Korrupsiya va axloqiy sifatlar bo‘yicha,

Korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda harbiy xizmatchilarning ma'naviyati pasaygan. Misol uchun, ba’zi qo‘shinlarda 40% gacha harbiylar qo'mondonlikka ishonmaydi.

BMT tinchlikparvarlik missiyalarida o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilish va harbiy xizmatchilarning axloqsiz xatti-harakatlari kuzatilayotganini qayd etib, bu armiyaga bo‘lgan ishonchni susaytirmoqda.

O‘zbekistonda harbiy xizmatchilarning axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Ijtimoiy omillarning ta’siri. Oila va maktablarda vatanparvarlik tarbiyasining turli darajalari.
- yoshlar, ayniqsa, xizmatga qo‘shilayotganlar o‘rtasida fuqarolik ongining yetarli darajada emasligi;
- Globallashuvning ta'siri va an'anaviy jangchi fazilatlarini zaiflashtirishi mumkin bo'lgan begona madaniy qadriyatlarning tarqalishi.
- Harbiy ta’lim tizimining muammolari
- kursantlar va harbiy xizmatchilarning shaxsiy va ma'naviy rivojlanishi uchun imkoniyatlarning cheklanganligi.
- Psixologik chidamlilik va stressga chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning etishmasligi.
- Harbiy xizmatchilar bilan chuqur individual ishlamasdan, tarbiyaviy ishlarga rasmiy yondashuv.

3. Yoshlarning psixologik va shaxsiy xususiyatlari yosh harbiy xizmatchilarning stressga chidamlilik darajasining pasayishi.

Liderlik qobiliyatining yo‘qligi va qiyin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati. Muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning ayrimlarida infantilizmga moyillik va tartibsizlik.

4. Iqtisodiy va maishiy omillarning ta’siri harbiy xizmatchilarni xizmatdan chalg'itishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar (masalan, oiladagi moliyaviy muammolar). Harbiy qismlarning madaniyat va sport inshootlari bilan yetarli darajada ta’minlanmagani shaxsni rivojlantirish imkoniyatlarini pasaytiradi.

5. Harbiy mafkurani kuchaytirish zarurati harbiy xizmatchilarda mamlakat xavfsizligi uchun yuksak mas’uliyat hissini shakllantirishga yetarlicha e’tibor berilmayapti. Harbiy ta’lim tizimini zamonaviy chaqiriq va tahdidlarni hisobga olgan holda modernizatsiya qilish zarurati.

Axloqiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishda harbiy marosimlarning ahamiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, harbiy marosimlar harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy va irodaviy fazilatlarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi, tartib-intizom,

ahillik, mas’uliyat va xizmat burchini bajarishga shaylikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, intizom va tashkilotchilikni shakllantirish: Harbiy marosimlar, ya’ni qasamyod, marsh, bayroq ko‘tarish va boshqa marosimlar harbiy xizmatchilarda tartib, aniqlik va mas’uliyat tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Marosimlarda muntazam ishtirok etish jangovar sharoitlarda kuchli irodali fazilatlarning namoyon bo'lishi uchun zarur bo'lgan o'zini tuta bilish, tafsilotlarga e'tibor va mehnatsevarlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, Vatanga burch va sadoqat tuyg‘ularini rivojlantirish: Qasamyod, sukut daqiqalari, gulchambarlar qo‘yish va boshqa vatanparvarlik ruhidagi marosimlar harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy e’tiqodini mustahkamlaydi, ularda or-nomus, qasamyodga sadoqat, Vatan yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishga shaylik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Bu axloqiy barqarorlikni va ekstremal vaziyatlarda qiyin qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Uchinchidan, Hamjihatlik va jamoaviy ruh: Marosimlarni birgalikda bajarish kollektivizm, do'stlik va o'zaro yordamni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, salomlashish, xayrlashish, qo‘shinlar safiga qabul qilish marosimlari o‘rtoqlarning qo‘llab-quvvatlashiga ishonch hissini uyg‘otadi, bu jangda matonat va jasorat ko‘rsatishda ayniqsa muhimdir.

To‘rtinchidan, Hissiy barqarorlik va stressga chidamlilik: Marosimlarda muntazam ishtirok etish barqarorlik va ishonch hissini yaratadi, tashvishlarni kamaytiradi va qiyin xizmat sharoitlariga osonroq moslashishga yordam beradi. Bu xavf-xatarga qarshi chidamlilik, chidamlilik va o‘zini tuta bilishga yordam beradi.

Beshinchidan, An’analar va harbiy sharafni saqlash: Harbiy marosimlar oldingi avlodlarning an'analari, tajribalari va qadriyatlarini etkazadi, harbiy xizmatchilar uchun axloqiy kompas yaratadi. Bu harbiy burchga sodiq qolishga yordam beradi, tarixga hurmat va o‘tmishdoshlar ekspluatatsiyasini tarbiyalaydi, yuksak ma’naviy mas'uliyatni shakllantiradi.

Oltinchidan, Qat’iylik va qahramonlikka tayyorlikni tarbiyalash: Qahramonlarni taqdirlash, unvonlar berish, taqdirlash bilan bog‘liq tantanali

marosimlar harbiy xizmatchilarga ibrat bo‘lib, qahramonlik, shijoat va harbiy xizmatning yuksak talablarini bajarishga intilish hissini uyg‘otmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, harbiy marosimlar harbiy xizmatchilarda axloqiy va irodaviy fazilatlarni shakllantirishning kuchli vositasidir. Ular intizom, vatanparvarlik, stressga chidamlilik, jamoaviy ruh va ma’naviy mas’uliyatni rivojlantirishga hissa qo‘shadi, bu esa pirovardida askarlarni rasmiy va jangovar topshiriqlarni bajarishga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” VM 1059 son Qarori. – T.: – 2019 yil 31 dekabr.
2. Брихин М. Воля и волевые качества // Психология личности и социалистическом обществе. – М.: 2001. – 340 с.
3. Davila J. Marriage // Encyclopedia of Stress In 3 vol. / Ed. By G. Fink. Vol. 2. SanDiego: Acad. Press, 2000.
4. Висоцкий А.И. Возрастная динамика волевой активности школьников и методы ее изучения: Автореф. докт. дис. Л: 2002. – 40 с.
5. Иванников В.А. Психологические механизмы волевой регуляции М.: 1998. – 218 с.
6. Ильин Е.П. Психология воли. СПб: Питер, 2009. – 324 с.
7. Мащенко В.Ф. Психологические особенности морально – волевых качеств личности трудно воспитуемых подростков. автореф канд.психол. наук. Киев.: 1998. – 24 с.
8. Пуни А.Ц. Психологические основы волевой подготовки в спорте.– М.: 1999.– 176 с.
9. Lauvee Y., Mey-Dan M. Patterns of Change in Marital Reiations Among Parents of Children With Cancer // Heaith and Sc. Work. 2003. Vol. 28, N 4.
10. Rodrigues M. et al. Listening to Mothers: Qualitative Studies on Motherhood and Depression From Goa India // Soc. Sci. and Med. 2003. vol. 57.

ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРДА ҲИССИЙ-ИРОДАВИЙ БАРҚАРАРЛИКНИ ШАКЛЛНАТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Тошкент халқаро молиявий бошқарув ва технологиялар университети
Психология ва педагогика кафедраси

профессори в/б, психология фанлари доктори (DSc),

доцент, Душанов Рустам Хужанович

Давлатимиз мустақиллигини муҳофаза этиш, унинг сарҳадларини ишончли ҳимоя қилиш, халқимиз тинч ва осойишта хаёти хавфсизлигини таъминлаш, ҳар қандай кўринишдаги тажовузлардан сақлаш - Қуролли Кучларнинг асосий вазифаси ҳисобланади[51].

Бугунги кунда Ўзбекистоннинг замонавий Қуролли Кучлари ҳарбий фаолият шароитида ишончли ва самарали, тезкор ҳаракат қиладиган инсон масаласига етарли эътибор қаратаётганлиги сир эмас. Бу эса шахсий таркибнинг маънавий-психологик ҳолати ва психик барқарорлиги ҳамда ҳар қандай шароит ва вазиятдаги берилган вазифани бажаришдаги тайёргарлик қобилиятини оширишини таъминлайди. Бу вазифани амалга ошириш учун шахсий таркибнинг таълим ва тарбия жараёнини ташкиллаштирилишини қайта кўриб чиқиш заруриятини туғдиради.

Профессионал армияни шакллантириш жараёни, ўз навбатида ҳарбий хизматчилар шахсида маълум бир ижтимоий-психологик, индивидуал-шахсий хусусиятлар мавжуд бўлишини талаб этиб, бу ҳарбий соҳада илм-фан ва техника ютуқларини татбиқ этиш билан ҳам боғлиқдир.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг «Мени энг катта хавф нимада, деган савол қийнайди. Энг катта хавф – кадрлар савияси, билими, илми ва фидойилигида. Минг афсуски, энг оғир масала шу» -деган фикрлариида катта фалсафий маъно бор[52].

Шу нуқтаи назардан, Қуролли Кучларимиз ҳарбий бўлинмалари жанговар тайёргарлиги, маънавий-ахлоқий муҳити, ҳарбий хизматчиларнинг хизмат фаолияти самарадорлиги даражаси ва пировардда мамлакат мудофаа қобилиятига салбий таъсир кўрсатувчи ижтимоий-ҳарбий омилларни бартараф этиш масаласи қўшинларда тарбиявий ишларни ташкил этиш, ҳарбий тартиб-интизомни мустаҳкамлаш, шахсий таркибнинг маънавий-ахлоқий тарбияси

[51] Мустақил Ўзбекистон ҳимояси йўлида. Мудофаа вазирлиги, - Т.: 1997. - Б. 195.

[52] Шавкат Мирзиёевнинг 14 август куни мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича 2019 йилнинг биринчи ярмида амалга оширилган ишларни муҳокама қилиш ҳамда 9 ой ва йил якуни бўйича белгиланган прогноз параметрларига эришишни таъминлайдиган устувор вазифаларга бағишланган кенгайтирилган йиғилишдаги нутқи. 55 / 15.08.2019 187124. kun.uz / Ўзбекистон Президент матбуот хизмати.

самарадорлигини ошириш ва такомиллаштиришга доир расмий ҳужжатларда[53] ҳам ўз аксини топган. Ушбу жараёнда белгиланган талаблардан келиб чиққан ҳолда, ўқув-жанговар вазифаларни бажаришга салбий таъсир кўрсатувчи ҳарбий хизматчилар шахсидаги турли салбий эмоционал-психологик хусусиятларини психокоррекция қилиш, ижобий ижтмоий-психологик муҳитни шакллантириш, шахсий таркибни маънавий-психологик барқарорлигини сақлаб қолиш, ҳарбий жамоа муҳитини ривожаланиш динамикаси доимий назорат қилиш билан боғлиқ вазифани ўз ичига қамраб олувчи психологик хизматни ташкил этиш давр талабидир.

Ҳарбий хизматчиларнинг ўз касбий вазифаларини маъсулият билан бажариши энг аввало унинг иродавий фазилатларининг қанчалик даражада шаклланганлиги билан боғлиқ. Шу сабабли, ҳарбий хизматчиларнинг ўзига хос иродавий хусусиятларини ўрганиш, касбий фаолиятининг самарадорлигини белгиловчи омиллар, шунингдек, ушбу фаолиятнинг психологик жиҳатларини таҳлил қилиш, шу орқали бу фаолиятни такомиллаштиришнинг психологик механизмларини ишлаб чиқиш ва йўлга қўйиш давр талабидир.

Касбий фаолият ҳарбий хизматчиларга кўплаб турли хил талаблар қўяди, улар орасида энг муҳимларидан бири – шахсда касбий муҳим хислатларнинг ривожланганлик даражаси бўлиб**,** улар ўз навбатда қуйидагилардан иборат: Ҳарбий хизматчи шахсига хос ҳислатларнинг касбий-психологик йўналганлиги; ҳарбий хизматчининг психологик тайёргарлиги; ривожланган иродавий хислатлар; ностандарт вазиятларда ўзини тута билиш, жасурлик, мардлик, оқилона таваккалга мойиллик; яхши ривожланган коммуникатив хислатлар; турли тоифадаги шахслар билан тезда алоқага кириша олиш, ишончли муносабатлар ўрната олиш ва сир сақлай олиш; турли хил хизмат вазифаларини бажаришда одамларга психологик таъсир кўрсата олиш қобилияти; ролга, бошқа қиёфага кира олиш; ривожланган, касбий жиҳатдан муҳим билиш хислатлари: кузатувчанлик ва диққатлилик, ривожланган хотира, ижодий тасаввур; ривожланган мантиқий тафаккур, мураккаб ақлий ишга мойиллик, фаросат, ривожланган интуиция; зийраклик, мураккаб вазиятдан чиқиб кета олиш.

Ушбу хислатларнинг ҳарбий хизматчи шахсида бўлмаслиги ёки етарли ривожланмаганлиги унинг ўзини ўзи идора қила олмаслигида намоён бўлади. Бу эса, унинг ўз касбига мослаша олмаслиги ва касбий бузилишига олиб келади ҳамда руҳий зўриқиш (стресс) ҳолатлари сари етаклайди.

Асабий зўриқиш ҳарбий хизматчи фаолиятининг юқори экстремаллиги, низоли вазиятлар шароитида ҳаракат қилиш, турли стрессни вужудга келтирувчи ташқи омиллар таъсири, меъёрланмаган иш куни, фаолиятида салбий ҳис-ҳаяжонларнинг мавжудлиги туфайли юзага келадиган катта

[53] Қаранг: Директива Министра обороны Республики Узбекистан № Д-7 от 3 апреля 2003 года “Об организации воспитательной работы в войсковых частях и учреждениях Министерства обороны РУз и мерах по повышению ее эффективности”.; Директива Министра обороны Республики Узбекистан № Д-16 от 15 июня 2003 года “О повышении эффективности духовно-нравственного воспитания в воинских частях и учреждениях Министерства обороны Республики Узбекистан”.

жисмоний ва руҳий зўриқиш билан боғлиқ. Чунки ходим касбий фаолиятида турли хил мураккаб шароитларга дуч келади.

Ҳарбий хизматчига ҳар куни турли (кўпинча, стресс хусусиятига эга бўлган) омиллар таъсир этади. Бу эса, ўз навбатида, чарчаш, ҳолдан тойиш, турли салбий ҳиссий ҳолатларнинг юзага келиши, касбий хизмат фаолиятидаги камчиликларга ва руҳиятида бузилишларга олиб келади.

Ҳарбий хизмат фаолиятида ўз руҳий-иродавий ҳолатини бошқариш зарур бўладиган вазиятлар тез-тез юзага келади. Руҳий ва жисмоний зўриқишлар ҳаддан ташқари катта бўлганда, асабийлашиш юзага келади. Бу эса фаолият самарадорлигини пасайтиради ва унинг нотўғри ташкил этилишига, ишда жиддий хато ва камчиликларга олиб келади.

Бунда вазиятларнинг такрорланиши кўпинча хизматчининг руҳиятидаги бузилишларга, ўзига бўлган ишончнинг йўқолишига, асабий зиқлик (депрессия)ларга олиб келади.

Бугунги кунда ҳарбий хизматчининг касбий-психологик тайёргарлиги ўзларининг касбий фаолиятида муҳим роль ўйнайди. Ҳарбий хизматчининг инсон ва унинг руҳиятини узвий равишда қамраб оладиган касбий маҳорати нафақат махсус билимлардан, балки касбий-психологик тайёргарликдан ҳам ташкил топади. Агар унинг бундай тайёргарлиги бўлмаса, ҳақиқий маҳорати ҳам бўлмайди. Шу муносабат билан ҳарбий хизматчининг касбий фаолият самарадорлигини таъминлайдиган зарур, профессионал жиҳатдан муҳим хислатларини ривожлантириш, фаолиятининг ишончлилигини оширувчи, одамлар билан моҳирона ишлашига ёрдам берувчи усулларни ўзлаштиришлари жуда муҳим. Шу боис энг оддий усуллар, яъни ўзини ўзи бошқаришнинг энг оддий усулларини қўллашдан кўзланган мақсад ҳарбий хизматчига хизмат доирасидаги ҳаракатларини муваффақиятли бажариши учун мақбул ички шароитни яратишда ёрдам беришдан иборат.

Бунда қуйидаги бир қатор жиҳатлар назарда тутилади:

– инсоннинг ўзига нисбатан ижобий установкани мустаҳкамлаш («Мен бунинг уддасидан чиқаман»), ўзига ишонч ҳиссини ошириш;

– ҳиссий-аффектив жараёнларни (айниқса, таваккал, қўрқинч ҳисси, касбий ҳаракатларни амалга ошириш учун зарур бўлган вақт тақчиллиги кабиларни) уйғунлаштириш ва фаоллаштириш;

– хизмат вазифаларини бажаришга тайёргарлик кўриш чоғида диққатни ошириш;

– хизматдаги оғир меҳнатдан кейин дам олишга ўтишни тезлаштириш;

– хизмат фаолияти узоқ вақт чўзилганда функционал тайёрлик ва иш қобилиятининг юксак даражасини сақлаб туриш.

Ўзини ўзи бошқаришнинг энг оддий усулларини қўллаш, биринчи навбатда, рағбатлантирувчи ва йўналтирувчи бошқарувни кучайтиради. Уларга ҳарбий хизматчининг ўзига, ўз имкониятларига, кутилаётган касбий натижаларига нисбатан ижобий майлларни кучайтириш ва салбий майлларни бартараф этиш киради. Аввало, оптимистик касбий кайфиятни яратиш назарда

тутилади. Қўрқув, монотонлик, антипатияни бартараф этишга қаратилган руҳий ўзини ўзи ишонтириш шакллари ҳам шунга киради. Оптимал руҳий ҳолат тақдир совғаси эмас. Ўз ҳис-туйғуларингизни бошқариш, қийинчиликларни енгишга тайёрланиш, вақтинчалик хизмат омадсизликларининг таъсири ҳамда бўлғуси фаолиятдан қўрқишни йўқ қилиш учун мунтазам равишда ўз устида ишлаш талаб қилинади.

Ҳарбий хизматчилар ўзини ўзи бошқаришнинг энг оддий усулларини эгаллашларида фойдаланиш учун ярайдиган қандайдир универсал усулни таклиф этиб бўлмаслигини ҳисобга олишлари зарур. Ўзини ўзи бошқаришнинг энг оддий усулларини ҳарбий хизматчининг табиатига, фаолиятига хос хусусиятларни, унинг темпераментини ва кўплаб бошқа ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда махсус танлаш керак.

Тегишли машқлар учун қуйидаги усуллар тавсия этилиши мумкин.

Мантиқ усулларидан фойдаланиш. Жуда кўп ҳолларда қарор топган шароит ҳарбий хизматчидан вазиятни қизишмасдан таҳлил қилишни талаб этади. Бунда у, аввало, ўзини айни дамдаги руҳий ҳолати, ноадекват асабий зўриқиши оқилона эмаслигига, сўнгра эса – бошқача йўл тутиш мақсадга мувофиқлигига ишонтириши керак.

«Мен энг тажрибалиман», «Мен ҳамма нарсани қила оламан», «Мен ҳар қандай вазифани бажара оламан» каби *индивидуал жиҳатдан муҳим бўлган ўзини ўзи ишонтириш усули* жуда самаралидир. Ушбу ўзини ўзи ишонтириш қобилиятини улардан кундалик амалиётда юзага келадиган қийин вазиятларни бартараф этиш учун рағбат сифатида доимий фойдаланиб, албатта машқ қилдириш керак.

Ўзига ўзи буйруқ бериш усулидан фойдаланиш. Интизомли ҳарбий хизматчи вазифани баришим «Керак!», «Бардам бўл!», «Чида!», «Ишла!» каби ички буйруқлар ёрдамида ўзини яхши бошқариши мумкин. Ана шундай ўзига ўзи бериладиган қўшимча буйруқлар ёрдамида ўзини мажбурлаш қобилиятини мунтазам равишда машқ қилдириш муҳим. Охир-оқибатда ички нутқ ва ҳаракат ўртасида ўзига хос чамбарчас алоқа ўрнатилиши керак. Ўзига берилган буйруқ бунда қўшимча кучга эга бўлади, ўзига хос ишга туширувчи рағбатга айланади.

Образлардан фойдаланиш усули. Бадиий тафаккурга мойил шахсларга «кимнидир тақлид қилишга» асосланган усул ёрдам беради. Тақлид қилиш учун образни тасаввур қила олиш, керакли ролга кира олиш ўз хатти-ҳаракати услубига эга бўлишга ва нафақат ўз ҳолатини бошқаришга, балки, керак бўлганда, рақибга руҳий таъсир кўрсатишга ҳам ёрдам беради.

Вазиятларни мақсадга йўналган тарзда тасаввур қилиш усули. Бирон бир ишга киришишга ёки асабий зўриқишни йўқотишга тасаввур қилишдан фойдаланиш ёрдам беради. Қандайдир касбий ҳаракатни бажаришга тайёргарлик кўриш чоғида ҳарбий хизматчига, масалан, қаҳрамонона ҳаракатлар ва бошқалар билан боғлиқ вазиятларни, ҳис-туйғуларга бой саҳналарни эслаш тавсия этилади.

Ўзни чалғитиш усуллари. Ўзини ўзи бошқаришнинг фаол усулларидан фойдаланиш қийин бўладиган ҳолатлар бўлиши мумкин. Кўпинча бу сезиларли

чарчаш, тушкунлик кайфиятлари билан боғлиқ бўлиши мумкин. Бундай вазиятларда руҳий зўриқишни турли хил чалғитиш воситалари ёрдамида йўқ қилиш мумкин. Бу воситалар вазифасини кўп марта қизиқиб ўқиладиган китоб, мусиқа, ёқиб қолган фильм ва бошқалар бажариши мумкин.

Мускуллар тонусини онгли равишда бошқариш. Мускуллар тонуси – ҳиссий ҳолатнинг кўрсаткичларидан бири. Одатда, норационал асабий-руҳий зўриқиш мускулларнинг кераксиз зўриқиши билан бирга кечади, бу эса, ўз навбатида, асабий зўриқишни янада оширади. Бунда мускуллар тонусини, масалан, инсон юзидаги мускуллар тонусини ихтиёрий бошқариш маҳорати катта аҳамиятга эга бўлади. Қовоғингизни солишингиз, хафа бўлгандек қиёфага киришингиз билан ҳақиқатан ҳам қайғу босади. Ва, аксинча, жилмайиш мўъжиза яратишга қодир. Оғир вазиятда ҳам жилмая олиш, ўринсиз тортинчоқликни ташлаш, руҳий зўриқишни йўқотиш инсоннинг ўз имкониятларини яхшироқ рўёбга чиқариш қобилиятини оширади.

Нафас олишнинг ўзини ўзи бошқариш воситаси сифатида аҳамияти. Юқорида таъкидлаганимиздек, нафас олиш ҳиссий-иродавий ўзини ўзи бошқариш тизимида муҳим ўрин тутади. Тўғри нафас ола билиш ўзини ўзи бошқариш усулларини эгаллашдаги муваффақият учун асос бўлади. Қуйида нафас олиш машқлари батафсил ёритилади. Ҳарбий хизматчилар тезда ўзини қўлга олиш, тинчланиш ёки, аксинча, ўз тонусини кўтариш зарур бўлганда энг оддий нафас олиш усулларини муваффақиятли қўллашлари мумкин.

Руҳий ҳолатни бошқаришда нафас олиш мароми алоҳида аҳамият касб этади. Тинчлантирувчи маромда ҳар бир нафас чиқариш нафас олишга қараганда икки марта узоқроқ амалга оширилади.

Санаб нафас олиш усули яхши натижа беради. Бу усулда санаб нафас олинади. Тинчланиш зарур бўлганда: 1,2,3,4 деганда нафас олинади, сўнгра 1,2,3,4 деганда нафас чиқарилади, кейин 1,2,3,4,5 деганда нафас олинади ва 1,2,3,4,5 деганда нафас чиқарилади. Шу тариқа нафас олиш ва чиқариш 12 сониягача узайтирилади. Бунинг натижасида нафасни сунъий равишда ушлаб туриш юзага келади ва бу ўз-ўзидан ҳиссий зўриқишни бартараф этишга олиб келади.

Аксинча, тонусни кўтариш, фаоллаштириш керак бўлганда, бунинг тескариси қилинади. Нафас олиш ва чиқариш 12 сониядан бошланиб, аста-секин 4 сониягача қисқартирилади. Нафас олиш ва чиқариш тезлашади, кучланиш ошиб боради.

Бошқа усул – нафасни ушлаб туриш. Бир қатор ҳолларда кескин асабий зўриқишни бартараф этиш учун чуқур нафас олиб, 20-30 сонияга нафасни ушлаб туриш мумкин. Шундан кейинги нафас чиқариш ва кетидан келадиган такрорий чуқур компенсатор нафас олиш аҳволнинг барқарорлашишига ёрдам беради.

Ўзини ўзи бошқаришнинг юқорида таклиф этилган оддий усулларининг ҳар бири, табиийки, чуқурлаштирилиши ва кенгайтирилиши мумкин. Шу боис аввал характерингиз ва темпераментингизга кўпроқ мос келадиганларини, мунтазам равишда қўллаш учун энг қулай кўринганларини танлаш зарур. Ўзин-

гизнинг индивидуал хусусиятларингиз танлов мезони бўлиши керак. Бундан ташқари, ўзини ўзи бошқариш усуллари йўналиши бўйича фарқланиши мумкинлигини инобатга олиш зарур. Бир вазиятда улар асабий зўриқишни бартараф этиш, тинчланиш, меҳнат қобилиятини тиклашга ёрдам берса, бошқасида – сафарбарликка, хизмат шароитларига энг мос келадиган руҳий ҳолатга киришга ёрдам беради.

Шунинг учун психолог ва шифокор мутахассислар бу борада қуйидагича маслаҳат берадилар:

- ҳамма касалликларнинг асоси асабдан эканлиги маълум экан, уйда ва ишда асабийлашмасликка ҳаракат қилиш, ўзаро муносабатларда бошқа одамларнинг қадр-қимматини сақлашга интилиш лозим;
- одамлар билан муносабатга киришишда ва бирор иш билан шуғулланаётганингизда ҳар доим самимий бўлишга интилинг;
- бекорчи бўлманг, доимо нима биландир машғул бўлинг;
- одамларга беферқ бўлманг, доимо уларни қўллаб-қувватланг, яхшилик қилишга кўпроқ интилинг;
- ҳаётда одамларни ҳурмат қилишга ҳаракат қилинг, чунки у кишига катта куч беради, унинг жисмоний ва руҳий имкониятларини кўпайтиради;
- доимо ҳаракатчан бўлинг, руҳият соғломлигида ва узоқ умр кўришда бу ҳам жуда зарур омилдир;
- имкониятингиз етганча камтар бўлинг, манманлик умр заволи эканлигини унутманг.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH XIZMAT FAOLIYATIDA HARBIY XIZMATCHILAR IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA YENGIL ATLETIKA VA SPORT PSIXOLOGIYASINI BOSHQARISHNING O‘RNI

РОЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ФИЗКУЛЬТУРОЙ И СПОРТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ОБРАЗА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В СЛУЖЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

THE ROLE OF ATHLETICS AND SPORTS PSYCHOLOGY MANAGEMENT IN FORMING THE IMAGE OF MILITARY SERVANTS IN THE SERVICE ACTIVITY OF ENSURING PUBLIC SAFETY

Norqulov Shokir Muzaffarovich –
Jizzax davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak harbiy xizmatchilar va jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning psixologik pedagogik bilimlarini integratsiya jarayonning ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqa prinsiplprining ayrim jihatlari yoritilib berilgan.

Tayanch so‘zlar: boshlangich ta’lim, o‘qituvchi, integratsiya, komponent, psixologik pedagogik, prinsiplar,bilim, ko‘nikma, malaka.

Kirish: Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘daklardan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini ta’kidlaganlar. Zamonaviy jismoniy madaniyat o‘qituvchilari ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang‘ich ta’limning integrativ xarakterini, o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo‘nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgandagina bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi samarali bo‘ladi. Tadqiqotning maqsadi: Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik bilimlarini integratsiya jarayonning samaradorligini oshirish. Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi: adabiyotlar taxlilini o‘rganib chiqish; - boshlang‘ich maktab fanlarining integratsion aloqalarini ishlab chiqish; - psixologik - pedagogik

integratsiyani maxsus prinsiplari ishlab chiqish; Integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Bir qator ishlar boshlang‘ich ta’limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag‘ishlangan. Bu muammolar o‘quv fanlarini integratsiyalashga o‘tishning yaqin rivojlanish zonasidir1 . Boshlang‘ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan bo‘lib, qaramaqarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama - qarshiliklar ko‘p. Integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko‘rib chiqaylik. «Integratsiya» so‘zi lotincha integratio – tiklash, to‘ldirish, «integer» - butun so‘zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

- Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon. - Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Differensiatsiya fransuzcha - (diffe’rentiofion lotincha differentia - farq, har xillik, ya’ni butunni bo‘laklarga bo‘lish, ajratish. Ta’lim mazmunini integratsiyalash - dunyo an’anasi (g‘oya, fikr, intilish). Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning ob’ektiv yaxlitligini aks ettiradi (tabiat- jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo‘lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi [3]. Ta’lim jarayonida integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog‘liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o‘rganish ob’ektining yaxlitligi tartibga solinadi. Zamonaviy didaktik va metodikada ta’kidlanishicha, o‘quvchilarni o‘qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o‘z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo‘lga solish zaruriyatini tushunishlari, jismoniy tarbiya kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog‘liq. Avvalom bor o‘qituvchilarning amaliy texnologiya tayyorligi qanchalik chuqur va ko‘p qirrali bo‘lmasin tayyorgarligi bilan to‘ldirilgan bo‘lishi kerak. Shu vaqtda psixologik-pedagogik integratsiya tizimini to‘g‘ri tanlamoq lozim[4]. O‘ylaymizki uchta har hil, lekin bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan komponentlarni metodologik, texnologik va shaxsiy integratsiyasi bor vaqtda psixologik-pedagogik bilimlarni o‘rganish ancha oson, tez va produktiv bo‘ladi. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: - birinchisi nazariy bilimlarga ega bo‘lish va metodologik refleksiya tajribasini oshirish orqali. - ikkinchi komponent metodik va texnologik darajadagi psixologik-pedagogik bilimlarni o‘z ichiga oladi. - uchinchi komponent funksiyasiga-pedagogning shaxsiy rivojlanishi, o‘z-o‘zligini shakllanishi kiradi. Yuqoridagi komponentlar o‘z ishlarida quyidagi talablarga javob berishi kerak: - bilim olish bo‘lajak o‘qituvchining kerakli hususiyatlarini va ish turlarini shakllantirishga qarab olinishi kerak; - psixologik-pedagogik fanlar strukturasi bilimga ega bo‘lish protsessidan ko‘ra bilimga ehtiyojni oldinroq bo‘lish sharoitlarini yaratib berishi kerak; - bo‘lajak o‘qituvchining imkoniyat, xususiyat, forma va metodlarni birligini tajribada amalga oshirish

sharoitlarini yaratib berishi kerak, shuningdek talabalarni egallagan tushunchalarini o‘quv jarayonidan davolashda uzluksiz ishlatilishi va rivojlanish sharoitlarini yaratib berish kerak. Natijada «Bolalik» pedagogika asosida ish bo‘yicha psixologiya integratsiya kursi ishlab chiqilgan. Bularni ichida quyidagi ma’noli qatorlar yotadi: - ish bo‘yicha bosqichma-bosqich texnologiyasi; - bolalikni turli davrlardagi tarbiya va bilim olinishining texnologiyasi; - bolalikni turli davrlardagi shaxsni shakllantirishi va rivojlanishining psixologik-pedagogik diagnostikasi; - shaxsiy-o‘zlashtirish texnologiyalari; Agar psixologik-pedagogik bilimlar integratsiyasini o‘z-o‘zidan yaratilgan xolat emas, balki psixologik-pedagogik sikl fanlarini didaktik sintezi sifatida qaralsa; bo‘lajak o‘qituvchini shakllanishiga salbiy yoki ijobiy ta’sirini bilish texnologiyaning samaradorligini qay darajadaligi aniqlanadi. Bu xolatda vujudga kelgan bilimga baho berish aniqlash sistemasi mukammal deb hisoblamaydilar va bu pedagogik monitoringga murojat etishga majbur qiladi. Psixologik monitoring psixologik- pedagogik integratsiyasini xar tomonlama kuzatishga imkon beradi. Pedagogik monitoring yordamida psixologik-pedagogik integratsiya jarayonini baholash uchun, umumiy pedagogik baholash tizimlaridan foydalaniladi. Bularga uzoq davom etuvchi metodlari, bilimlar metodi, tekshirishning turli hil usullaridan. Asosiy ishlab chiqarilgan bilim monitorin prinsiplarining besh turi mavjud. Bularga uzluksizlik, ilmiy, tarbiya, taxsis kuyish, ma’lumot beruvchi monitoring prinsiplarini uz ichiga oladi[3]. Shartli prinsiplar kurib chiqilib psixologik - pedagogik integratsiyani maxsus prinsiplari ishlab chiqildi. Bularga kuyidagilar kiradi: 1. Natija olish prinsipi. Bu bo‘lajak o‘qituvchining shakllanishi asosi bo‘lib hizmat qiladi. Kuzatuvning baza komponentilari: - har hil o‘zning rivojlanishi boshkichining aniqlashni bilish. - variantli holatlarda tajriba qarorning tanlashni bilish. - o‘z-o‘zlikni korreksiya qilishi uchun rang-barang metodlardan foydalanishni bilish. - bilim olish xolatini kuchaytirish uchun xotira, qabul qilish, iroda, nutq, fikrlash qirralarini ishlata bilish. -istak, odat, qiziqishga bog‘liq xolda natijani oldindan bilish. 2. Bilim berishi didaktik prinsipi. Bu prinsip kuyidagi komponentini uz ichiga oladi. - integratsiya bilimlarini etapma-etap shakllanishi metodlarini optimal va to‘g‘ri yo‘nalgan birligi. - ilmni rivojlanishining boschkichlarini hisobga olgan holda o‘quv prinsiplarini dinamikasi va dialektikasini to‘g‘ri yo‘naltirishga. - pedagogik birlikka amal qilishni o‘z ichiga oladi. Demak, bu prinsipni ustunligi, bilim olishlarini tizimliligi va boshqarish yo‘li bilan integrativ xarakterni xususiyligini uz ichiga oladi. 3. Tizim integragal yondashuv prinsipi. Bu prinsip quyidagi komponentini o‘z ichiga oladi. - jarayonni nafaqat qator elementar yig‘indisini. - tomonlar hususiyati sifatida. - sifatli yangiliklar birligi sifatida qarashini o‘z ichiga oladi. Spetsefik ma’lumotni qayta ishlab chiqarishi o‘z ichiga fikrlash, taqqoslash, nisbiylik effektiv prinsiplarini oladi. Shuning uchun pedagokning fikrlashish ijodiy izlanishlar ko‘rinishida bo‘lishi kerak. O‘rganilayotgan ob’ektni ob’ektiv ko‘rinishini beruvchi diagnostik muolajalarini izlash kerak. 4. Butunlik prinsipi o‘rganilayotgan bilimning, kamida uchta yo‘naltirilgan jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi jarayonni nazarda tutadi. Monitoring

vaqtida bir qancha ko‘rinishiga ega bo‘ladi, ular ichida: - talabalarni yakka xolda imkoniyat darajasini shakllanishiga qarab bilim berish va o‘qitish maqsadlari. - ma’lumotlar bloklarni metodik uzatish. - bilim jarayonini oxirgi natijalari. - o‘qituvchining professional pedagogik tayyorligini inteaktiv qirralari. Psixologik - pedagogik jarayoni monitoringini aniq ob’ektini tanlashda, biz monitoringni pedagogik va boshqaruv qaror komponent ma’lumot tizimlarini elementi degan hulosaga kelamiz. Bundan chiqqan holda pedagogik monitoring bo‘shliqni o‘z vaqtida aniqlab shakllangan bilim bilan o‘z vaqtida berilgan jarayonni to‘g‘rilash yo‘li bilan to‘ldirish imkoniyatini beradi. Psixologik-pedagogik tartibli integratsion jarayonni samaradorligi va tizimli, integrallashgan bilimni shakllanishi haqida to‘liq ma’lumot olish uchun, quyidagi kuzatishlarni berilgan yo‘nalishlar buyicha tashkillashtirish kerak: - talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishga psixologik tayyorligini o‘rganish; - bilim olishga tayyorgarlik darajasini aniqlash;

- faktlar, xolatlar, konunlar haqidagi bilim doirasini aniqlash; - pedagogik jarayon, o‘qituvchilik mehnatiga motivatsion va emotsional munosabatini aniqlash; Talabalarning kasb tanlashida bu indikator juda katta ahamiyatga ega. Bu indikator orqali bo‘lajak o‘qituvchini o‘qitish va bilim berish jarayoniga munosabatini aniqlash mumkin. Psixologikpedagogik tartibli o‘qitishning integratsion jarayonni texnologik ta’minlanuvini analizi, o‘qituvchini bilim berish metodlarini, usullari va formalarini to‘liq aks ettirishga yordam beradi. Pedagogni professional kompitentlikgini rivojlantirishda axborotni professional bilimdonlik darajasini aniqlashda yordam beradi, psixologik-pedagogik bilimlarni integratsiya protsessini tashkillashtirishda o‘qituvchini ilmiy yondashishiga integratsiya bilimlarini mukammal bilishiga yordam beradi. Pedagogni psixologik sifatlardan temperament, jins va yosh sifatlari xarakatchanlik va nerv sistemasi mustahkamligi, emotsional mustahkamlik, fantaziya va hayolni yuqori darajaliligi, intellektual rivojlanishni qabul qilish, fikrlash bo‘yicha darajaga ega bo‘lishi lozim. Bu sifatlarda quyidagi ko‘rsatgichlar kuzatiladi: bilimlarni mustahamlash, amaliy va bilimdonlik masalalarini yechishda bilimlarning faolligi, yangi xolatlarda bilimlarni qo‘llash, bilimlarning miqdori, yangi situatsiyalarda bilimlarni mustahkamligi va qo‘llanilishi, professional moslashuv strukturasi, intellektual rivojlanish dinamikasi, o‘qish protsessidan qonikish, bilim olishni shaxsiy ma’nosi. Pedagogika oliy ta’lim muassasasining muhim masalalaridan biri bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilariga aqliy faoliyat usullari yordamida ta’lim berishdir. Aqliy faoliyat usullariga fikriy tasavvur va tafakkur usullarini umumlashtirish, mavhumlashtirish va boshqalar kiradi. Xususiydan umumiyga umumlashtirish usuli (induktiv yo‘l bilan), masalan, quyidagi amallar tartibida aks etishi mumkin: a) topshirilgan predmetlarni solishtirish; b) ularning har biri uchun umumiy bo‘lgan barcha belgilarni ajratish va nomini aytish; v) predmetlarni ushbu belgilarga ko‘ra birlashtirish. Umumlashtirishni didaktik yo‘l bilan amalga oshirilgan holatda (umumiydan xususiyga) bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari tushunchani tanlab olishi va umumiy belgilarini aytishi lozim. Yangi topshiriqlarni

hal etishga ongli ravishda ko‘chirib o‘tkazish aqliy faoliyat usulini o‘zlashtirganlik ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Aqliy faoliyat usullari o‘quv ishlari usullari bilan uzviy bog‘liqdir. O‘quv ishlari usullari muayyan amallar, ko‘rsatmalar, tavsiyalar, qoida va hokazolar tartibi ko‘rinishida ifodalanadi. Ularning masalasi muayyan masalalarni hal etishda bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari tashabbusini bo‘g‘may, umumiy yo‘nalish berishdadir. Xulosa qilib aytganda, pedagogik-psixologik asoslari, o‘qishning alohida va jamoa shakllarini uyg‘unlashtirish, ta’limda tabaqalashtirilgan yondashuv, bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining faoliyatini o‘rganilayotgan kasb hususiyat-larini, o‘qiyotganlarning hoxishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ko‘rilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kukushin V.S.Boldiyreva A.V. Pedogogika na’chalnogo obrazovaniya “Mart” 2005g.
2. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo‘llanma Toshkent-2005y.
3. Shorustamova D.S. Boshlangich ta’lim darslarini integratsiyalashda pedagogik psixologik yondoshuv.Magstir akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T. 2014y.
4. Sh.A.Qayumov “Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi” Monografiya. T.: Ziyo chashmasi. 2023. 109 b.

SAMARALI BOSHQARUVGA TO‘SQINLIK QILUVCHI SHAXS XISLATLARI

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi” dotsenti p.f.n.,
dotsent **Rejametova Irada Ikramshikovna**

Nizomiy nomidagi TDPU Xarbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xolimqulov Anvar Rahimqulovich

Biznes boshqaruvi sohasidagi olimlar M.Vudkok va D.Frensis bir qancha menejerlar faoliyatini o‘rganib va quyidagi ichki to‘siqlar menejer faoliyatining samarasini pasaytiradi, deb hisoblaydilar:

1. O‘z-o‘zini boshqara olmaslik. Rahbar hayoti hayajon va zo‘riqishlarga to‘la. Bunday sharoitda xulqda aniq maqsadning yo‘qligi nafaqat jamoa faoliyatiga, balki rahbarning sog‘ligiga ham salbiy ta’sir etadi.

2. Shaxsiy qadriyatlarning shakllanmaganligi. Rahbar doim qaror qabul qilish vaziyatida bo‘ladi. Vaholanki, qaror samarasi shaxsiy qadriyatlar, kasbiy va hayotiy tamoyillarga asoslanadi, ularning shakllanganligi rahbar faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Masalan, zamonaviy boshqaruv samaradorlik, xodim imkoniyatlarini ochishga ko‘mak, tashkilotga yangilik olib kirishga moyillik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Mustahkam qadriyat va tamoyillarga asoslanmagan rahbar beqarorlik va maqsad yo‘lida irodasizlikni namoyon etadi.

3. Shaxsiy maqsadning aniq ifodalanmaganligi. Zamonaviy rahbar muhimni nomuhimdan ajrata olishi, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay bilishi kerak. Tashkilot maqsadini chuqur anglash yo‘lidagi birinchi qadam rahbarning o‘z shaxsiy maqsadlarini yaxshi tushunib yetishidir. O‘z maqsadini aniq bilgan rahbargina uning faoliyatiga qo‘yilayotgan talablarni jonu diliga singdira olishi mumkin. Shaxsiy maqsadning noaniqligi tashkilot manfaati yo‘lidagi maqsadlarni ham anglab olishga xalaqit beradi. Aniq maqsadning yo‘qligi shaxsning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini pasaytiradi va demak, bunday rahbar, o‘zgalarning muvaffaqiyatini ham his eta olmaydi.

4. Kamolotga intilishning yo‘qligi. O‘z ustida ishlashdan bosh tortgan rahbar qaltis vaziyatdan o‘zini olib qochadi, o‘z imkoniyat va qobiliyatini rivojlantirish ustida ishlamaydi, tavakkalga bormaydi va eski, odat tusiga kirgan xatti-harakatlari dorasidan chiqolmaydi.

5. Muammoni yecha olmaslik. Ayrim rahbar muammo ustida sifatli, muntazam va aql-zakovat bilan ishlay olmaydi. U vazifa maqsadini aniqlash, ma’lumot to‘plash, rejalashtirish va nazoratni amalga oshirish malakasiga ega emas. Natijada hal etilmagan masalalar to‘planadi va rahbarning muammoni hal etish imkoniyati cheklanib qoladi.

6. Ijodiy yondoshuvning yetishmasligi. Ixtiroga moyilligi bo‘lmagan rahbar yangi g‘oyalarni taklif etolmaydi, o‘zgalarda mehnatga bo‘lgan ijodiy yondoshuvni

uyg‘ota olmaydi. Bunday rahbar tajribadan, jamoa hayotiga yangilik kiritishdan o‘zini chetga oladi yoki yangiliklar ustidan kuladi. Yuksak ijodiylik to‘siqni yengib o‘tishni va qiyinchilikka bardosh berib maqsadga intilishni taqozo etadi.

7. Itoatidagi xodimlarga ta’sir etolmaslik. Rahbar o‘z qo‘li ostidagi xodimlarga ta’sir etishi lozim. Lekin, ayrim rahbar o‘z xodimlariga suyanolmaydi va buning o‘rniga ular haqida salbiy fikrda yuradi. Bunday rahbar o‘z intilishida muntazam emas, atrofdagilar bilan yaqin muloqotga kirishmaydi va o‘z ichki dunyosini yaxshi ifoda etolmaydi.

8. Boshqaruv faoliyati xususiyatini yaxshi bilmaslik. Boshqaruv faoliyati samarasi haqida ma’lumotga ega bo‘lmas ekan, rahbar o‘z malakasini shakllantira olmaydi. Boshqaruvga o‘z yondoshuvini tahlil etolmaydigan rahbar fikr va topshirig‘ini ham xodimga tushuntirishi qiyin. Bunday rahbar xodimlari u haqda nima deb o‘ylashi bilan qiziqmaydi, o‘z xodimlarini tashabbusga chaqirishi mushkul, ayniqsa topshiriqlar berishga qiynaladi.

9. Boshqaruv malakasining sustligi. Tashkilotdagi xodim va rusurslarni boshqarish uchun ko‘pgina ko‘nikmalar zarur bo‘lib, ularni rahbarlik qobiliyatlari deyish ham mumkin. Boshqaruv sust bo‘lgan jamoada vaqtni behuda o‘tkazish, xodimlarning o‘z imkoniyati darajasida ishlamasligi, mehnatdan qoniqmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Bunday guruhda rol taqsimoti sust, mehnatni tashkil etishda behudalik ko‘p, o‘zaro munosabatlar esa – qoniqarsiz. Bunday jamoada rahbarning mehnati qadrlanmaydi va psixologik muhit sog‘lom emas.

10. Itoatidagi xodimlarda mehnat malakasini shakllantira olmaslik. Har bir rahbar vaqti-vaqti bilan ustoz sifatida xodimga ish xususiyatini o‘rgatadi. Xodimning kasbiy qobiliyatini rivojlantira olmaydigan rahbar, o‘z jamoasi mehnatini yuksak darajaga olib chiqolmaydi. Bu holda xodim o‘z mehnati natijasi haqida rahbardan hech qanday fikr eshitmaydi, rahbarning bahosi va tavsiyasi rasmiy tus oladi.

11. Jamoa tashkil etishdagi sust qobiliyat. Maqsadga erishish uchun rahbar, xodimlar bilan birlashishi va ularning malakasidan foydalanishi lozim. Ishchi guruhi malakali va unumli jamoaga aylanmasa, rahbar mehnati qiyin kechadi va faoliyati

ham unumsiz bo‘ladi. Bunday jamoalarda unumli mehnat mexanizmlari shakllanmaydi va nosog‘lom muhit hukm suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya muammolari. Toshkent, «Universitet» nashriyoti, 1999.
2. Uchebnoe posobie / Pod red. A.B. Nepomnyaщego. Stavropol: ZAO Pressa, 2005. –289 s.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность.Сознание личность. – Москва: Смысл Академия, 2005. – 352 с.
4. Душанов Р. Х., Фарфиев Ё. А. Касбий психология: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – 284-б.
5. http://www.voppsy.ru
6. http://flogiston.ru/arch

JAMOANI SHAKLLANTIRISGDA KORPORATIV MADANIYATNING TA’SIRI

A.Qodiriy nomidagi JDPU, o’qituvchisi Shoxida Axmedova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korxona yoki firmalarning muvaffaqiyatga erishishida korporativ madaniyat va strategiya integratsiyasining ahamiyatliligi asoslab berilgan. Maqolada korporativ madaniyat o’z nomi bilan jamoa bilan shakllanadigan madaniyat hisoblanadi va korxona yoki tashkilotning strategiyasi bilan bog’liq holda muvaffaqiyatli maqsadlarga yetaklashi, korporativ madaniyat orqali hodimlar qanday oqimda harakatlanish kerakligi, ma’suliyatsiz xodimlarni ishdan bo’shatish va norozigarchiliklarni oldini olish aynan rahbar strategiyasiga, rahbar madaniyatiga, korporativ madaniyat ta’siri rahbar faoliyatiga bog’liqligi asosli yoritilgan.*

Annotation: *In this article, the importance of the integration of corporate culture and strategy in the success of enterprises or firms is justified. In the article, corporate culture is a culture that is formed with a team and leads to successful goals in connection with the strategy of an enterprise or organization, how employees should move through corporate culture, and how to prevent irresponsible employees from being fired and dissatisfaction. strategy, leader's culture, influence of corporate culture on leader's activity is explained.*

Kalit so'zlar: *korporativ madaniyat, strategiya, integratsiya, texnologiya, dinamik muhit, individual, instink, zona, innovatsiya.*

Keywords: *corporate culture, strategy, integration, technology, dynamic environment, individual, instinct, zone, innovation.*

Korporativ madaniyat tushunchasiga bugungi kunda hech kim yangi tushuncha sifatida qaramaydi. Chunki ushbu tushunchaning mazmun mohiyatini biz turli ko'rinishlarda qadimdan ko'rib , guvohi bo'lib, va hattoki, subyekti sifatida qatnashib kelmoqdamiz. Korporativ madaniyat o'z nomi bilan jamoa bilan shakllanadigan madaniyat hisoblanadi va korxona yoki tashkilotning strategiyasi bilan bog'liq holda muvaffaqiyatli maqsadlarga yetaklaydi. Har bir tashkilot strategiya asosida faoliyatini olib boradi. Strategiya bu - korxona yoki tashkilotning maqsadlari, vazifalarini izchilligini, puxtaligini ta'minlaydi.[54]

Korporativ madaniyatning tashkilot faoliyatiga ta'siri qanday? Ma'lum bir ishni qilishdan maqsad uning samaradorligiga erishishdir. Samaradorlik tashkilotning madaniyati, strategiyasi, atrof muhit(tashqi muhit), texnologiya(ichki muhit) muvofiqligini talab qiladi.[55]

Ko'pchilik rahbarlar va ta'sischilar ko'pincha yangi madaniyatlarni harakatga keltiradi va bu yillar davomida saqlanib qolgan qadriyatlar va

[54] A.V.Kvachko " bozorning korporativ madaniyati" 12- 16-betlar
[55] Boris Groysberg, Jeremiah Lee,jesse Price , J.Yojud Cheng "the leader's guide to corporate culture" 23, 28 pages

an’analarni o’z ichiga oladi. [56] Ba’zi holatlarda vaqtlar o’tishi bilan tashkilot rahbari ongli va ongsiz harakatlar orqali madaniyatni shakllantirishlari mumkin. Albatta ba’zida kutilmagan oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Har qanday kompaniyaning muvaffaqiyatida korporativ madaniyat o’rni unga yuklatilgan vazifalar orqali belgilanadi. Ushbu vazifalarga:

- *Ichki muhitda muvozanatni saqlash;*
- *Harakatlarga turtki yaratish;*
- *O’zini qayta tiklash;*
- *Yangi kelgan xodimlarni tarbiyalash; va hokozo*[57]

Hamma yangi muhitga ilk marotaba kirganda o’zini begonadek his qilishi tabiiy hol. Ammo vaqt bizga ta’sir qiladi va atrofdagi vaziyatlarni huddi o’zimiznikidek qabul qilamiz. Agar kompaniyaning korporativ madaniyati shakllantirilmagan yoki xodimlar orasida tarqalmagan bo’lsa, individual madaniyatlar o’rtasidagi nomutanosiblik natijasida ishdagi samarasizliklar ko’payishi mumkin. Natijada kompaniya o’zining harakatchangligini yo’qotadi va korporativ madaniyat dolzarbligiga ta’sir qiladi. Yangicha madaniyatni singdirish yoki o’zlashtirishni yuqori qismdan boshlash lozim. Sababi quyi bo’gin katta qismni tashkil etgan joylarda yangicha madaniyatni tatbiq etish ko’plab norozigarchiliklarga sabab bo’lgan va bular natijasida ayrim holatlarga kutilgan natijaning aksi kuzatilgan. Bu jarayonni quyi bo’gindan boshlash juda ko’p mehnat va vaqtni talab qilgan.

Korporativ madaniyat ta’siri rahbar faoliyatiga bog’liq, chunki madaniyatni boshqarish mumkin.[58] Uning nafliligini oshirish va xavflarni minimallashtirish aynan rahbarning qanday ishlashini aniqlashdek muhim qadam hisoblanadi. Chunki to’g’ri yo’lga qo’yilgan korporativ madaniyat eng qiyin paytlarda ham gullab yashnaydigan tashkilot qurishga yordam beradi.

---

[56] Boris Groysberg, Jeremiah Lee,jesse Price , J.Yojud Cheng “the leader’s guide to corporate culture” 34 ,36 pages

[57] Liz Ryan “how important is corporate culture? It’s everything” 8,9 pages

[58] A.V.Kvachko “ bozorning korporativ madaniyati” 23- 30-betlar

Madaniyat guruh a'zolarining fikrlari va harakatlarini uzoq muddatga yo'naltirishi mumkin. Jamoaviy madaniyat shakllangan korxona yoki firmada demokratik munosabatlar va yangicha qarashlar ko'lami keng bo'ladi. [59]

Madaniyat bu – kuchli farqlovchi va kuchli quroldir. Mijozlarni o'ziga qaratishni xohlagan korxona yoki tashkilot o'zining kuchli qurolini ishga soladi va o'ziga xosligini namoyon qiladi. Jamoaviy madaniyat kishilarni birlashtirar ekan, birlashishda bir birini to'ldiruvchi kuchli tomonlar asosida yangi madaniyatni loyihalash integratsiyasini tezlashtirishi va vaqt o'tishi bilan ko'proq qiymat yaratishi mumkin.[60]

Madaniyatni maqsadga maqsad ko'lamini esa, liderlarga bog'lang va maqsadli madaniyatga mos liderlarni tanlang, ularni qo'llab quvvatlang va rivojlantiring. Agar har qanday kompaniya tizimlari, tuzilmalari va jarayonlari muvofiqlashtirilsa, intilish madaniyati va strategiyasini qo'llab - quvvatlasa, yangi madaniyat uslublari va xatti- harakatlarini rag'batlantirish va o'zlashtirish ancha osonlashadi.[61] Kuchli madaniyat xodimlarda ishga bo'lgan mehr- muhabbat va rohatlanish hissini uyg'otadi. Yuqori yetakchilar o'z madaniyatlarini kuchli tomonlarini muvaffaqiyatli maqsadlar qo'yish uchun nimalar qilish kerakligini muhokama qilishadi.

Korporativ madaniyat boshqaruv dastagi kabidir. Chunki maqsadga yo'naltirish rahbarni dastakni qanday ushlashiga bog'liq.

Korporativ madaniyatni maqsadga yo'naltirish bizga nima beradi? Avvalo bizda bloklanib qolgan eskicha qarashlarni yo'qotish, keraksiz qoidalarga cheklovlar va asosiysi munozara , o'sish uchun qulay muhitdir. Shaxsiy fikrim asosida shuni aytolamanki, yangicha madaniyatni shunday shakllantirish kerakki, haqiqatni aytish taqchilligi bo'lmasin, eshitishni xohlagan narsalarimizni emas,

[59] Boris Groysberg, Jeremiah Lee,jesse Price , J.Yojud Cheng "the leader's guide to corporate culture" 34 36 pages
[60] Entoni Giddens "sotsiologiya" Toshkent 2002 76-78-betlar
[61] Toshiyuki Sawai & Yoshinori Hirai "corporate governance code revisions set to drive Japan's ESG and sustainability push" 2021 july 23 page

to’g’ri bo’lgan , haqiqat bo’lgan narsalarni eshitishga odatlanaylik. Shunday qilib korporativ madaniyat o’zgarishlarga va tashqi ta’sirlarga tobora chidamli bo’lib, o’zini o’zi mustaxkamlaydigan ijtimoiy modeldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A.V.Kvachko “ bozorning korporativ madaniyati”
2.Boris Groysberg, Jeremiah Lee,jesse Price , J.Yojud Cheng “the leader’s guide to corporate culture”
3.Liz Ryan “how important is corporate culture? It’s everything”
4.Entoni Giddens “sotsiologiya” Toshkent 2002
5.Toshiyuki Sawai & Yoshinori Hirai “corporate governance code revisions set to drive Japan’s ESG and sustainability push” 2021 july

TA'LIM OLUVCHILARNING O'QUV-BILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Soibnazarova Muqaddas Norpo‘latovna katta o‘qituvchi Jizzax davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA: Ushbu mavzuda Insonparvarlik bilan bog‘liq masalalar jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida odamzod, xalqlar va millatlarning vijdoni bo‘lgan mutafakkirlar, allomalar, olimu fuzalolarning falsafiy qarashlari haqida.

Tayanch so'zlar. O'quv-bilish kompetensiyasi, mustaqil bilish, bilish faolligi, o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim, metod, ta'lim, dars, bilim olish, shaxsiy xususiyat.

В данной статье освещаются педагогические условия формирования учебно- познавательной компетентности обучающихся в современном образовательном процессе, самостоятельного осуществления ими познавательной деятельности, деятельности, способствующей росту познавательной активности, саморазвитию, самостоятельному обучению.

Ключевые слова. Учебно-познавательная компетентность, самостоятельное познание, познавательная деятельность, саморазвитие, самостоятельное обучение, метод, обучение, урок, приобретение знаний, личностный характер.

This article highlights the pedagogical conditions for the formation of educational and cognitive competence of students in the modern educational process, their independent implementation of cognitive activity, activities that contribute to the growth of cognitive activity. self-development, and independent learning.

Key words: Eucational and cognitive competence, independent cognition, cognitive activity, self-development, independent learning, method, learning, lesson, knowledge acquisition, personal character.

Zamonaviy ta'lim tizimining eng asosiy vazifalaridan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirishni ta'minlovchi o'quv-bilish kompetentsiyalarini shakllantirish hisoblanadi. O'quv-bilish kompetensiyasi - bu, bilish faoliyatining ko'nikma va malakalar majmuasi: shaxsiy faoliyati muvaffaqiyati uchun rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya, o'z-o'zini baholash mexanizmlarini egallash; nostandart vaziyatlarda, muammolarni evristik metodlar bilan yechishda faoliyat metodlarini egallash; o'lchash malakalarini egallash, bilishning statistik va boshqa metodlaridan foydalanishdir.

O'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish funksiyalari quyidagilardan iborat:

-ta'lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini mustaqil amalga oshirish, o'quv maqsadlarini qo'yish, ularga erishish uchun zaruriy vosita va metodlarni topish, ulardan foydalanish, jarayonni va faoliyat natijalarini nazorat qilish hamda baholash imkoniyatlarini ta'minlash;

-uzluksiz ta'limga tayyorgarligi asosida shaxsning garmonik rivojlanishi uchun va ularni o'zi amalga oshirish uchun sharoit yaratish;

-har qanday predmet sohasida bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, ko'nikma, malaka va kompetentligi shakllantirishni taminlash.

Ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan zamonaviy talablar hamda yangilangan ta'lim mazmunining hayotda to'laqonli o'rnini topib, kutilgan natijalarni berishi uchun tajriba- sinovdan o'tkazishi, uning natijalari asosida takomillashtirilishi, undan keyingina amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiq.

O'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda ta'lim oluvchilarga individual yondashish katta ahamiyatga ega. Uni amalga oshirishning vositalaridan biri bu, har bir ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyat va imkoniyatlariga qarab ta'lim, berishdir.

U bilim va ko'nikmalarning har bir ta'lim oluvchi tomonidan mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlashga, uning bilish kompetensiyasini hamda bilimni mustaqil topa bilishini shakllantirishga, bu bilimni turli amaliy masalalarni yechishda ijodiy ishlata bilishni o'rgatishga qaratilgan jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi ro'l

o'ynaydi. O'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim oluvchilarni topshiriqlar mazmuni bilan tanishtirish, uni bajarish bo'yicha tushuncha berish, kichik guruhni shakllantirish;

- tasavvur qilish: ta'lim oluvchining bilish haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantirish;

- egallash: bilimlarni egallash hamda mustahkamlash jarayonini amalga oshirish; takomillashtirish: ta'lim oluvchilarning bilish kompetensiyalarini shakllantirishni amalga oshirish, bilimlarini chuqurlashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish;

- yakuniy: ta'lim, oluvchilarni mustaqil ish bajarishga tayyorlash va bilimlarini shakllantirishni amalga oshirish.

Dars jarayonida ta'lim oluvchilar bilish faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq. Ularning eng asosiylaridan biri o'qituvchi ta'lim oluvchilarni o'z faniga qiziqtira olishidir. Bu yerda faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tatakkur va iroda kabi funksiyalariga ijobiy to'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi tomonidan darsda va darsdan tashqari vaqtlarda ta'lim, oluvchining mustaqil izlanishga va yangi bilimlarni o'z xohishi va qiziqishlari asosida o'rganishga, muammoli jarayonlarni o'zi hal etishga intiladigan nostandart vaziyatlarni yaratilishi kerak.

O'quv faoliyatida bir xil metodda axborotlarga asoslangan bilim berish yana boshqa bir metodda esa faqat harakatlardan iborat bilim berish jarayoni ham zerikishni, befarqlikni vujudga keltirishi mukin. Ta'lim oluvchilarda fanni o'rganishga, o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda fanlarni o'rganishning zarurligi, inson hayotida katta ahamiyatga egaligi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun bilim olish kerakligini ta'lim oluvchilarga tushuntirish muhim jarayon hisoblanadi. O'rganilayotgan mavzu oldingi o'rganilgan bilimlar bilan hamda ta'lim, oluvchining kundalik faoliyati, yashash tarzi bilan aloqadorlikda bog'lab tushuntirilsa, bu jarayon shunchalik ta'lim oluvchilarga qiziqarliroq bo'ladi.

O'quv materialini ta'lim oluvchilarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham ularni darsga qiziqtirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Ta'lim oluvchilarni bajargan ishlarini tez-tez nazorat qilish bilan birga nafaqat kamchiliklarini balki ta'lim oluvchining yutug'larini aytib rag'batlantirish ham ta'lim pluvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini oshiradi va fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Darsda mustaqil ishlarning amalga oshirilishi ta'lim, oluvchining erkinligini ta'minlaydi, ishchanlik qobiliyatini oshiradi, diqqatini jamlay olish qobiliyatini tarbiyalaydi, xulqini yaxshilaydi.

Mustaqil ishlar jarayonida ta'lim oluvchi mustaqil o'ylashga o'rganadi. Mustaqil o'ylashga o'rgangan ta'lim, oluvchilar o'zlari bilimlarni mustaqil tarzda egallashi hamda muammolarni tahlil qila olishi mumkin.

Shuning uchun ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash operatsiyalari (tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, klassifikatsiyalash va b.q)ni shakllantirish;

- ularning bilish faoliyatiga qiziqishlarini;
- ta'lim oluvchining maqsadga erishishda faolligi, mustaqilligi, tirishqoqligini stimullashtirish;
- fanlar bo'yicha o'zlashtirishlarini muntazam nazorat qilish;
- darslarda ta'lim, oluvchilar mustaqil ishlari elementlarini keng joriy etish bilan o'qitish metodlarining xilma xilligi;
- ta'lim, oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash shaklini takomillashtirish; ularga individual yondashuvni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridir.

  Shu bilan birga, ta'lim, oluvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga fundament bo'luvchi tarkibiy fikrlash operatsiyalari (ta'riflash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va b.q.) ni o'zlashtiradi:
- ta'riflash - tushunchaning ahamiyatini aniqlaydi, asosini topadi, bu tushunchani boshqa tushunchalardan farqini ko'rsatadi, ta'riflash rejasini aytadi;
- tahlil qilish obyektni, tahlil qilishdan ko'zlangan maqsadni aniqlaydi, muhim qismlarga fikran ajratadi, bo'laklar orasidagi bog'lanishlarni ko'rsatadi, mantiqiy bog'lanishni aniqlaydi, solishtiradi;
- taqqoslash - ularning kamchiliklarini topadi, asosiy belgilarini ajratib oladi, farqli belgilarini topadi;
- umumlashtirish - maqsadni aniqlaydi, obyektning asosiylarini ajratib oladi, ularni taqqoslaydi, umumlashtirish natijasida xulosa chiqaradi;
- xulosa chiqarish - hodisaning yuz berish sababini hamda uning o'ziga xosligi nimada ekanligini aniqlaydi, hodisaning yuz berishini tekshiradi: hodisa har

doim takrorlanib turadimi yoki bir marta kuzatiladimi, hodisaning yuz berish sababi qaysilar, berilgan hodisaning yuz berishiga sabab bo'lgan faktorlarni bir tizimga keltiradi.

Yuqoridagilarga tayangan holda, ta'lim, oluvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ularning mustaqil bilishlariga, bilish faolligining o'sishiga, o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ta'limga yordam beruvchi faoliyat (o'quv-boshqaruv, o'quv- axborot, o'quv-mantiqiy) metodlarini o'zlashtirishga imkon beradi.

Demak, ta'limm oluvchilarda faoliyatning barcha turlari - bilish doiralarining takomillashishiga to'sir ko'rsatadi, o'z yechimlariga nisbatan mustaqillik va tashabbuskorlik yuzaga keladi, o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar / O'quv uslubiy qo'llanma. – T.: Fan, 2000.130 b.
2. Хуторский А.В. Современная дидактика: Учебник для вузов. СПб: Питер, 2001.- 544 с.
3. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. 206 b. 20.
4. Ernazarova G.O. The oretical basis of preparation of future teachers for professional pedagogical activity Academic Research in Educational Sciences, 3(1), 1057-1065. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-1- 1057-1065

STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASI HOZIRGI KUNDAGI O‘RNI

A.Qodiriy nomidagi JDPU, o’qituvchisi Shoxida Axmedova

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM texnologiyasining ta'lim jarayonidagi o'rni, amaliyotda tadbiq etishdagi jarayonlar, STEAM ning amaliyot bilan bog'liqligi, tajriba o'tkazish xonalarining tashkil etilishi va ko'zlangan maqsad, texnologiyaning bola hayotidagi ahamiyati va uning xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Abstract: In this article, the role of STEAM technology in the educational process, the processes of its implementation in practice, the connection of STEAM with practice, the organization of experiment rooms and the intended purpose, the importance of technology in the life of a child and its features are given in general. information provided.

Kalit so'zlar: STEAM, texnologiya, innovatsion metodlar, laboratoriya, intallekt, salohiyat, tafakkur, axborot kommunikatsiya

Keywords: STEAM, technology, innovative methods, laboratory, intelligence, potential, thinking, information communication.

Ta'lim sohasiga e'tibor yanada kuchaytirilgan bir vaqtda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bugungi kun ta'limining eng asosiy innovatsion metodi va istiqbolli texnologiyasi bu - STEAM texnologiyasidir. Ko'pgina ta'lim tashkilotylarida ta'limning sifat samaradorligini oshirish maqsadida STEAM texnologiyasidan maqsadli foydalanib kelinmoqda. Ta'lim oluvchilar uchun olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, tajribalar o'tkazish maqasadida laboratoriyalar va LEGO markazlari yaratilmoqda.

STEAM texnologiyasi ta'limi murakkab ko'ringani bilan uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda, tushunarli va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin: S - science - tabiiy fanlar, T - technology – texnologiya, E - engineering – muhandislik, A - art - san'at, M - math - matematika.

STEAM texnologiyasi asosida ta'limning tashkil etilishi, kelajakda bolaning innovatsion tadqiqotlarni mustaqil ravishda amalga oshira olishiga turtki bo'ladi.Qaysi sohalarni olmaylik muvofaqiyat qozonish uchun bilimlarni talab etadi va aynan STEAM texnologiyasi bu maqsadga erishishda yordam bera oladi. Bu metod aynan nazariya va amaliyotni birga olib borish imkonini beradi va bilimlarga asoslanish, bilimlardan o'rinli foydalanish, mustaqil muvoffaqiyatga erishish, o'z imkoniyatlaridan zavqlanish imkon beradi. STEAM texnologiyasi barcha ta'lim

tashkilotlarida faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu texnologiyani ta'limda qo'llanilishining maqsadi faoliyat jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, bolalarni ilmiy salohiyatini oshirish va texnik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyati bilan intellektual qobiliyatini, ijodkorligini rivojlantirishdir.

STEAM texnologiyasi maktabgacha ta'lim va maktab yoshdagi bolalarni tarbiyalashda eng qulay dasturdir. Dasturda bolalarga ma'lum bir tartib, ma'lum bir standartlar belgilab qo'yilmagan. Faqatgina bola o'zi mustaqil ravishda, erkin, tajribalarga asoslanib, o'zi bajarib ko'rib natijaga erishish, his etib, fikrlab, idrok etib bajarish kerak bo'ladigan tamoyillarga tayanadi. Ushbu ta'lim dasturi L.S.Vygotskiyning "To'g'ri tashkil etilgan ta'lim - bolani rivojlanish sari yetaklaydi" ilmiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan dastur. STEAM dasturida maktabgacha ta'lim tashkilotlaida maxsus tajriba ya'ni laboratoriya xonalari tashkil etib, bolalarni beihtiyor ta'limga jalb etib, faoliyat davomida ularning innovatsion tadqiqotchilik va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. STEAM dasturi asosida tashkil etiladigan barcha faoliyatlarda bolaning faolligi muhim sanaladi. STEAM dasturida qandaydir bir g'oya, qanday bir tushuncha va fikrlar aqlning rivojlanishi uchun asos bo'la olmaydi. Bola barchasini amaliyotda o'zi qo'llab, natijaga o'zi guvoh bo'lishi, aniqroq qilib aytganda bajarib his etib ko'rishi lozim. Chunki faoliyatda manipulyatsiyalash va integratsiyalashgan haqiqiy zamonaviy muhit va uning axborot-kommunikatsiya qismi, va ular bilan birga olib borilga tajribalar bolani ta'limga jalb etadi va qiziqishini oshiradi. Bu esa o'z navbatida sifat va samaradorlikni yaxshilaydi. STEAM dasturida bolalar bilan tajribalar tashkil etishda doimo bolalarning yosh jihatlari inobatga olinishi faoliyatdagi har bir jarayonlar oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishi lozim. Ushbu tamoyilga amal qilinsagina, bola uchin qiyunchilik tug'dirmaydi, oson, qulay, qiziqarli, eng asosiysi bolaga mustaqil ravishda tajribalarni amalga oshirish imkonini beradi. STEAM texnologiyasining ta'limdagi muvaffaqiyati shundan iboratki, STEAM ta'lim oluvchiga borliqni anlab, olgan bilimlarini amaliyotda tadbiq qila olish, tajribalar

o'tkazish, olgan natijasidan faxrlanish, his etish, yangisida intilish, tadqiqodchilik salohiyatini beradi.

STEAM texnologiyasi 3 yoshdan 11-yoshgacha bo'lgan bolalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual salohiyatini oshirish, tadqiqotchilik qobiliyatni amaliyotga rivojlantirish, yaratish uchun tajriba maydonchasidir. STEM texnologiyasi dasturining maqsadi bolalarning bilim faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilishdir. Dasturni rivojlantirishning kutilgan natijalari: Bola ulg'aygan sari tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarida faollashadi, qiziqish bilan namoyon bo'la boshlaydi, savollar bera boshlaydi, o'rtoqlariga va o'ziga, natijada ta'sir munosabatlarini o'rnatadi. Bolalar tabiatan tomosha qilish, tajriba qilish, jonli tabiat, tabiatshunoslik, matematika va boshqa sohalardan boshlang'ich g'oyalarni faol ravishda shakllantirishga moyil. STEAM dasturida bola har tomonlama intellektli, rejalashtirish, tanlash qobiliyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Turli tadbirlarda o'z bilim va ko'nikmalariga tayanib, o'z qarorlarini qabul qilishga, turli faoliyatda ya'ni o'yin, muloqot, ta'limiy va tadqiqot faoliyatlarida mustaqillikni namoyon qila boshlaydilar.

STEAM dasturining samaradorligini yanada kuchaytirish maqsadida ta'lim tashkilotlarida bolalarni ta'limga, ixtirolarga bevosita jalb etuvchi maxsus tajriba xonalari, to'garaklar, intellektual salohiyatini yanada oshiruvchi ijodiy musobaqalar, o'yinlar, har bir faoliyatni axborot kommunikativ texnologiyalar asosida olib borish orqali bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta'limi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda loyihalar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va bolaning o'ziga mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va butun umri davomida qo'llay olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.V. Grosheva, L.G. Yevstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V. Pak, G.E. Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2018. 1-81-b;

2. Т.С. Волосовес, В.А. Маркова, С.А. Аверина. СТЕМ-образование детей дошколного и младшего школного возраста. М. Бином. Лаборатория знаний 2019.

3. G.Bogdanovich. Dopolnitelnaya obщerazvivayuщaya programma "Multstudiya Moy mir" Sverdlovskaya oblast, 2018 g.

4. Master-klass dlya pedagogov "Sozdanie multfilmov vmeste s detmi" M., 2018.

«ПОЭТИЧЕСКИЕ АССОЦИАЦИИ И СВОЕОБРАЗИЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГАФУРА ГУЛЯМА И МАРКА ТВЕНА».

Абдумуминова Махлиё Окмирза кизи

преподаватель ДЖГПУ факультета русского языка и литературы

Аннотация

Статья посвящена анализу поэтических ассоциаций и своеобразия в произведениях узбекского писателя Гафура Гуляма и американского автора Марка Твена. Исследуется, как оба автора используют образы природы, народной мудрости и социальные символы для выражения своих философских и социальных идей. В статье рассматриваются особенности их стилей: Гулом обращается к традиционным темам родной культуры и патриотизма, а Твен — к критике социальных порядков через юмор и сатиру. Работа выявляет ключевые отличия в подходах двух писателей к созданию поэтического языка и их влиянию на читательскую аудиторию.

Annotation

The article is dedicated to the analysis of poetic associations and uniqueness in the works of Uzbek writer Gafur Gulom and American author Mark Twain. The study examines how both authors use images of nature, folk wisdom, and social symbols to express their philosophical and social ideas. The article explores the distinctive features of their styles: Gulom focuses on traditional themes of national culture and patriotism, while Twain emphasizes social criticism through humor and satire. The work identifies key differences in the approaches of the two writers in creating poetic language and their impact on the readership.

Annotatsiya

Maqola Gafur G‘ulom va Mark Tven asarlaridagi poetik assotsiatsiyalar va o‘zgacha xususiyatlarga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotda har ikki muallifning tabiat, xalq hayoli va ijtimoiy ramzlar orqali o‘zining falsafiy va ijtimoiy g‘oyalarini qanday ifoda etgani tahlil qilingan. Maqolada ularning uslubiga xos xususiyatlar ko‘rib chiqiladi: G‘ulom o‘z xalqining an’anaviy mavzulari va vatandoshlikka e’tibor qaratadi, Tven esa humor va satira orqali ijtimoiy tartibni tanqid qilishga alohida ahamiyat beradi. Maqolada ikki yozuvchining poetik tilini yaratishda asosiy farqlar va ularning o‘quvchi auditoriyasiga ta’siri orasidagi farqlar aniqlanadi.

Ключевые слова: Поэтические ассоциации, Гафур Гулом, Марк Твен, литературный стиль, народная мудрость, природа, социальная критика, патриотизм, юмор, сатира, философия, культурные образы, литературный анализ.

Key words: poetic associations, Gafur Gulom, Mark Twain, literary style, folk wisdom, nature, social criticism, patriotism, humor, satire, philosophy, cultural images, literary analysis.

Kalit so’zlar: poetik assotsiatsiyalar, G‘afur G‘ulom, Mark Tven, adabiy uslub, xalq hayoli, tabiat, ijtimoiy tanqid, vatandoshlik, humor, satira, falsafa, madaniy tasvirlar, adabiy tahlil.

Гафур Гулям и Марк Твен — два выдающихся писателя, чьи произведения оказали значительное влияние на мировую литературу. Несмотря на различия в культурных контекстах, литературных традициях и языках, творчество этих авторов объединяет несколько ключевых аспектов, среди которых поэтические ассоциации и своеобразие их стиля. В данном исследовании рассматриваются особенности поэтического языка Гафура Гуляма и Марка Твена, а также влияние их ассоциаций на восприятие их произведений читателями.

Гафур Гулом (1903–1966) — один из самых значимых представителей узбекской литературы, чье творчество охватывает как поэзию, так и прозу. Его поэзия наполнена глубокими философскими размышлениями о жизни, родной земле, культуре и традициях. Одним из характерных приемов поэта является использование природных образов, символизирующих связь человека с миром. Ассоциации, возникающие при чтении стихов Гуляма, часто связаны с образом родной природы, национальной идентичности и исторического наследия.

Природа у Гуляма не только фоновый элемент, но и важный символ внутреннего мира человека. Например, реки, горы, поля могут быть использованы как метафоры для обозначения судьбы, пути человека, его духовной силы. В стихах часто встречаются образы, связанные с народной мудростью — старинными поговорками, историческими событиями, которые служат мостом между прошлым и настоящим, между личным и коллективным.

Марк Твен (1835–1910), американский писатель и сатирик, также использует поэтические ассоциации, но его стиль несколько отличается от стиля Гуляма. Твен известен своим юмором, иронией и острыми социальными комментариями. Однако в его произведениях также присутствует большое количество ярких и запоминающихся образов, которые служат как метафоры для более глубоких тем.

Наиболее ярко поэтические ассоциации Твен проявляет через образы природы — реки, леса, открытые пространства. Эти образы символизируют свободу, возможность выбора, а также душевное очищение. Например, в романе «Приключения Гекльберри Финна» река Миссисипи становится не

просто фоном, а важным символом путешествия и личного освобождения главных героев. Река в произведениях Твена часто ассоциируется с идеей поиска свободы и самопознания, что является важной темой американской литературы того времени.

Кроме того, Твен активно использует ассоциации для критики социальных порядков и отношений в обществе. Его произведения, такие как «Приключения Тома Сойера» и «Янки из Коннектикута при дворе короля Артура», наполнены народным языком и образами, которые подчеркивают различия между классами, а также социальную несправедливость. Твен использует ассоциации с реальностью для того, чтобы создать метафоры, которые поднимают вопросы морали и социальной ответственности.

Хотя и Гафур Гулом, и Марк Твен использовали поэтические ассоциации, их подходы и стили имеют значительные различия. Гулям в своей поэзии часто обращается к национальным темам, передавая дух своего народа через традиционные образы, которые ему близки. Его стихи часто просты и ясны, но они глубокие и наполненные философским смыслом. Он использует природу и народную мудрость как средства для выражения своей любви к родине, уважения к культуре и стремления к духовному просвещению.

Марк Твен, в свою очередь, более склонен к сатире и иронии. Его стиль — это сочетание юмора и трагизма, что позволяет ему вскрывать недостатки человеческой природы и общества. Твен использует народный язык и создаёт такие образы, которые заставляют читателя задуматься о моральных ценностях и социальной справедливости. Его произведения полны динамичных описаний, ярких характеров и наглядных символов, что делает их как развлекательными, так и глубоко социальными.

Своеобразие каждого писателя можно понять через их индивидуальные подходы к использованию языка, образов и тем.

Гафур Гулям в своей поэзии часто сочетает народную поэтику с элементами современного стиля, создавая тем самым уникальную форму, которая отражает народные ценности и в то же время стремится к инновации. Его лирика полна

эмоциональной силы, она обращена к внутреннему миру человека, к его чувствам и переживаниям, что придает его стихам особое звучание и глубокий философский смысл.

Марк Твен отличается своим мастерством в создании ярких, многослойных персонажей, использующих народный язык, и в сочетании юмора с глубокой социальной критикой. В произведениях Твена, таких как "Приключения Гекльберри Финна" и "Приключения Тома Сойера", поэтические ассоциации возникают через образы природы, рек, лесов, которые служат фоном для его сатирических наблюдений о человеческой природе и социальной несправедливости.

В то время как Гулям обращается к глубоким духовным ценностям, культивируя любовь к родной культуре и историческому наследию, Твен склонен к более критическому и юмористическому взгляду на общество, часто используя остроумие и иронию, чтобы выразить свои мысли о социальном устройстве и человеческой природе.

Поэтические ассоциации у Гуляма часто связаны с народной жизнью, природой и патриотизмом, тогда как у Твена — с образами свободы, приключений и социальных проблем.

Таким образом, в произведениях Гафура Гуляма и Марка Твена поэтические ассоциации и своеобразие раскрываются через разные культурные и исторические контексты, а также через индивидуальные стилистические особенности авторов. Гулом создает мир, полный символов и образов, отражающих духовное богатство своей культуры, в то время как Твен, через остроумие и сатиру, исследует проблемы общества и человеческой природы**.**

Произведения Гафура Гуляма и Марка Твена демонстрируют разные подходы к использованию поэтических ассоциаций и имеют своеобразие в восприятии реальности. Гулям через образы природы и народной мудрости выражает философские и патриотические идеи, в то время как Твен использует природные и социальные образы для критики существующих порядков и выражения идей свободы и моральной ответственности. Оба автора, несмотря

на различие в подходах, достигают мощного эмоционального и интеллектуального воздействия на читателя через свои уникальные стили и поэтические ассоциации.

Список литературы

1. Балдицын П. В. Творчество Марка Твена и национальный характер американской литературы. - М.: «ВК», 2004. - 300 с.
2. Марк Твен (Сэмюэль Клеменс). Приключения Тома Сойера / Художник Анатолий Елисеев, перевод Корнея Чуковского. - М.: Самовар, 2004. - 205 с.
3. Мендельсон М. О. Марк Твен. - М.: Молодая гвардия, 1964. - 430 с.
4. Мунарова Р.У. Интеллектуальное воспитание личности//«Современная филологическая образовательная парадигма: концепции, поиски, решения» Международная Научно-Практическая Конференция (Джизак, 26-27 Апреля 2024 Года) С. 461-464
5. Абдумуминова М.О. Метод интеграции на уроках русского языка и литературы // Научный вестник ТГПУ 4/2024
6. Абдумуминова Махлиё Окмирза кизи //Образные художественные средства в романе Марка Твена "Приключения Тома Сойера"// " СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ” МЕЖДУНАРОДНЫЙ СБОРНИК НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ КОНФЕРЕНЦИИ. // Джизак. 2024

SHARQDA HARBIY XIZMATCHI SHAXSINING AXLOQIY-IRODAVIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARINI O‘RGANILISHI VA UNING ILMIY AHAMIYATI

Zohirov Nodirbek Ulug‘bekovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, leytenant.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharqda harbiy xizmatchilardagi axloqiy-irodaviy sifatlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda uning namoyon bo‘lishida harbiy ritual(marosim)larning ahamiyati xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Harbiy xizmatchilar, axloqiy-irodaviy sifatlar, jasorat, qahramonlik, harbiy ritual(marosim) va boshqalar.

Аннотация: В данной статье говорится о взаимозависимости нравственных и волевых качеств военнослужащих и значении воинских ритуалов (церемоний) в ее проявлении.

Ключевые слова: Военнослужащие, морально-волевые качества, мужество, героизм, воинский ритуал и др.

Abstract: This article talks about the interdependence of the moral and volitional qualities of military personnel and the significance of military rituals (ceremonies) in its manifestation.

Key words: Military personnel, moral and volitional qualities, courage, heroism, military ritual, etc.

Qadimgi davrga nazar tashlab ko‘rar ekanmiz, harbiylarning jangovar ruhi, axloqan yuksakligi hamda ulardagi irodaviy sifatlarning ijobiy shakllanganligi har bir mamlakatning mudofaa salohiyatini barqarorlashtirib kelganligiga amin bo‘lamiz. “Axloq - so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe’lini tabiatini anglatadigan xulq so‘zining ko‘plik shaklidir. Axloq-jamiyat inson, zamin ba’zan insoniyat tarixiga namuna bo‘la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xattiharakatlar yig‘indisi, inson kamoloti darajasini belgilagan ma’naviy hodisadir”[62]. Iroda esa odamning ichki va tashqi intilishlari, imkoniyat va

[62] Abdulla Sher. “Axloqshunoslik”. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, - Toshkent: 2010.

salohiyatini maqsad yo‘lida safarbar etish, qat’iyat bilan harakat qilish, sinov va mashaqqatlarni yengib o‘tishga, har qanday sharoitda ham ruhiy muvozanatni saqlashga asos bo‘ladigan ma’naviy fazilat. Odam iroda tufayli turli havoyi, keraksiz hoy-u havaslardan voz kechadi, o‘z hayot yo‘lini belgilab oladi. Iroda inson ma’naviy faoliyatining yuksak bosqichi bo‘lib, uning har qanday murakkab vaziyatda ham o‘z sha’niga munosib holda aql-idrok, aql-zakovat bilan ish tutishga undaydi. Iroda orqali inson o‘z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini qat’iy nazorat qilib turadi, turli ma’naviy va moddiy qiyinchiliklarga bardosh beradi. Psixologik nuqtai nazardan insonning turli qiyin va murakkab vaziyatlarda mardlik ko‘rsatishi ham bevosita uning irodasiga bog‘liqdir. Irodaning axloqiyligi hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to‘sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi. Irodaning ahloqiyligi deganda odatda kishi o‘z oldiga qanday maqsadlar qo‘yilishi, bu maqsadlarga qanday vositalar bilan erishishi, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli kelib chiqishi va ma’lum bir qarorga kelishida qanday tamoyillarga amal qilishni nazarda tutamiz. Irodaviy harakatlarda kishining axloqiy xislatlari namoyon bo‘lsa, iroda kuchi ijobiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, kishilarning axloqiy hislarlari haqida fikr yuritilganda aytilgan so‘zlarni emas, balki ularning ma’naviy qiyofasini ko‘rsatadigan irodaviy harakatlarni nazarda tutamiz. Shuning uchun kuchli irodaning mardlik, o‘zini tuta bilish, sabot-matonat, chidam va jasurlik kabi xususiyatlari irodaning axloqiy sifatlari deya e’tirof etiladi. Shulardan xulosa qilib quyidagicha ta’rif ishlandi: Axloqiy-irodaviy sifatlar bu shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadi sari paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday to‘siqlarni faqat ijobiylikka tayangan holatda, o‘zidagi qat’iyatlilik, sabr-toqat, mardlik, dadillik, jasorat ko‘rsatib, yengib o‘tishiga aytiladi[63].

Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxs shakllanishi, unga ta’lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxs tomonidan xulq-atvor me’yorlarining

[63] N.Zohirov., Muallifdan.

o‘zlashtirilishi masalalari borasida qimmatli fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz o‘z asarlarida iroda va irodaviy sifatlarning shakllanishi, bu sifatning shaxs kamolotidagi ahamiyati yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiyning fikriga ko‘ra, har kim o‘z irodasiga bog‘liq xatti-harakatlarni bajarishga qodir bo‘lsa, ruhan va tabiatan xayrli amallar va sharr (yomon) ishlar tomon o‘z irodasini yo‘naltira oladi. Shu sababli har bir insonda fazilatli xatti-harakatlar yoki razolatli fe’l-atvor tug‘diradigan iste’dod mavjud bo‘lib, u har ikkisidan birini bajarishga qodirdir.

Abu Nasr Forobiy o‘zining asarlarida insonlardagi chidamlilik, sabr-matonat, bardoshlilik kabi xislatlarni ma’naviy kamolotning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatadi. Shaxs ma’naviy jihatdan kamolga yetishida avvalo ruhan pok, turli ichki qarshiliklarni yenga oladigan, sabotli inson bo‘lishi kerakligini uqtiradi[64].

Abu Rayhon Beruniyning inson turmushiga xos bo‘lgan xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari psixologik nuqtai nazardan ham qiziqish uyg‘otadi. Alloma inson kamolotida iroda va irodaviy sifatlarning o‘rni beqiyos ekanini o‘z asarlarida qayd etadi. Ayniqsa, shaxs o‘zidagi ijobiy va salbiy xulq-atvor me’yorlarini idora qilishi, o‘zini o‘zi nazorat qila olishi hamda boshqara olishida iroda va irodaviy sifatlar yaqqol namoyon bo‘lishiga alohida urg‘u beradi[65]

Unsurulmaoliy Kaykovus “Qobusnoma” asarining engoxirgi bobida juvonmardlik haqida so‘z yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch turga bo‘ladi: aql, rostlik va juvonmardlik. Juvonmardlikning asosini Kaykovus uch narsada deb biladi:1) aytgan so‘zining ustidan chiqish, ya’ni rostlik; 2) rostlikka xilof qilmaslik; 3) xayrishini ilgari tutish.Kaykovusning fikricha, insondagi boshqa barcha xislatlar shu uch narsaga bog‘liq bo‘ladi. Alloma juvonmardlikning ustunlarini (ruknlari) quyidagilarda deb ko‘rsatadi: jasurlik, mardlik, sabr-matonat, va’daga vafo qilmoq,

[64] Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov: ma’sul muharrir: A.Jalolov. –T: «Yozuvchi», 2001. –64 b

[65] To‘raqulov E., Raximov S. Abu Rayxon Beruniy ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1998. – 78 b

pok dil va pok zabon bo‘lmoq, asirlarga ziyon yetkazmaslik, bechora kishilarga madad berib, yomonlarning yomonligini yaxshilardan yiroq tutish, rostgo‘ylik, yaxshiga yomonlik qilmaslik, ziyon-zahmatdan saqlash, odamlarga ham ziyon-zahmat yetkazmaslik, juvonmard sipohiylar esa sabr-bardosh bilan ish tutishi, saxiylik, to‘g‘riligu haqshunoslik, pok kiyinish, yaxshi qurollanish zarurligini qayd etadi.Kaykovus o‘zining asarida shaxs xususiyatlari, o‘zini o‘zi nazorat qilish, iroda borasida ilgari surganfikrlarida, avvalo, inson o‘zida ijobiy sifatlarni shakllantirishi, salbiy odatlardan o‘zini tiya olishi lozimligini uqtiradi.

Jaloliddin Davoniy shijoatkorlikni insonning aqlga bo‘ysunishi deb biladi: “Shijoatkorlik aqlning buyrug‘i bilan sodir bo‘ladi, uning maqsadi (ijobiy) fazilatlarni egallash bo‘lgandagina, u haqiqiy bo‘ladi”. Demak, uningcha, inson qachonki shijoatkorona xatti-harakat qilmoqchi bo‘lsa, u, albatta, aqlning buyrug‘i va zaruratiga asoslanishi kerak. Jaloliddin Davoniy insonlar irodaviy sifatlariga ko‘ra individual farqlarga ega bo‘lishini uqtiradi. Xususan, g‘azab quvvati to‘g‘risida shunday yozadi: “Ba’zilar tez g‘azabga keladi va tez jahllaridan tushadilar, ayrimlar sekin-asta g‘azablanib, tez jahldan tushadilar, ba’zilar esa tez g‘azablanib, uzoq vaqt jahllaridan tushmay yuradilar”. Jaloliddin Davoniy g‘azab turlari ichida eng yaxshisi deb eng oxirgisini tan oladi.Jaloliddin Davoniy kishilarning salbiy ruhiy holatlarini muvozanatlashtirish (me’yorlashtirish) mumkinligiga ishonadi, ularga yaxshi maslahat berish, so‘z orqali ta’sir etish, ularni jazo va mehnatga undash yo‘li bilan tarbiya qilsa bo‘ladi, deb hisoblaydi[66].

Shubhasiz, shaxsda irodaviy sifatlarning shakllanishi borasida yuqoridagilardan tashqari Davoniy tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, alloma tomonidan shaxsning ijobiy sifatlari sirasiga kiritilgan shijoatkorlik, qanoat, sabr-toqatni tarbiyalash hozirgi kunning muhim talablaridan biri ekanligini tan olmoq kerak.Shunday qilib, shaxs kamolotida xulq-atvor me’yorlarini tarkib toptirish, shuningdek, irodaviy sifatlarni rivojlantirish o‘ta muhim ekanligi Sharq mutafakkirlari tomonidan e’tirof etilgan.

[66] Aliqulov H., Omonboyeva R., Jomiy va Davoniy ta’lim -tarbiya haqida. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 1999 -60 b.

Shu bois, allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy merosda ilgari surilgan g‘oyalar bugun yoshlarni nafaqat aqlan, axloqan, balki irodasi kuchli, sabotli, har qanday vaziyatda o‘zini o‘zi boshqara oladigan, nazorat qila oladigan shaxs qilib tarbiyalash uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan bilishimiz mumkinki, sharq allomalari nafaqat shaxsda balki harbiy xizmatchilardagi tarbiyaning, turli xil tayyorgarliklarning tub negizida ham axloqiy-irodaviy sifatlar yotadi degan qarashlarni ham ta’kidlab o‘tishgan.

Diniy hamda dunyoviy bilimlar asosida bildirib o‘tilgan fikrlar hamda qarashlar haqiqatdan ham harbiy xizmatchilar axloqiy-irodaviy sifatlari mazmun-mohiyatini ochib beradi desak, o‘rinli albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” VM 1059 son Qarori. – T.: – 2019 yil 31 dekabr.
2. Брихин М. Воля и волевые качества // Психология личности и социалистическом обществе. – М.: 2001. – 340 с.
3. Davila J. Marriage // Encyclopedia of Stress In 3 vol. / Ed. By G. Fink. Vol. 2. SanDiego: Acad. Press, 2000.
4. Висоцкий А.И. Возрастная динамика волевой активности школьников и методы ее изучения: Автореф. докт. дис. Л: 2002. – 40 с.
5. Иванников В.А. Психологические механизмы волевой регуляции М.: 1998. – 218 с.
6. Ильин Е.П. Психология воли. СПб: Питер, 2009. – 324 с.

HARBIY XIZMATCHILARDA PSIXIK O‘ZINI – O‘ZI BOSHQARISHNING GENDER XUSUSIYATLARI

M.R.Qiyomxo‘jayeva,
O‘zRJXU
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik
ta’minlash kafedrasi o‘qituvchisi

Zamonaviy davrda psixik o'zini o'zi boshqarish psixologiya fanida asosiy muammolardan biri bo'lib, uning ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. Ayni vaqtda yuz berayotgan tartibsiz axborot hurujlari oqimida, globallashuv davrida, shaxsning o'zini o'zi boshqarish psixologiyasi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki inson har doim ham hissiy va xulq-atvor resurslarini boshqara olmaydi, ayniqsa keskin o'zgarishlar, dunyodagi turli tahdidlar, insoniyatni odatiy hayot tarzini buzadi, bu uning hayotini barcha sohalarida, xususan, oilada, professional xizmat faoliyatida jamiyatdagi turli jarayonlarda sodir bo‘ladi. Psixologik o'zini o'zi boshqarish kundalik hayotning ko'plab jabhalariga, jumladan, ijtimoiy vaziyatlarga, shaxsiy salomatlikni boshqarishga, impulsivlikni boshqarishga va boshqalarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan o‘zini o‘zi boshqarish bu shunday xususiyatki, bilim va tajribalardan foydalangan holda maqsadga erishish uchun xatti-harakatlarimizning qonuniyatlarini o‘zimizga bo‘ysundirishimiz hisoblanadi. Ya’ni, psixikamizning barqarorligi, reaktsiyalarimiz va xatti-harakatlarimizning ongli ravishda boshqarishimizni tushunishimiz kerak bo‘ladi ya’ni, hissiy-emotsional holatidan kelib chiqib amalga oshiriladigan xatti-haraklar inson uchun o‘zini o‘zi boshqarishining obyekti hisoblanadi. Aynan inson o‘zini psixik holatini boshqarayotgan vaqtda o‘zini o‘zi boshqarish tushunchasi bilan to‘qnashamiz.

Inson faoliyatiga nisbatan psixik jarayonlarning funktsiyalarini tavsiflab, B.F.Lomov o‘zini o‘zi boshqarish atrof-muhitni adekvat darajada aks ettirish va voqelikka munosabat bildirishning universal mexanizmi, bo ‘lib, faoliyatdagi psixik

jarayonlarning roli deb tushuntirib, bu voqelikni aks ettirish jarayonlari bo‘la turib uni boshqaruvini ham ta'minlaydi, ya’ni, psixikamizning predmet, shart-sharoitlar, vositalarga nisbatan adekvatligi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, inson faoliyatidagi psixikaning asosiy funktsiyalari kognitiv va regulyativ funksiyalar hisoblanadi."[67].

Psixik o‘zini o‘zi boshqarish ikki turga bo‘lingan bo‘lib, (emotsional va jismoniy) tashqi olamdagi qo‘zg‘atuvchilar ta’siridagi gomeostazning, asab tizimining ularga nisbatan javob reakstiyasi bizning psixomotorikamiz qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Emotsional o‘zini o‘zi boshqarishga quyidagilar kiradi:

1) relaksatsiya;

2) vizuallashtirish;

3) o‘zini o‘zi ishontirish.

Aynan relaksatsiya paytida o‘z ichki ovozni eshitish, o‘z organizm va tafakkur faoliyatini aloqasini his etish mumkin. Relaksatsiya yoki bo‘shashish tana va ruhni keraksiz zo‘riqishdan hamda odamni bo‘shashtirib yuboradigan jihatlardan ozod qilishni bildiradi, u insonga foydali psixologik va fiziologik ta’sir ko‘rsatadi.

Dunyo statistikasiga ko'ra psixik o'zini o'zi boshqarish muammosini o'rganish eng katta ehtiyoj davri XX asrga to'g'ri keladi. Masalan, Birinchi Jahon urushi davrida AQSh armiyasida 100 ming kishi psixologik stress va jangovar stresslardan aziyat chekkan, Ikkinchi Jahon urushi davrida esa, 1 million kishini tashkil etgan. Koreya urushi vaqtida amerikaliklarning qaytarib bo'lmaydigan psixologik yo'qotishlari har 1000 askar uchun 4 tani, Vetnamda esa 7 tani tashkil etgan. Isroilning Livanga qarshi tajovuzi davrida Isroil askarlari va ofitserlarining 9% kuchli psixologik beqarorlik va jangovar faollikni yo'qotish tufayli tizimdan chiqarilishiga sabab bo‘lgan. Amerikalik psixologlarning baholashiga ko‘ra, yadroviy portlashni boshdan kechirgan qismdan harbiy xizmatchilarning 12-15% harakat qilish qobiliyatini saqlab qoladi, 75% vaqtincha va 10-15% asab tizimining buzilishi tufayli uzoq vaqt davomida jangovar qobiliyatini yo'qotadi. Shuningdek, AQSh psixologlari Evropadagi zamonaviy urushda barcha yo'qotishlarning 50%

[67] Монина Г. Б., Раннала Н. В. Тренинг «Ресурсы стрессоустойчивости». СПб.: Речь, 2009.

gacha psixogen bo'lishi mumkinligini taxmin qilinadi.

Harbiy xizmatchilarning etarlicha yuqori psixologik barqarorligi va ularning psixik o'zini o'zi boshqarish usullari va uslublariga egaligi, ta'sirlanganlarning yarmidan ko'pi 1-3 kundan keyin xizmatga qaytarilishi mumkin deb hisoblanadi. Yuqoridagi statistik ma'lumotlar psixik o'zini o'zi boshqarish dolzarb ekanligini ko'rsatadi va mazkur muammoni maxsus psixologik usullar nuqtai nazaridan o‘rganishga alohida ahamiyat qaratish zarur.

Bilamizki, shaxs o‘zini o‘zi boshqarishining mohiyati psixomotor reaksiyalarni boshqara olishi bilan baholanadi. Umuman olganda shaxsdagi faoliyat bog‘liq bo‘lgan psixikaning asosiy vazifalari kognitiv va regulyativ ya’ni, emotsional va jismoniy hisoblanadi.

Shaxs o‘zini o‘zi boshqarishi yuqorida ta’kidlaganimizdek psixomotorikaning operant vazifalarini rivojlantirishdan iborat. Soda qilib tushuntiradigan bo‘lsak, psixomotorika bu miyamizda paydo bo‘lgan fikr muskul harakatlari orqali yakunlanishini anglatadi. Shuyerda aytishimiz kerakki, har qanday tashqi qo‘zg‘atuvchi (stimul)lar ichki qo‘zg‘aluvchi (reaksi)larni yuzaga keltiradi. Operant funksiya esa stimul va reaksiya orasidagi shaxs o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmasi hissiy yoki jismoniy jihatdan namoyon etish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda ayniqsa psixik o‘zini o‘zi boshqarish muammosi har bir inson uchun xususan, harbiy xizmatchilar yanada aniqroq aytsak, milliy gvardiya tuzilmalari harbiy xizmatchilari xizmat faoliyatida o‘ta muhim hisoblanadi.

Psixik o‘zini o‘zi boshqarishning gender xususiyatlari bu o‘ta keng tushuncha u nafaqat erkak va ayolning jismoniy-fiziologik farqli jihatlari balki ularning psixologik xususiyatlari bilan birga ijtimoiy munosabatlardagi tengligi hisoblanadi. Fiziologik jihati erkakalarda muskul to‘qimalarining bardoshliligi bo‘lsa, ayollarda esa og‘riqqa chidamlilikning yuqoriligi bilan farqlanadi.

Psixologik jihati esa erkaklarda tushkunlikka tushish tez va boshqarilishi qiyin bo‘lsa, ayollarda isterika (jazava)ga tushish yuqori hisoblanadi. Bu jarayonlarda albatta u yoki bu jins vakillarining psixik o‘zini o‘zi boshqarish reaksiyasi onglilik ya’ni vaziyatni anglash erkaklarda sust va uzoq muddatli, ayollarda esa tez va qisqa

muddatli bo‘lishi ko‘plab genderning psixologik tadqiqotlarida o‘z aksini topganligini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida aytsak, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida psixik o‘zini o‘zi boshqarishning kognitiv jihatlariga oid tadqiqotlar uchun maxsus metodikalar yaratish va modifikatsiya qilish ishlarini kuchaytirishda yosh tadqiqotchilar birlashishsak yanada manfaatli bo‘lar edi. Sababi, stress va uning reaksiyalari shaxslararo munosabatlarda, jamoadagi jipslikda, oilada er-xotin, ota-ona va farzandlar munosabatida yordamchi mexanizm sifatida samarali bo‘lar edi.

Zero, harbiy psixologiya ixtisosliklarida o‘rganilayotgan muammolarda psixik o‘zini o‘zi boshqarish masalalarini ham kengroq qamrab olinishi zarurligini davrning o‘zi talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Киемходжаева М.Р. Копинг стратегии как фактор решения проблемы психологической саморегуляции и механизм самообороны. Научный вестник Кокандского государственного университета. Научная статья. 2024 y. 4-son. 834-842 b.

2. Конопкин О.А. «У истоков теории и научного направления психологии саморегуляции». 20 618-620 стр.

3. *П.Кратил. // Платон. Собрание сочинений в 4 т.: Т. 1. - М.: Мысль, 1994. (657стр).*

MUNDARIJA:

M.X.Rustambayev		**Kirish so‘zi**	**4**
Р.М.Махмудов С.К.Имиров		**ПРАВОВАЯ ПСИХОЛОГИЯ И ПРАВОВОЕ ВОСПИТАНИЕ КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ КУРСАНТОВ**	**6**
G‘.Z.Ikmatullayev		**HARBIY XIZMATCHILAR PROFESSIONAL ADAPTATSIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI**	**10**
М.Л.Саипова		**ЎЗ-ЎЗИНИ ТАРБИЯЛАШ – ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРДА ПСИХОЛОГИК ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА**	**14**
D.M.Mamatkulov		**HARBIY SOHADA AXBOROTNING SALBIY PSIXOLOGIK TA’SIRIDAN HIMOYALANISH MASALALARI**	**19**
С.К.Имиров		**ПРАВОВАЯ КУЛЬТУРА КУРСАНТОВ ВОЕННОГО ВУЗА ВАЖНОЕ МОРАЛЬНО-НРАВСТВЕННОЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ КАЧЕСТВО ЛИЧНОСТИ**	**23**
B.S.Xamitxonov		**HARBIY TEXNIKALARNI BOSHQARISHNI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI**	**28**
D.M.Mamatkulov		**AXBOROT HURUJLARI: «OMMAVIY MADANIYAT» VA «OVERTON TUYNIGI»**	**31**
A.A.Ne’matov		**PROFAYLING METODINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYTLARI SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI**	**37**
Sh.B.Mustafoyev		**XODIMLARDA STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI**	**42**
I.M.Xaydarov		**БЕЗОРИ ШАХС, УНИНГ ЖИНОИЙ ХАТТИ-ҲАРАКАТЛАРИНИНГ МОТИВЛАРИ ВА МАҚСАДЛАРИ**	**47**

V.A.Kroshechkin		**ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ОБРАЗЦОВО-ПОКАЗАТЕЛЬНОГО ОРКЕСТРА ПОГРАНИЧНЫХ ВОЙСК СЛУЖБЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.**	**57**
N.I.Isanov		**JAMOAT XAVFSIZLIGI TA'MINLASHDA HARBIY XIZMATCHI VA HARBIY JAMOANI PSIXOLOGIK O'RGANISHNING ASOSLARI**	**67**
N.I.Isanov		**HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY ZO'RIQISHLAR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI.**	**72**
Sh.A.Shakarboyeva		**BO'LAJAK OFITSERLARDA TOLERANTLIK NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**	**77**
N.I.Bayto'rayeva		**"TARBIYA" FANINI O'QITISHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY MASALALARI.**	**81**
Sh.M.Islomov		**HARBIY PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA KELIB CHIQISH SABABLARI**	**84**
D.I.Mustofoqulova, B.Z.Xasanboyev		**BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI KURSINING ASOSIY MAQSADI VA VAZIFALARI.**	**88**
I.A.Xasanova, ***S.I.Turdiqulova***		**YOSHLAR AGRESSIYASINI KAMAYTIRISH VA IJOBIY XULQNI RAG'BATLANTIRISH**	**92**
N.A.Ahmedova		**ТАЪЛИМНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ**	**99**
D.K.Toshmatov		**G'OFUR G'ULOMNING «SHUM BOLA» ASARIDAGI QAHRAMONNING PSIXOANALITIK VA IJTIMOIY TAHLILI.**	**102**
M.R.Bekchonov		**HARBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI O'QITISh JARAYONIDA AXLOQIY-IRODAVIY TAYYORGARLIGI**	**105**
Sh.A.Qayumov		**INNOVATSION TIZIMLAR ASOSIDA TALABALARDA SPORT VA**	**109**

		SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK STRATEGIYALARINING SHART – SHAROITLARI	
Z.A.Nomozov		**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH XIZMAT FAOLIYATIDA OLIB BORADIGAN XARBIYLARNING FUTBOL O'YINI ORQALI TEZKORLIK SIFATINI ZAMONAVIY USULLAR BILAN RIVOJLANTIRISH**	**113**
A.D.Madumarov		**MUSIQA – HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLOVCHI OMIL**	**116**
O.Sh.Yangiboyev		**HARBIYLAR JAMOASINI BOSHQARISHDA IJTIMOIY-MADANIY UNSURLARNING O'RNI**	**121**
M.T.Жалалова		**"ТЕМУРБЕКЛАР МАКТАБИ" ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ ҚИЗИҚИШЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЎЗИНИ-ЎЗИНИ БОШҚАРИШГА ЎРГАТИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ**	**122**
N.X.Mirzayev		**HARBIY SOHADA - PSIXOLOGIYA**	**126**
Sh.A.Shakarboyeva ***Sh.S.Po'latov***		**HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY SO'NISH NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI.**	**133**
M.K.Qodirova		**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IDROKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI**	**139**
M.K.Soipov		**ZIGMUND FREYDNING «PSIXOANALIZ» NAZARIYASI ASOSIDA FORREST GAMP PSIXIKASINING TAHLILI VA UNGA PSIXOLOGIK MASLAHAT.**	**147**
D.I.Mustafoqulova		**OVQAT HAZM QILISH SISTEMASI VA OVQATLANISH TARTIBI**	**150**

E.U.Ergashev		**HARBIYLAR JAMOASIDA O‘ZARO TUSHUNISH VA REFLEKSIV JARAYONLAR**	**153**
S.A.Norbo‘tayev		**HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY STRESS PSIXOPROFILAKTIKASI**	**159**
R.N.Эгамбердиев		**СОДЕРЖАНИЕ И АНАЛИЗ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДОПРИЗЫВНОЙ МОЛОДЁЖИ**	**163**
Z.R.Qobilov ***S.B.Eshtilovov***		**HARBIY XIZMATCHILAR VA KURSANTLARDA PSIXLOGIK PROFAYLINGNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MUOMMOLARI.**	**170**
M. S. Usmonova		**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH XIZMAT FAOLIYATIDA HARBIY XIZMATCHILAR IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH VA HAMKORLIK ISHLARI.**	**174**
M. S. Usmonova ***T.Azizov*** ***S.Mamarasulov***		**HARBIY XIZMATCHILAR UCHUN PSIXOLOGIK MASLAHAT BERISHNING NAZARIY AHAMIYATI**	**185**
F.M.Sadriddinova		**SHAXSNING O’Z-O’ZINI TARBIYALASH VA BOSHQARISH JARAYONI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA**	**190**
D.I.Mustafoqulova ***D.B.Doniyor o‘g‘li***		**TALABALARDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRIISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI VA AHAMIYATI.**	**193**
M.Q.Qarshiboyev		**HARBIY XIZMATCHILARDA ADDIKTIV XULQ SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK TAVSIFI.**	**197**
K.G.Tursunov		**HARBIY XIZMATCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA MOSLASHUVINING TARIXIY-NAZARIY JIHATLARI**	**200**
D.O‘.O‘ktamov		**THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN AN INDIVIDUAL’S LIFE**	**203**
U.S.Uktamova		**OILAVIY MUHITNING VOYAGA YETMAGANLAR XULQ-ATVORIGA TA’SIRI**	**211**

U.S.Uktamova		**VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA TAZYIQ VA TAJOVUZ: SABABLAR VA HAL QILISH YO'LLARI**	**216**
P.K.Shagilov		**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLAShDA HARBIY XIZMATChILARNING STRESSGA ChIDAMLILIGI ASOSIY PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA**	**222**
K.D.Ikromov		**KASBIY DEFORMATSIYANING OLDINI OLISH VA PROFILAKTIKASINI MOLIYAVIY-IQTISODIY QO'LLAB-QUVVATLASH**	**227**
K.D.Ikromov		**HARBIY XIZMATCHILARNI BOSHQARUVIDA ETNOSNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**	**220**
I.Y.Inoyatov		**"TEMURBEKLAR MAKTABI" O'QUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MA'NAVIY-RUHIY JIHATLARI**	**229**
M.K.Qodirova		**IDROKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA OMILLARI**	**234**
R.U.Munarova		**ПРОБЛЕМА КОНФЛИКТНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**	**240**
Z.K.Kuvondikov		**HARBIY KADRLARNI HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK MODELLARI**	**246**
R.U.Mamaraimova		**ПРОБЛЕМА ИЗМЕРЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЛИЧНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ПРОХОЖДЕНИЯ КОУЧИНГА**	**254**
N.S.Fayziyeva		**ПРОБЛЕМЫ ЦИФРОВОЙ И ГАДЖЕТОЗАВИСИМОСТИ У МОЛОДЕЖИ**	**259**
U.X.Safarova		**HISSIY INTELLEKT VA UNING AHAMIYATI**	**263**
N.X.Toshpo'latova		**MAKTAB O'QUVCHILARINI KASBIY**	**266**

		KAMOL TOPTIRISH	
N.X.Toshpo‘latova		**МЕНЕЖМЕНТ ПСИХОЛОГИЯСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ҚОНУНИЯТЛАРИ.**	**268**
S.A.Norbutayev		**HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY STRESS PSIXOPROFILAKTIKASI**	**272**
M.X.Usmonova		**O‘SMIRLAR XULQ-ATVORIDAGI O‘ZGARISHLAR**	**276**
S.S.Xazratqulova		**PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARI TALABALARNING HURFIKRLILIGINI KREATIVLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**	**281**
N.S.Fayziyeva		**ВЛИЯНИЕ МОБИЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ НА ПСИХОЛОГИЮ ДЕТЕЙ ПОДРОСТКОВ**	**285**
R.U.Mamaraimova		**ЖЕНЩИНА В МИРЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СПОРТА**	**290**
N.Sh.Jumanova		**PSIXOLOGIYA FANIINI O’QITISHDA FAOL O’QITISH USULLARINI TATBIQ ETISHNING AHAMIYATI**	**296**
I.M.Sulaymonov		**HARBIYXIZMATCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN AXLOQIY-RUHIY HAMDA PSIXOLOGIK ISHLAR TIZIMI VA UNING XARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIDAGI AHAMIYATI.**	**300**
Z.K.Sadirova		**HARBIY XIZMATCHILARNING O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH PSIXOLOGIYASI**	**305**
U.A.Bo‘tayev		**TA’LIM JARAYONIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**	**310**
N.Sh.Jumanova		**MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARDA MILLIY XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH YO’LLARI**	**316**
U.X.Safarova		**HISSIY INTELLEKT VA UNING AHAMIYATI**	**320**
R.B.Ne’matov		**JAMOAT XAVSIZLIGINI TA’MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILARNING AHLOQIY-RUHIY O’ZINI-O’ZI BOSHQARISH MUAMMOLARI.**	**323**
I.I.Rejametova		**STRESSNI BOSHQARISH – SHAXS XUSUSIYATI SIFATIDA**	**327**
I.I.Rejametova U.I.Abdullayeva		**O‘Z – O‘ZIGA RUHIY TA’SIR ETISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI**	**331**
A.F.Raximov		**NOSTANDART VAZIYATLARDA HARBIY XIZMATCHILARNING O‘ZINI BOSHQARISH HAMDA XIZMAT**	**333**

		FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN ZO‘RIQISH VA STRESS HOLATLARNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK USULLARI	
A.F.Raximov		**HARBIY XIZMATCHILARNING MULOQOT MADANIYATINI YUKSALTIRISH.**	**337**
A.I.Soburov		**NIZOLI VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH VA O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH USULLARI**	**342**
A.I.Soburov		**SHAXSNI O‘ZINI BOSHQARISHIDA ADAPTASIYA JARAYONINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI**	**346**
U.K.Paxratdinova		**MAKTAB O‘QUVCHILARINI ESTETIK TARBIYALASHNING AHAMYATI**	**349**
J.H.Musayev		**KONFILIKTLARNI O‘RGANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK NAZIRIYALARI, PSIXOLOGIK YONDASHUV**	**352**
D.S.Abdullajanova N.U.Zohirov		**MILLIY GVARDIYA BO‘LINMALARI HARBIY XIZMATCHILARIDAGI AXLOQIY-IRODAVIY SIFATLARNI BARQARORLASHTIRISHDA HARBIY RITUALNING AHAMIYATI**	**355**
R.X.Dushanov		**HARBIY XIZMATCHILARDA HISSIY-IRODAVIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI**	**360**
Sh.M.Norqulov		**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH XIZMAT FAOLIYATIDA HARBIY XIZMATCHILAR IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA YENGIL ATLETIKA VA SPORT PSIXOLOGIYASINI BOSHQARISHNING O‘RNI**	**366**
I.I.Rejametova A.R.Xolimqulov		**SAMARALI BOSHQARUVGA TO‘SQINLIK QILUVCHI SHAXS XISLATLARI**	**370**
Sh.Axmedova		**JAMOANI SHAKLLANTIRISGDA KORPORATIV MADANIYATNING TA’SIRI**	**373**
M.N.Soibnazarova		**TA'LIM OLUVCHILARNING O'QUV-BILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH**	**377**

Sh.Axmedova		**STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI HOZIRGI KUNDAGI O'RNI**	**381**
M.O.Abdumuminova		**«ПОЭТИЧЕСКИЕ АССОЦИАЦИИ И СВОЕОБРАЗИЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГАФУРА ГУЛЯМА И МАРКА ТВЕНА».**	**385**
N.U.Zohirov		**SHARQDA HARBIY XIZMATCHI SHAXSINING AXLOQIY-IRODAVIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARINI O'RGANILISHI VA UNING ILMIY AHAMIYATI**	**391**
M.R.Qiyomxo 'jayeva		**HARBIY XIZMATCHILARDA PSIXIK O'ZINI – O'ZI BOSHQARISHNING GENDER XUSUSIYATLARI**	**396**

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK TA’MINLASH” KAFEDRASI

“JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH MUAMMOLARI: NAZARIYA VA AMALIYOT” MAVZUSIDAGI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

2025-yil 21-fevral

Konferensiya materiallari to‘plami

Mas’ul muharrir: podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov

Texnik muharrir: leytenant N.U.Zohirov